2. Raxmatullaev N.G', Omonov H.T., Mirkomilov Sh.M. Kimyo o'qitish metodikasi. – Toshkent: (Iqtisodiyot – Moliya), 2013.



## TASVIRIY SAN'ATNI O'RGANISHDA QALAMTASVIRNING O'RNI

**Raximova Dilafuz,**  
Xorazm viloyati Urganch tumani  
15-maktabning tasviriy san'at va  
chizmachilik fani o'qituvchisi  
Telefon:+998975120095  
E-mail:dilyadilya796@gmail.com

**Annotatsiya:** Tasviriy san'at o'quvchilarning har jihatdan yetuk bo'lishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. U o'quvchilarning estetik va badiiy tarbiyasida muhim omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Tasviriy san'at, qalamtasvir, estetika, estetik va badiiy didni o'stirish, estetik tarbiya, san'at.

Qalampir - chiziqlar asosida grafika vositalari yordamida yaratilgan tasvir chizig'i. Qalamtasvir barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. Bu yo'nalishlarda haykaltaroshlik, rangtasvir, grafika, kabi bir nechta tasviriy san'at sohalarida dastlabki birinchi ishlatiladigan narsa qalamtasviridir. Rassom kuzatuvlari natijalarida ma'lum darajada asar yaratadi va uni dastlabki chiziqlar yordamida eskiz qiladi, so'ngra qalamtasvir yordamida tekislik yuzasiga dastlabki chiziqlarni tushiradi. Tasviriy san'at, shu qatori qalamtasvirida ham ma'lum qoidalar mavjud bular:

- a) shakllarning chiziqli konstruktiv tuzilishi;
- b) buyumlarning o'zaro nisbati;
- c) perspektiva qonunlari;
- d) shakllarda yorug' va soya qonuniyatlari;
- e) tasvirni metodik ketma-ketlikda “analiz” va “sintez” qilib to'g'ri bajarish.

Qalamtasvirni o'rganish istagidagi yosh rassomlarga birinchi navbatda borliqni, uzoqdagi jismni masofadan anglashni va ko'rishni o'rganishdan boshlanadi. O'quvchi naturani to'g'ri ko'rish, ko'z bilan chamalash orqali qobiliyatlarini rivojlantirishadi. Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojat qiladi. Bu holatni shunday ta'riflash mumkin “tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga ega bo'lmasin, perspektiva qonuni va qoidalariga bo'ysunadi”. Buyumlarni chiziqli konstruktiv tuzish va buyumni yaxlit shtrixlar yordamida soya-yorug' qilib ajratish rassom bir vaqtning o'zida ham hajm ham borliqdan ajrata oladi bu esa katta asarlarda chalkashmay mohirona ish olib borishga yordam beradi. kuzatishlarga qaraganda ko'p o'quvchilar katta asarni yaxlit ko'ra olmay har bir buyumni umumiy shaklda emas har bir detalni alohida qilib ishlashadi, buning natijasida borliqni anglash mohiyatini tushunishmaydi. Asarni ishlash davomida bir qoidaga amal qilish kerak:

“Umumiylikdan detalgacha va yana detaldan umumilikga” qaytib ishlasa ko'zlangan maqsadiga tez erishadi bu esa “analiz” va “sintez” qoidasi deyiladi.

Uyg'onish davrining buyuk rassomi va olimi Leonardo da Vinchi “Rangtasvir qonunlari” kitobida “Yoshlar o'zlarini ilm-fan, tasviriy san'atda sinamoqchi bo'lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqligi lozim” degan edi. Naturadan rasm chizish bo'yicha olib borilgan doimi mashqlar natijasida ko'rib, eslab qolish qobilyati rivjlanadi. Bunday mashqlar, ayniqsa, rassomchilkg'a endi qadam qo'yayotgan yoshlar uchun nihoyatda muhimdir

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Mana buyuklar» kanali
2. Internet malumotlari



## FIZIKA FANINI INTERFAOL O'YINLAR ORQALI O'RGATISH

**Ro'zmetova Nargiza Shuhrat qizi,**  
Xorazm viloyati Shovot tumani  
23-maktab fizika va matematika fani o'qituvchisi  
Telefon: +998993502203

**Annotatsiya:** maqolada sinf o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish qobiliyatiga qarab fizika fanini interfaol o'yinlar orqali o'rganishlariga yordam berish to'g'risida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** interfaol o'yinlar, ertaklar eshitish, musiqa yangi, tovushlar, tembr.

O'quvchilarni fizika faniga qiziqtirishni bir nechta usullari mavjud. Masalan, fizikani boshlang'ich kursida o'quvchilarni xalq ertaklari va matallardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bu ertak va matallar dars jarayonida, savol - javoblar, qiziqarli kechalar, fizikadan har xil mushoiralar, viktorinalar, quvnoqlar va zukkolar tanlovini o'tkazishda hamda darsdan tashqari mashg'ulotlar qo'l keladi. Ertak va matallardagi bunday obrazli o'xshatishlar fizika fanini boshqa fanlar bilan yaqinlashtirish, fizikadagi bir - biriga yaqin bo'lgan mavzularni birlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, 6 - sinfdagi boshlang'ich tushunchalarda moddiy nuqta, trayektoriya, yo'l va ko'chish, vaqt, tezlik kabi kattaliklarni tushuntirishda o'quvchilarni o'zlari uchun qiziqarli bo'lib qolgan,, Bo'g'irsoq “ ertagi orqali qiziqtirish muhim ro'l o'yanaydi. O'rmon tomon yo'l olgan bo'g'irsoq trayektoriya orqali o'rmon yo'lagidan yurib, yo'lida har xil hayvonlarga duch keladi. Qo'shiq aytib berib, vaqtdan yutadi. Bu vaqt har xil hayvonlarda har xil bo'ladi. Bu mavzularda bo'g'irsoqning shakli sababli harakatining osonligi yo'lning notekisligi harakatga salbiy ta'sir qilmaydi. Yana shunday ertaklardan Qizil qalpoqcha ” ertagi. Buvisinikiga yo'l olgan qizil qalpoqcha o'rmon yo'lagi orqali harakat qiladi. Bo'ri esa yo'lakdan yurmay, ko'chish orqali qizil shapkachadan oldin buvisinikiga yetib oladi. Bu ertak orqali ham yuqoridagi mavzularda foydalanib, o'quvchilarni fizika faniga qiziqtirish mumkin. Yoshlik chog'larida o'quvchilarni sevimli ertaklaridan bo'lgan. Sholg'om “ ertagidagi hodisalar- kuch, og'irlik kuchi, ishqalanish kuchi, tortish kuchi mavzularida foydalanish mumkin. Bobo sholg'omni torta olmagach, yordamga buvi, nabira, it, mushuk va sichqonni chaqiradi : kuchlarni qo'shilish natijasida, sholg'om ormidan jiladi. Ma'lumki, organizm muhitning harorat ( temperatura ), ravshanlik ( yorug'lik ), namlik ( absolyut va nisbiy ), havo bosimi, shovqin, elektr va magnit maydoni, radiatsiya oqimi, radiaktivlik va shu kabi fizik xarakteristikalarining o'zgarishidan darhol ta'sirlanadi. Fizikani o'rganishda o'quvchilarga biofizikaga oid materiallardan ham foydalanish mumkin. Biofizika elementlarini o'quvchilarga o'rgatishda o'qitishning turli formalaridan foydalanish mumkin : dars, ekskursiya, amaliy ish va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quvchilarning mustaqil tadqiqot olib borish faoliyati, referatlar tayyorlashi va boshqalar.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fizika fanini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar. T.2019
2. Ziyonet , rtm.uz web saytlari



**KO'PHADLARGA DOIR MASALALARNI QULAY USULDA YECHISH**

**Shermetova O'g'iljon,**

Xorazm viloyati Urganch shahri

UrDU akademik litseyi matematika fani o'qituvchisi

Telefon: +998993428309

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ko'phadlarga doir masalalarning qulay va oson yechilish usullari batafsil yoritib ko'rsatilgan.

**Tayanch so'zlar:** ko'phad, Bezu teoremasi, to'la kvadrat, eng kata va eng kichik qiymat, qoldiq, natural son.

Biz o'rganmoqchi bo'lgan ko'phadlarning muhim tushunchalari va masalalari asosan olimpiada materiallarida keng qo'llanilgan bo'lib, bunday ko'rinishdagi misollar asosan Matematikadan olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rayotganlar uchun qo'l keladi. O'ylaymizki bizning bu maqolamizdan o'zingizga kerakli bo'lgan zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lasiz degan umiddamiz.

**Ko'phadlarga doir masalalar**

Ko'phadlarga doir masalalar algebrada keng qo'llanilib, ular orqali bir qancha murakkab matematik muammolarni hal qilish mumkin. Ko'phadlarga doir muhim teoremlar ham mavjud va ulardan biri bu Bezu teoremasi bo'lib, biz keltirgan masalalarimizda ushbu teoremdan keng foydalanamiz. Buni quyidagi misollar yordamida qarab chiqamiz:

1-misol. Ko'paytuvchilarga ajrating  $(3x - 2y)^3 + (2y - 2)^3 - (3x - 2)^3$ ;

Yechish: Berilgan ifodani ko'paytuvchilarga ajratish uchun quyidagi belgilashlarni kiritib olamiz:

$$3x - y = a, \quad 2y - 2 = b, \quad 3x - 2 = a + b$$

Demak yuqoridagi belgilashlardan keyin berilgan ifoda quyidagi soddashakilga kelib qoladi.

$$\begin{aligned} (3x - 2y)^3 + (2y - 2)^3 - (3x - 2)^3 &= a^3 + b^3 - (a + b)^3 = \\ &= -3a^2b - 3ab^2 = -3ab(a + b) = -3(3x - y)(2y - 2)(3x - 2) \end{aligned}$$

Javob:  $-3(3x - y)(2y - 2)(3x - 2)$ .

2-misol.  $2x^2 + 5y^2 - 4xy - 4x - 2y + 2021$  ifodaning eng kichik qiymatini toping

Yechish: Javob: 2016.

$$\begin{aligned} 2x^2 + 5y^2 - 4xy - 4x - 2y + 2021 &= \\ &= x^2 - 4xy + 4y^2 + x^2 - 4x + 4 + y^2 - 2y + 1 + 2016 = \\ &= (x - 2y)^2 + (x - 2)^2 + (y - 1)^2 + 2016 \end{aligned}$$

Biror ifoda kvadratining eng kichik qiymati nolga teng bo'lgani uchun bizga berilgan ko'phadning eng kichik qiymati 2016 ga teng bo'ladi.

3-misol.  $x^{2021} + 3x^{2020} + 3x + 13$  ko'phadni  $x + 3$  ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

Yechish:  $x^{2021} + 3x^{2020} + 3x + 13$  ni  $x + 3$  ga bo'lgandagi qoldiqni topish uchun  $x + 3$  ni

nolga tenglab  $x$  ni topamiz va uni  $x^{2021} + 3x^{2020} + 3x + 13$  ga qo'yib hisoblaymiz. Chiqqan natija qoldiq hisoblanadi

$$x + 3 = 0$$





$$x = -3$$

$$P(x) = x^{2021} + 3x^{2020} + 3x + 13$$

$$P(-3) = (-3)^{2021} + 3(-3)^{2020} + 3(-3) + 13 = 4$$

Yuqorida foydalangan usul Bezu teoremasi hisoblanadi

Javob:4

4-misol  $a^6 + b^6$  ko'phadni  $a + b$  va  $ab$  orqali ifodalang.

Yechish:

Ifodani quyidagicha soddalashtiramiz:

$$\begin{aligned} a^6 + b^6 &= (a^2 + b^2)(a^4 - a^2b^2 + b^4) = ((a + b)^2 - 2ab)((a^2 + b^2)^2 - 3a^2b^2) = \\ &= ((a + b)^2 - 2ab)((a + b)^2 - 2ab)^2 - 3a^2b^2 \end{aligned}$$

Mustaqil yechish uchun:

1.  $x^{100500} + mx^{77} + 7$  ko'phadni  $x + 1$  ga bo'lganda 0 qoldiq qolsa,  $m = ?$
2.  $x^3 + x^2 - 13x + 7$  ko'phad  $ax^2 + bx + 98$  ko'phadga ko'paytirildi. Natijada  $x^4$  ni ham  $x^3$  ni ham o'z ichiga olmagan ko'phad hosil bo'ldi.  $a$  va  $b$  koeffitsiyentlarni toping.
3. Natural  $n$  sonda  $n^4 + 2n^3 + 2n^2 + 2n + 1$  ko'phad to'la kvadrat bo'la olmasligini isbotlang.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupov Sh., Rihsiyev B., Quchqorov O. “Matematika olimpiadalari masalari” 1,2 qismlar. T.: Fan, 2004
2. Bahodir Kamolov, Ne'matjon Kamalov. Matematikadan bilimlar bellashuvi va olimpiada masalalari. “Quvanchbek-Mashhura” MCHJ nashriyoti, 2018y
3. Abdiyev.uz web sayti materiallari.



## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

**Xudeyberganova Bibijon Kamilovna,**  
Xorazm viloyati Urgench shahar  
ixtisoslashtirilgan san‘at maktab  
internati 1-A sinf o‘qituvchisi  
Telefon: +998900021183

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘lumotlarini oshirish, darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilar dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishi hamda ahloqiy kamol topishiga ko‘maklashishi hamda sinf tashqari mashg‘ulotlarning afzalliklarida xususida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** sinfdan tashqarimashg‘ulotlar, o‘quvchilar jamoalari, o‘z–o‘zini boshqarish, g‘amxo‘r munosabat, individual jamoa.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta‘lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma‘lumotini oshirish va darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishi uchun, boshlang‘ich maktabda sinf mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o‘tkazish zarur. Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya ishlarining ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarni bilimga va mehnatga bo‘lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o‘zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta‘sir etadi. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boshlang‘ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, sinf ishlarining davomi bo‘ladi, ayrim vaqtlarda esa uni chuqurlashtiradi. Sinfdan tashqari ishlarning ikki turini bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash, bunga qo‘shimcha dars va konsultatsiyalar kiradi. Ikkinchisi, matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar. Ma‘lumki birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtda barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3-4 o‘quvchidan iborat kichkina guruhlar bilan haftada bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish asosida quyidagi qoidalar yotadi: 1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarni hisobga olgan holda o‘tkaziladi;

2. Sinfdan tashqari ish ixtiyoriylik, tashabbuskorlik prinsiplari va o‘quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o‘quvchilarning individual talablarini qanoatlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotlar murakkablashib ketsa, uni o‘tkazish uchun taxminan bir soat vaqt ajratish mumkin. Materiallar hamma vaqt o‘quvchilarning hisoblash malakalarini egallashiga muvofiq qilib tanlanadi, masalalarga kelganda esa, ular shu sinf uchun programmada ko‘rsatilgan masalalarning ko‘rinishi va tipiga qaraganda boshqacharoq bo‘lishi ham mumkin. Ziyraklik masalalari esa bu chegaradan chetga chiqishi va shuning bilan birga masala yechishni o‘rganishga muvaffaqiyatli yordam berishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi:

- bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish;
- o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyrakliklarini rivojlantirish;

### **Sinfdan tashqari ishlarning shakllari:**

-Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o‘stirish, olingan bilim va malakalarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo‘shimcha ma‘lumotlar manbai hisoblanadi.

-Sinfdan tashqari ishlarning ta‘limiy ahamiyati – o‘quvchilarga qo‘shimcha bilim, malaka va ko‘nikmalar berish.



-Tarbiyaviy ahamiyati – o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash.

Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarni erkin fikrlashga, ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkillashga, dars jarayonidagi muammoli va qiyin toshiriqlarni bajarishga ko‘mak beradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf ona tili va matematika darslarida va o‘qish darslarida, sinfdan tashqari o‘qish tartibida tashkillanadi. Bu jarayon o‘qituvchii ixtiyorida bo‘lib mavzu tanlash erkin hisoblanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni turli konkurs tadbir va to‘garaklarga jalb etish tabiat qo‘yniga sayohatlarni tashkillash kabilardan iboratdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karima Qosimova va boshqalar . Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2009.
2. Nurmatova M. Ifodali o‘qish to‘garagi. Til va adabiyot talimi. 1992 yil. 1son.
3. Jalilova M. Nematova G. Takrorlash mashg‘ulotlarini . Topqirlar bellashuvi tarzida otkazish. Til va adabiyot talimi 1994 yil 2-3 sonlari.



## TURKISTONDAGI MUSTAMLAKACHILIKNI MADANIYATGA TA'SIRI

**Xudoyberganova Sabohat,**  
Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
39-maktab tarix fani o'qituvchisi  
**Sharipova Ibodat,**  
Xorazm viloyati Bog'ot tumani  
39-maktab tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida rus hukumatining o'lkamizda olib borgan mustamlakachilik siyosatini madaniyatimizga ta'siri, ijobiy va salbiy oqibatlarini haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Mustamlakachilik, madaniy meros, O'rta osiyo O'rta osiyo xonliklar

Rossiya mustamlakasiga aylangandan song Rossiya imperiyasi Turkiston xalqini ma'naviy-madaniy jihatdan tutqinlikka solish, o'zining uzoqqa mo'ljallangan manfaatiga bo'sundirish siyosatini yuritdi. Uning mohiyati, mazmuni mahalliy xalqni uning milliy, tarixiy ildizlaridan uzib tashlash, xalqning ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo'q qilish, ruslashtirishdan iborat edi.

Turkiston general-gubernatorligining Farg'ona viloyati harbiy-gubernatori Skobelev sozi bilan aytgandai: «Millatni yo'q qilish uchun uni qirish shart emas, uning madaniyatini, san'atini, tilini yo'q qilsang bas, tez orada o'zi tanazzulga uchraydi» Turkistonda ana shunday yovuz qarashlarga mos siyosat va amaliyot yuritildi. Mustamlakachilar tomonidan o'zbek xalqining boy madaniyati talon taroj qilindi. O'zbeklarning qimmatbaho tarixiy asori atiqalari va boy yozma manbalari Peterburg va Moskvaga tashib ketildi. San'at darajasida ishlangan Muhammad Rahim taxti, Amir Temur maqbarasining naqshinkor darvozasi, undagi bitiklar, oynalar, oltin koshinglar, Ahmad Yassaviy maqbarasidagi naqshinlar, katta qozon («Nazrniyoz qozoni») turli tarixiy buyumlar, noyob kitoblar va boshqalar shular jumlasidandir.

Ma'naviyat va madaniyatning asosiy belgilaridan biri din hisoblanishini yaxshi bilgan mustamlakachilar tomonidan Islom diniga e'tiqod, ruhoniylar, masjid va madrasalar oyoq osti qildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa axolini dindan ajratgan holda o'z madaniyatini singdirishdan iborat edi. Rossiya ma'murlari musulmon muassasalari, madrasa ishlariga aralashib, ularning faoliyatini tobora cheklab bordi. Maorif va madaniyat sohasida ruslashtirish siyosati yuritildi. Turkistonlik bolalarni ruslar bilan aralashtirib o'qitish va tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va 1884-yilda Toshkentda dastlabki «rus tuzem maktabi» ochildi.

Rossiya ma'murlari yerli aholi bolalarini «rus-tuzem maktablari»ga jalb qilish, qiziqtirish uchun o'lkadagi mahalliy ma'muriyat boshqaruvida rus tilini bilganlar ishlaydi, degan talabni qo'ydilar. Bu talabdan maqsad «yerlilarda mansabga qiziqib» rus tilini o'rganish, ruslashish manfaatini uyg'otish edi. Rus tilini bilgan mahalliy aholi vakil la riga imtiyozlar yaratildi. Shu tariqa, o'lkada ish yuritish asta-sekin rus tiliga o'tkazila bordi. Mahalliy aholiga Rossiyaning ulug'vorligini ko'rsatish, yevropacha turmush tarziga qiziqtirish uchun Rossiyaning markaziy shaharlariga sayohatlar uyushtirildi. Katta yoshdagilarni, shuningdek, yoshlarni guruh-guruh qilib, Peterburg, Moskva va boshqa shaharlarga olib borib, oq podshohning qudratini, baland imoratlar, ishlab chiqarish korxonalarini ko'rsatishadi. Mustamlakachilar syo hatchilar o'z yurtiga qaytib borgach, Rossiyaning ulug'vorligi haqida vatandoshlariga so'zlab beradi, Rossiya tarkibida bo'lganidan g'ururlanadi, degan maqsadda edilar. Bu tadbirlar ruslashtirish manfaatlarini ko'zlab uyushtirilardi.

Ma'naviyat va madaniyatning asosiy belgilaridan biri din hisoblanishini yaxshi bilgan mustamlakachilar tomonidan Islom diniga e'tiqod, ruhoniylar, masjid va madrasalar oyoq osti qildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa axolini dindan ajratgan holda o'z madaniyatini singdirishdan iborat edi. Rossiya ma'murlari musulmon muassasalari, madrasa ishlariga aralashib, ularning faoliyatini tobora cheklab bordi. Maorif va madaniyat sohasida ruslashtirish siyosati yuritildi. Turkistonlik bolalarni ruslar bilan aralashtirib o'qitish va tarbiyalash g'oyasi ilgari surildi va 1884-yilda Toshkentda dastlabki «rus tuzem maktabi» ochildi. Mustamlakachilarning yerli aholi turmushiga ma'naviy-ruhiy taz yiq o'tkazish dasturida o'lka xotin-qizlarini ruscha hayot tarziga o'rga tish masalasiga alohida o'rin berilgan edi. Shu maqsadda, shaharlarda xotin-qizlar ambulatoriyalari tashkil etilib, ularda rus shifokorlari faoliyat ko'rsatdi



Albatta ushbu amalga oshirilgan ishlarning asl maqsadi o'zbek xalqiga rus madaniyatini singdirish orqali o'z madaniyatidan uzoqlashtirishdan iborat bo'ldi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, rus hukumati mustamlakachilik siyosati bosqichma bosqich amalga oshirdi. Bundan ko'zlangan maqsad esa xalqni ma'naviyatidan ayrish, o'zliklarini unutishlari uchun yangicha madaniyatni olib kelishdi. Shuni ham tan olish kerakki mustamlakachilar tomonidan o'lkaga ko'plab kommunikatsiya, texnika yangiliklari va ilm fan kirib kelganini tan olish kerak. Lekin ular yetkazgan ziyon olib kelgan yangiliklardan ancha ko'p edi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek «Bu salbiy oqibat tashqaridan olib kirilgan sivilizatsiya natijalaridan ko'ra bir necha barobar ortiq edi»

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bog'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: «O'zbekiston». 1997. 55-bet.
2. Q. USMONOV, M. SODIQOV S. BURXONOVA”O‘ZBEKISTON TARIXI” Toshkent «IQTISOD-MOLIYA»2016





## МАКТАБЛАРДА ТАСВИРИЙ SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

**Abdukadirova Muazzam Musabekovna**

Angren shahar 30-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining  
I-toifali tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi.

Tel: +998997897680

**Annotatsiya:** Maqolada tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'qitish jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi va ahamiyati muallif tomonidan keng va atroflicha yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim texnologiyasi, konseptual asoslar, axborot texnologiyalari, “Tasviriy san'at va chizmachilik” fanidan yaratilgan innovatsion pedagogik loyihalar qo'llash qonun-qoidalariga amal qilgan holda ishlab chiqilgan. Chunki, axborot texnologiyalari rivojlangan bugungi kunda yoshlarni ushbu texnologiyalardan foydalanishni bilishi zamon talabiga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayonida, o'qitishning yangi zamonaviy usul va vositalari kirib kelmoqda va ulardan samarali foydalanilmoqda. Yangi pedagogik loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqish asosida aynan shu g'oyalar yotadi.

Ma'lumki, tasviriy san'at va chizmachilik fanlarining boshqa fanlardan farqi, unda darsning sifat va samaradorligi ko'proq o'qituvchiga emas, balki o'quvchining ijodiy yondoshuviga ham bog'liqdir. Ushbu fan o'qituvchilari o'quvchilardagi ana shunday ijodiy yondoshuvni shakllantirish uchun asosiy rol ni o'ynashi kerak. Dars jarayonida turli ilg'or pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalanib, dars o'tishlari lozim deb hisoblayman va ko'proq doskadan emas balki, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Yuqoridagi loyihalar dars jarayonida qo'llanilganda o'qituvchi birinchidan vaqtdan yutadi, ikkinchidan darsning samaradorligi yanada ortadi. Chunki, mavzuni mohiyatini ochib beruvchi innovatsion loyihada ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan vazifalar o'quvchilar ko'z o'ngida misollar tariqasida o'z yechimini topadi. Uchinchidan esa o'quvchilarda fanga nisbatan qiziqish yanada ortadi. O'quvchilarning o'zida ham ana shunday loyihalar ustida ishlash turli grafik ishlarini yaratishga bo'lgan intilishi kuchayadi.

Chizmachilik darslari uchun eng keng tarqalib, ommalashgan dars turi- aralash yoki kombinatsiyalashgan darsdir. Bunda o'qituvchining, mavzuni bayon qilishi bilan bir qatorda o'quvchilar tomonidan amaliy ishlar bajarilishi ham muhim ahamiyatga egadir. Ushbu amaliy ishlar o'quvchilarga o'quv adabiyotlaridan foydalanib, olingan bilimlarni mustahkamlashga hamda uy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga ko'maklashadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga qiziqish ortib bormoqda. Bunda, asosan hozirgacha o'quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga va imkoni boricha xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bunday ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Chizmachilik fanining o'ziga xos xususiyatiga ko'ra uni o'zlashtirish uchun o'quvchilarda fazoviy tasavvurining shakllanib, rivojlanishi zarurligi talab qilinadi. O'quvchilar oldin chizish kerak bo'lgan buyum yoki predmetni oldin o'zlari tasavvur qila olishsa, o'shandagina ular o'ylagan maqsadlariga erishishadi. Shu sababli ta'lim muassasalarida chizmachilikdan o'qitish vositalarining yetarlicha bo'lishi, fan o'qituvchisining ulardan o'rinli foydalana olishi hamda talab darajasida maxsus jihozlangan kabinetning bo'lishi ta'lim samaradorligini ta'minlashga ko'maklashadi.

O'qituvchi ta'lim berish jarayonida shuningdek, o'quvchilar ijodiy ishlarini baholashga alohida e'tibor qaratishi, ularni ko'proq rag'batlantirishi lozim. Ana shundagina biz o'z darslarimizni sifatli va samarali tashkil qilgan bo'la olamiz. O'quvchi yoshlarimizga esa ijodiy tasavvurlarini yanada rivojlanishiga xizmat qilgan bo'lamiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga murojaatnomasi.
2. 1. Rahmonov I. T. Chizmalarni chizish va o'qish. T.,1992



## ХИС-ХАЯЖОННИ ИФОДАЛОВЧИ ИСТИОРАЛАРНИНГ БАДИИЙ АСАРДА БЕРИЛИШИ

Абдуллаева Венера

Хоразм вилояти Ҳазорасп тумани,

52 – сон мактаб ўқитувчиси.

Телефон +99894 318 09 83

**Аннотация:** Истиора — икки нарсанинг айрим тасодифий белгиларига. бу белгиларнинг ухшашлигига асосланган ифодалаш усулидир.

**Калит сузлар:** Истиора, лугавий, мантикий, стилистик, метафора, тип, асбоб, механизм.

Истиора — икки нарсанинг айрим тасодифий белгиларига. бу белгиларнинг ухшашлигига асосланган ифодалаш усулидир. Истиора — асосий лугавий-мантикий ва кучма-матний маъноларининг узро муносабатига асосланган стилистик усулдир.

Истиора (метафора)-асарларда сузни уз маъносидан бошка бир маънода, яъни мажозий маънода куллаш санъатидир. Бу санъат суз маънолари кучишининг бир тури булиб, у нарса ва ходисалар уртасидаги ухшашликка асосланади.

Масалан «тип» сузини олайлик. Бу сузнинг асосий лугавий маъноси «огиз бушлигида жойлашган, кишиларда эса, бундан ташқари, нутк товушлари хосил қилиш учун хизмат қиладиган аъзо»: иссиқдан. итнинг тили осилган. Кучма маънода эса бу суз «асбоб-механизм» маъносини билдиради; соатнинг тили, кунгироцнинг тили ёки иккинчи кучма маъноси тилгащшаш, учли нарса:

Шамол кучайиб оловнииг тили яна хам узунлашди .

Учинчи кучма маъноси эса: «таъсирчан, каттик, таъсир қиладиган, уткир нарса» (купинча изгирын, совук хақида):

К<sup>2</sup>урук, совук,. *Кеч кузнинг изгирын шамоли муздек тили бшан йигит ва цининг юзиши ялайди (Ф.М.).*

Таъсирчанлик даражасига кура истиора икки гуруҳга булинади : тилдаги ва нуткдаги истиоралар, бошқача қилиб айтганда, эскирган, йуқолиб бораётган истиоралар ва янги, ифодала истиоралар. Тилдаги истиораларга қуйидагилар мисол була олади: ук<sup>2</sup> ёмгири, улим Дули, булок кузи Нуткдаги истиораларга қуйидагилар мисол була олади:

Хадемай, уларнннг сафари қариди.

Дарё оқар, вақт оқар, умр оқар пайдар-пай.

Бошимдан қаптарлардек учди мянг-минглаб хаёл.

Гуллар гуё этишар тазим.

Истиора образлиликни яратишдаги энг муҳим воситалардан биридир ва унинг асосий стилистик вазифаси шундан иборат.

Ёркин, янги, таъсирли истиоралар бадиий наср услубида кулланилади:

Кумушнинг гузаллик таърифини ойибона эшитиб, озини суви келувчи хотинли ва хотинсиз орзумандалр «ётиб қолгунча, отиб қол!» сузига амал қилиб, қутидорникига совчиларни турна қатор юбора бошлаган эдилар (А.К.).

Аммо, япроқлари таранг, шабадага парво қилмай қулиб турарди. (У. У.)

Қуп ишлатилувчи, одат тусига қириб қолган истиоралар эса купинча оммавий матбуот услубида кулланилади:

Зангори кема, пулат этаклар. пулат от, оқ олтин қабилар.

«Қайта қуриш энг масъулиятли босқичга қирди...» «Хужалик ҳисоби, ижара, пудрат хаётига сингиб бормоқда...» (Рузномадан).

Бундай истиоралар фразеологияни бойитишга ёрдам беради:

Орадон сузутди (қелишмовчилик руй берди); дили (ёки юраги) суқилди (дили вайрон булди); сунг суз (бирор асар охиридага хотима, охирги суз); бахти чопди (бахти, омади қсдди); бетга чопмоқ (рай, андиша қилмай қаттик, шарга гапирмоқ); чучварани хом санамоқ (йук ёки амалга ошмайдиган нарсага ишонмоқ, хом уйламоқ, хом хаёл қилмоқ) қаби.

Баъзан улар илмий услубда кулланганлигини қуриш мумкин. Бундай ҳолларда истиора муаллифга уз гоёсини тушунарли ва ёркин ифода этишга ёрдам беради. Эскирган, қуп кулланувчи истиораларни янгилаш мумкин. Бу асосан ушбу истиора тарқибига қандайдир



ёркин, янги образ киритиш асосида амалга оширилади. Ана шундай истиоралар янгиланган истиоралар *sustained ёки prolonged metaphors* деб аталади.

Масалан: Жимжитлик бор жойда хаёт сунади. Жимжитлик тошни ҳам, кунгилни ҳам емиради. Тинган сувни цурт босади. (А.С)

Истиора ва ухшатиш бир-бирига якин туради деган фикрлар мавжуд. Бу унча тугри фикр эмас, чунки истиора нарсани тавсифлайди, ухшатиш эса, ухшаш томонларни киёслаб, шу билан нарса ва тушунчани ажратади. Бундан ташқари бу икки стилистик усул тилда ифодаланишининг турли шаклларига эга.

Баъзан жонли нарсаларнинг хусусиятлари жонсиз нарсаларнинг хусусиятларига кучирилади. Бундай истиоралар «жонлантириш» деб аталади. Масалан, ‘Каримок» сузининг лугавий маъноси ёши утиб кексалик даврига утмок, кексаймок, картаймок. Кучма маъноси эса, эскириб, ишдан чикмок, ёки оёқдан колмок- Юкорида берилган гапда «каримок» сузи «сафар муддати тугади, сафардан кайтиш вақти келди» деган маънони билдиради. “Таъзим» сузининг асосий лугавий маъноси, эгилиб бошни куйи солиб ёки кулни куксига куйиб салом бериш (таъзим билан карши олмок), кучма маъноси, юксак хурмат, миннатдорчилик билдирмокдир.

Истиора бадий асарларда акс этаётган нарса, воқеа. ходисаларнинг аниқ, равшан гавдаланиб туришида, образлар тавсифларининг ёркин берилишида, асар жозоба кучининг ошишида нидоятда муҳум урин тутади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар руйхати**

1. Галперин И.Р. “Stylistics” Москва., 1973 йил.
2. Кунгуров П. “Ўзбек тилининг тасвирий воситалари” Тошкент., 1977 йил



## О‘QUVCHILARDA TARIXIY BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

**Abduramanova Barnoxon Rahmidinovna**  
Farg‘ona viloyati Farg‘ona shahri 26- umumiy  
o‘rta ta‘lim maktabi Tarix fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada ta‘lim tizimida o‘quvchilarning tarixiy bilimlarini shakllantirishning ahamiyati hamda o‘quvchilarni tarixni tushunishga o‘rgatishga oid fikrlar berilgan.

**Kalit so‘zlari:** tarixiy bilimlar, tafakkur, ko‘nikma, milliy g‘oya.

O‘quvchilarning tafakkurini va mustaqil fikrlash qobiliyatini tizimli sur‘atda, ya‘ni ta‘limning uzluksizligi tizimida o‘stira borish, ularning malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish tarix o‘qitishning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlaridan biri hamda tarixiy bilimlarni o‘zlashtirib olishning zarur shart-sharoiti hisoblanadi. Tarixiy bilimlarni egallab borish jarayonida o‘quvchilarning tafakkuri, malaka va ko‘nikmalarini o‘stira borish masalalari ko‘pgina psixologlar, metodistlar hamda amaliyotchi o‘qituvchilar e‘tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Bugungi kunda uzluksiz ta‘lim tizimining asosiy boqichlaridan biri – umumiy o‘rta ta‘limning V–IX sinflarida tarix o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi, ijodiy qobiliyatlari, malakalari hamda ko‘nikmalarini ma‘lum bir maqsadga qaratgan holda, tizimli sur‘atda o‘stira borish masalalari ko‘rib chiqilib, amaliy jihatdan hal etilib borilmoqda. V–IX sinflar “Tarixdan hikoyalar”, “Tarix”, “Jahon tarixi” hamda “O‘zbekiston tarixi” hamda o‘rta maxsus ta‘lim tizimi uchun “Jahon tarixi” hamda “O‘zbekiston tarixi” darsliklarida o‘quvchilarning tafakkuri, nutqi hamda malakalarini o‘stira borish vazifalari hisobga olingan. Ulardagi materialning bayon qilinish va umumlashtirilish xususiyati, tanlangan rasmlar va hujjatlarning matnlari, savol va toshpiriqlar tizimi o‘quvchilarning zehni o‘stira borish uchun bosqichma – bosqich tizimli sur‘atda yordam berishga xizmat qiladi.

Tarix o‘qituvchisi o‘quvchilarni milliy g‘oyasi va vatanparvarlik nuqtai nazardan har bir ijtimoiy hodisani uning vujudga kelishi va rivojlana borishida, boshqa hodisalar bilan bog‘lanishi hamda o‘zaro munosabatlarida olib qarashga, hodisalarning sinfiy mohiyatiga kira bilishga, tarixiy jarayonning umumiy obyektiv qonuniyatlarini tushunishga o‘rgatishi lozim. Mustaqil O‘zbekistonimiz umumiy o‘rta maktablari o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni o‘stirish ularni ilmiy asosda tarixni tushunishga o‘rgatish bilan bog‘langandir.

Bu vazifalar VI – VII sinflarda tarix fanini o‘qitishda ham o‘quvchilar uchun og‘irlik qilmaydigan darajada qo‘yiladi. Uzluksiz ta‘lim tizimida umumiy o‘rta ta‘limdan keyingi bosqich hisoblanadigan o‘rta maxsus ta‘lim tizimida o‘quvchilarning bilimlari tobora chuqurlasha borishi va ko‘paya borishi bilan, ularning tafakkurini o‘stira borishga qaratilgan vazifalar ham murakkablasha boradi va bu bosqichda tarix kursini o‘qitishda o‘quvchilarning fikrlashga asoslangan malaka va ko‘nikmalarini hosil qila borish vazifalari — bu, tarixiy bilimlarni mustaqil suratda topib, tizimga solib, ularni amalda tatbiq eta bilishga o‘rgatish, pirovardida esa, o‘quvchilarni o‘tmishdagi hamda hozirgi zamondagi ijtimoiy hodisalarga nisbatan ilmiy nuqtai nazardain yondoshishga o‘rgatish demakdir.

O‘quvchilarda birorta malakani, masalan, tarixiy hodisalarni taqqoslash, isbotlab berish malakasini hosil qilmoq uchun, o‘qituvchi o‘sha mantiqiy operatsiyaning maqsadi va mohiyatini hamda uni bajarish usullarini tushuntirib, ularni aniq tarixiy materialga tatbiq etgan holda ko‘rsatib beradi. Ko‘rsatib berish paytida, mazmuni uncha murakkab bo‘lmagan material: taqqoslash uchun — moddiy madaniyatga doir ikki narsa, xulosa chiqarish uchun — mavzuning bir necha bo‘limidan iborat matni va shu singarilar tanlangani ma‘qul. Masalan, umumiy o‘rta ta‘lim tizimida insoniyat tarixida ilk davlatning paydo bo‘lishi jarayonlari xususida fikr bildirilganda bir necha qadimgi davlatlarning (Qadimgi Gretsiya, Qadimgi Rim, Qadimgi Xitoy va h.k.) paydo bo‘lishi, ularning insoniyat tarixida tutgan o‘rni xususida o‘quvchilarda bilimlar shakllantiriladi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, uzluksiz ta‘lim tizimining o‘rta ta‘lim va o‘rta maxsus ta‘lim tizimi bosqichlarida tarix darslarida o‘quvchilarda malaka va ko‘nikmalarni hosil qilinishi natijasida sog‘lom e‘tiqodli, o‘tkir hissiyotli, yuksak didli, o‘z xatti – harakatlariga javob bera oladigan shaxsning ma‘naviy dunyosini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: 2006
2. Sa‘diyev A. Fuzailova G. Xasanova M. Tarix o‘qitish metodikasi. – T. 2008



## ONA TILI DARSLARIDA INTERFAOL USULLARNING QO‘LLANILISHI

**Abdurasulova Shahlo Abdulxanovna**

Angren shahar 30-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

I-toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Tel: +998 99-928-81-29

**Annotatsiya:** Maqolada ona tili va adabiyot darslarida interfaol usullardan foydalanish va “Aqliy hujum” usulining qo‘llanilish metodlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** interfaol metod, ta‘lim, usul, innovatsion, qo‘llanilishi.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol usullar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari)dan foydalanish, ta‘limning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan.

O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o‘quv jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Bu borada zamonaviy interfaol usullarning “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bahsmunozara”, “Davra suhbat”, “FSMU” texnologiyasi, “BBB”, “Rezyume”, “Zinama-zina”, “Germenevtik suhbat”, “Suqrot suhbat” kabi interfaol usullardan foydalanish ko‘zda tutiladi. Ayniqsa, ona tili fanini o‘qitishda interfaol usullarning qo‘llanilishi o‘quvchini faollashtiradi. Quyida ona tili darslarida eng samarali usullardan biri “Aqliy hujum” qo‘llanilish doirasini ko‘rib chiqamiz.

Aqliy hujum yoki fikrlar hujumi usuli. Bu usulda qatnashuvchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar, muammoli vaziyatlar va masalalarni hal qilishda ishtirokchilarning har biri o‘z fikrini o‘rtaga tashlaydilar. Quyida “Aqliy hujum” usuli orqali darslarni tashkil etishning samaradorligini ko‘rib chiqamiz. Dars jarayonida “Aqliy hujum” metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilar:

1. Mashg‘ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2. Har bir ta‘lim oluvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g‘oyalar miqdori rag‘batlantirilib boriladi.

3. Har bir ta‘lim oluvchi o‘zining shaxsiy fikri yoki g‘oyalariga asoslanishi hamda ularni o‘zgartirishi mumkin. Avval bildirilgan fikr (g‘oya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g‘oya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg‘ulotlar jarayonida ta‘lim oluvchilarning har qanday faoliyatlarini standart talablar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘ymaydi. Agarda ularning fikrlari baholanib, boriladigan bo‘lsa, ta‘lim oluvchilar o‘z diqqatlarini, shaxsiy fikrlarini himoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo‘llashdan asosiy maqsad ta‘lim oluvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag‘batlantirish ekanligini etibordan chetda qoldirmagan holda ularning faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir.

Mashg‘ulot jarayonida ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagilarga amal qilish lozim:

-mashg‘ulot ishtirokchilarining o‘zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish.

-g‘oyalarni yozib berish uchun yozuv taxtasi yoki varaqalarni tayyorlab qo‘yish.

-muammoni aniqlash, shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

**“Aqliy hujum” usuli.** Biror mavzu bo‘yicha ta‘lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma‘lum bir yechimga kelish usuli. Aqliy hujumning og‘zaki va yozma shakllari mavjud. “Aqliy hujum” usulini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikrlar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

2. To‘g‘ri bo‘lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta‘lim oluvchi qatnashishi shart.

Dars mobaynida o‘qituvchi mavzuning xarakteri va u shakllantirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va fazilatlariga mos tarzda munozara sharoitini tanlashi va shundan keyingina





mashg‘ulotni boshlashi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tolipov O‘., Usmonboeva M. pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari, Toshkent, 2014.
2. Turg‘unov S., Maqsudova L. pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari, Toshkent, 2012.
3. Ziyotova T. Ona tili-ijodiy tafakkurni oshirishning asosiy omili, Toshkent, 2001



**CHET TILINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING UMUMIY SAMARADORLIGI OSHIRISH YO‘LLARI**

**Altiboyeva Umida Abdullayevna**

Surxondaryo viloyati Termiz shahar

9- Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan

ixtisoslashtirilgan maktabining ingliz- tili fani o‘qituvchisi

**Jaborova Malika Alimovna**

Surxondaryo viloyati Termiz shahar

9- Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan

ixtisoslashtirilgan maktabining ingliz- tili fani o‘qituvchisi

**Xaydarova Dilrabo Ro‘zi qizi**

Surxondaryo viloyati Termiz shahar

9- Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan

ixtisoslashtirilgan maktabining ingliz- tili fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada chet tili darslarining o‘tilishi jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan..

**Kalit so‘zlar:** chet tili, ilm-fan, kommunikativ-axborot, pedagogik texnologiyalardan.

Hozirgi kunda uzluksiz ta‘lim tizimida umumiy o‘rta ta‘limdagi ta‘lim yuqori o‘ringa ega. Maktablarda xorijiy tillarni o‘qitish masalalari zamonaviy ilg‘or texnologiyalardan foydalangan xolda amalga oshirilmoqda. O‘quvchilarga chet tili fanlarini o‘qitishda ilg‘or umumevropa texnologiyalaridan foydalanish, ta‘lim jarayonini zamonaviy darslik va o‘quv adabiyotlari bilan ta‘minlash, o‘qitishning noan‘anaviy uslublarini amaliyotga joriy etish, ayniqsa, o‘quv jarayonida axborot texnologiyalari vositalaridan keng foydalanish o‘ta muhim masalalar sirasidandir.

Bizga ma‘lumki, hozirgi kunda ilm-fan, texnika shiddat bilan o‘sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Ayniqsa, ilm-fanda katta o‘zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o‘quvchilarga yetkazib berish bugungi kundagi ta‘limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga chet tilini o‘qitishni, o‘rgatishni yangi-yangi metodlarini izlab topish va uni amalda sinab ko‘rish to‘g‘risida ko‘p ishlar amalga oshirilyapti.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning 2012 yil 13 dekabrda PQ 1875-sonli qarori qabul qilingandan so‘ng mamlakatimizda chet tillarni o‘qitishga, o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor yanada kuchaydi. Yurtimizda chet tillarni o‘qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o‘tilishi jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o‘qitilishi, chet tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning umumiyevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra umumta‘lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darsliklar yaratildi.

Ushbu talablarga mos ravishda o‘quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Ta‘lim texnologiyalari, bu ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta‘lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta‘lim sifati va samaradorligini yanada oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o‘rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o‘rganish va o‘qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o‘rganishning har bir aspect (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo‘l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o‘rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o‘quvchi bir paytning o‘zida so‘zlovchining talaffuzi, Grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so‘z boyligi va uning ma‘nolariga e‘tibor berishi talab qilinadi.

Ta‘lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil



hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish va o‘rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan - kompyuter, planshetlardan foydalanganda o‘quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko‘rishi ham eshitishi mumkin — chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniya dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishini ta‘minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o‘rganish va o‘qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ta‘lim jarayoniga zamonaviy-kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to‘g‘ri, unumli foydalanish, ular orqali o‘quvchida chet tiliga bo‘lgan qiziqishni orttirish, o‘qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta‘limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug‘iladi va talab ortadi.

Bugungi kunda innovatsion ta‘lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. U lardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo‘ladi va o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarining ortishi ham ta‘minlanadi. Chet tili darslarining o‘qitilishida turli rolli, harakatli o‘yinlardan foydalanish ham darsga ham til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni ortishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o‘quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam beradi. Chet tilini o‘qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so‘zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo‘ladi. Chet tilini o‘qitish jarayonida turli xil jadvallardan foydalanishning ham samarasi yuqoridir. Ta‘limning barcha bo‘g‘inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o‘rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o‘quvchilarni qiziqtirib o‘qitish va bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishga erishishdir. Ta‘limda berilayotgan bilimlarni o‘quvchilarning ko‘pchilik qismi puxta o‘zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta‘lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyani yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta‘lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o‘zining ma‘lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Pedagogik texnologiya mohiyat-e‘tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o‘z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir.

Ta‘lim jarayonida jadvallardan foydalanib, o‘quvchilar ma‘lum bir grammatik qoidani, masalan, modal fe‘llardan foydalanib gaplar tuzish, yangi so‘zlarni joylashtirib chiqishi mumkin. Chet tilini o‘rganishga ehtiyoj yuqori bo‘lgan bir davrda, ta‘lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta‘lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo‘lishiga olib keladi. Innovatsion ta‘lim texnologiyalarining samaradorligi ularning ta‘lim jarayonida to‘g‘ri va unumli foydalanilganidadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. M. Xodjayeva, M. Qahhorova “Chet tilini o‘qitish metodikasi.” Fan va texnologiya nashriyoti” Toshkent. 2013
2. “Chet tilini o‘qitish metodikasi” Sh. Alimov, A. Ismoilov 131.



**TARIX FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK  
TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

**Chorshanbiyeva Nasiba Xidirovna**

Surxondaryo viloyati Termiz shahar 8- Umumiy o'рта ta'lim  
maktabining Tarix fani o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada. Tarix fanini o'qitishda o'quvchilarning o'tilayotgan mavzuni o'zlashtirilishi va pedagogik salohiyatini oshirishdagi ahamiyati yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik, texnologiya, ilmiy, ta'lim, o'qitish texnologiyasi, dars, ko'nikma, ta'lim-tarbiya.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiy tuzilmalar yaratilayotgan hozirgi kunda keng, chuqur bilimli va bilimlarni amalda qo'llay oladigan shaxslarga talab kuchayib bormoqda. Bilimdon va tadbirkor, ijtimoiy faol shaxs jamiyat hayotida, mehnatda o'zining o'rnini topadi. Bunday faollik vujudga kelishi uchun bilimdon va harakatchan, milliy istiqloq g'oyasiga sodiq bo'lgan shaxsni shakllantirish kerak va avvalo har tomonlama rivojlangan, sog'lom fikr yuritadigan, jahon yoshlari bilan har sohada raqobatbardosh, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalamoq zarur.

Hozirgi zamon ta'limida didaktik-semantik jihatlarni aniqlash kam o'rganilgan sohalarga kiradi. Hanuzgacha tushunish muammosi (mohiyati) odamlar tomonidan har xil talqin qilinadi, didaktlar semantik jihatdan murakkab matnlar va g'oyalarni bayon qilish usullari ustida kam bosh qotirmoqdalar. Ilmiy konsepsiyalar murakkablashib, chuqurlashib borayotgan hozirgi davrda semantik muammolar ekologiya kursini o'quv materialni bayon qilish, o'quvchilarni fan rivojining yangi davrini tashkil qiluvchi nazariyaga ertaroq olib kirish, ta'limda dalillar bilan nazariyalar munosabatlarini hal qilish muhim ahamiyatga ega. Bu masala ham tezroq o'z yechimini topishi lozim.

Tarix fanini o'qitishda ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'limtarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Ta'limning barcha bo'g'inlarini shunday tashkil etish kerakki, u yoshlarga chuqur va asosli bilim berish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o'rgatsin. Pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'quvchilarni qiziqtirib o'qitish va bilimlarni to'liq o'zlashtirishga erishishdir. Ta'limda berilayotgan bilimlarni o'quvchilarning ko'pchilik qismi puxta o'zlashtirishi pedagogik texnologiya joriy etilishining asosiy maqsadi hisoblanadi. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining mavjud qonuniyatlariga, mamlakatimiz rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlariga, tarixiy taraqqiyot tajribalariga asoslanadi. Pedagogik texnologiyaning yaratish milliylik va muminsoniylik tamoyillariga, insonparvarlik va demokratiya prinsiplariga, ijodkorlik va tashabbuskorlikka tayanadi Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizuall, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Pedagogik texnologiya mohiyat-e'tibori jihatidan boshqa texnologiyalar bilan bir safda turadi, chunki ular ham boshqalari qatori o'z xususiy sohasiga, metodlari va vositalariga egadir.

Tarix fanlarini o'qitishda pedagogik texnologiya inson ongi bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushunarli bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etishi bilan ishlab chiqarish va axborotli texnologiyalardan ajralib turadi. Uning o'ziga xos xususiyati – tarbiya komponentlarini mujassamlashtirganidir. Pedagogik texnologiya boshqa sohalardagi texnologik jarayonlar bilan uzluksiz boyib boradi va an'anaviy o'quv jarayoniga, uning samarasini oshirishga ta'sir ko'rsatishning yangi imkoniyatlarini egallab oladi. Bugunning har bir pedagogi har tomonlama rivojlangan, yetuk, barkamol avlodni tarbiyalab, davlatimizga munosib mutaxassis yetkazishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, u pedagogik texnologiyalar asosida darsni



tashkil etish va ta'lim sifati, samaradorligini oshirishda o'z hissasini qo'shish zimmasidagi asosiy vazifalardan biri ekanligini unutmasligi lozim. “Texnologiya” tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1872-yilda kirib keldi va yunoncha ikki so'zdan texnos- san'at, hunar va logos-fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topib, “hunar fani” ma'nosini anglatadi.

Bu darajadan yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun izlanish va tashabbus lozim. Pedagogik innovatsiyalarni yaratish va ularni boshqarish avvalambor ana shu dolzarb vazifalarni hal qilib beradi. Shu boisdan ham pedagogik innovatsiyalarni izlab topish, o'rganish, tahlillar ostida eng ko'p samara beradiganlarini tanlab olish va ularni amaliyotda qo'llash tartibini belgilab beradigan bir tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir. Ilg'or pedagogik tajribani ifodalovchi yana bir mezon uning yuqori natijaga erishishi uchun zamin hozirlashidir. Bunda o'quvchilarning bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinishi zarur. Shunda ekan ekologiya fani o'tkazilgan tarbiyaviy tadbirlarning soni emas, balki, ularning o'qituvchilarni inson sifatida shakllanishiga ta'sirining mezoni sifatida qarash lozim. Bundan tashqari, ilg'or pedagogik tajribaning qulayligi va tejamlilikini ham e'riborga olinishi lozim. Chunki yuqori natijaga erishishda o'quvchilar va o'qituvchilarning vaqtini tejash, ularni toliqtirishdan asrash ham muhimdir. Darhaqiqat, hammasi uning nihoyatda qiyin, murakkab va ko'p qirrali jarayon ekanligini ko'rsatadi. Shulardan kelib chiqib, pedagogik texnologiyaga ta'rif berish mumkin. Pedagogik texnologiya o'qituvchi pedagogik mahoratining yuksak cho'qqisi hisoblanib, ta'lim-tarbiyaning har qanday murakkab vaziyatida ham aniq qo'llaniladigan usul, vositalarining birligi anglatadi. Shunday ekan o'qituvchilar ta'limning darsdan tashqari har bir shaklining tuzilishi, bosqichlarini an'anaviy darsdan ustunligini amalda sinab ko'rib, ta'sirchan shaklini aniqlashlari zarur. Bu esa o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, buning uchun ta'lim nazariyasini, uning hozirgi zamon muammolarini bilish, ijod qilish, tinmay izlanishlarni hozirgi zamon talablariga muvofiq talab etiladi.

Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchining o'quvchilarga o'qitish vositalari yordamida muayyan sharoitlarda ta'sir ko'rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini intensiv shakllantirish jarayonidir. Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Pedagogik nashrlarda «o'qitish texnologiyasi», «ta'lim texnologiyasi» tushunchalari ham ishlatiladi Pedagogik texnologiya inson ongi, tafakkuri bilan bog'liq bilimlar sohasi sifatida murakkab va hammaga ham tushuntirish mumkin bo'lmagan pedagogik jarayonni ifoda etadi. Uning o'ziga xos jihati – tarbiya muammosini ham qamrab olishidir.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshirdi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik texnologiya asosida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish imkoniyati tug'iladi va u o'qituvchining yaqin ko'makdoshiga aylanadi yoki uning funksiyalarini to'liq bajarishi mumkin. Natijada, mantiqiy bog'langan qisqa yo'llardan shunday olib boriladiki, oqibatda o'quvchilar deyarli xato qilmaydilar va o'quvchi ularning natijasini ma'lum qilish bilan mustahkamlash imkoniyatini yaratadi hamda ta'lim maqsadini to'la amalga oshirish sari yana yangi qadamlar qo'yiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. R.A. Mavlonov, M. Arabova, G'. Salohitdinova “Pedagogik texnologiya” T. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. “Fan” nashriyoti. 2008.
2. J. G'. Yo'ldosheva, F. Yo'ldosheva, G'. Yo'ldoshev “Interfaol ta'lim sifat kafolati” T. 2008.





**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA O'QITISHNING SHAKL, USUL VA VOSITALARI**

**Yo'ldosheva Dilfuza Alisher qizi**

Farg'ona davlat universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

Tel:+99891 329-55-85

e-mail: dilfuzayuldasheva876@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishda o'qitishning shakl, usul va vositalari haqida ma'lumotlar berilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** kreativlik, kreativ kompetentlik, evristik usullar, ijodiy loyiha, o'qitish metodlari

Hozirgi tezkor davrda kreativ fikrlash jamiyatning ijtimoiy ehtiyojiga aylanib bormoqda. Kreativ yondashish, kasbiy faoliyatda muammolarni hal qilish yo'llarini topish pedagoglar uchun muhim hisoblanadi. Bo'lajak o'qituvchi mustaqil ravishda murakkab kasbiy muammolarni hal qilishga tayyor bo'lishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish birinchi navbatda ularning kasbiy faoliyatga tezroq moslashishiga yordam beradi. Ikkinchidan, nostandart kasbiy vaziyatlarda kasbiy muammolarning yechimlarini topish, g'oyalar yaratish va ishlab chiqarish, ularni professional faoliyatda loyihalash va modellashtirish qobiliyatini ta'minlaydi. Uchinchidan, tez rivojlanayotgan muhitga osongina moslashish imkoniyatini beradi, streotiplarni yengib chiqadi, nafaqat to'liq ma'lumot mavjud bo'lganda, ballki uning tanqisligi sharoitida ham kasbiy faoliyat tezligini ta'minlaydi.

Bo'lajak o'qituvchining kreativ kompetentligini rivojlantirishdagi o'quv jarayoni o'qitishning quyidagi shakllarini ta'minlaydi: muammoli ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya, amaliy mashg'ulotlar va boshqalar.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonidagi talabalar o'quv faoliyatining asosiy shakllari- talabalarning individual, guruhli, kombinatsiyalangan, auditoriya va sinfdan tashqari mustaqil ishlaridir.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish usullari orasida nazariy bilimlarini kasbiy vaziyatlarni modellashtirish orqali o'zlarining ijodiy tajribasiga aylantirishni ta'minlaydigan evristik simulyatsiya va dizayn o'qitish usullari alohida ahamiyatga ega.

Evristik usullar kreativ fikrlashni faollashtirish, tasavvurni rivojlantirish, fikrlashning chiziqli bo'lmaganligi, mavhumlik qobiliyatini faollashtirishning samarali vositasidir. Eng muhimi, ijodiy vazifalarni hal qilishda psixologik to'siqni yengib o'tishdir.

Taqlid usullari deganda, o'qitishning faol usullari, ya'ni o'quv va kognitiv faoliyatga taqlid qilishga asoslangan darslarning shakllari tushuniladi.

Loyiha usullari- bu mustaqil bilim harakatlari natijasida muammoni hal qilishga imkon beradigan va ushbu natijalarni ma'lum bir mahsulot shaklida taqdim etishni ta'minlaydigan talabalarning o'quv va kognitiv texnikasi va harakatlarining ma'lum bir to'plami. Loyiha usulini qo'llash turlaridan biri sifatida ijodiy loyiha (ko'rgazmali qurollar, topshiriqlarni tematik tanlash, uslubiy tavsiyalar va boshqalar) qo'llaniladi.

Ijodiy loyiha- umumiy maqsadga ega bo'lgan talabalarning birgalikdagi ta'lim va kognitiv, ijodiy yoki o'yin faoliyati, kelishilgan usullar, loyiha ishtirokchilari uchun muhim bo'lgan har qanday muammoni hal qilish orqali umumiy natijaga erishishga qaratilgan faoliyat usullari.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirish vositalari quyidagilardir: uslubiy vositalar (psixologik-pedagogik sikl fanlarining ishchi dasturlari, ilmiy-metodik qo'llanmalar, uslubiy ko'rsatmalar, ish daftarlari, "Bo'lajak o'qituvchining kreativ o'z-o'zini rivojlantirish kundaligi") va o'quv vositalari (ijodiy vazifalar, kasbiy yo'naltirilgan vazifalar, psixologik trening dasturlari).

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirishning uslubiy tizimini amalga oshirishni optimallashtirish orqali talabalar va o'qituvchilarning ijodiy rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirishning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan kasbiy-pedagogik ta'lim mazmuni va usullarini tanlash, loyihalash va qo'llash ta'lim muhitining tashqi va ichki omillarining o'zaro bog'liqligi sifatida pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydi.



Birinchi pedagogik shart- bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonini ta'minlashga o'qituvchini tayyorlashdir, chunki talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishni samarali boshqarish uchun o'qituvchi kreativ kompetentlikka ega bo'lishi kerak hamda ushbu jarayonni ta'minlash usullari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishi kerak. Bu o'qituvchiga ijobiy motivatsiyani rivojlantirish, maxsus bilim va ko'nikmalar majmuasini o'zlashtirish, tegishli shaxsiy fazilatlarining mavjudligini o'z ichiga oladi.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish uchun biz quyidagi ko'nikmalarni ajratamiz:

- Maqsad qo'yish;
- Rejalashtirish;
- Tadqiqotchilik;
- Motivatsion;
- Konstruktiv;
- Nazorat-tuzatish;
- Kommunikativ;
- Aks-ettiruvchi-tahlil.

O'qituvchining shaxsiyati, o'z ish tajribasi va shaxsiy fazilatlari ham muhim hisoblanadi:

- Kasbiy mahorat;
- Mas'uliyat;
- Faollik;
- Tashabbuskorlik;
- Reflekslik;
- Ijodkorlik;
- Talabalarning muvaffaqiyatiga qiziqish;
- Ularning muammolari va intilishlarini tushunish.

Ikkinchi pedagogik shart- yaxlit ijodiy va rivojlantiruvchi ta'lim maydonini yaratish. Ta'lim maydoni-rivojlanish, ta'lim va tarbiya makonini o'z ichiga olgan tizim bo'lib, uning markazida-shaxs hisoblanadi.

Pedagoglar oldida turgan asosiy vazifa-bu bo'lajak o'qituvchilarda kreativlik, uning o'ziga xos sifatleri to'g'risida nazariy bilimlarni berish, ular asosida talabalarning kreativ kompetentligini oshirishdan iborat. Mazkur vazifani ijobiy hal etishda ta'lim jarayoni, shu jumladan fanlarni o'qitishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, mashg'ulotlarning noan'anaviy shakl, metod va vositalari yordamida qiziqarli va mazmunli tashkil etish kutilgan samaralarni beradi.

Zamonaviy pedagog kadrlar yangi mavqega ega bo'lib, uning vazifasi, eng avvalo, yoshlarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallashga va ularni amaliyotda qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratilmog'i lozim.

Pedagog bunday maqsadlarda, o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash kerakki, ular yoshlarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan mustaqil egallashlari, o'zlarida shaxsiy nuqtai nazarining shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo'lishlari kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nilufar Muhammadovna Orinova (2021). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KREATIVLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI. Academic research in educational sciences, 2 (9), 394-399.
2. <http://diss.natlib.uz/>
3. <http://library.by/portalus/modules>
4. [www.duskyrobin.com](http://www.duskyrobin.com)
5. Journal of pedagogical inventions and practices. <https://zienjournals.com>



**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ZAMONAVIY  
TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH**

**Sh. Xudoyberdiyeva**

Maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim  
fakulteti 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda boshlang‘ich sinf ona tili hamda adabiyot darslarini zamonaviy texnik vositalar yordamida tashkil etish yo‘llari, usullari yoritilgan bo‘lib, bu o‘quvchilarning darsni o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarini hamda dars samaradorligini oshiradi.

**Kalit so‘zlar:** didaktik o‘yinlar, kompyuter, skaner, videoplayer, proyektor, dars, muloqot, o‘qituvchi, o‘quvchi.

Ko‘p yillardan beri an‘anaviy bo‘lib kelgan, o‘qituvchi “hukmron”ligi ostida o‘tiladigan dars berish usullari orqali bugun ta‘lim jarayoniga sifat o‘zgarishlari yasab bo‘lmasligi bor haqiqat. Bulardan tezroq voz kechish, yanada samarali va natijasi ko‘p o‘tmay seziladigan, e‘tirof etiladigan, qolaversa, ta‘lim berish va ta‘lim olish jarayoni talab qilinayotgan usullarni joriy etish, ommalashtirish bugungi kunda dolzarb bo‘lib turibdi. To‘g‘ri ta‘lim muassasalarida suhbat, bahs, munozara, savol-javob, aqliy hujum, ishbilarmonlik o‘yini singari usullarning ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgani quvonarli hol. Lekin bu jarayon juda sekinlik bilan borayotgani hammamizga ravshan. Shu talablardan kelib chiqqan holda boshlang‘ich ta‘lim ona tili va adabiyot fani mashg‘ulotlarini kuzatsak, qator muammolarga, hal qilish kerak bo‘lgan yumushlarga duch kelamiz. Vaholanki, bu fanlarning samarali, ta‘sirchan o‘tilishi millik o‘zlikni anglashda, yoshlarda o‘z xalqi va tiliga bo‘lgan hurmatni shakllantirishda, mehr-oqibatni kuchaytirishda, tilimizning betakror jozibasini his qilishda nihoyatda muhimdir.

Fikrimizga, ona tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda sifat jihatdan o‘zgarishlar yasash uchun, avvalo, o‘qituvchining o‘zi unga tayyor bo‘lishi, malakasi shunga mos holda shakllangan, oshgan bo‘lishi kerak. Uzoq yillik o‘zbek pedagogikasi tarixi tajribasidan ayonki, har qanday ta‘lim va tarbiyada asosiy e‘tibor o‘qituvchi hamda uning tafakkur doirasiga qaratiladi. Agar o‘qituvchi ona tili va adabiyot fani hayot darsi ekanligidan kelib chiqib, darslik bilan kifoyalanib qolmasdan, o‘zi o‘qitayotgan fanga doir yangiliklardan, yutuqlardan xabardor bo‘lsa, izlansa, o‘z darslarida foydalansa, ulardan hamkasblarini habardor qilsa, shubhasiz, dars sifati va samaradorligi oshadi. Zero, muhtaram yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, „bugungi o‘qituvchi ham, o‘rgatuvchi, ham o‘rganuvchi shaxsdir” (1-3-bet).

O‘z tajribalarimizdan shu narsa ravshanki, ona tili va adabiyot darslarida mavzularni o‘quvchilarga tushuntirish, olingan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash, har bir o‘quvchining bilimini sinab ko‘rish, baholash singari yumushlar dars davomida ancha vaqt talab qiladi. Bu jarayon mashg‘ulotda o‘qituvchining faol bo‘lishini, vaqtdan unumli foydalanishni taqozo qiladi. Biz o‘z tajribamizga tayangan holda yangi mavzuni tushuntirishga, mustahkamlash va takrorlash jarayonlarida kompyuter, skaner, videoprojektor, multimediya, kodoskop singari zamonaviy texnik vositalardan foydalanish imkoniyati zarurligi haqida toxtalmoqchimiz. Bu singari texnik vositalarning samarali qo‘llanishi, fikrimizcha, ta‘lim oluvchilarda birinchidan alohida qiziqish uyg‘otsa, ikkinchidan, ta‘lim beruvchining vaqtini tejaydi, qisqa fursatda ko‘proq o‘quv materialini havola qilish imkoniyatini yaratadi. Qolaversa, o‘qituvchini doskaga qayta qayta yozish, o‘chirish singari vaqt talab qiladigan ishlardan xalos qiladi. Shu o‘rinda biz maktabda texnik vositalardan samarali foydalanib o‘tkazilgan bir soatlik o‘qish darsi tafsiloti bilan tanishtirishni lozim topdik. O‘tkazilgan dars jarayonida maktab o‘quvchilari, o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari ishtirok etishdi.

O‘qituvchi vaqtni tejash, yangi mavzuni tushuntirayotganda o‘quvchilar bilan uzluksiz muloqotda bo‘lish zaruriyatidan kelib chiqib, faol o‘quvchilardan birini o‘ziga yordamchi qilib oldi. Kompyuterda joylangan o‘quv materiallari, slydlar, rasm va matnlar havola qilinishi kerak edi. Tayyorlangan o‘quv materialining ko‘pligi va ketma-ket ekranda namoyish qilinishi o‘qituvchiga yordamchi zarurligini taqozo qilar edi. Bu mashg‘ulotdan ko‘zlangan maqsad ikkita edi: birinchidan yangi mavzuning dolzarb ekanligiga o‘quvchilarni qiziqtirish, atroficha bilim berish bo‘lsa, ikkinchidan, dars jarayonida mavjud texnik vositalari: kompyuter, skaner,



videoprojektor va boshqa jihozlardan unumli foydalanishni amalda ko‘rsatib berish. Darsning mavzusi “O‘zbek xalq maqollari” deb nomlangan bo‘lib, o‘qituvchi videoprojektor yordamida doskaga uzatilgan o‘zbek xalq maqollarining matni asosida erkin muloqot muhitini yaratdi. Savol-javob, munosabat bildirishga intilish jarayoni jonlandi. E‘tiborlisi shundaki, dars davomida matn va jadvallarni bir necha marta qayta ko‘rsatish, almashtirish zaruriyati sezildi. Agar videoprojektor xizmatidan foydalanilmaganda o‘qituvchi bir necha marta matn va savollarni doskaga yozishi, jadvallarni chizishi kerak edi. Bu esa vaqt talab qilar, darsda vaqt taqsimoti buzulishiga olib kelar edi.

Mashg‘ulot davomida ishtirok etgan, kuzatgan o‘qituvchilar o‘quvchilarga mavzuni o‘zlashtirishga qiziqish bilan qarash borlig‘ini adabiy tahlil ilmiylikini e‘tirof etishdi, qolaversa bu jarayonga texnik vositalarning unumli qo‘llanilishi ham yordam berishini unutmaslik kerak. Mavzuni mustahkamlash davomida o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligi yaqqol namoyon bo‘ldi. Darsning ijodiy tomonlari e‘tirof etilib, unga yana qanday yangilik va qo‘shimchalar kiritish zarurligi haqida fikr-mulohazalar bildirildi. Muhimi, talimda zamonaviy texnik vositalardan foydalanish-mavzuni yetarlicha tushuntirishda yengillik tug‘dirdi. To‘g‘ri-da, talimda jarayonni osonlashtirishga xizmat qiladigan har qanday yangilikni jur‘at bilan joriy qilish payti hozir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Sh. Mirziyoyev “O‘qituvchi va murabbiylar- yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” nomli murojaat. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali, 2020-yil 10-sonv3-bet.
2. S. Matjonov. Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg‘unligi, “Til va adabiyot ta‘limi” jurnali, 2020-yil 7-son, 8-bet.



## INNOVASION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Eshnazarova Saboxat Abduhalikovna

Uchtepa tumani 283-maktabning  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** zamonaviy ta'limning eng muhim unsurlari qadimdan shakllanib kelgan. Ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, uslub va vositalari ta'lim jarayonlari mazmunini tahlil qilish uchun qo'llaniladigan an'anaviy kategoriyalar bo'lib hisoblanadi. Aynan shu kategoriyalar ma'lum predmet, mutaxassislik yoki ixtisoslik bo'yicha o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qiluvchi pedagog faoliyatining predmeti sifatida yuzaga chiqadi. Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati haqida bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy o'qituvchi, o'quv-tarbiyaviy jarayon, ta'lim maqsadi, uslub va vositalar.

Qayd etilgan pedagogik kategoriyalarni maqsadga muvofiq ravishda yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning qonuniyat va mezonlarini tizimlashtiruvchi omil vazifasini bajaradi. Zamonaviy o'qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo'lishi kerakligini anglashi lozim. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta'lim usullarini yaxshi bilishi kerak.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'yin faoliyatining o'rnini endi o'qish faoliyati egallaydi. O'qib-o'rganish bolaning vazifasi, ijtimoiy burchi bo'lib qoladi. O'qish jarayonida u darsliklarini va o'quv qurollarini saranjom saqlash, o'z vaqtida o'rnidan turish, maktabga belgilangan vaqtda borish, uyga berilgan vazifalarni bajarish yuzasidan ko'nikmalarni o'zlashtiradi. O'quvchi tobora mas'uliyatli bo'lib boradi. Bilimlar bolaning saviyasini o'stiradi, aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, sezgilari va irodasining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Biroq, bu davrda ham bolaning diqqati hali beqaror bo'ladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchi xotirasida ham o'zgarishlar ro'y beradi. O'quvchi birinchi sinfdan boshlab, ta'lim jarayonida o'quv materialining ko'p qismini ixtiyoriy ravishda eslab qoladi. Shu bilan birga o'z-o'zini doimo nazorat qilib borishi lozim. Buning natijasida o'quvchining xotirasi takomillashadi, tafakkuri o'sadi.

7-8 yoshli bolalarda ham tafakkur hali konkret xarakterda bo'ladi. Ular o'zlari idrok etgan yoki tasavvur qilgan narsalar haqidagina fikr yuritadilar. Mantiqiy tafakkurning dastlabki ko'rinishlari shakllana boshlaydi. Uchinchi va to'rtinchi sinflarda o'quvchilar ilmiy bilimlarga oid ayrim tushunchalarni ham o'zlashtirib oladilar. Bu davrda o'quvchilarning ruhiyatida hissiy kechinmalar yuz beradi.

Innovasion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovasion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovasiyalari deb nomlanadi.

Ta'lim innovasiyalari “innovatsiya ta'lim” deb ham nomlanadi. “Innovatsiya ta'lim” tushunchasi birinchi bor 1979 yilda “Rim klubi”da qo'llanilgan.

Ta'lim tizimida yoki o'quv faoliyatida innovasiyalarni qo'llashda sarflangan mablag' va kuchdan imkon qadar eng yuqori natijani olish maqsadi ko'zlanadi. Innovasiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o'zgaruvchan mexanizmga ega bo'lishi zarur.

Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordini, faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi.

Barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'limda ham “innovatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to'g'risida so'z yuritiladi.

Ilmiy adabiyotlarda “innovatsiya” (yangilanish, yangilik) hamda “innovatsiya” (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi. Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko'rinishida namoyon bo'ladi. Mohiyatiga ko'ra innovatsiya va novatsiya o'rtasida muayyan farqlar mavjud.

«Innovatsion faoliyat o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U o'qituvchi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to'siqqa duch kelinib,





uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi». Innovatsion faoliyat yangi q`oyani izlashdan boshlanadi. Pedagogik innovatsiya ta`lim-tarbiya jarayonidagi muhim va murakkab masala echimiga yo`nalitirilganligi sababli o`qituvchidan yangicha yondashuvni talab qiladi. O`qituvchi innovatsion faoliyati tuzilishini taqtil qilishga turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, A. Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya`ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi. O`qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to`siqlar mavjud. Bularning birinchisi o`qituvchining o`ziko`nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya`ni o`qituvchilarda ijodkorlikning etarli emasligi bo`lsa, yana bir sabab yangi va noma`lum narsalar qar doim odamlarda cho`chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir. Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda shunday xulosaga kelish mumkin. O`rganib chiqilgan ilmiy ishlarning aksariyatida «innovatsion faoliyat» tushunchasiga ta`rif berilgan bo`lsada, bu sohada hammaga ma`qul keladigan va innovatsion faoliyatning to`liq mazmunini ochib beradigan yagona ta`rif yaratilmagan, shuningdek, bu faoliyatni shakllantirish jarayoniga nisbatan yagona yondashuv mavjud emas.

Xulosa qilib aytganimizda, innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba – sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo`lib, uning progmatik xususiyati shundaki, u q`oyalar maydonida ham va alohida bir sub`ektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo`ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uzluksiz ta`lim sifat va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy muammolarl Ilmiy konferensiya materiallari. – Samarqand: SamDU nashri.
2. F.Zakirova va boshq. Elektron o`quv-metodik majmualar vat a`lim resurslarini yaratish metodikasi. Metodik qo`lkanma, T.: OO`MTV, 2010. – 57b.



**KITOBXONLIK - MA'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR**

**Haydarova Gulnora**

Samarqand viloyati Samarqand shahri  
55-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Inson ma'naviyatining sarchashmasi bo'lmish kitob hamda kitobxonlik, aholi orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** Kitobxonlik madaniyati, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoev, PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”, intellektual saviya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqea bo'ldi. Ushbu sa'y-harakat milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo'lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o'rinda xorij tajribasini o'rganish, yoshlar o'rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o'rganish kabi masalalarning ko'tarilgani g'oyatda tahsinga loyiqdir. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog'i”, “Go'zallik – ilmu ma'rifatda”. Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyasi, kasb-hunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarorining qabul qilinishi ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning dalilidir desak, aslo, xato bo'lmas edi. Ushbu qarorga muvofiq, qabul qilingan dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

I bosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

“Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko'rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Boladagi barcha tarbyaviy hislatlar dastlab oilada



shakllanadi, demak kitobxonlik ham o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a'zolarning kitobga, o'qishga munosabati katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o'qishda ham bolalariga o'rnak bo'lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o'qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so'rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o'rganish (aniqrog'i o'rganish) muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida” (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyish
2. <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>



## GEOGRAFIYA DARSLARI ORQALI O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH

Haydarova Shaxzodaxon Yo‘ldashevna

Dang‘ara tumani 19-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi

Geografiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘quvchilarning ekologik madaniyatini shakllantirishda tabiiy fanlarning ahamiyati xususida ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlari:** ekologik madaniyat, tabiat, ekskursiya, tabiiy fanlar.

So‘nggi yillarda atrof-muhitni, tabiatni, o‘simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish haqida qator qonunlar hamda ko‘plab me‘yoriy metodik hujjatlar qabul qilindi. Bu qonunlarda respublikamizning hozirgi ekologik-iqtisodiy siyosati umuminsoniy ekosistemaning muhofazasini ta‘minlashga, inson hayoti mohiyatining barcha qirralarini kafolatlashga qaratilgan.

Ekologik madaniyat umumiy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sanalib, shaxsning ma‘naviy hayoti va kundalik hayotida xatti-harakat shaklida namoyon bo‘ladigan, hayotning va tabiatning bebaho ahamiyatini anglash, ularni asrab-avaylash, muhofaza qilishda faollik ko‘rsatish kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu madaniyat albatta o‘quvchilarning ekologik ta‘lim va tarbiyasi asosida vujudga keladi. Ekologik ta‘lim-tarbiyaning asosiy vazifasi o‘quvchilarda tabiatga nisbatan burch va ma‘suliyat, ongli munosabatni tarkib toptirish, sharqona odob-axloq me‘yorlariga mos xulq-atvorni shakllantirish sanaladi. Geografiya o‘qituvchisi har bir darsda, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar va ekskursiyalarda o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha rejali va muntazam ish olib borishi zarur. Ekologik tarbiya dastlab bolaning o‘z uyini, o‘qiydigan joyi, ko‘chani toza saqlashga o‘rgatishdan boshlanadi. Chiqindini ko‘chaga tashlamasdan maxsus chiqindi tashlanadigan joylarga tashlash, o‘quvchining tabiatga va yashab turgan joyiga hurmat bilan qarashga o‘rgatish ekologik tarbiyaning boshlang‘ich elementlaridir. O‘quvchilarda ekologik madaniyatni tarkib toptirishda quyidagi ko‘rsatmalarga amal qilish zarur:

*-tabiat va atrof-muhitni o‘rganish va o‘zlashtirish insonning bilish va amaliy faoliyati birligi asosida tashkil etiladi. Shu sababli, o‘qituvchi tabiiy fanlarni o‘qitishda tabiatning har bir tarkibiy qismi, shu jumladan, foydali qazilmalar va minerallarning tarkibi o‘rganilganda o‘quvchilarga ilmiy bilimlar berish bilan birga, mazkur bilimlarni amaliyotga tatbig‘i haqida ham ma‘lumot berishi;*

*-insonning jonsiz va jonli tabiatga, o‘simliklar olami va hayvonot dunyosiga ko‘rsatgan ijobiy va salbiy ta‘sirini yoritish asosida, tabiat, inson va jamiyat munosabatlari tushuntirilishi, fan sohalari bo‘yicha to‘plangan ilmiy bilimlar integratsiyasi va fanlararo bog‘lanishlar amalga oshirilishi;*

*-sayyoramizda vujudga kelgan global ekologik muammolarni hal etishda dunyo hamjamiyati, davlat va nodavlat tashkilotlarining faoliyati, ya‘ni ushbu ekologik muammolarning hal etilishida davlatlararo umumiy aloqadorlik masalalari haqida ma‘lumot berilishi;*

*– ekologik bilimlarni o‘quvchilar ongiga singdirishda ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanganlik darajasini aniqlash hamda qo‘llash yo‘llarining o‘rganishning qulay variantlarini aniqlash va amaliyotda sinab ko‘rish lozim;*

*-o‘quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish barkamol shaxsni kamolga yetkazish borasida olib borilayotgan ta‘lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy tarkibiy qismi ekanligini nazarda tutish zarur.*

Umumta‘lim maktablarida tabiiy fanlarni yanada kengroq o‘qitish, o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash, ularni ekologik, mehnatsevarlik, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, kasbga yo‘naltirish uchun eng muhim vositalardan biri bu ekskursiyalardir. Ekskursiyalar o‘quvchilarning amaliy bilim olishlariga katta yordam beradi. Darsda olgan nazariy bilimlarini ular amaliyotda o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, tabiiy fanlar bo‘yicha tashkil qilinadigan ekskursiya mashg‘ulotlari o‘quvchilarni tabiiy fanlar bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash, ularning fanga qiziqishini oshirish bilan bir qatorda ularning ekologik madaniyatini rivojlantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Aliyeva M.B. Tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi. – T.: 2011.
2. Qurboniyozov R. Geografiya o‘qitish metodikasi. – T.: 2001.



## DEVELOPING STUDENTS LISTENING SKILLS AND ITS SPECIAL FEATURES

**Kuldasheva Malika Muratovna,**

Teacher, Uzbek State World Languages University

**Abstract:** As we know, listening is the most important point to learn foreign language. Why? Because by listening we learn foreign language pronunciation, intonation and stress and other main sides of language. In additional, if we teach listening by using effective activities, it will be much more successful. In this article highlighted issues on listening skill and its basic peculiarities in teaching.

**Key words:** listening strategies, listening comprehension, difficulties decoding sounds.

According to Vandergrift (1999), listening comprehension is a complex process in which listeners play an active role in discriminating between sounds, understanding vocabulary and grammatical structures, interpreting intonation and stress, and finally, making use of all the skills mentioned above, interpreting the utterance within the socio-cultural context.

Listening skills are anything but easy to master. For many ESL/EFL learners, listening is the thing they feel most frustrated with. On the one hand, they can't control the speed of speech and they tend to have difficulties decoding sounds that don't exist in their mother tongue. Reduced English sounds (lazy speech) or contractions are two examples. On the other hand, even when they hear sounds correctly, oftentimes they have interpretation problems due to a lack of vocabulary.

English slang or colloquial language increases the difficulty of interpretation. For EFL learners in Taiwan, there is another problem. Since speaking does not receive as much attention as reading and writing, students always recognize a word by sight instead of by sound. They may have no interpretation problem when they look at the target word; however, when they are asked to decipher the word through sound, problems emerge. There is no denying that successful listening skills are acquired over time and take lots of practice.

For students, to improve their listening skills, they need to build up their “listening vocabulary”, familiarize themselves with English intonation and rhythm, expose themselves to as much English as possible and most importantly utilize appropriate EFL listening strategies when listening to English. As an EFL teacher, aside from encouraging students not to give up and to listen to English as often as possible, we have to provide abundant opportunities for them to do listening practice as well as teach them effective listening comprehension strategies. In the following parts, besides the introduction of effective EFL listening comprehension strategies, three techniques will be singled out and elaborated on to offer some feasible solutions to help EFL learners in senior high schools in Taiwan (Senior High Schools in Taiwan Laura Wei. National Wen-Hwa Senior High School 12-13 p.).

Listening is the single most important aspect of tutoring. Without it there is no way to know what the tutee needs. It is also a rare and generous gift – to listen to someone – in this media bombarded society. Students spend 20 percent of all school related hours just listening. If television watching and one-half of conversations are included, students spend approximately 50 percent of their waking hours just listening. For those hours spent in the classroom, the amount of listening time can be almost 100 percent. Think about your own activities in college. Are most of your activities focused around listening, especially in the classroom? If you ask a group of students to give a one word description of listening, some would say hearing; however, hearing is physical. Listening is following and understanding the sound – it is hearing with a purpose. Good listening is built on three basic skills: attitude, attention, and adjustment. These skills are known collectively as triple-A listening.

Listening is the absorption of the meanings of words and sentences by the brain. Listening leads to the understanding of facts and ideas. But listening takes attention, or sticking to the task at hand in spite of distractions. It requires concentration, which is the focusing of your thoughts upon one particular problem. A person who incorporates listening with concentration is actively listening. Active listening is a method of responding to another that encourages communication. Listening is a very important skill, especially for tutors. Many tutors tend to talk too much during a tutorial session. This defeats the purpose of tutoring, which is to allow students to discover solutions for their learning needs. Rather than turning the session into a mini-lecture, tutors must





actively listen and encourage their students to become active learners. Giving a student your full attention is sometimes difficult because you start to run out of time, or you find yourself thinking about your next question; however, the time you spend actively listening to your student will result in a quality tutoring session. Listening can be categorized into reciprocal or interactive listening, where the listener is required to play a part, and non-reciprocal or non-interactive listening where the listener listens passively to a monologue or speech. While listening, the listener may use top-down strategies or bottom-up processing or both. Top-down means using our prior knowledge and experiences; bottom-up processing means using the information we have about sounds, word meanings, and discourse markers to assemble our understanding of what is heard one step at a time (Brown, 2006). Also, from a psychological point of view, the cognitive activity in language learning is differentiated and categorized into two main types: cognitive and metacognitive. The former manipulates the material to be learnt or applies a specific technique to the learning task while the latter involves planning, monitoring and evaluating

### References

1. <http://www.ncaction.org.uk/creativity/whyis.htm>.
2. American Council on the Teaching of Foreign Languages (2011). *Language Learning in the 21st Century: 21st Century Skills Map*.



## THE ROLE OF INTERNET RESOURCES IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS

**Kuldasheva Malika Muratovna,**

Teacher, Uzbek State World Languages University

**ABSTRACT:** This article is about modern information technology in the process of learning English. The object of the article is the modern process of teaching English. The article discusses the role of internet resources in teaching and creating language learning materials.

**Key words:** computer information technologies, non-standard solutions, authentic material, electronic communication, mechanical, message

A few decades ago, the term internet was rarely used in the education system and teachers were unable to impart a wide range of knowledge to students. They only used manuscripts and various sources left by our ancestors. English language teachers have been implementing traditional teaching techniques that engross the same classroom dynamics and that at the same time set limitations to the learning expectations of the students. Nowadays, the World Wide Web provides people the prospect to learn and practice what they want to, taking advantage of it; it was decided to use the internet as a resource to lead a central group of EFL learners, to explore and to articulate the class with language activities on the web. Currently, it is very difficult to imagine an education system without the Internet. We can say that Internet technologies are part of the general information culture of teachers and students. Because the Internet is an inexhaustible database of information and knowledge. The use of Internet resources in foreign language lessons is an actual direction in the methodology that requires new approaches and non-standard solutions. The Internet stimulates the desire of children to learn, expands the zone of individual activity of each student, increases the speed of delivery of high-quality material within one lesson. The issue of integrating the Internet into education and, in particular, its application in teaching foreign languages, is currently quite relevant, since with using the Internet as a means of teaching a foreign language is the best way to realize many goals and objectives of teaching and upbringing. The possibilities of using the Internet resources are huge. The global Internet creates conditions for obtaining any information necessary for students and teachers: regional geographic material, news from the life of young people, articles from newspapers and magazines necessary literature.

Students can receive information on the problem on which they are currently working in the project. The main aim of studying a foreign language in secondary school is the pattern of communicative competence, all other goals (educational, background, developing) are realized in the process of realizing this main goal. The communicative approach involves teaching communication and developing the capacity for intercultural interaction, which is the basis for the performance of the Internet. Outside of communication, the Internet does not make sense - it is an international global, cross-cultural society, whose occupation is based on the electronic communication of millions of people around the world speaking at the same time - the largest conversation in terms of size and number of participants that has ever taken place. By charming in it in a foreign language lesson, the model of real communication was created. Communicating in a true language environment, provided by the Internet, students find themselves in real life situations. concerned in the solution of a wide range of important, realistic, interesting and achievable tasks, schoolchildren are taught to impulsively and sufficiently respond to them, which stimulates the creation of original statements, and not the stereotyped manipulation of language formulas. The computer is faithful to the variety of student answers: it does not accompany the work of students with congratulatory or disapproving comments, which develops their independence and creates a favorable sociopsychological atmosphere in the lesson, giving them self-confidence, which is an important factor for the development of their individuality.

The Internet is an excellent vehicle for keeping up with the latest developments in the world. In this way, the Internet can be used to transform the classroom into a news agency and turn your students into first-class reporters. This type of activity is suitable for high school students, as it includes extensive reading and the art of interpretation, fluent speech.

Jeong-Bae Son (2008) states that teachers can find attractive materials in order to construct network-based teaching environments in which they can create meaningful tasks and use suitable materials in EFL sessions. Those new resources and techniques are linked to the implementation of



web tools inside and outside the classroom, as a main resource to prompt the students' interaction with specific content chosen by the language teacher. Pink (2010) states that “We are preparing students for their future, not our past” (P.6). That is why future teachers need to develop new techniques that match with the reality we are living in, in terms of technology, and fit in the world system that is growing every day. The application of internet in EFL classes can be one of those alternative resources to engage students to learn. In addition, Kuntz (2012) states that English teachers should consider the use of all forms of technology in the classroom in order to train the students to use it appropriately and effectively. It is highlighted by the author that the assistance of the teacher can be helpful to develop technological skills that engage and support students in the process of learning a foreign language.

To conclude, using the Internet brings many conveniences. students and teachers can get any information they need. So, the Internet can and should be used not only passively but also actively. Students can try themselves not as consumers, but as providers of information.

**References:**

1. Abaimova T.V. The use of information technology in the process of teaching English at the initial stage // English at school. - 2012. - No. 4. - P. 44 - 49.
2. Kaspin I. V. Segal M. M. New technologies in teaching foreign languages <http://linguact.hyperlink.ru/articles/kaspinandsegal.html>
3. Rogova G.V. Writing in teaching a foreign language // Foreign languages at school. - 2003. - No. 6. - P. 18 - 3



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA FANINING O'RNI

**Kuralov Bahodir Abdumalikovich**  
Angren shahar 30-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
II-toifali texnologiya fani o'qituvchisi  
Tel: +998998467620

**Annotatsiya:** Maqola texnologiya fani zamon talab qilayotgan dolzarb va muhim fanlardan biri ekanligi va uning umumta'lim maktablarida tutgan o'rni haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** kreativlik, nostandart yechim, pedagogik texnologiya, intellekt.

Mehnat ta'limi fani nomi “Texnologiya” fani deb o'zgartirildi. Texnologiya fani umumiy o'rta ta'lim fanlari orasida asosiy kasb-hunarga yo'naltiruvchi fan hisoblanadi, shu sababli texnologiya fanining har bir dars jarayonida o'quvchilarga kasb-hunarlar haqida ma'lumotlar berish bilan birga ularni to'g'ri va ongli kasb tanlashga o'rgatiladi, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olishiga zamin yaratiladi. O'quvchi kundalik hayoti uchun zarur narsalarni shu fan orqali tayyorlay oladi.

Texnologiya fani ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasada o'quvchini kelajak hayotga tayyorlaydi, boshqa fanlardan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini rivojlantiradi. Bu fan orqali yosh avlodda ijodkorlik xususiyatlari namoyon bo'la boradi ijodkorlik – bu yangi g'oyaga asoslangan moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratishdir. Texnologiya fani ham bugun zamon talab qilayotgan dolzarb fanlardan hisoblanadi. Maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda texnologiya fanining o'rni alohida bo'lib, ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning dars va amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, tashabbuskorligini, izlanuvchanligini oshirish evaziga o'zlashtirish samaradorligini ta'minlash hamda olgan bilimlarini hayotga tadbiiq etishni o'rgatishdan iborat.

Maktablarda o'qitiladigan texnologiya fani 1-9 sinflarda o'qitilishini e'tiborga oladigan bo'lsak, har bir davrda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ijodkorlikka yo'naltirib o'qitiladi. 1–4 sinflarda texnologiya ta'limining mazmuni, qog'oz va karton bilan ishlash, tabiiy materiallardan turli buyumlar yasash, eng sodda texnologiya amallari va ish qurollaridan foydalanishni o'rgatishdan iborat. Bu sinflarda o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ta'lim mazmunini e'tiborga olgan holda ijodiy topshiriqlar berish, amaliy ish usullarini tanlash zarur. Ana shu maqsadda turli pedagogik texnologiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Yuqori sinflarda texnologiya darslari, yo'nalishlar asosida o'qitilishi va darslarning katta qismi amaliy mashg'ulotdan iborat ekanligini nazarda tutgan holda ta'lim ijodkorlikka yo'naltirish xususiy yondashuvni talab etadi. Ijodkorlikni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati katta. Pedagogik texnologiyaning mazmuni bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan metodlarga bog'lik. O'quvchilardagi ijodkorlikni rivojlantirish esa biz o'qituvchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Texnologiya darslariga oid ijodkorlik kechalarini tashkil etish tadbirlarni har o'quv choragi va yil oxirida o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda o'quvchilarning ijodiy qilgan ishlari namunalari namoyish qilinadi va taqdimotlar o'tkaziladi. Kasbiy kamolot jarayoni mutaxassisning kasbiy o'zini o'zi belgilashning manbai hisoblanadi. Ular shaxsiy-kasbiy sifatlarning shakllanish va kamol topishini nazarda tutadi. Shaxsiy xususiyatlarga va kasbiy faoliyatning motivatsion asoslariga esa erkin muloqot yurita olish, hissiy barqarorlik, dominantlikka intilish, ijtimoiy yetuklik, ijtimoiy dadillik, ishonuvchanlik, mustaqillik, ishonch, o'z-o'zini nazorat qilish, qo'zg'aluvchanlik, asabiy taranglik, muvaffaqiyatga intilish, yutuqqa ehtiyoj, o'z-o'zini baholash kiradi.

Xulosa qilsak, texnologiya fani mashg'ulotlari o'quvchilarning ijodkorliklarining rivojlanish omillaridan biridir, ya'ni texnologiya darslari o'quvchilarda ijodkorlik, yaratuvchanlik kabi fazilatlarini shakllanishi, o'quvchilarda ishga ijodiy yondashish, o'z-o'zini boshqarish, ishdagi kamchiliklarni o'z vaqtida topish, o'z-o'ziga talabchan bo'lish, maqsadga intilish kabi xislatlarni namoyon bo'lishiga hamda ijodiy qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Qo'ysinov O.A., Tohirov O'.O., Mamato D.N., Aripova D.F. Ro'zg'orshunoslik asoslari. // O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. - T.: 2017.-46 b.



**МАКТАБДА ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ФАНИ О’ҚИТИШДА “ҚОР БО’РОН”  
INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH  
USULLARI**

**Masharipova Zamira Masharibovna  
Safayeva Barno Rahimberganovna**  
Qo‘shko‘pir tumanidagi 8- son maktab  
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “Qor bo‘ron” metodi orqali maktablarda o‘quvchilarini ona tili va adabiyot fanlarga qiziqitirish, aqliy, ruhiy, axloqiy sifatлари va yoshlikdan fkrilash qobilyatini oshirishga bog‘liq bo‘lgan ma‘lumotlarni qamrab olgan.

**Kalit so‘z:** metod, interfaol, ta‘lim, tarbiya, o‘qituvchi, o‘quvchi, pedagog.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) ifodalanib, lug‘aviy nuqtai nazardan “inter” - o‘zaro, ikki taraflama, “act” - harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma‘nolarni anglatadi.

Interfaol ta‘lim — ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatlarını o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta‘lim.

O‘qituvchi ta‘lim jarayonida interfaol ta‘lim yordamida o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o‘z - o‘zini nazorat, o‘z - o‘zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr - mulohazalarini erkin bayon qilish, o‘z nuqtai nazarlarini ximoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarını shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi.

Yuqori sinflarda ona tili, adabiyot va boshqa fanlardan beriladigan bilimlar mazmunini o‘zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so‘zlarning o‘zgarishi va gapda so‘zlarning bog‘lanishi haqidagi, so‘zlarning morfemik tarkibi va so‘z yasalishi, so‘zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o‘zbek tilining to‘g‘ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Ta‘lim jarayonida didaktik o‘yinli texnologiyalar didaktik o‘yinli dars shaklida qo‘llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayonini o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashtiriladi. Shu sababli, talabalarning bilim olish faoliyati, o‘yin faoliyati bilan uyg‘unlashgan darslar didaktik o‘yinli darslar deb ataladi.

“Qor bo‘ron” metodi ikkiga ajratilgan guruh o‘quvchilari bir muammo yuzasidan eng ko‘p to‘g‘ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to‘g‘ri javob yumaloqlangan qor ko‘rinishida o‘sha guruh hisobiga yozib qo‘yiladi; to‘plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo‘lishi mumkin. Guruhlar qo‘yilgan muammoni ma‘lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma‘lum qilishadi. Muammo yechimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

Masalan: Bu metoddan “So‘z turkumi” tushunchasini hosil qilishda foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilarga quyidagi savolni beriladi:

- So‘zlarni ma‘nolariga ko‘ra qanday turlarga bo‘lib o‘rganiladi?

Ularning javobini doskaga yozib boriladi. Shundan so‘ng

- shaxs va narsa bildirgan so‘zlar ot;
- belgi bildirgan so‘zlar sifat;
- harakat bildirgan so‘zlar fe‘l;
- miqdor bildirgan so‘zlar son degan atama bilan tanishtirildi va yuqoridagi so‘zlar tarmoqqa kiritildi.

O‘ylang ot, sifat, fe‘l, sonni bitta so‘z bilan nima deb nomlash mumkin?

So‘z turkumlari mavzusi bo‘yicha klaster tuzishdan mavzuni o‘rganmasdan oldin foydalanish o‘quvchilarni yangicha fikr yuritishga undaydi. Metodist olimlar aytganidek, klasterni mavzuni o‘rganishni boshlash jarayonida tuzish “ bilimlarga yetib borish strategiyasi” ekanini isbotlaydi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar.**

I.O.U.Avlayev, S.N. Jo‘rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta‘lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2017





## MUMTOZ ADABIYOTIGA XOS SHE'RIY JANRLARNI O'RGANISH

**Muhambetova Zulfiya Djalolovna**

Angren shahar 5-umumiy o'рта ta'lim maktabining

I-toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tel: +998 99 461-04-17

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Navoiy g'azallari tasavvuf dunyosining har bir maqomi va manzillaridagi ruhiy holat, bu manzillarni kashf etilishi haqida yozilgan. Komil insoning buyuk Ilohning huzuriga talpinish, qalbi ma'rifatga g'arq Do'st diydoriga talpinish, Navoiy g'azallarida turfa rang-u ohang, suvrat-u san'atlar orqali takror-takror talqin etilishi haqida fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** istiora, vasl, mubolag'a, muvashshax, tashbex, mumtoz adabiyot.

Keyingi yillar ichida adabiyotimiz tur va janr xususiyatlarini o'rganishga qiziqish kuchaydi. Ma'lum bo'ldiki, o'zbek lirik poeziyasining turli-tuman janr va shakllarida yaratilgan asarlarni tushuntirishda o'qituvchilarimiz hali qator qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar.

Adabiyot o'qituvchisi lirikaning janr xususiyatlarini ham, badiiy-poetik xususiyatlarini ham, chuqur bilishlari kerak albatta. G'azal, muxammas, qit'a, ruboiy, tuyuq, fard, masnaviy qasida janrlariga, taxallus, muvashshax, tashbex, tashxis san'atlariga doir shu bilan birga ularni o'rgatish jarayoniga bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni adabiyot o'qituvchisi o'z ustida ishlashi jarayonida mukammal o'rganishi muhim sanaladi.

Bunda she'r vaznlarini o'qitish adabiyot o'qituvchilari uchun muarakkab mavzulardan biri sanaladi. Sababi vaznlarni o'rgatish uchun o'quv dasturlariga nisbatan kam soat ajratilgani barobarida mazkur mavzuni o'qitish metodikasi ilmi ham yetarli ishlab chiqilmagan. Anvar Hojiahmedovning "Maktabda aruz vaznini o'rganish" qo'llanmasi bu boradagi yagona manba bo'lib turibdi. "O'zbek aruzi lug'ati" ham o'quvchilarga ko'p asqotadi. O'quvchilarga barmoq vaznining puxta o'rgatilishi, bizningcha aruz o'rganishning birinchi shartidir. Yo'qsa, ish bir necha barobar ortadi va qiyinlashadi, bunda, birinchidan, barmoq vazni to'g'risida tushuncha beriladi.

O'ta murakkab sanalgan aruzni o'qitishga barmoq haqidagi bilimlar tayanch nuqta vazifasini o'taydi, bu vazifani amaliyotga qo'llash yuzasidan shakllantirilgan ko'nikma va malakalar aruzda ham tadbiiq etiladi. O'quvchilarning bo'g'in, ritm, turoq, misra, band kabi barmoq yuzasidan olingan bilimlari ifodali o'qishga ularni qo'llay bilishlari aruzni o'rganishda qo'l keladi. Barmoq vazni haqidagi tushunchalarni 5-sinfdan boshlab tadrijiylik asosida o'rgatish mumkin. Boshlang'ich sinfdan bo'g'in haqida tushuncha berilgani hamda ona tilidagi bo'g'in tushunchasi barmoqdagi bo'g'inga aynan mosligi ishni yengillashtiradi, asta-sekin turoq, misra, band haqida ma'lumot berib boriladi.

O'qituvchi aruz o'rgatishni 8-sinfdan boshlar ekan, avvalo, bu vazn etimologiyasi, tarqalishi, rivojlanishi to'g'risida qisqacha ma'lumot berib o'tishi maqsadga muvofiq. Bu ma'lumotlarni A.Hojiahmedovning "Maktabda aruz vaznini o'rganish" kitobidan qisqacha keltirib o'tamiz.

Aruz she'riy tizimi arab zamirida vujudga kelgan. Mazkur vazn arab she'riyatiga VIII asrdan tadbiiq etilgan IX asr boshlaridanoq fors-tojik adabiyotida ham qo'llanila boshladi. IX-X asrlarda turkiy xalqlar orasidan yetishib chiqqan ko'plab shoirlar o'sha davr an'analari muvofiq o'z asarlarini arab tilida bitar ekanlar, aruz o'lchovlariga asoslanadilar. Abu Mansur as-Salobiyning "Yatimat ad-dahr" kitobida bunday ijodkorlardan ko'plarini nomi va asarlari zikr qilingan. XI asrda Yusuf Xos Hojibning "Qutag'u bilig" XII asrda Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-Haqoyiq" dek dostonlarning yaratilishi aruz nazariyasi amaliyoti o'zlashtirilganligi, uning rivojlanib borayotganligidan dalolat beradi. XIII XIV asr davomida aruz o'lchovi Pahlavon Muhmud, Badriddin Chochiy kabi shoirlarning forsiy she'riyatida ham, Nosiriddin Robg'uziy, Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroiy kabi sohibi qalamlarning asarlarida ham keng qo'llangan va o'zbek adabi yotining asosiy she'riy mezonini bo'lib qolgan. XV asrdan keyin ko'plab o'zbek shoirlari o'zlarining mo'jizakorlik asarlarini shu vaznda yaratdilar. Bu ma'lumotlar berilgach, ikkala, (barmoq va aruz) she'riy tizim o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni izohlab berish darkor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Alisher Navoiy. 6-jild. Hayrat ul-abror. T.: "Fan", 1993
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. Hamsa: Farhod va Shirin. - T.: 1991-yil
3. A.Hojiahmedov. Maktabda aruz vaznini o'rganish. T.: O'qituvchi. 1995.
4. A.Hojiahmedov. O'zbek aruzi lug'ati. T.: Sharq, 1998.



## COMMUNICATIVE READING ACTIVITIES

**Nazbergenova Ziyada Iklasovna**

Qoroqolpog'iston Respublikasi Kegeyli tumani  
17-son maktabining Ingliz tili fani o'qituvchisi  
ziyada.nazbergenova.87@bk.ru

**Annotation:** This article focuses on the new techniques that make the reading lesson more communicative.

**Key words:** Jigsaw reading, running dictation, technique

Reading is an essential part of every lesson. Our textbooks are designed combining all four skills listening, speaking, reading and writing. However Students' receptive skills are more improved compared to productive skills. What is the reason for that? Because 75% of lesson time is devoted to reading. We seldom do communicative and engaging activities in class. Still speaking is a big problem for our students. But we can make our reading lessons more communicative as well. The aim of this article is to consider a few approaches and activities to make classroom reading more communicative, by integrating it with other skills.

Students are overwhelmed when they are presented with a large amount of text. Jigsaw reading is one of the best techniques that help us to make our students read a long text in a short time through communication and fun. This activity integrates several skills such as reading, listening, speaking and communication. Sequences of jigsaw reading:

1. An appropriate reading text divided into 3-4 sections.
2. Divide the students into different groups, one for each section of the text.
3. Explain that each group will be responsible for reading one section of the text.
4. Give the students time to work in their groups to read and discuss their section of the text.
5. When all of the groups have completed reading the text, divide the class into new groups.

There is one student from each of the original groups in the newly formed groups. Each group represents the entire version of the reading text.

6. Each member of the group shares and explains the text that their original group was responsible for. Students should not read the text out loud; instead they should listen and discuss together.

A running dictation incorporates movement reading, writing, listening and speaking, group work and fun. Students take turns reading, remembering and retelling the information to each other. Each student must be a runner, and each student must write. Directions:

From a group of 6. Number each student 1 to 6. This is a race. When the time starts, student 1 will run to the paper number 1. Read and remember the answer and come back to tell it to the group. Each student will write the answer for the number 1. The student to will run to the paper 2, read and remember it, and come back to tell the group, who will write the answer to number 2, then number 3, and so on. If the runner forgets they have to go back and try again.

In order to have a productive lesson we need to integrate more than one skill in one lesson. It is not possible to do all four listening, reading, speaking and writing in one lesson. However we can combine more than one skill in one activity through communication and fun.

### References:

1. "Jigsaw reading" by Gareth Rees, British Council, teaching English Aronson, E. (2000-2008). Jigsaw Classroom: Overview of the technique
2. <https://www.jigsaw.org/#overview>
3. Aronson, E., & Patnoe, S. (1997). The jigsaw classroom: Building cooperation in the classroom (2nd ed.). New York: Addison Wesley Longman.
4. Slavin, R. E. (1980). Cooperative learning in teams: State of the art. Educational Psychologist, 15, 93-111



## BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

**Olimov Xurshid Avazbekovich**

TFI akademik litseyning biologiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Biologiya fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifati va samaradorligini oshiruvchi omil hisoblanadi. Har bir mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda ko‘rgazmali animasiya, virtual laboratoriya va amaliy ishlar amalga oshirishda, ya’ni taqdimot materiallari tayyorlashda foydalanish mumkin.

**Kalit so‘z:** virtual laboratoriya, didaktik o‘yin, ta’lim sifati.

Biologiyani o‘qitishda ATlaridan foydalanib o‘quvchilarning o‘quv motivlarini rivojlantirish, tabaqalashtirilgan ta’limni tashkil etish, o‘zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash, tahsil oluvchilarning mustaqil va ijodiy izlanishlarini tashkil etish mumkin.

Ma’lumki, axborot texnologiyalari ta’lim – tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda qo‘llanilganda ko‘zlangan samarani beradi. Mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini uyg‘unlashtirishda axborot texnologiyalarining axborot, o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, ko‘rgazmalilik, o‘quvchilarning bilimlarini nazorat qilish va baholash, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va qiziqishini orttirish kabi funksiyalari asos qilib olindi.

Biologiyani o‘qitishda foydalaniladigan axborot texnologiyalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ta’limiy vazifasi - o‘quvchilarga o‘rganiladigan mavzu bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha materiallar, asosiy tushuncha va ularning izohlari, turli jadvallar, diagramma, murakkab ilmiy va ishlab chiqarish xarakteridagi tajribalar to‘g‘risida keng qamrovli bilim berish imkoniyati vujudga keladi.

2. O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini yo‘naltirish vazifasi — o‘quvchilar axborot texnologiyalari mahsullari bo‘lgan ta’lim beruvchi, modellashtirilgan va nazorat dasturlari, shuningdek, animasiyalar vositasida ishlash barobarida, mazkur dasturlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni ham o‘zida mujassamlashtiradi, ya’ni o‘quvchilarni chuqur va mustahkam bilim olishga yo‘naltiradi.

3. Ko‘rgazmalilik vazifasi — boshqa o‘qitish vositalaridan farq qilib, axborot texnologiyalari mahsullari bo‘lgan animasiyalar o‘quvchilar tomonidan hayotiy jarayonlarni harakat va dinamik tasvirlash imkoniyati mavjudligi sababli, o‘qitish jarayonida o‘rni beqiyos.

4. Nazorat vazifasi — biologiya ta’limining barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari darslarda, shuningdek, biologiya darsining barcha bosqichlarida o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash, nazoratning haqqoniyligi, muntazamliligi, keng qamrovliligi, takrorlanuvchanligini amalga oshiradi.

5. Rivojlantiruvchi vazifasi.

6. Tarbiyaviy vazifasi.

7. Ilmiy dunyoqarashni rivojlantiradi.

Biologiyani o‘qitishda axborot texnologiyalarining yuqorida qayd etilgan vazifalarini e’tiborga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish yo‘llarini belgilash va amaliyotga joriy etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Biologiyani o‘qitishda axborot texnologiyalarning quyidagi mahsullaridan foydalanish mumkin:

1. Har bir mavzu mazmuniga asosan ko‘rgazmalilikni amalga oshirish, ya’ni taqdimot materiallari.

2. Biologik jarayonlarning animasiyasi.

3. Virtual laboratoriya va amaliy ishlar.

4. Ishlab chiqarish korxonalariga virtual ekskursiya.

5. Biologik jarayonlarning modellashtirilgan dasturi.

6. Biologik jarayonlarning ta’limiy dasturlari.

7. O‘quvchilarning mavzular bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun nazorat dasturlari.

8. O‘quvchilarning mustaqil tahsili va ishi uchun o‘quv-axborot saytlari.

9. Didaktik o‘yinga asoslangan animasiyalar.



10. Qiyinchilik darajasi turlicha bo'lgan ijodiy topshiriqlar dasturi.

Biologiyani o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari juda katta. Barcha tabiiy fanlar kabi biologiyani o'qitishda tabiiy vositalar muhim o'rin tutadi, lekin tasviriy vositalarni kompyuter xotirasiga joylab, ulardan mavzuni o'rganish jarayonida foydalanish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. J.O.Tolipova “Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish” 1-2-qismlar 2005- yil
2. J.O.Tolipova, A.T.G'ofurov “Biologiya ta'lim texnologiyalari” “O'qituvchi” 2002 -yil
3. J.O.Tolipova “Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalaridan foydalanish” 2004 -yil



**SINONIMLAR VA ULARNING FUNKSIYASIGA KO’RA TASNIFI**

**Qurbonova Rashida Jumyozovna**  
Xorazm viloyati Hazorasp tumani,  
52 – son maktab o’qituvchisi.  
Telefon ++99893 285 44 42

**Annotatsiya:** Chet tili va ularning o’rganilishiga talab brogan sari oshib borayotgan davrda til o’rganish, ayniqsa ingliz tilini o’rganish jarayonini osonlahtiruvchi chora tadbirlar juda muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so’zlar:** mount, climb, ascent, fraza, befall, happen, look.

Chet tili va ularning o’rganilishiga talab brogan sari oshib borayotgan davrda til o’rganish, ayniqsa ingliz tilini o’rganish jarayonini osonlahtiruvchi chora tadbirlar juda muhim ahamiyatga ega. Bu borada lug’at boyligini o’stirish uchun sinonimlar eng yuqori ahamiyatga ega. Sinonimlar tasnifiga ko’ra quyida turlarga bo’linadi:

Semantik jihatdan bir biriga bog’liqligi mavjud sinonimlar:

to ascent	to mount	to climb	tirmashmoq.
to happen	to occur	to befall	sodir bo’lmoq.
to look	to appearance	to appearance	ko’rinish.

**1. Dialekt (lahja) sinonimlar**

Misol uchun:

Lift	elevator	lift
Queue	line	navbat
Autumn	fall	kuz

**2. Rasmiy uslubda qo’llaniladigan sinonimlar.**

Clever	Bright	brainy	Intelligent	Dever-clever
Betaraf	Faqat kattalar tomonidan kichiklar haqida gapirilganda aytiladi	Oliy ma’lumotli odamlar tomonidan foydalanilmaydi	Ijobiy fikr	Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr

• Matnlar ba’zan aniq so’zlar bog’lanmasiga urg’u beradi va boshqa turdagi so’zlar bog’lanmasini cheklab qo’yadi. Turli xil ma’nodagi so’zlar aniq matnlarda sinonim bo’la oladi.

Misol uchun:

Tasteless	Dull	bemaza
Active	curious	faol
Curious	responsive	sinchkov





Sinonimlar ijtimoiy odatlarga ta'sir qila oladi.

4. Shakliy sinonimlar

Child	infant	Kid
Betaraf	Voyaga yetkazmoq	norasmiy
To o'lguncha		To o'lguncha

Sinonimlik ingliz tilining o'ziga xosligini ifodalaydi.

Yozuvchi va notiqning bir necha so'zlarini bir hil ma'nolarini jamlab, ularga yorqin tasvir bilan ishonch qo'shishdagi holatni tasvirlaydi.

Misol uchun:

- Safe & sound - sog'- salomat
- Lord & master – ho'jayin
- First & foremost – birinchi navbatda
- Safe & secure – xavfsiz
- Stress & strain –
- By force & violence – kuch bilan

Ingliz tili tarixi chuqur ildiziga egadir. Mahalliy fransuz sinonimlari bilan birga o'zlashtirilgan so'zlardan foydalanish odat tusiga aylangan edi. Ular juda tez-tez turli birikmalar ramzlar idiomalar orqali tasvirlanadi. Sinonim – bildirilgan fikrlar o'ziga hosligi va uslubidagi farqlarni saqlash lingvistik elementlarning ma'nolaridagi muvofiqlikdir. Sinonimlar – bazi matnlardagi o'zgarishsiz bitta yoki undan ortiq aniqligi bilan birga detonatsional ma'nolardagi ega birliklardir, qo'shimcha qilib aytganda nutqning bir qismiga tegishli ikki va undan ortiq so'zlardir.

Ularning o'ziga xos hususiyatlari fikrlarni, uslubiy hususiyatlarning mavjudligini yoki ixtisoslashgan bog'liqliklarni ifodalaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Arnold I.V. Lexicology of modern English. M. 1989.



## ПЕРИФРАЗЛАРНИНГ БАДИИЙ АДАБИЁТЛАРДА КУЛЛАНИЛИШИ

**Qutlimurotova Yulduzxon Komiljonovna**

Xorazm viloyati Nazoras tumani,

52 – son maktab o'qituvchisi.

Telefon +99893 860 67 97

**Аннотация:** Ўзбек тилшунослигида кучим турларидан бири булган перифразани укув кулланмаларига олиб кирган тилшунос Р.Кунгуровдир. 1983 йилда нашр этилган “Ўзбек гили стилистикаси” кулланмасида куйидагилар баён килинган: “Перифраз. Кишиларнинг отларини ёки бошқа предметларнинг номини тугридан-тугри гапирмасдан, уларни турли хил суз ёки тасвирий иборалар воситасида баён килиш перифраз дейилади.

**Калит сузлар:** Перифраз, тасвирий, предмет, услубий, органик, аорганик.

Ўзбек тилшунослигида кучим турларидан бири булган перифразани укув кулланмаларига олиб кирган тилшунос Р.Кунгуровдир. 1983 йилда нашр этилган “Ўзбек гили стилистикаси” кулланмасида куйидагилар баён килинган: “Перифраз. Кишиларнинг отларини ёки бошқа предметларнинг номини тугридан-тугри гапирмасдан, уларни турли хил суз ёки тасвирий иборалар воситасида баён килиш перифраз дейилади. Бу термин перифраза, парафраз, парафраза деб ҳам юритилади. Хар кандай номни бошқа ибора билан алмаштириш ҳам перифраз булавермайди. Алмаштирилган предмет билан тасвирий ибора уртасида мазмуний жихатдан кандайдир боғлиқлик, яқинлик булиши керак. Шу билан бирга, у алмаштирилган нарсанинг муҳим, ахамиятли хусусияти тугрисида укувчи ёки тингловчида аниқ тасаввур хосил килиши лозим.

Мисоллар: ...Эй, цалам тебратувчи азиз цадрдоним, Бухоройи шарифда мундог бепаруезлар хукуматдорликка миниб, сизнингдек ахли илмларга озор берган булсалар, уларнинг ҳам жазоларини бергувчи Каххор Зулжалол эгам бордир (АД.)”

Парафразалар маълум булагига ёки булаклари кучма маънода булиб, улар маъноси синтездан таркиб топган, бир тушунчани билдирувчи лугавий бирликдир.

Перифраза нуткнинг ранг-баранглигини, таъсирчанлигини, бадийлигини таъминловчи услубий воситалардан бири ҳисобланади. Маълум жихатлари билан мазкур ходиса ухшатиш, метафора, метафорик эпитет каби бадий тасвир воситалари билан бир каторда туради”.

Хаёт манбаи - сув. Мисол: Инсонлар хаётидаги ахамияти катталиги туфайли кадимдан сув хаёт манбаи деб келинади. (Ўз СЭ. 10-т., 368-бет) Қдцимги дунё файласуфлари сувни х,аёт учун зарур булган турт элементдан бири деб тушунганлар. Изохли лугатда сувга шундай изох берилган: “Сув водород билан кислороднинг химиявий бирикмасидан иборат тузсиз аниқ суюқлик; табиатда муз ва буг ҳ,олида х,ам учрайди, барча тирик организмларнинг ва купгина моддаларнинг таркибий қисмини ташкил қилади”. “Одам танасидаги барча суюқлик ва туқималар таркибида огирлигига нисбатан 65 % чамасида сув булади. Одам очликка бир ойдан ортиқроқ чидаши мумкин, лекин сувсизликка бир неча кундан ортиқ чидай олмайди. Сувда организмнинг яшаши учун зарур булган органик ва аорганик моддалар эрийди. Одамнинг сувга булган эҳтиёжи, иқдим шароитига қараб, суткасига 3-6 литрни ташкил этади”.

Ушбу изоҳда х,аёт манбаи перифразасининг мотивлашуви акс этган.

Бадий қахрамонларга салбийлигини ёки ижобийлигини курсатишда ҳам перифразадан кенг куламда кулланилади. В.Шекспир “Othello” трагедиясидан олинган “green - eyed monster” перифразаси ҳам умумхалқ тилида анъанавий тарзда кулланилади ва уз маъносида келади. Бу перифразани Джек Лондон ҳам анъанавий тарзда “True for Dick,- Terrence supplemented. - And it's helping you I am to the full steps the green-eyed monster” ишлатади.

Терренс “the green-eyed monster” перифразасини суҳбатдошига нисбатан ута даражадаги рашқчилигини курсатиш учун куллайди. Узига хос булган перифразаларни контекstdан ташқари ҳолатда тушуниш қийин асарларда уларга нисбатан қушимча тарзда калит сузлари берилади ва улар орқали тушуниб олиш мумкин. Dear creators, interesting members of society, little lady of big house, immortal lights, iron lady каби перифразалар шахсларни ифодалашда кулланилади.



Инглиз бадиий адабиётида ҳам Чарлиз Диккенс асарларида стилистик троплар каторида перифразаларни куплаб учратиш мумкин. “Nothing to live up on but love I fell in love and married, and surrounded myself with little rosy cheeks ” бу ерда метаномик перифраза “болалар” бутун бирликни болакайнинг кичик бир чехраси оркали ифодаланади. Куйидаги перифразаларни ҳеч қандай лугат ёрдамисиз бадиий адабиётларда учратиш ва бир пайтни узида тушуниш мумкин.

-to turn over a new leaf (make a new, a better start),

-one’s better half (one’s wife)

-to tie the knot (to marry)

-the House of God (the church or chapel)

Чарлиз Диккенснинг купгина асарларида бу перифразалар кенг қулланилади.

“Mr. Trotter made no reply, for the little pink pocket handkerchief in full force” (Ch. Dickens, *Pickwick Papers*, p 512) йиглашни бошламок маъносида. “I am not so blind, Sam, as not to have seen, a long time since, that you entertain something more than friendly feeling (севги) Mrs. Winkle’s maid”,-said Mr. Pickwick.”

Мисол учун “flash and blood” киз ёки угил фарзанд мисолида, “An affair of honor”-дуэль маъносида, “fair sex” аёл маъносида ва шу каби мисоллардан қуришимиз мумкинки идеографик перифразалар аънавий перифразалрдир ноанъанавий перифразалар “stream of life” қон маъносини беради “the lord of the day” қуёш каби стилистик жило берилган перифразалар эмоцияни қурсатишга ёрдам беради.

“He ought to be ashamed of himself... to allow his wife to be treated in this way, by a parcel of young cutters and carvers of live people’s bodies ”. Бу метаномик перифраза Диккенс инсон эга бўлган предмет номи билан унинг исмини атайди. Бутун бир гапга тегишли бўлган аникловчи “young” уларни қандай угри, қаззоб одам эканликларини аникдаб бермоқда.

“Gentlemen! On my left Madame Bolite in the most wonderful and artistic terpsichorean exhibition of the country”.

Юқоридаги мисолда балет саънатини асосчиларидан бири мифологик муза Терпсихора орқалигина балет ҳақида гап кетаётганлигини билишимиз мумкин.

“The painting and repainting began upon the very day of the young gentleman’s departure, and now behold: the wedding morning was come and Cornelia in a new pair of spectacles was waiting to be led to the hymeneal altar”.

Мисоллардан қуришиб турибдики тилдаги айрим ходисалар, баъзи луговий бирликлардан бири нарса-ходисаларни уларни қайта номлаш орқали характерлайдиган перифраза ходисасидир.

#### АДАБИЁТЛАР:

1. Абдурахмонов Ф. Ёзма нутқ; услубини яратувчи воситалар // *Ўзбек тили ва адабиёти*. -Тошкент, 1994. - 3 -сон. -Б. 22-32.

2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Советская энциклопедия, 1969. -312 с.

3. Macmillan English dictionary -L., 2004

4. The Oxford - Duden Pictorial English Dictionary. - М., 1995.

5. [www.filologdirect.narod.ru/](http://www.filologdirect.narod.ru/)



## NAVOIY IJODIGA YONDASHUV USULIDA SODDALIK

**Qutlimurotova Zebo Komiljonovna**

Xorazm viloyati Hazorasp tumani,

52 – son maktab o'qituvchisi.

Telefon +99897 451 05 87

**Annotatsiya:** Yosh avlodning ma'naviyatli shaxs sifatida kamol topshida yaratilgan asarlarni tushunish katta ahamiyatga ega ekanligi inobatga olinib, ushbu maqolada Navoiyning ijod olamiga kirishning yangicha usuli haqida ma'lumotlar berilgan. Asosiysi shuki, Navoiyni tushunishda murakkablikdan chekinib, soddalik tamoyili targ'ib qilingan.

**Kalit so'zlar:** nafs, ishq, ko'ngil, bedil, sabr, tavoze, shariat, tariqat, soddalik, tasavvuf.

Navoiy nafaqat mumtoz adabiyot vakili o'tmish – folklardan to o'z davrigacha va bugungi kun XX—XXI asr adabiyotining tengsiz bilimdoni sifatida gavdalanmoqda. Xo'sh, sabab nimada?

Navoiyni puxta bilish uchun jiddiy va maxsus tayyorgarlik ko'rish shart emas, nazarimda. Shunchaki qalb bilan chin ko'ngildan real yondasha bilsak, bas. Ruhiiy zo'riqish, hissiy toliqish asosida tahlilga kirishar ekanmiz, bir narsani ko'ngil erkinligini esdan chiqarib qo'yyapmiz. Alisher Navoiy hamma narsani erkinlik (fikir erkinligi, tafakkut hurligi) da talqin etgan. Uning asarlari olamiga kirish uchun bir yo'l — muallifga aylanish, uning izidan borish tamoyili asqatadi. Real haqiqat shoir ijodining asosi bo'lgan. Buni “So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil” kabi misrasidan ham anglash mumkin.

Senki nuqson ichra komilsen, base, Olim aytib o'zni, johilsen, base. Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov ushbu satrlarga shunday yondashadi: “Nuqson ichra komillik” degani nima? Bu — nafs dastidan xalos bo'lmagan o'zlik. Navoiyning komillik maslagi nafs hukmronligidan butunlay ozod yangi bir ru-honiy “Men” salohiyatiga asoslanadi. Insonning iymoni va vijdonini ana shu “Men” o'z tasarrufiga olmaguncha u hech qachon komillik zavqiga yetib borolmaydi. Hurlik, ezgulik, haqiqat to'g'risidagi iddaolar shunchaki quruq gap bo'lib qolaveradi. Sharqning buyuk shoirlaridan biri: “Olohni juda ochiq ko'rishni istasang, ”Men”ni juda ochiq ko'rishni o'rgan”, deganda, nafs uchun “o'lgan” ruh uchun hayot boshlagan o'sha yangi “Men”ni e'tiborda tutgan”. Qachonki, inson o'sha “Men”ni topar ekan, u bilan birga ko'ngilni kashf etadi. Inson o'z taqdiri yo'lidan maqsad bilan borar ekan ISHQqa aylanadi.

ISHQ nima o'zi? ISHQning debochasi — nazar. Ko'zing tushgan narsa yuzda nimtabassum zohir qila olsa, demakki, ishq asosi mehr ko'rinadi. Bu esa mohiyatni, ya'ni muhabbatni paydo qiladi. Uning kamolot darajasi ISHQ deyiladi.

KO'NGLIMNI G'AMU DARD ILA QON AYLADI ISHQ,

KO'Z YO'LIDIN UL QONNI RAVON AYLADI ISHQ,

HAR QATRANI BILMADIM QAYON AYLADI ISHQ,

BEDIL EKANIM BO'YLA AYON AYLADI ISHQ.

Navoiyda ISHQ, ISHQda Navoiy bor. Ijodning mantiqli asosi ham ISHQ. Ko'ngil hayotini ISHQsiz, ISHQ kamolini ko'ngilsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Navoiyning “Ba-doye ul-bidoya” devoniga mansub ushbu ruboiysi ham ISHQ va KO'NGIL haqida bo'lib, uni navoiyshunos Ibrohim Haqqulov quyidagicha talqin etadi: “Undagi” bosh qahramon — ISHQ. Chunki oshiq ko'ngilni g'am-u dard ila qon aylagan, “ul qonni” ko'z yo'lidan ravon oqizgan, “har qatrani” beiz qayerlargadir pinhon etgan va nihoyat “bedil”likni ayon etgan shu rahmsiz ISHQdir. “Bedil”likka tegishli e'tirof esa o'quvchida fikr qo'zg'aydi”. ISHQqa duchor OSHIQ, avvalo, xursand bo'lmog' I lozim. Zero, ISHQ mulohazakor mehmondir, har bir ko'ngilda qo'nim topavermaydi. Ruboiyda ISHQ, KO'NGIL real voqelik, bunda unga yondashuv uslubi xayoliy. Ya'ni ISHQ yurakni g'am bilan, dard bilan qonga aylantirdi-da, ko'zdan yosh misoli oqizdi va har qatrani beiz qaylarga-dir yashirib, oxirida yuraksiz qolganimni ayon etdi, kabi tushunish qaysidir ma'noda to'g'ri bo'ladi, lekin real hayotda bu o'lishdir. Yurak tomchi-tomchi qonga aylanib oqib tushsa, har qancha ulkan bo'lmasin, baribir, bir kun tugaydi. Bedillikni ayon et-guvchi esa faqat shu ISHQ bo'ladi. KO'NGIL, ISHQ mavjudligi o'z-o'zidan sabrni taqozo etadi. Sabr uchun eng avval aql va ilm zarur. Adabiyot olamining yirik vakili Abdulla Avloniy: “Sabr shunday bir kuchli narsadurki, shahvatni iffatga, g'azabni shijoatga, shiddatni hilmga, manmanlikni tavozega, yomonlikni yaxshilikka aylantirmakka quvvati yetar” deb ta'rif beradi.



A.Navoiyning yuqoridagi ruboiysiga hamohang tarzda bitgan "Nazm ul-javohir" asariga kiritgan quyidagi ruboiysi ishqda iztirob chekayotgan ko'ngilga hadyasi sifatida namoyon bo'lgan.

SABR ARCHI KISHIGA RANJ AFZUN AYLAR,  
OXIR KISHI FOLINI HUMOYUN AYLAR.  
SABRING NECHAKIM KO'NGILNI MAHZUN AYLAR,  
HAM SABR SENI ZAFARGA MAQRUN AYLAR.

Sabr qilish kishiga azob keltiradi, lekin oxirigacha turolsa, muvaffaqiyat qozona-di, deyilyapti, bir so'z bilan aytganda. Lekin navoiyshunos Ibrohim Haqqulov shunday ta'riflaydi: "Ruboiyga kengroq nigoz tashlab asl mohiyatni belgilash mumkin. Xo'sh, shoir she'rdan sabrning foyda va ahamiyati haqida so'zlamasdan, uning ranj va ko'ngilga mahzunlik yetkazishiga nega e'tiborni qaratgan?" Chunki ranj, mahzunlik real voqea, undan yetadigan baxtni xayoliy tasavvur etish har kimning o'z qobiliyat darajasi belgilaydi. Tasavvur eta olish, tushunish bu chinakam g'alaba. Navoiyning bu uslubi kitobxonni sinash va siylash yo'sinidir.

Navoiyshunos Husaynxon Yahyo: "Navoiyni tushunish uchun Navoiy bilgan va foydalangan bilimlarni, ya'ni Qur'on, sunnat, shariat, tariqat, tasavvuf va boshqa ilmlarni bilish, o'rganish kerak bo'ladi. O'rganganda ham asl manbalardan o'rganish darkor. Buning uchun, albatta, o'sha davr Islom olmda ilmiy muomalada bo'lgan tillarni yaxshi o'zlashtirib, manbalarni begonalarning tarjima yoki tavsiflari asosida emas, asl holatida o'rganish talab qilinadi" degan fikrlariga to'la qo'shilish mumkin, lekin bu holatda Navoiyni tushunish faqatgina tor doirada xos insonlar uchun bo'lib qolishi tabiiy. Bunda boshqalar, baribir, Navoiysiz qolib ketaveradi.

Shu o'rinda taniqli navoiyshunos Abduqodir Hayitmetov fikrlariga e'tibor qaratsak: "Garchi men butun umrimni Navoiy ijodini o'rganishga baxshida etgan bo'lsam-da, bu ummon tubiga yetolgan emasman". Ziyoli qatlam, albatta, Navoiyni tushunadi, tushunish baxtini boshqalar ham his etishini maqsad etsak, ayni mud- dao bo'lib, bugun davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan kitobxonlikni targ'ib etish ancha osonroq va muvaffaqiyatliroq bo'lishi mumkin. Zero, ilm oddiylikdan murakkabga qarab borish bilan shakllanadi. Navoiy lirikasining sir-sinoati, ta'sir quvvatini ta'riflash befahm bir ho'kizning qulashiga sababchi bo'lar ekan, nima uchun fahm-u farosat egasi oddiy inson mutaassir bo'lishi mumkin emas?

Navoiy g'oyalari, qarashlari bugungi davrda ham buyukligi bilan ahamiyatli ekan, yosh avlod vaqtning oliy hakam ekanligini tushunib, Navoiyning muhtasham ijodxonasi mohiyatiga yetishni, o'zini tanishni kechiktirmay boshlashi shart. Hazrati Bahouddin Naqshbandning ushbu fikrlari shu o'rinda ayni muddao: "Man zayyi'a vaqtahu fa vaqtahu maqtun"—"Kim vaqtni zoye qilsa, bas, u vaqt dushmanidir". Zero, bu haqiqatni Navoiy dahosi ham da'vat etmoqda: BU DAMNI TUT G'ANIMATKIM, KELUR DAMDIN ASAR YO'QTUR, NE DAMKIM O'TTI, XUD ANDIN KISHI TOPMAS NISHON HARGIZ.

Dunyo odamlari turli xil xarakter-xususiyatliki, har bir inson o'z qobiliyati, o'z imkoniyati darajasida yondashsagina, mavhumlik aniqlikka aylanadi. Xuddi shunday qilib, shoir asarlariga ham yondashish mumkin. Uni sira tushunmagandan ko'ra, o'zicha tushunish katta kashfiyot bo'lishi tabiiy.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Alisher Navoiy. MAT. T.: 2001.
2. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. T.: 2007.
3. www.ziyouz.com.





## MAKING AN ACADEMIC POSTER PRESENTATION EFFECTIVELY

**Rashidova G.I.**

teacher School № 65

Khatirchi district, Navai Region

**Abstract:** An academic poster is a summary of your research, scholarly, or creative project in a visually engaging way. It must be academically sound, highlighting the context of your work (through photographs, maps, etc.), your methods, and results (with graphs, charts, photographs, etc.). The article describes issues based on making an academic poster presentation effectively.

**Key words:** academic poster presentation, summary, context.

The poster should be able to stand on its own as a clear, logical presentation of your work, without any explanation from you. [Douglas Brounlie, (2007)]

The first thing you should think is what the purpose of poster presentations is.

The three parts of posters prep are?

- 1) Creating a Successful Poster
- 2) Preparing the “Presentation”
- 3) Knowing the Procedure
- 4) Posters are made for the eyes.

The poster is one of your researches. The audience is on the move, not sitting still. Thus, visual appeal is critically important. BALANCE Text and Graphics.

Most common error of new poster makers: too much text that is too small to read

Creating the Poster: Prepare Text, Title + Affiliation, Abstract (use all), Introduction, Methods, Results, Discussion...

You must follow the instruction as [Michael Alley [ww.writing.engr.psu.edu/posters](http://ww.writing.engr.psu.edu/posters)]

- Most students use Microsoft PowerPoint to design posters. Be sure to begin by setting the page size to your final poster size. More sophisticated programs such as Adobe InDesign, Illustrator, or Photoshop are other design options.

- Use large text (your text should be at least 18-24 pt; headings 30-60 pt; title 72pt.)
- Do not use more than 2-3 font styles total
- Use fonts that are easy to read (such as Times New Roman, Garamond, and Arial)
- Avoid jagged edges: left-justify text within text boxes or fully justify blocks of text
- Avoid too much text (no more than 800 words max) and undefined technical jargon (depending upon your potential audience)
- Choose colors carefully and pay attention to contrast. If in doubt, dark print on light background is best. Remember – some colorblind people cannot distinguish between red and green.
- Organize and align your content with columns, sections, headings, and blocks of text
- White space is important to increase visual appeal and readability (this is the “empty” space between sections, columns, headings, blocks of text, and graphics).
- Selectively incorporate charts, graphs, photographs, key quotations from primary sources, maps, and other graphics that support the theme of your poster. It is best to avoid using tables of data.

For each section of your work, be able to answer the **Wh**-questions: **who, what, when, why, where, how** presenting the Poster:

Prepare and Practice a 45-60 second response to “the killer question”: “So, tell me about your research”. One sentences each:

Discussion Presenting the Poster: “killer question example”

Given the rate of divorce [TOPIC] which is about 50% of all marriages

[SIGNIFICANCE], I wanted to examine whether young people believe that living together before marriage enhances the chance of marital success [RESEARCH QUESTION]. I designed a questionnaire which included some yes/no questions, some liker scale questions, and a semantic differential which I then distributed to a college population [METHOD]. Overall, participants revealed an interesting on trust between fairly high acceptances of cohabitation as positive for many aspects of a relationship such as working out household duties and increasing intimacy while still having some doubts about the desirability of a mate who'd lived with former partners



[RESULT]. This suggests that among young unmarried people, beliefs about cohabitation are actually pretty similar to beliefs about marriage -- where men and women prefer to live with someone who is committed to the relationship but who hasn't had too many previous live-in relationships DISCUSSION].Presenting the Poster.

#### Concluding Remarks

Well-organized and well-prepared poster sessions offer a better way than paper sessions to develop personal contacts in specialized fields as well as accommodate a large number of papers in one session. It is hoped that the general suggestions presented here will leave enough freedom to the authors for individual and imaginative layout of posters, yet provide the necessary information required for rapid and efficient transfer of information to the audience.

#### Sources:

1. Colin Purrington -[http://colinpurrington.com/tips/academic/poster design](http://colinpurrington.com/tips/academic/poster%20design) Creating the Poster: design & process
2. Rachel Dueck, NAU MarketingCreativeCoordinator <http://www.creat/posters>
3. Michael Alley <http://www.writing.engr.psu.edu/posters>
4. Douglas Brounlie, (2007) “Towards effective poster presentations”, European journal of marketing Iss 11/12, pp 1245,1283.



## ЖАҒ-ЖАҒ ЎСИМЛИГИ ТАРКИБИДАГИ ФЛАВОНОИДЛАРНИ ЎРГАНИШ

Sanayeva M.I.,

TFI akademik litseyi

Biologiya o'qituvchisi

Yunusходжиев D.Э.

TFI akademik litseyi 2-4T guruh o'quvchisi

**Аннотация:** Ер устки қисми таркибида қандлар, флавоноидлар (диосмин ва бошқалар), органик (лимон, олма, фумар, вино) кислоталар, эфир мойи, сапонинлар, витамин С, В2 ва К, каротин, инозит, холин, ацетилхолин, ошловчи ва бошқа моддалар бор. Уруғи ўз таркибида 28 фоизгача ёғ ва оз миқдорда синингрин гликозиди сақлайди.

**Калит сўзлар:** флавоноидлар (диосмин ва бошқалар), органик (лимон, олма, фумар, вино) кислоталар, эфир мойи, сапонинлар, инозит, холин, ацетилхолин, синингрин гликозиди

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2015 йил 20 апрелдаги “Доривор ўсимликлар асосидаги дори воситаларини ва биологик фаол қўшимчаларини маҳаллий корхоналарда ишлаб чиқаришни ривожлантириш чора тadbирлари тўғрисида” ги 32-сонли йиғилиш баёнида белгиланган вазифаларни ижросини таъминлаш борасида республикада доривор ўсимликлар соҳасидаги изланишлар ва ислохатларга алоҳида эътибор берилмоқда. Шунинг учун hozirgi кунда маҳаллий ўсимлик маҳсулотлари асосида дори воситаларини ишлаб чиқиш ва тиббиёт амалиётига тadbик этиш фармацевтика соҳасини устивор вазифалардан бир ҳисобланади

Жағ-жағ ёки ачамбити Республикада барча иқлим шароитларида ўсадиган бир йиллик ўт ўсимлиги ҳисобланади. Жағ-жағ ўсимлигининг бўйи 60—70 см ва илдиз тизими 10—15 см гача тупроқ қатламларигача кириши мумкин. Жағ-жағ (ачамбити) (лотин тилидаги номи *Capsella Bursa Pastoris Medic*) ёввойи ҳолда жуда кенг тарқалган бўлиб (фақат энг шимолий ва сувсиз туманларда – саҳрода, Арктикада учрамайди), ўтлоқларда, боғларда, йўл ёқаларида, аҳоли яшайдиган жойларда, бегона ўт сифатида экинзорларда ва бошқа ерларда ўсади.

Жағ-жағ – карамдошлар (бутгулдошлар) оиласига мансуб бир йиллик ўт ўсимлик. Март-май ойларида (ёки ёз бўйи) гуллайди, меваси апрель-июлда (ёки кузгача) етилади. Меваси — кўзоқча.

Халқ табобатида жағ-жағнинг ер устида ўсадиган барча қисмлари ишлатилади. У ўз таркибида олма, лимон, органик кислоталар, эфир мойи, кумарин, флавоноидлар, холин, ацетилхолин, тирамин, фитонцидлар, аскорбин кислотаси, К витамини, рутин, жуда кўп миқдорда калий ҳамда фосфор, макро ҳамда микроэлементлар (темир, мис, хром, марганец, алюминий, кобальт, титан) ва турли моддаларни сақлайди. Жағ-жағ ҳақиқий доривор малҳам сифатида азалдан маълум эди. Жағ-жағ ўтган асрнинг ўрталарида Европага қонни тўхтатувчи восита сифатида кириб келди.

Ер устки қисми таркибида қандлар, флавоноидлар (диосмин ва бошқалар), органик (лимон, олма, фумар, вино) кислоталар, эфир мойи, сапонинлар, витамин С, В2 ва К, каротин, инозит, холин, ацетилхолин, ошловчи ва бошқа моддалар бор. Уруғи ўз таркибида 28 фоизгача ёғ ва оз миқдорда синингрин гликозиди сақлайди.

Кўпинча даво мақсадида жағ-жағнинг 70 фоизли спиртда эритилган суюқ экстракти ишлатилади. Уни бир кунда 20-25 томчидан 3 маҳал туғруқдан кейинги ва ҳайз давомидаги узок муддатли қон кетишларда бемор аёлларга бериш мумкин.

Бачадон аденомасида 1 ош қошиқ майда тўғралган жағ-жағни 200 мл қайнаган сувга солиб, 4 дақиқа давомида қайнатиш лозим ва бироз совигач, дарҳол ичиш керак.

Туғруқдан кейинги бачадон атониясида (қискармаган бачадон кўп қон йўқотади) 1 ош қошиқ куруқ кўкат устига 200 мл қайнаган сув қуйиб, 45 дақиқа давомида дамлаб қўйиш лозим. Уни 1 ош қошиқдан уч маҳал овқатдан олдин ичиш керак.

Сийдик пуфаги, буйрак касалликларида 40-50 мл майдаланган кўкатни 1 л қайнаган сувга солиб, 30 дақиқа тиндириб қўйилади. Тайёр бўлган дамладан 1 ош қошиқдан кунига уч марта ичилади.

Жигар ва ўт пуфаги касалликларида доривор малҳам қуйидагича тайёрланади: 40-50 г



кўкатни 1 л қайнаган сувга солиб, қайнатиш керак.

Умуртка чуррасида 1-2 чой қошиқ жағ-жағ шарбатини асал билан аралаштириб, бир кунда 5-6 марта овқатдан кейин тановул қилиш лозим.

Қорин дам бўлишида 2-3 ош қошиқ курук меваларни 200 мл қайнаган сувга солиб, дамламани кунига 1 ош қошиқдан 3 марта истеъмол қилиш лозим.

Климакс даврида жағ-жағ ўсимлиги шарбатининг 40-50 томчисини 1 ош қошиқ сувга солиб ичилади.

Бурундан қон кетишида (жароҳат ёки бирор касалликнинг асорати бўлиши мумкин) 2-3 чой қошиқ курук ўсимликни 200 мл қайнаган сувга солиб, 10 дақиқа тиндириб қўйилади. Сўнг ундан ҳар куни 400-800 мл истеъмол қилиш лозим.

Жағ-жағ қон босимини туширади!

Адабиётдаги манбалардан фойдаланган ҳолда жағ-жағ ўсимлигини кимёвий таркибини чуқурроқ ўрганиш мақсадида, асосий таъсир этувчи моддалардан флавоноидларни ўрганишни мақсад қилиб олдик.

Даставвал флавоноидларни чинлигини аниқлашнинг турли хил кимёвий реакцияларидан фойдаланилди.

1) темир (III) хлорид билан реакцияси.

Чинни идишга 5 мл эритмани солиб устига бир неча томчи темир (III) хлориднинг 5 % ли эритмаси қўшилади. Реакция натижасида тўқ яшил ранг ҳосил бўлади.

2) Цианидин реакцияси.


Чинни идишга 1 мл эритма солинади, унга 5-6 томчи конц. хлорид кислотадан қўшиб сув хаммомида 1-2минут қиздирилади ва бир оз магний кукунидан қўшилади. Натижада қизил ранг ҳосил бўлади.

Кейин юпқа қават хроматография усули ишлаб чиқилди. Юпқа қават хроматографияси учун бир неча системалардан фойдаланилди.

Ўсимлик таркибидаги флавоноидларни идентификация қилиш учун «гувоҳ» моддалар сифатида ўсимликдан ажратиб олинган флавоноидлар: кверцетин, рутин спиртли эритмаларидан фойдаланилди. Хроматографиялаш «Силуфол УФ-254» пластинкаларида (15x15см), юқорига кўтарилувчи услубда олиб борилди. Жағ-жағ ўсимлигини 70 % ли спиртдаги тиндирмаси олинди, кейин флавоноидларни чинлигини аниқлаш мақсадида бир неча хил системалардан фойдаланилди. Улардан энг мўътадили танлаб олинди.

#### Жадвал 1. Фойдаланилган системалар

№	Намуналар	Бутанол:сирка кислота:сув(4:1:5)	Эфир: бензол (2:8)	Хлороформ :метанол (4:1)
1	Тиндирма	0.44	0.16	0,65
2	Рутин	0.44	0.15	0,65
3	кверцетин	0.70	-	0,86



Расм1 . Жағ-жағ тиндирмасининг хроматограммаси.



Олиб борилган изланишлар натижасида куйидаги хроматография шароити танлаб олинди: бутанол- сирка кислота-сув (4:1:5) кўтарилиши узунлиги- 10см, детектрлаш УБ-нурланиш остида кўриш (сарик, олов рангли доғлар). Флавоноидлар доғлари аммиак буғида (сарик доғлар) ва ванилиннинг концентрланган сульфат кислотадаги эритмасини пуркаш (сарик, қизғиш доғлар) ёрдамида очилди.

Энг мўътадил система деб бутанол:сирка кислота:сув(4:1:5) танлаб олинди. Ушбу усулдан жағ-жағ ўсимлигини ва дори шакллари сифатини баҳолашда қўллаш мумкин.

#### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Мечикова Г.Я., Степанова Т.А., Загузова Е.В. Количественное определение суммы фенольных соединений в листьях земляники // Хим.-фарм. журн.- Москва, 2007.-№2.-С.38-41.

2. Матюшенко Н.В., Степанова Т.А. Количественное определение суммы флавоноидов в новом фитопрепарате ”Элима”// Хим.-фарм. журн.- Москва, 2003.-№5.-С.42-44.

3. Спектрофотометрическое определение флавоноидов в траве шлемника байкальского / А.В. Куцик, А.В. Середина, Порова и др.// Фармакон.-Москва, 1998.-№2.-С.18-20.

4. Изучение флавоноидов травы пастушьей сумки. Фармация №4.2017 г.

5, [www.wikipedia.org.ru](http://www.wikipedia.org.ru).

6, <http://www.remedium.ru/>





## ТА’ЛИМ SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEKNOLOGIYALARI

**Shermatova Maxbuba,**  
Uchtepa tumani 283-maktabning  
boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** muammoli o’qitish jarayoni shaxsning ijodiy faoliyatini tarbiyalashda keng foydalaniladi. Ushbu maqolada ta’lim samaradorligini oshirishda muammoli ta’lim texnologiyalarining o’rni to’g’risidagi fikrlar bayon qilingan.

**Kalit so’zlar:** ta’lim texnologiyalari, muammoli ta’lim, o’qitish jarayoni.

Muammoli o’qitish jarayonida o’quvchining mustaqillik roli reproduktiv o’quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo’ladi. Muammoli o’qitishning maqsadi o’quvchilar bilan ishlash jarayonida ta’lim-tarbiya masalalari, muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo’llari bilan yangi bilimlarni o’zlashtirishni, o’quvchilar o’quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishi va hal etishi bo’yicha o’qituvchilar ularda qiziqish uyg’ota olishidan iborat. O’qituvchi muammoli ta’lim tizimida o’quvchilarning o’quv-izlanish faoliyatini shunday tashkil etadiki, ularning diqqati yuzaga kelgan qiyinchilik va kamchiliklarni hal etishga, turli axborotlarni mustaqil tahlil qilish, yechimini topish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga, olgan bilim va malakalarini keyingi duch keladigan vaziyatlarda qo’llay olishga qaratilgan bo’lishi lozim. Demak, buning natijasida o’quvchilarda mustaqil fikr yuritish, bilim olish, yangidan yangi maqsadlarni qo’yish, yangicha fikrlashni o’rganish hamda tafakkurining rivojlanishi va qobiliyatning shakllanishiga imkon beradi.

Muammoli ta’lim deyilganda, o’qituvchi rahbarligida muammoli vaziyat yuzaga keltirilib, mazkur muammo o’quvchilarning mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko’nikma va malakalarni ijodiy o’zlashtirish va aqliy faoliyatni rivojlantirishga imkon beradigan ta’lim jarayonini tashkil etish nazarda tutiladi.

Muammoli o’qitishning mohiyatini o’qituvchi tomonidan o’quvchilarning o’quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o’quv vazifalari, muammolari va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o’zlashtirish bo’yicha ularning bilish faoliyatini boshqarishni tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o’zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi.

*Muammoli ta’limning muvaffaqiyati quyidagi omillarga bog’liq:* o’quv materialini murakkablashtirish; o’quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish; ta’lim jarayonini o’yin, mehnat faoliyati bilan uyg’unlashtirish; o’qituvchi tomonidan muammoli metodlardan o’z o’rnida samarali foydalanish ko’nikmasiga ega bo’lish; muammoli vaziyatni hal etish yuzasidan muammoli savollar zanjirini tuzish va mantiqiy ketma-ketlikda o’quvchilarga bayon etish. Muammoli metodlar muammoli vaziyatlarni vujudga keltirib, o’quvchilarning muammoni hal etishi, murakkab savollarga javob topishi jarayonida alohida ob’jekt, hodisa va qonunlarni tahlil qilish ko’nikmalari va bilimlarini faollashtirishga asoslangan bolishi kerak. Muammoli vaziyat muayyan pedagogik vositalarda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan o’ziga xos o’qitish sharoitida yuzaga keladi hamda o’rganilgan mavzular xususiyatlaridan kelib chiqib, bunday vaziyatlarni yaratishning maxsus usullarini ishlab chiqish zarur. O’qitishda muammoli vaziyat shunchaki “fikr yo’lidagi kutilmagan to’siq” bilan bog’langan aqliy mashaqqat holati emas, balki u bilish maqsadlarini maxsus taqozo qilgan aqliy taranglik holatidir. Bunday vaziyat negizida avval o’zlashtirilgan bilim yangi yuzaga kelgan vazifani hal qilish uchun aqliy va amaliy harakat usullari yotadi.

Bunda har qanday mashaqqat muammoli vaziyat bilan bog’liq bo’lmazligi, ya’ni yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan bog’lanmasa, aqliy mashaqqat muammoli bo’lmaydi. Muammoli vaziyat har qanday fikrlash mashaqqatlaridan farq qilib, unda o’quvchi mashaqqat talab qilgan tushuncha yoki faktning unga avval va ayni vaqtda ma’lum bo’lgan vazifa, masala bo’yicha ichki yashirin aloqalarini anglab yetadi.

*Muammoli vaziyatning belgilari quyidagilar:* o’quvchida notanish bo’lgan faktning mavjudligi; vazifalarni bajarish uchun o’quvchiga beriladigan ko’rsatmalar, yuzaga kelgan bilish mashaqqatini hal qilishda ularning shaxsiy manfaatdorligi.

*Muammoli vaziyatlarni hal etishda o’qituvchi o’quvchilar faoliyatini fikr yuritishning mantiqiy operatsiyalari:* tahlil, sintez, taqqoslash, analogiya, umumlashtirish, tasniflash va xulosa yasashga



yo‘naltiradi.

*Muammoli vaziyatlardan o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida:* yangi mavzu bayoni, mustahkamlash va bilimlarni nazorat qilishda foydalanish mumkin.

Muammoli vaziyatlar tizimi muvaffaqiyatli yaratilgan hollarda mazkur mavzuni muammoli dars shaklida o‘tish tavsiya etiladi. O‘qitish jarayoniga muammoli darslarni qo‘llash uchun o‘qituvchi quyidagi masalalarni hal qilishi kerak bo‘ladi: o‘quv dasturi bo‘yicha qaysi mavzularni muammoli dars shaklida o‘tish mumkinligini; mavzu matnidagi masalalar bo‘yicha muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan savollar, topshiriqlarni aniqlash, bunda didaktikaning ilmiylik, sistemalilik, mantiqiylik, ketma-ketlik, izchillik tamoyillariga amal qilishi; o‘quvchilar bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarishni ta‘minlaydigan vosita va usullarni aniqlashi, ulardan o‘z o‘rnida va samarali foydalanish yo‘llarini belgilashi zarur. O‘qituvchi o‘rganilayotgan bob va mavzularning didaktik maqsadi, ta‘lim mazmunidan kelib chiqqan holda yuqori samara beradigan mashg‘ulot turini belgilaydi, o‘quv yili boshidan taqvim mavzularini rejalashtiradi.

O‘quvchilar muammoli ta‘lim jarayonida o‘quv materiallarini muammoli vaziyat sharoitida o‘rganishlari, tegishli ma‘lumotlarni mustaqil tahlil qilishlari, berilgan o‘quv masalalarini, farazlarini oldinga surib, ularni isbot qilish yo‘llari bilan yechishlari, ta‘lim jarayonini o‘zlashtirishda aql bilan harakat qilishlari ularning intellektual faoliyatlarini oshiradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Haydarova O.Q. Tafakkur va faoliyatga asoslangan ta‘lim //Xalq ta‘limi. – T., 2003. 2-son.
2. Turg‘unboev K., Rizaev A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – A.: Andijon nashriyot-matbaa, 2008



**PEDAGOGICAL INFLUENCE IN THE FORMATION OF UNIVERSAL EDUCATIONAL MOVEMENTS IN STUDENTS**

**Shodiyorova Umida Shodiyor qizi**  
**Named after Sharof Rashidov**  
Master of Samarkand State University

***Annotation** : The article is devoted to the forms of pedagogical influence in the formation of universal educational movements in primary school students. In order to increase the effectiveness of education, it is important to form universal learning movements in primary school students.*

***Keywords** : Primary school, school, education system, teacher, student, education, primary education, motive, ability, knowledge, skill*

The system of continuing education in the Republic is the education of the individual, in which the structural and organizational elements representing the interconnected stages of development from simple to complex, based on mutual logical sequence, aimed at the formation of spiritual and moral qualities. bars.

The development of generalized scenarios for the implementation of technology for the formation of universal educational movements of primary school students is important for the effective organization of education of primary school students [2].

Primary education is aimed at achieving the goal of forming the foundations of literacy, knowledge and skills necessary for general secondary education in children aged 6-7 and 10-11 years.

Universal learning activities are not only subject-based, but also meta-themed, based primarily on dignity, which allows the student to easily move not only in the learning process, but also in any life situation. Universal learning is an integral characteristic of the ability to develop oneself, a key competency that ensures the formation of ‘learning skills’ based on values [1].

Pedagogy does not create its methods out of nowhere. He selects from life the real factors of people’s behavior, those that meet the tasks of pedagogically purposeful organization of children’s lives, using them as methods of pedagogical influence in educational work. The methodology of pedagogical influence consists of a system of tools that serve to organize the socially useful activities of children in a pedagogically expedient way. These tasks are focused on the personality of the pupil, stimulate the behavior of children, make difficult and complex tasks a source of joy, creative pleasure, the personal interests of each student.

The main methods of pedagogical influence are persuasion, demand, perspective, encouragement and punishment, public opinion. The result of interaction is persuasion. It is divided into real and fake types. Confidence consists of 3 components: *knowledge; emotion ; behavior*.

It is realized through understanding - experience. Forms of persuasion are: speech, debate, discussion, conversation, narration, proof, demonstration, personal example. Pedagogical demand is one of the most widely used methods in the educational process, which is reflected in the personal relationship between the educator and the pupil. It is necessary to be able to distinguish between the demand for a method of pedagogical influence and the unique pedagogical requirements as a method of team building. If the single pedagogical requirements provide the content of stimulating socially useful activities of children, ways to achieve unity of actions of teachers and children in team building, the requirement consists of norms of behavior and activity, methods of implementation of children’s behavior and work. Perspective is a very effective way of influencing, providing children’s behaviors by setting them interesting, engaging goals that become their personal aspirations, interests, and goals. This method helps to form in school students a goal-orientedness, which is one of the most important qualities of an individual. Incentives and punishments are the most traditional method of education, providing correction of the behavior of the pupils, ie additional encouragement of useful behaviors and cessation of the inappropriate behavior of the pupils. they are used to expand or restrict their rights, duties, and to influence them morally. A necessary condition for the effective use of methods of pedagogical influence is the true humanity of pedagogy’s attitude to students.

The role of pedagogical influence in education In the current period of independence of the Republic, deep, reasonable and general requirements are set for the individual, but on the other



hand, great respect is shown to the individual. Combining the demands on this person and the respect for him are two necessary conditions, and the educator’s attitude towards children is truly humane.

Thus, great success in the field of education cannot be achieved without perfect mastery and skillful use of methods of pedagogical influence in the formation of universal educational movements. A teacher’s activity requires convincing and influencing his or her students.

#### **References.**

1. Котлярова Т.С. Педагогическое управление формированием универсальных учебных действий младших школьников. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Омск, 2016. -24 с.

2. Fayziev, MA; Shodiyorova, U.Sh. The Importance of Formation of Universal Educational Movements in Primary School Students. Novateur Publication . JournalNX . <https://www.neliti.com/publications/343159/the-importance-of-formation-of-universal-educational-movements-in-primary-school>

**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH**

**Tashpulatova Shoira Fayzullayevna**  
Uchtepa tumani 283-maktabning  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratishdan iborat jarayon hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘limda innovatsion faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy ta‘lim metodlaridan foydalanish haqida bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, shaxs, innovatsion faoliyat.

Zamonaviy sharoitda ta‘lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko‘ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. O‘zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta‘lim shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim deb nomlanadi. Bu ta‘lim o‘qitish muhitining ta‘lim oluvchilar imkoniyatlariga moslashtirilishini nazarda tutadi. Unga ko‘ra ta‘lim muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta‘lim hamda tarbiya jarayonini to‘lalgicha ta‘lim oluvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, qobiliyatlarini rivojlantirish, shaxs sifatida kamolotga etishishlarini ta‘minlash, tafakkuri va dunyoqarashlarini boyitishni nazarda tutadi. Bu o‘rinda boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarga bilim berish, ularning mustaqil fikr yuritishlariga zamin yaratish muhim ahamiyatga ega. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ta‘lim sohasiga kirib kelayotgan yangiliklardan xabardor bo‘lishi, o‘z faoliyatida yangi-yangi innovatsiyalarni qo‘llay bilishi, ya‘ni o‘zining innovatsion faoliyatini shakllantirgan bo‘lishi talab etiladi.

Innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablarning an‘anaviy me‘yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni echishga qaratilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyat boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma‘lum maqsadga yo‘naltirish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni egallash, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. Shuningdek, innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablarning an‘anaviy me‘yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g‘oyalarning mavjud g‘oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni echishga qaratilgan faoliyatdir.

*Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:* yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi; pedagogik yangiliklarni qabul qilishi; novatorlik darajasi; kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi; ijodkorligi; pedagogik tadqiqot metodlarini egallashi; mualliflik konsepsiyalarini yaratish qobiliyatining mavjudligi; tajriba-sinov ishlarini rejalashtirishi va amalga oshira olishi; hamkasblari bilan hamkorlik qila olishi; hamkasblari bilan fikr almashishi hamda zarur hollarda ularga metodik yordam ko‘rsata olishi; ziddiyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish layoqatining rivojlanganligi; yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z faoliyatiga moslashtira bilishi kabilari.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish o‘qituvchining innovatsion faoliyatidan boshlanadi. O‘qituvchining ish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqot namunasining o‘zgarishi innovatsion faoliyat shartidan biridir. Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi: kasbiy faoliyatining ongli tahlili; me‘yorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv, kasbiy yangiliklarni qabul qilishga tayyorlik; o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, o‘z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassamlashtirish. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi innovatsion faoliyati yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Innovatsiya jarayonlari, ularning funksiyalari, rivojlanish qonuniyatlarining pedagogik asoslarini o‘rganish o‘quv jarayonini zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari yutuqlari asosida jahon standartlari darajasida tashkil etish imkonini beradi. Bu jarayonda o‘qituvchi, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalar muallifi, tadqiqotchi, foydalanuvchi va targ‘ibotchi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatining tahlili yangilik





kiritishning samarasini belgilovchi muayyan meʼyorlardan foydalanishni talab etadi. Bunday meʼyorlarga yangilik, optimallik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarni innovatsion ijodiy qoʻllash imkoniyatlari kiradi. Pedagogning innovatsion faoliyatiga boʻlgan qobiliyatlari sirasiga uning ijodiy moyilligi, qiziquvchanligi, ijodiy qiziqishi, ijodiy yutuqlari, ilgʻor qarashlari, kreativligi, baho bera olish qobiliyati, kasbiy faoliyatni baholashi, ijodiy faoliyat sohasidagi oʻzaro hamkorlik va yordam kabilarni koʻrsatish mumkin.

Innovatsion faoliyat moyillik, texnologik yondashuvga egalik hamda refleksiya koʻnikmalarini mavjudligida namoyon boʻladi. Boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining oʻz kasbiy faoliyatlariga innovatsion yondasha olishlari ularning koʻzlangan maqsadga erishishini kafolatlash bilan bir qatorda taʼlim sifati va samaradorligi oshishini taʼminlaydi.

#### **Adabiyotlar**

1. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., Toʻraev A.B. Innovatsion taʼlim texnologiyalari: Oʻquv-metodik qoʻllanma. – T., 2015. 208 b.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Taʼlimda innovatsion texnologiyalar // Taʼlim muassasalari pedagog-oʻqituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Isteʼdod” jamgʻarmasi, 2008. – 180 b.



## ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISH

**Turayeva Nigina Tuygunovna**  
Uchtepa tumani 283-maktabning  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** o‘quvchi yozma savodxonligini oshirish maqsadida taqvim-mavzu ish rejasida ko‘rsatilgan muddatlarda insho, bayon hamda diktant kabi yozma ish turlarini muntazam o‘tkazib borish belgilangan. Yozma ish turi o‘quvchi bosqichma-bosqich o‘zlashtirgan imlo qoidalariga mos ravishda tanlanishi, o‘tilgan mavzular bo‘yicha o‘quvchi o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlashga qaratilmog‘i, o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlarini qay darajada amalda qo‘llay olishini aniqlashga yo‘naltirilmog‘i kerak. Ushbu maqolada ona tili darslarida darslarida o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish masalalari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchi, yozma savodxonlik, diktant, imlo.

Ona tili darslarida o‘quvchilarning yozma savodxonligini oshirish borasida o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: imlo qoidalarini ongli o‘zlashtirish, ijodiylik, fikrni aniq, lo‘nda, qisqa va tushunarli bayon etish.

Taqvim-mavzu ish rejasiga asosan yozma ish turlarini o‘z vaqtida o‘tkazish mumkin, ammo uning natijasi qanday bo‘lishiga ko‘ra tadbirlar ishlab chiqilmog‘i – bosh masala. Dars jarayonida va uyda bajarilgan matn yaratishga oid topshiriqlarni har bir o‘quvchi kesimida nuqta, verguligacha e‘tibor bilan tekshirish o‘qituvchiga muayyan o‘quvchining yutuqlari va bo‘shliqlarini aniqlash, keyingi darslarda ularga munosabat bildirish imkonini yaratadi. O‘quvchilarning yozma savodxonligi DTS talablaridan past darajada bo‘lsa, o‘qituvchi taqvim-mavzu ish rejasiga qo‘shimchalar kiritishi yoki o‘quvchilar yozma savodxonligini oshirish maqsadida qo‘shimcha darslar tashkil qilishi samara beradi. O‘qituvchi real vaziyatdan kelib chiqqan holda nafaqat yozma ishlarni, balki sinf va uy ishlarini ham e‘tibor bilan o‘rganib chiqmog‘i, har bir o‘quvchi yo‘l qo‘ygan xatolarni belgilab olmog‘i va ular asosida guruhlangan xatolar ro‘yxatini tuzmog‘i, umumiy xato va kamchiliklarni frontal ko‘rinishda, xususiy xato va nuqsonlarni individual ishlab chiqishi talab etiladi.

O‘quvchining yozma savodxonligiga tamal toshi yozma ishlar yozish jarayonida emas, balki imlo qoidalariga oid mavzularni o‘rgatish jarayonida qo‘yiladi. Yozma ish bir necha bosqichni qamrab oladi. Shunga ko‘ra diktant, bayon, insho kabi yozma ishlardan har birining bir qancha turi mavjudki, ulardan maqsadli foydalanishgina ko‘zlangan samarani beradi. Diktant nisbatan mo‘tadil yozma ish turi sanaladi.

Diktant adabiy-orfoepik talaffuz me‘yorlarida, tinish belgilariga rioya qilgan holda o‘qib beriladi. Diktant matnidagi imlosi qiyin va o‘rganilmagan qoidalar asosida yoziladigan so‘zlar doskaga yozilib, imlosi tushuntiriladi. Diktant yozdirilayotganda oldin bitta gap bir butun holda o‘qib beriladi, o‘quvchilar gap chegarasini aniqlab oladilar. So‘ng gap birikmalarga ajratib aytib turib yozdiriladi.

Diktant yozib bo‘lingach, o‘qituvchi matnni bir marta o‘qib beradi, o‘quvchilar yozganlarini tekshirib oladilar. O‘quvchilar yozganlarini yana bir marta ichlarida o‘qib tekshiradilar. So‘ngra diktantning grammatik topshirig‘ini bajaradilar.

Ta‘limiy diktantlar o‘tilgan mavzularni umumlashtirish, bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilishda qollash mumkin. Ulardan foydalanish orqali o‘quvchilarning savodxonlik darajasi va tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llay bilish malakasini o‘stirish mumkin. Diktantning bir necha turlari mavjud bo‘lib, ta‘lim jarayonida ulardan foydalanish o‘quvchilar savodxonligini oshirishda ahamiyatga ega.

**Lug‘at diktant.** Diktantning lug‘at diktant turida o‘quvchilarga biror mavzudagi matn emas, balki so‘zlar, masalan, “X” va “H” harflari bilan boshlanuvchi so‘zlar yozdiriladi. Masalan, xo‘roz, xato, havas, xonadon, hasad, xursandchilik, xullas, hurmat, hamisha, hamshira va h.k.

**Yod diktant.** O‘tilgan mavzular bo‘yicha mustahkamlash diktanti. Misol uchun, otlardagi egalik, fe‘llardagi shaxs-son qo‘shimchalari va fe‘l shakli hosil qiluvchi qo‘shimchalarni turlovchi, tuslovchi ekanligini aniqlagan holda yozish. O‘qituvchilar yod olgan qo‘shimchalarni tartibga tushirib yozadilar (*5 daqiqa vaqt ajratiladi*).



**Saylama diktant.** O‘qituvchi diktant matni o‘qiydi. O‘quvchilar matn ichidan faqat orttirma nisbatdagi fe’llarni tanlab, yoza boshlaydilar. So‘ngra o‘quvchilarning o‘zlarini rangli ruchkada o‘z diktantlarini tekshiradilar. Yozib bo‘lishgach, so‘zlarni o‘qiydilar. Xato yozilgan so‘zlarni o‘chirib chiqadilar (*5 daqiqa vaqt ajratiladi*).

**Rasm-diktant.** Yozuv taxtasiga ilib qo‘yilgan rasmga qarab o‘quvchilar narsa-buyum otlariga oid so‘zlarni va harakatni anglatuvchi so‘zlarni lug‘at tartibida yozadilar. Rasm asosidagi diktantlar ham o‘quvchi tafakkurini shakllantirishga, adabiy til qonuniyatlarini o‘rganishga xizmat qiladi (*5 daqiqa vaqt ajratiladi*).

**Saylanma lug‘at diktant.** O‘tilgan mavzular bo‘yicha mustahkamlash diktanti. Masalan, turlovchi qo‘shimchali so‘zlarni alohida, tuslovchi qo‘shimchali so‘zlarni alohida, qo‘shimcha olmagan so‘zlarni alohida guruhga ajratib yozish. So‘zlar o‘qituvchi tomonidan o‘qiladi, bolalar ustun shaklida yoza boshlaydilar (*5 daqiqa vaqt ajratiladi*).

**Erkin diktant.** She‘rning mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan yozing. Qo‘shma va yasama so‘zlarning tagiga chizing (*she‘r o‘qib beriladi*).

**Slayd diktant.** O‘qituvchi ekran orqali diktant so‘zlarining rasmini birma-bir ko‘rsatadi. O‘quvchilar ko‘rgan rasmlarini ovoz chiqarmay, yozadilar. Diktant so‘ngida ekran orqali rasmlarining nomlari ko‘rsatiladi (*5 daqiqa vaqt ajratiladi*).

**Xayoliy diktant.** O‘quvchilar charchagan. Sekin parta ustiga boshlarini qo‘yib, ko‘zlarini yumadilar. Xayollarida o‘rmonga sayohat uyushtiradilar. O‘qituvchining so‘zlaridan so‘ng o‘quvchilar “uyg‘onadi”. O‘qituvchi: “Endi, xayollaringizda kechgan voqealarni ko‘rganlaringizni qog‘ozga tushiringlar. Yaratgan matningiz 6-7 gapdan iborat bo‘lsin” deydi. Dars yakunida o‘qituvchi o‘quvchilarning daftarlarini yig‘ib oladi, tekshirib natijasini aytadi.

#### **Adabiyotlar**

1. To‘rayev Sh. Yozma nazorat turlari // Ma‘rifat. – T., 2019. – 8-oktabr.
2. O‘rinbayeva D., Rahimova M. Diktantlar to‘plami. – Samarqand, 2017.



## BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA ERTAKLAR USTIDA ISHLASH

**Ungarova Mexriniso Xayitovna,**  
 Navoiy viloyati, Navoiy shahar  
 17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
 Telefon: 998 93 089 20 20

**Annotatsiya:** Maqolada ertaklarning bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitishi va og‘zaki nutqini o‘stirishi, o‘qish darslarida ertak matni ustida ishlash metodlari yuzasidan fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** So‘zlashuv tili, badiiy vositalar, darslarning qurilishi, tanlab o‘qish, obrazlar tahlili, tulki, bo‘ri, g‘oya, interfaol metodlar, taqqoslash, xususiyatlar.

Ertaklar, ular xalq ertaklari bo‘ladimi, adabiy ertaklarmi, inson fantaziyasining mahsulidir. Ertak o‘zining g‘oyaviy mazmuni, badiiy qudrati bilan hamisha insonlarni o‘ziga maftun etib kelgan.

Ertaklarda badiiy obrazlar orqali insonparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Ertak qahramonlari poklik, aql-zakovat, tadbirkorlik, qahramonlik bilan ish ko‘rganliklari uchun ham omadlari keladi, baxtli bo‘ladilar.

Tilining ta‘sirchanligi, o‘tkirliги, ma‘nodorligi va so‘zlashuv tiliga yaqinligi sababli bolalar ertaklarni sevib o‘qiydilar. Ertaklarning bayon uslubidagi voqealar ifodasi, bir xil so‘z va iboralarning qayta-qayta takrorlanishi, ohangdorligi, tilining ta‘sirchanligi, badiiy ifoda vositalarining jonliligi bolada mutolaa qilishga qiziqishini oshiradi. Ertak qahramonlari, ko‘pincha, rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo‘lgan yovuz, baxil va ochko‘z kishilar timsoli bo‘ladi. Ertakning pedagogik qiymati shundaki, o‘quvchilar unda to‘g‘rilik, halollik g‘alaba qilganidan, yaxshilik, ezgulik ro‘yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar.

Boshlang‘ich ta‘limning o‘qish darslarida ertaklarni o‘qib-o‘rganish har bir sinf uchun alohida-alohida, bolalarning yosh xususiyatlariga qarab tavsiya etilgan. Boshlang‘ich adabiy ta‘limda ertaklar ustida ishlashda bolalarni ertakni o‘qishgagina emas, balki uni aytib berishga o‘rgatish ham muhimdir. Ertak aytish og‘zaki nutqni o‘stiradi, bolalar nutqini yangi so‘z va iboralar bilan boyitadi. Ertaklarda keltirilgan maqollar ustida ishlash, ularda ilgari surilgan g‘oyalarning ertak matniga qanchalik monandligiga e‘tibor qaratish va buni bolalar ongiga yetkazish, ularni yod oldirish yo‘li bilan bog‘lanishli nutqni o‘stirish, nutqning ta‘sirchanligini oshirishga yordam beradi.

O‘qish darslarida ertaklar matni bilan ishlashda unda qo‘llanilgan badiiy vositalar: jonlantirish, metafora, mubolag‘a singari nazariy tushunchalar ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi barcha fikrlarni hisobga olganda, ertak o‘rganish darslarining qurilishini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Ertak bilan tanishtirish: a) o‘quvchilarni ertakni idrok etishga tayyorlash; b) o‘qituvchining ertakni ifodali o‘qishi, yoddan aytib berishi va hokazo.

2. Ertakni o‘quvchilar qay darajada idrok etganliklarini aniqlash maqsadida qisqacha suhbat o‘tkazish.

3. Ertakni qismlarga bo‘lib o‘qish va obrazlarni tahlil qilish, undagi ayrim tasviriy vositalar, ma‘nodosh so‘zlarni topish, lug‘at ishida ayrim so‘zlar ma‘nosini izohlash va tushuntirish.

4. Ertakni aytib berishga tayyorlanish: bolalar ichda o‘qiydi.

Quyida 4-sinf “O‘qish kitobi”dagi “Ko‘zacha bilan tulki” ertagini o‘rganish yuzasidan fikr yuritimiz. Ertak ikki qismdan iborat bo‘lib, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ertakning 2-qismini o‘rganishda ertakni qismlarga bo‘lib tanlab o‘qish va obrazlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilar har bir obrazga xos xususiyatlarni bilib oladilar.

Bunda o‘qituvchi topshiriқ beradi. Masalan, tulkiga xos quyidagi sifatlar ertakning qaysi o‘rnida namoyon bo‘lgan? Tanlab o‘qing.

Tulkining ziyrakligi o‘ziga mehriyoday tortayotgan go‘shning qopqonda ekanligi sezganida, sabrliligi go‘shga ochofatdek tashlanmay, uni qo‘lga kiritishga shoshilmaganligida, hiylagar, ayyorligi bo‘rini tuzoqqa ro‘para qilib, o‘zi go‘shni paqqos tushirganida, berahmligi bo‘rining zorlanishlariga quloq tutmaganida va nihoyat yolg‘onchiligi bo‘riga cho‘ltoq dumini ko‘rsatib qutulib qolganida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilar topshiriқni quyidagicha bajarishadi:

Masalan, *tulki – berahm*, uning berahmligi ifodalangan matnni o‘qish:



“Bo’ri boshini xam qilib yordam so’rabdi:

– Qadrdon tulkijon, yordam ber. Meni ozod qilgin.

Tulki dumini likillatib:

–Yaqinda meni yutib yubormoqchi bo’lgan sen emasmiding? Yo’q, azizim, ovchilarni kutib turasan, – deb ketib qolibdi”

Ertak mazmuni va unda ilgari surilgan g’oya haqida o’quvchilarning tushunchalarini kengaytirish va ularni mustaqil fikrlashga o’rgatishda turli rivojlantiruvchi interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Jumladan, “Tadqiqot”, “Rezyume”, “Taqqoslash”, “Yosh aktyor”, “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Charxpalak”, “Insert” kabi interfaol metodlar va didaktik o’yinlar asosida ertakni o’rganish dars samaradorligini oshiradi, o’quvchilarning ertak janri borasidagi bilimlarini boyitishga va ularda insoniy xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

“Taqqoslash” usuli asosida tulki va bo’ri obrazlarini bir-biri bilan qiyoslash mumkin.

1. Bolalarga quyida berilgan so’zlar ichidan tulkiga xos hamda bo’riga xos xususiyatlarni ajratib yozish aytiladi.

*Ayyor, g’azabkor, ochko’z, yolg’onchi, qasoskor, berahm, sabrli, ziyrak, laqma.*

Tulkiga xos xususiyatlar: *ayyor, yolg’onchi, qasoskor, berahm, sabrli, ziyrak.*

Xulosa qilib aytganda, ertakni o’qishda yuqoridagi kabi usullardan foydalanish o’quvchilarning dunyoqarashini boyitadi, bilimini orttiradi, ma’naviy saviyasini ko’taradi, mustaqil va mantiqli mulohaza yuritishga o’rgatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyasi. O’zbekiston Xalq ta’limi vazirligi. Respublika Ta’lim makazi. 2016-yil.
2. O’qish kitobi (4-sinf uchun darslik). – T. 2017-yil.
3. Husanboyeva.Q. Tahlil - adabiyotni anglash yo’li. Toshkent. 2013-y.





**4-SINF ONA TILI TA'LIMIDA SO'Z TURKUMLARI YUZASIDAN  
UMUMLASHTIRUVCHI DARSLARNI TASHKIL ETISH**

**Usarova Dilafruz Saloxiddinovna,**  
Navoiy viloyati, Navoiy shahar  
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi  
Telefon: 998 99 021 42 27

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich ta'lim ona tili fani o'quv dasturining tuzilishi, 1-4-sinflarda so'z turkumlarini o'rganilishi hamda 4-sinfda so'z turkumlari yuzasidan umumlashtiruvchi darslarni tashkil etish yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Savod o'rgatish, nutq o'stirish, fonetika, grammatika, imlo, kompetensiyalar, fanlararo integratsiya, guruhlarda ishlash, topshiriqlar.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ona tili fani o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan.

Boshlang'ich ta'lim ona tili fani o'quv dasturida savod o'rgatish va nutq o'stirish hamda fonetika, grammatika, imlo va nutq o'stirish yuzasidan 1-4-sinflar bo'yicha o'tiladigan mavzular va ushbu mavzularni o'rganish uchun soatlar ajratib berilgan, shuningdek, o'quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish ko'zda tutilgan. Boshlang'ich ta'limda 1-2-sinfda o'quvchilarga ot so'z turkumi predmetlar nomini bildiradi, ot so'z turkumi kim?, nima?, kimlar?, nimalar? so'roqlariga javob bo'ladi, degan tushuncha berilmaydi. Bolalarga kim?, nima?, kimlar?, nimalar? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar, so'zlar shaxs va narsa nomini, uning harakatini, belgisini, sanog'ini bildirishi, shaxs (kishi)lar nomini bildirgan so'zlar kim?, kimlar? narsa nomini bildirgan so'zlar nima?, nimalar? so'rog'iga javob bo'lishi haqida o'quvchilarda tushunchalar shakllantiriladi. 3-4-sinfda esa so'zlarning ot, sifat, son, olmosh, fe'l turkumlarga bo'linishi, ularning grammatik belgilari yuzasidan beriladigan bilimlar chuqurlashtirilib o'rgatiladi.

Ona tilidan so'z turkumlarini o'rganishda o'quvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirishda darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish bugungi kun talabidir.

4-sinfda “ So'z turkumlari” bo'yicha o'tilganlarni takrorlash uchun 3 soat ajratilgan. Darslikda so'z turkumlarini takrorlash uchun berilgan topshiriqlar, mashqlar bajarilgandan keyin o'quvchilarning so'z turkumlari yuzasidan olgan bilimlarini umumlashtirish maqsadida fanlararo integratsiya, guruhlarda ishlash usullari asosida qo'shimcha mashqlar bajarish maqsadga muvofiq bo'ladi. Quyida so'z turkumlarini takrorlash bo'yicha o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlar yuzasidan o'z tajribamdan namunalar keltiraman.

Sinf o'quvchilarini “5X6” shaklida kichik guruhlariga bo'lib, har bir guruhda oltitadan o'quvchi bo'ldi, har bir guruhda boshqaruvchi belgilanadi. Guruhlarga quyidagicha savollar berilishi mumkin.

**1- guruh savollari:** 1. 4-sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?

2. Ot so'z turkumidagi so'zlarga qaysi qo'shimchalar qo'shiladi? Otga qo'shiladigan qo'shimchalarning vazifalarini ayting.

**2- guruh savollari:** 1. 4- sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?

2. Otning belgilarini bildiradigan so'z turkumi qaysi? U otning qanday belgilarini bildiradi?

**3-guruh savollari:**1. 4- sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?

2. Ot, sifat, fe'l yasovchi qo'shimchalarni klasterda ifodalang va ularni misollar bilan tushuntiring.

**4-guruh savollari:** 1. 4- sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?

2. Ot, sifat, fe'l yasovchi qo'shimchalarni klasterda ifodalang va ularni misollar bilan tushuntiring.

**5- guruh savollari:**1. 4-sinfda qaysi so'z turkumlarini o'rgandingiz?

2. Son so'z turkumining xususiyatlarini klasterda ifodalang. Sonlar nimaning miqdori va tartibini bildiradi?

Guruhlar vazifani bajarib bo'lishgach, har bir guruh vakili tartib bilan o'z bilganlarini tushuntirib



beradi, ya'ni guruhlar taqdimoti bo'ladi. O'qituvchi savollar yordamida sinf o'quvchilarining bilimlarini aniqlaydi. O'quvchilar tuzgan klasterlarini kalit so'zlarning ma'no va xususiyatlarini izohlab beradi.

O'quvchilarning nazariy bilimlarini amalga tatbiq etish ko'nikmalarini aniqlash maqsadida yana har bir guruh uchun 4-sinf "O'qish kitobida" dan alohida topshiriqlar beriladi.

**1-guruh uchun topshiriq:** Farhod Musajonovning "Yomg'ir" hikoyasidan kim? nima? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlab, bosh kelishikda, alifbo tartibida yozing.

**2-guruh uchun topshiriq:** "Yolg'onchining izza bo'lishi" hikoyasidan fe'llarni topib, alifbo tartibida yozing.

**3-guruh uchun topshiriq:** Xudoyberdi To'xtaboyevning "Nurxon bilan Burxon" hikoyasidan sifatlarni aniqlab, ularning ma'nodoshlari bilan juftlab yozing.

**4-guruh uchun topshiriq:** Habib Po'latovning "Ikki irmoq" hikoyasidan ot so'z turkumlarini aniqlab, kelishiklarga ajratib yozing.

**5-guruh uchun topshiriq:** Nosir Fozilovning "Yaxshi bo'ldi" hikoyasidan olmosh so'z turkumlarini ma'noviy guruhlariga ajratib yozing.

Yuqorida olib borilgan ta'limiy ishlardan ko'rinib turibdiki, bunday usullar o'quvchilarda kompetentlikni shakllantirishga, ularning so'z turkumlari yuzasidan olgan bilimlarini chuqurlashtirishga, ularda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasining shakllanishiga, yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ona tili fanidan o'quv dasturi(1-4-sinf uchun). T. 2017-y.
2. Ona tili (4-sinf uchun darslik). T. 2017-y.
3. O'qish kitobi (4-sinf uchun darslik). T. 2017-y.
4. Bozorova M, Norpo'latova X. —Ta'limni faollashtiruvchi metodlar. (Metodik qo'llanma) TermDU, 2010-yil
5. Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari. RTM-2016.



## SHAXSGA YO‘NALTIRGAN TA‘LIM TEXNOLOGIYASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

**Xaydarova Madina Abdullayevna**

Uchtepa tumani 283-maktabning  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** o‘qitishning mavjud uslublari ko‘p hollarda o‘quv jarayonini tashkil etish va olib borishga oid tavsiyalar majmuidan iborat bo‘lsa, pedagogik texnologiya asosida interfaol usullardan foydalanish bundan farqli o‘laroq, birinchidan, yakuniy natijani kafolatlaydi, ikkinchidan esa bo‘lajak o‘quv jarayonini ham loyihalaydi. Ushbu maqolada shaxsga yo‘naltirgan ta‘lim texnologiyasining didaktik imkoniyatlari to‘g‘risida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘quv jarayoni, pedagogik texnologiya, shaxsga yo‘naltirgan ta‘lim texnologiyasi.

Pedagogik texnologiya o‘quv maqsadlarning aniq belgilanishi, yakuniy natijaning kafolatlanishi, o‘quv jarayoni takrorlanuvchanligining ta‘minlashi va tezkor qaytuvchan aloqaning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Pedagogik jarayon o‘zining qanchalik murakkabligi va davomiyligidan qat‘iy nazar, u, eng avvalo, maqsadni aniqlashdan boshlanadi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchilar ham o‘quvchining barcha imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga harakat qilishlari muhim ahamiyatga ega. Shaxsga yo‘naltirgan ta‘lim texnologiyasi orqali o‘qitish jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro munosabatlari optimallashtiradi. Bunda har ikkala shaxs ham faol ishtirokchiga aylanishi ko‘zda tutiladi. Ta‘lim jarayonining samaradorligi esa ushbu o‘zaro munosabatlarning qanday bo‘lishiga bog‘liq, albatta.

*Ommaviy axborot vositalaridan foydalanib ta‘lim jarayonida interaktiv usullardan foydalanish mantig‘ida ikki xil g‘oya yotadi:* a) o‘quv jarayonini to‘la-to‘kis o‘rgatuvchi mashinalarga o‘tkazib, unda asosiy rol o‘ynaydigan o‘qituvchini to‘la ozod qilish; b) uning faoliyatini tashkil etish va maslahat berish funksiyalari bilan chegaralash. Shuning uchun ham o‘qitish mazmuni va jarayoni bo‘yicha mutaxassislar guruhi tomonidan ishonchli bo‘lgan o‘qitish tizimlarini rejalash, yaratish va ularni qo‘llashga tayyorlangan sharoitda, hatto «o‘rtacha» o‘qituvchi ham yuqori natijalarga erishishi mumkin.

*Ta‘limning amalga oshirish jarayoniga shaxsga yo‘naltirgan ta‘lim texnologiyasini kiritish quyidagilarga asoslanadi:* ta‘lim jarayonida ishtirok etuvchi o‘quvchi shaxsi ustivorligini ta‘minlash; ta‘lim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga oshirish; ta‘lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish; ta‘lim mazmunini ta‘minlovchi vosita, usul, shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish. Shaxsga yo‘naltirgan ta‘lim texnologiyasini o‘quv jarayonida qo‘llash ta‘lim tizimida keng tarqalib bormoqda. Bu o‘quv jarayonini liberalizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik ham ijodkorlikda tashkil etishni taqozo etmoqda.

O‘quv jarayoni markazida o‘quvchi bo‘lmog‘i lozim va o‘quv jarayoni unga qaratilgan, yo‘naltirilgan bo‘lishi talab etilmoqda. Shaxsga qaratilgan ta‘lim o‘quvchining o‘quv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, qiziqish, hohish, istaklarini ro‘yobga chiqaruvchi kuch bo‘lib xizmat qiladi. Bunday ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchida doimiy ijodiy izlanish, uzluksiz o‘z ustida ishlash imkoniyatini beradi. Bu holatning ijobiy kechishi ta‘limda sifat va samaradorlikning kafolatidir.

Zamonaviy ta‘limni tashkil etish, ayniqsa, shaxsga yo‘naltirgan ta‘lim texnologiyasidan foydalanish asosida dars jarayonlarini tashkil etishga qo‘yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Shaxsga yo‘naltirgan ta‘lim texnologiyasini o‘quv jarayonida liberalizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik ham ijodkorlikni tashkil etishni taqozo etmoqda. Bunday ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchiga doimiy ijodiy izlanish, uzluksiz o‘z ustida ishlash imkoniyatini beradi. Darslar jarayonida shaxsga yo‘naltirgan ta‘lim texnologiyasidan foydalanish o‘z mohiyatiga ko‘ra sub‘ektiv xususiyatiga ega, ya‘ni har bir pedagog ta‘lim va tarbiya jarayonini o‘z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim.

*Shaxsga yo‘naltirgan ta‘lim texnologiyasi bo‘yicha darslarni tashkil etishni quyidagi interfaol metodlar kafolatlaydi:* pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi; o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirishi; o‘quvchilar tomonidan o‘quv predmetlari bo‘yicha



bilimlarning puxta egallanishini ta'minlanishi; o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalarining shakllantirilishi; o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi; ta'lim-tarbiya jarayonida demokratik va insonparvarlik g'oyalarning ustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

*Ta'lim jarayonida bu texnologiyaning samarali qo'llanilishi quyidagi omillar bilan kafolatlanadi:* mazkur usulni qo'llash uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish va rejalashtirish lozim; ushbu usulni qo'llash uchun tegishli vaziyat yaratilishi zarur; shaxsga yo'naltirgan ta'lim jarayoni umumpedagogik talablar asosida, hissiyot-ehtirosarga berilmagan holda, do'stona, samimiyatli ravishda tashkil etilishi; individual yondashuv jarayoni o'quvchining erkin fikr yuritish, o'zining ichki kechinmalarini ijodiy bayon qilishlari uchun tegishli sharoitning yaratilishi; shaxsga yo'naltirgan ta'lim texnologiyalar turli shakllarda amalga oshirilishi zarur. O'qituvchi o'z faoliyatida yangiliklarni muntazam joriy qilishi lozim.

*Ta'lim jarayonida yangiliklarni joriy qilinishi quyidagi holatlarda yuqori samara beradi:* 1) shaxsiy qiziqtiruvchi omillarga asoslangan bo'lganda. O'quvchi o'quv jarayoni uchun mas'uliyatli bo'ladi, chunki ular o'z ehtiyojlarini yaxshi biladilar; 2) birinchi navbatdagi ehtiyojlarga javob berganda ta'lim o'quvchining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o'qishga intilish yuqori darajada bo'ladi; 3) o'quvchilarning jalb etilishini ta'minlanganda. O'quv jarayonida sustkashlik bilan emas faol ishtirok etish; 4) mustaqil fikrga asoslanganda. O'quv jarayoni mustaqil fikrga asoslanganda, u eng katta samara keltiradi; o'quvchilar bir-birlaridan o'rganadilar; 5) teskari aloqani ta'minlaganda.

#### **Adabiyotlar**

1. Haydarova O.Q. Tafakkur va faoliyatga asoslangan ta'lim //Xalq ta'limi. – T., 2003. 2-son.
2. Turg'unboev K., Rizaev A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – A.: Andijon nashriyot-matbaa, 2008. – 132 b.



## TARIX DARSLARIDA TA'LIM SIFAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

**Xayrullayev Bekzod Yuldashboyevichning**  
Angren shahar 7-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
oliy toifali tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tarix darslarida axborot kommunikatsion texnologiyadan foydalanish asosida dars samaradorligini oshirish imkoniyatlari, multimedaning ta'lim samaradorligidagi o'rni haqida fikrlar bildirilgan

**Kalit so'zlar:** tarix, ta'lim samaradorligi, multimedia, axborot-kommunikatsion texnologiya, pedagogik tamoyillar.

Axborot texnologiyalaridan foydalanish eng dolzarb talablardan biri, bugungi kun o'qituvchisidan, avvalo kompyuter savodxonligi, internet xabarlaridan xabardor bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi, zamon bilan hamnafas bo'lishi talab etiladi. Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining biror o'quv fanini to'liq ravishda yoki uning qaysi qismini AKTdan foydalanib o'tsa qanday samara berishini, yoki AKTni qo'llashning pedagogik tamoyillarini, uning psixologik xususiyatlarini, uning bilish jarayoniga ta'sir qilish mexanizmi va omillarini, shuningdek yana boshqa ko'p jihatlarini o'ylab chiqish va dars jarayonlariga tadbiiq qilish dolzarb masala bo'lib bormoqda.

Ta'lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarni, shu jumladan multimediani qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining interfaol o'zaro aloqalarini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Ta'lim tizimida multimedia texnologiyalari nazariy, amaliy, ko'rgazmali, ma'lumotli, trenajyorli va nazorat qismlarini birlashtirish yo'li bilan o'quvchilarga ijobiy va samarali ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Bundan tashqari ta'lim tizimida multimedidan foydalanish nazariy materiallarning namoyishlarini sifatli video yozuvlari, virtual laboratoriya ishlari va amaliyotlarni, turli jarayonlarning imitasion animatsiyali modellarini yaratish imkonini beradi, bu uchun o'quvchilarning o'quv sinflari, kompyuter sinflari, o'qitishning texnik vositalari xonasida, uslubiy xonalarda, kutubxonalarda amaliy shug'ullanishlarini tashkillashtirish lozim bo'ladi.

Ta'lim tizimida foydalaniladigan barcha multimedia darslari amaliy tadbiiqdan va tajribadan o'tgan bo'lishi bilan birga, o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarga ham ega bo'lishi kerak. Shuningdek o'quvchilarning yosh xususiyatiga ham mos bo'lishi lozim. Multimediali o'quv darslarining pedagogik-psixologik xususiyatlari bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun foydalaniladigan o'quv materiallarining tasvirlanish hamda ifodalanish formasiga va ko'rinishiga bog'liq bo'ladi. Multimedialar avvalgi annanaviy o'quv qo'llanmalardan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Shu jumladan, o'quv materiallarini o'quvchilarga tavsiya etish ultimediali: grafika, animasiya, video, slayd, ovozi va tovushli harakatlar, real voqea va hodisalarni modellashtirish kabi boshqa ko'plab elementlar orqali amalga oshiriladi, chunki ular natural obyektlar va ko'rgazmali qurollarning kamchiliklarini ma'lum bir miqdorda yoki to'liq qoplash imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarni o'rganayotgan mavzular bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishda va mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Multimedia yaratishda va ulardan foydalanish lokal kompyuter va internet tarmog'i keng imkoniyatlarni ochib beradi. Multimediali o'quv kurslarini butun dunyo kompyuter tarmog'iga joylashtirilishi, ulardan o'quv jarayoni foydalanishda to'g'ridan-to'g'ri murojoat qilish, o'quvchilarga axborotlarni topish, izlash va o'rganish faoliyatini shakllantirish va kengaytirish imkoniyatlarini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda axborot texnologiyalaridan foydalanish eng dolzarb talablardan biri ekan, bugungi kun o'qituvchisidan, avvalo, kompyuter savodxonligi, internet xabarlaridan vofiq bo'lishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va izlanishi, zamon bilan hamnafas bo'lishi talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kenjaboev O. Zamonaviy axborot texnologiyalari. T. 1999
2. Maraximov A.R., Raxmonqulova S.I., Internet va undan foydalanish asoslari. T.





## YOSH AVLODDA KITOBXONLIGI-MA’NAVIY KOMILLIK BELGISIDIR

**Zaitova Zuhra Irgashevna**  
Uchtepa tumani 283-maktabning  
boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Sir emaski, har qaysi davlat o’zining tabiiy boyliklari, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilangina emas, birinchi navbatda, xalqining yuksak ma’naviyati va madaniyati bilan buyukdir. Ushbu maqolada o’sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashda kitobxonlikning o’rni, yoshlarni kitob o’qishga jalb qilish masalalari keltirilgan.

**Kalit so’zlar:** kitobxonlik, kitob, ahborot, tafakkur, mehnatsevarlik.

Bugungi kunga kelib dunyoda o’xshashi yo’q, betakror yurtimiz – jonajon O’zbekistonimiz dunyo hamjamiyatida o’zining munosib o’rnini topib bormoqda.

Buning zamirida xalqimizning hamjihatligi, mehnatsevarligi, o’qimishlilik, ilm-ma’rifatga, ma’naviy yuksaklikka intilishi yotibdi.

Zero, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish – O’zbekistonda davlat siyosati darajasiga ko’tarilganligi bejiz emas.

Aslida ilmga intilish, o’qimishlilik xalqimizga xos bo’lgan azaliy xususiyatdir. Dini islomning muqaddas kitobi – Qur’oni karimda ham ma’rifat, donolik, bilim bo’lish fazilat sifatida ulug’lanadi.

Hadisu shariflarda “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” deb ta’kidlangan. Xalqimiz avval azaldan o’qish, ilmi bo’lishni barcha kulfatlarga qalqon deb hisoblagan, bilim va qudrat – ikkovi egizak, deb bilgan.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kichik yoshdagi o'quvchilarda qo'l motorikasini shakllantirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** individual va ijtimoiy-hissiy ehtiyojlar, Montessori materiallari, O'yinlar, metodlar, motorika.

Ta'lim jarayonida tarbiyachining diqqat markazida kichkintoyning individual va ijtimoiy-hissiy ehtiyojlarini qondirish nazarda tutilishi lozim. Mashg'ulot va o'yinlar uchun tanlangan didaktik materiallar bolada motorika (harakat) va sensorika (sezgi)ni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Bolaning mustaqil harakat qilishi natijasida uning ichki kuchlari erkin bo'ladi va asta-sekin kattalar yordamisiz ham o'zi bajara olish ko'nikmasiga ega bo'ladi.

Montessori materiallari bola uchun dunyoni, atrof-olamni anglash kaliti hisoblanib, dunyo haqidagi tasavvurlarini tizimga solishga, uning xaotik va atrof-olam to'g'risidagi bilimlarini kengayishiga sabab bo'ladi. Bular yordamida bolada dunyoqarash rivojlanadi. U o'zining shaxsiy tajribasi asosida atrof-olam va tabiatda yuz beradigan hodisalarni tushunadi va anglay oladi. Demak, bolalarda sezgi va mayda qo'l harakatini rivojlantirish orqali maktab ta'limiga tayyorlash imkoniyatlari yanada kengayadi degan xulosaga kelish mumkin. Quyida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarda mayda qo'l harakatini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlardan namunalarni keltiramiz.

**1-mashq. “SAVATCHA”NI YASATAMIZ (2-5 yoshli bolalar uchun).**

**Mashq maqsadi:** kichkintoyning asosiy barmoqlarida (bosh barmoq, ko'rsatkich va o'rta barmoq) motorikani rivojlantirish. Bolani yozishga o'rgatish.

**Kerakli jihozlar:** savatcha yoki qalin karton qog'oz (to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lishi kerak), kir qistirgich. Savatchaning cheti juda qalin bo'lmali lozim. Bolaga kir qistirgich solingan savatcha beriladi. Tarbiyachi unga har uch barmoq oralig'idan keyin kir qistirgichni savatcha chetiga terib chiqishni taklif qiladi. Bola topshiriqni mustaqil bajaradi.

**Izoh:** kichkintoy yozish malakasiga ega bo'lishi uchun avval unda mayda qo'l motorikasi rivojlangan bo'lishi lozim. Ya'ni, u qalam yoki ruchka ushlaganda yengil va oson bo'lishi kerak. Mashqni ko'p marotaba takrorlash bolada barmoqlarni yaxshi harakatlantirish hamda o'ng va chap qo'lga farqlashga o'rgatadi. Kuzatish jarayonida uning o'ng yoki chapaqay ekanligi ham aniqlab olinadi. Tarbiyachi bolaning ikkala qo'lda ishlashini nazorat qilishi kerak.

**2-mashq. “Rangli tomchilar” (2-5 yoshli bolalar uchun).**

**Maqsad:** bolalarda mayda qo'l motorikasini rivojlantirish. Barmoqlar harakatini mustahkamlash. Diqqatni jamlashga o'rgatish hamda qo'llarni yozishga tayyorlash.

**Kerakli jihozlar:** patnosda 12 katakchali suv muzlatgich idishi qo'yiladi. Har to'rt katakchani ustiga qizil, ko'k va sariq rang belgisi qo'yiladi. Patnosda uch xil rangli stakanda suv qo'yiladi. (Suvga qizil, sariq, ko'k rangda iste'mol bo'yog'i solib rang beriladi). Har bir stakanda suv tomizgich (pipetka) turadi.

**Mashqning borishi:** bolalar stakandagi rangli suvdan pipetka yordamida suv olib, rangiga mos muzlatkich idishiga tomizadi. Asta-sekin suv muzlatkich katakchalari rangiga mos suv bilan to'ldiriladi.

**Izoh:** bu mashq orqali nafaqat bolada barmoqlar harakati rivojlantiriladi, balki ranglarni farqlaydi hamda ko'p va kam miqdor tushunchalarini ham anglaydi. Ularda taqqoslash va solishtirish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, har xil rangli tomchilarni tomizish ularda psixomotorikani rivojlantiradi.

**3-mashq. “Munchoqlarni teramiz” (7-9 yosh bolalar uchun).**

**Mashq maqsadi:** bolalarda mayda qo'l motorikasini rivojlantirish va mustahkamlash. Koordinatsiya va qo'llarni yozishga tayyorlash.

**Kerakli jihozlar:** patnosda munchoq solish uchun bir necha katakchali quticha (sovun qutisidan ham foydalanish mumkin), pinset va turli rangdagi munchoq solingan stakan. Munchoqlar qutichada to'la bo'lishi uchun bir xil miqdorda bo'lishi kerak.



**Mashqning borishi:** bola o‘ng yoki chap qo‘li bilan (agar chapaqay bo‘lsa) pinset yordamida stakandagi munchoqlarni qutichaga soladi. Agar qutichalar to‘lsa, munchoqlarni olib yana stakanga qaytarib solishni taklif etish mumkin.

Izoh: mashq barmoqlar harakatini shunday rivojlantiradiki, bola keyinchalik qiynalmasdan mayda harflarni yoza oladi. Mashqni bajarish jarayonida bolada diqqat barqaror bo‘ladi hamda o‘z ichki hissiyotlarini nazorat qila olish ko‘nikmasi rivojlanadi. Agar munchoq qo‘lidan tushib ketsa, u mustaqil ravishda o‘z xatosini o‘zi tuzatishi kerak. Mashq boladan aniq va to‘g‘ri harakat bajarishni talab etadi.

Biz yuqorida bolalarning mayda qo‘l harakatini rivojlantirishga qaratilgan ayrim mashqlarni keltirdik. Tarbiyachilar keltirilgan namunalarga ijodiy yondashgan holda mustaqil boshqa mashqlarni ham yaratishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Лобанова Н. А., Соловьёв А. Г. Развитие мелкой моторики и стимуляция высших психических функций у лиц пожилого возраста / Материалы XX Международной научно-практической конференции «Пожилой больной. Качество жизни» // Клиническая геронтология, 9—10, 2015, с. 46—47

2. Что такое мелкая моторика и почему так важно её развивать?



**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHI VA XOTIRASINI MUSTAHKAMLASH.**

**Alimova Nargiza Qodirberganovna**

7-son umumta’lim maktabi

boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Tel: +998937454238

Elektron pochta:nargizaalimova754@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida matematika darslarida o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashini va xotirasini shakllantirish yo‘llari bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** matematika, mantiqiy fikrlash, matnli masala, o‘quvchi

Masalalarni yechish matematikani o‘qitishning muhim tarkibiy qismidir. Masalalarni yechmasdan matematika fanini o‘zlashtirishni mutlaqo tasavvur qilib bo‘lmaydi. Matematika darslarida masalalar yechish nazariyani amaliyotga tadbiq etishning eng yaxshi va ravon yo‘lidir.

Insoniyat tarixida mavjud matematik qarashlar asosida cheksiz ko‘p masalalar to‘plami tuzilganki, ularning har biri ma’lum ma’noda matematika nazariyasini amaliyotga tadbiq etishga yordam berdi. Har bir masalaning o‘zining yechish yo‘li xossasi, shartli xulosasi bor.

Matematik ta’lim jarayonida masalalardan foydalanish qadim zamonlardan beri qo‘llanib kelinayotir. Shuning uchun ham matematika darslarida matematik masalaning roli va uning o‘rni haqida gap borganda quyidagi uch bosqichni ko‘zda tutish maqsadga muvofiqdir.

1. Matematika fanining nazariy qismlarini o‘rganish matematik masalalarni yechish maqsadida amalga oshiriladi;

2. Matematika fanini o‘rgatish matematik masalalarni yechish bilan birgalikda olib boriladi.

3. Matematikani o‘rganish masala yoki misollar yechish orqali amalga oshiriladi.

Aytilganlardan ko‘rinadiki, jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida masalaning roli va uning o‘rniga har xil baho berib kelingan. Hozirgi davrda masala yoki misollar yechish orqali matematik ta’lim jarayonini olib borishning metodik usul va vositalari ishlab chiqilgan va bu usullar haqida ko‘pgina ilmiy metodik va didaktik adabiyotlarda bayon qilingan.

Murakkab masalalar ham, bilimlarni o‘zlashtirish, olgan bilimlarni mustahkamlash va mukammallashtirishga xizmat qiladi. Sodda va murakkab masalalar bolalarning fikrlash qobiliyatlari rivojlantirishning foydali vositasi bo‘lib odat o‘z ichiga yashirin noma’lumni oladi. Bu noma’lumni qidirish, masala yechuvchidan tahlil va sintezga mustaqil murojaat qilish faktlarini taqqoslash, umumlashtirish va boshqalarni talab qilish.

Masalalar yechish orqali o‘quvchilarda ushbu malakalar tarkib topilishi kerak.

1. Masalani tinglashni o‘rganish va uni mustaqil o‘qiy olish. Masala ustida ishlash uning mazmunini o‘zlashtirishdan boshlanadi.

2. Masalani dastlabki analiz qilish (ma’lumni noma’lumdan ajarata olish malakasi). Ma’lumni noma’lumdan, muhimni nomuhimdan ajratish, masalada berilganlar bilan izlanayotganlar orasidagi bog‘lanishni ochish - bu eng muhim malakalardan biri. Bunday malakaga ega bo‘lmay turib, masalalarni mustaqil yechishga o‘rganib bo‘lmaydi.

3. Masalani qisqa yozish malakasi. Masala matni ustida og‘zaki ishlagandan keyin uning mazmunini matematik atamalar tiliga o‘tkazish va qisqa yozuv shaklidagi matematik strukturasi belgilash kerak (rasmlar, chizmalar, sxemalar, jadvallar).

4. Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so‘ngra yechish rejasini tuzish malakasi. Oldin sodda masalani yechishda amal tanlash masalasini qarab chiqishga to‘xtalamiz. Bu malaka birinchi sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi, ikkinchi va uchinchi o‘quv yillarida yanada rivoj toptiriladi, ya’ni ba’zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlash ishini bajarish asosi o‘zgartiriladi.

5. Yechimni bajarish, uni o‘qituvchi talabiga mos qilib rasmiylashtirish va masala savoliga javob berish malakasi. Sodda masalalardan boshlaymiz. Sodda masalani arifmetik usul bilan ham, algebraik usul bilan ham yechish mumkin. Bu o‘rinda masalalarni arifmetik usul bilan yechish haqidagina so‘z boradi, masalani algebraik usulda yechish keyinroq alohida qaraladi.

6. Masala yechimini tekshira olish malakasi. Masala yechimining tekshirish quyidagi usullarda qo‘llaniladi:





- a) olingan javob bilan masala sharti o‘rtasida moslik o‘rnatish;
- b) teskari masala tuzish va yechish;
- c) masalani boshqa usullar bilan yechish;
- d) javobning chegaralarini aniqlash (javobni chamalash);
- e) grafik tekshirish.

Ma’lumki o‘quvchining mantiqiy tafakkurini o‘stiradigan izlanish faoliyati bir qancha bosqichlardan iborat. Ko‘pgina masala va mashqlarda o‘quvchilarni mustaqil izlanishga da’vat etadigan «savol tuzing», «teskari masala tuzing», «taqqoslang», «xulosa yasang» kabi ko‘rsatmalari berilgan. Biroq tajribadan ma’lumki bunday ko‘rsatmalar umumiy xarakteratlarda bo‘lgani sababli o‘quvchilar mustaqilligini va dars samaradorligini oshirishi uchun yetarli emas. Shuning uchun matematik masalalar yechishda o‘quvchilar fikrlashini yo‘naltirib ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatib masalada misollarni yechish usullaridan foydalanish muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, matematika o‘qitishning muhim vazifasi o‘quvchilarda faol fikrlash, turmushda uchraydigan turli masalalarni yechishda qiyinchiliklarni yengish, bu masallar yechimining rasional yo‘llarini topish ehtiyojini vujudga keltirishdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika o‘qitish metodikasi (kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘llanma) - T.: Ilm-Ziyo, 2003, 240-bet
2. Jumayev M.E. Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum - Toshkent.: O‘qituvchi, 2004, 328-bet.
3. Ziyonet.uz



## KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA OILANING O'RNI

Allambekova Gulchexra

Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani  
3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchi,  
ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oila-tarbiya maskani ekanligi, farzand tarbiyasida ota-onaning mas'ulligi, tarbiyani mustahkamlovchi omillar haqida mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, oila, tarbiya birligi, bola shaxsi, tarbiya uslublari, tarbiya qoidalari, ota-ona, jamiyat, burch, namuna, millat, yosh.

Mamlakatimizning mustaqilligini dastlabki yillaridayoq oilalarning mustahkamligini ta'minlash, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, oilalarda ruhan va jismonan sog'lom, baquvvat, ma'naviy yuksak farzandlarni voyaga yetkazish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, oilaviy tarbiyani samarali tarzda tashkil etishga alohida e'tibor qaratildi.

Kelajagi porloq bo'lishini istagan har bir millat, turli-tuman sarf-xarajatlarini, vaqt va quvvatni ertaning chinakam insonlari bo'ladigan bolalarni tarbiyalashga imkoniyat doirasida sarf etmogi lozim. Millatning kelajagi oiladan, uning poydevori mustahkamligi bola tarbiyasidan boshlanar ekan, bunda ota-onaning mas'uliyati naqadar kattaligi ma'lum bo'lib qoladi.

XX asrning boshlarida buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy tomonidan aytilgan: "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" - degan hikmatli fikrlari hozirgi kunda ham, kelajakda ham muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Tarbiya esa, eng avvalo, oiladan boshlanadi. Chunki insoniy eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari oila bag'rida shakllanadi. Olimlarning ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlari natijasiga ko'ra "inson o'z umri davomida oladigan axborotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrida olar ekan". Oila tarbiyasi deganda, ota-ona, oiladagi katta kishilar, buva va buvilar, aka-opalar va shu kabilar tomonidan bolalarning to'g'ri, milliy axloq-odob normalari asosida tarbiyalashni tushunish lozim. Zotan, bolalarning kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi ota-ona, aka-opa va boshqalarning o'zaro muomala-munosabatlar, xulq-atvoriga, tartib-intizomga bevosita bog'liqdir. Xalqimiz: "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deb bejiz aytmagan.

Oila tarbiyasida hikmat ko'p. Yangi o'tkazilgan niholning to'g'ri yohud egri o'sishi bog'bon mehnatiga bog'liqdir. Egri o'sayotgan niholning qaddini rostlab qo'ymasa, u notog'ri rivojlanadi. Yangi tug'ilgan go'dak tarbiyasi bilan shu yosh nihol holati o'rtasida qandaydir tabiiy o'xshashlik mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, mehnat tarbiyasi, ma'naviy-axloqiy tarbiya, axloq-odob normalari, Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik tarbiyasi, ma'naviy estetik tarbiya, jismoniy tarbiya, kattalarga hurmat, kichiklarga shavqat, milliy g'urur va iftixor tarbiyasi, ijtimoiy tarbiya va shu kabilarni bola ongiga singdirish va ularni tarbiya jarayonlarida muntazam qo'llash ota-onaning vazifa va burchlaridir.

Tarbiya bir necha tomondan olib boriladi. Bola aqlan rivojlanishi uchun unga turli kitoblar o'qib beriladi, rivoyat va ibratli hikoyatlar so'zlanadi yoki aql-zakovatini o'stiradigan o'yinlar, mashg'ulotlarga jalb qilinadi. Ruhii tarbiyasini yaxshilash uchun hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik, axloq va odob kabi boqiy mavzularda sodda, bola ruhiyatiga mos suhbat va tushuntirish olib boriladi. Jismoniy tarbiya berish uchun esa biror foydali mehnatga jalb qilish, suzish, merganlik, chavandozlik kabi mashg'ulotlarni o'rgatish mumkin.

Oilada bola shaxsi tarbiyasi ikki yoqlama ahamiyat kasb etadi. Bolalarga ruhiyat va ma'naviyatdan saboq berish bilan qanoatlanib qolmasdan, balki o'zlari ham tarbiya sirlari, xususiyatlari, holatlari mohiyati va ma'nosi yuzasidan yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lib turishlari lozim. Oilada otaning rahbarlik roli zarur. Ota-oila boshlig'idir. Ota oilada bolalarga nutq odobida, o'zaro muomala jarayonida, amaliy ish faoliyatida, to'g'rilik va haqqoniylik, samimiylikdan iborat bo'lmas ekan, bunday ota qadr-qimmatsiz, begona bir shaxsga aylanib qoladi. Oilada obro'si bo'lmagan ota tarbiyasini olgan bola ko'pincha mustaqil, bezori bo'lib yetishadi. Abdulla Avloniy o'zining ibratli asarida shunday yozadi: "Tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlantirmak, zehnimizni rivojlantirmak lozim."

Oilada bola shaxsini to'g'ri tarbiyalashning o'ziga xos qoidalari ham mavjud. Ular quyidagilar:

1. Oilada hissiy moslik, ruhiy xotirjamlikni yaratish.



2. Oilada ota-ona obro`sinini saqlab borish.
3. Tarbiyada ota-ona, kattalar orasida talabchanlik borligi.
4. Bola shaxsini mehnatda tarbiyalash.
5. Oila, maktab va mahalla hamkorligi.
6. Bolani sevish va uning shaxsini izzat qilish.
7. Oilada qat`iy rejim va kun tartibini o`rnatish.
8. Tarbiyada bolalarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish.
9. Bola taraqqiyotini o`rganib borish.
10. Bolada mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini hosil qilish.

Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko`rsatma yoki bilimlar jamg`armasi emas, balki o`z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir.

Jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Farzandlarining haqiqiy inson bo`lib ulg`ayishini istagan har bir ota-ona zamonamiz talabini chuqur anglab yetishlari va farzandlarini xuddi shu ruhda tarbiyalashlari zarur. Farzand yaxshi xulq-atvorga va aql-farosatga ega bo`lgan, hayot saboqlarini shunchalik teran angelaydi va ezgu ishlarni amalga oshiradi. Aksincha bo`lsa, u bugungi kunda globallashib borayotgan tahlikali zamonda yot g`oyalarga asir bo`lishi, to`g`ri yo`lni yo`qotishi, qonunchilikni bilmasligi oqibatida jinoyat ko`chasiga kirishi mumkin.

Ma`lumki, tarbiya ishining muvaffaqiyatli bo`lishi uchun ota-onalar, oilaning kattalari tinmay o`z-o`zlarini rivojlantirishlari lozim. Farzandlarini ichkilikbozlik, o`g`rilikdan, bekorchilikdan hazar qilishga kichik yoshidan o`rgatib, tushuntirib borish zarur. Farzandlari ulg`aygan sari ular taqdiriga hushyorroq qarash, ularni yuksak qadriyatlarimizning asl va baquvvat ildizlaridan bahramand etish, bugungi turmush tarzimizga mos tarbiya berish ota-onalar zimmasidagi muhim vazifalardan sanaladi. Zero, har bir oilaning bosh maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalashdan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

1. I.A.Karimov. Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch.
2. U.Alimov. Oilada farzand tarbiyasi.
3. SH.T.Otaboyev va boshqalar. Ekologiya, oila, reproduktiv salomatlik
4. E.Yusupov, F.Ismoilov. Odamiylik saboqlari.
5. O.Hasanboyeva Pedagogika tarixidan xrestomatiya(o`quv qo`llanma).
6. www.tadqiqot.uz
7. www.ziyonet.uz



**O’RTA MAKTABLARDA GEOGRAFIYA VA FIZIKA TABIIY FANLARINI O’QITISHDA “BLITS-SO’ROV” USULIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH**

**Atajanova Surayyo Komilovna,  
Jumaniyazova A’lo Sobirjon qizi**

Xonqa tumani 6-maktab  
Geografiya va fizika tabiiy fanlar o’qituvchilari

**Annotatsiya:** Bu maqolada Blits-so’rov usul orqali o’quvchilarga tarqatilgan qog’ozlarda ko’rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda belgilash, kichik guruhlarda o’z fikrini boshqalarga o’tkaza olish yoki o’z fikrida qolish, boshqalar bilan ham fikr bo’la olish kabi ko’nikmalarni shakllantirishni o’z ichiga olgan.

**Kalit so’zi:** Interfaol, innovasion, pedagogik, o’quvchi, Blits, ta’lim, fikir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va o’quvchi faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Boshqacha so’z bilan aytganda, o’qitishning interfaol uslubiyotlari – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo’lib, unda ta’lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo’ladilar, ular biladigan va o’ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo’ladilar. Interfaol darslarda o’qituvchining o’rni qisman o’quvchilarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo’naltirishga olib keladi.

“Blits-so’rov” metodi “Blits-so’rov” (ing. “blits” – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo’nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta’lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o’qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg’ulot turi, o’rganilayotgan mavzuning murakkabligi, o’quvchilarning qamrab olinishiga ko’ra belgilanadi.

- O’qituvchi o’quvchilarga ushbu mashg’ulot bir necha bosqichda o’tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bir bosqichga moljallangan vazifalarni bajarishga aniq vaqt berilishi, o’quvchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi.

- Keyin hammaga alohida-alohida tarqatma material beradi va ushbu materialni sinchiklab o’rganishlarini so’raydi;

- har bir o’quvchi o’zining shaxsiy fikri asosida tarqatma materialdagi **“o’quvchi javobi”** bo’limiga berilgan savollardan 3xil variantli javobdan bittasini yozadi, javoblar raqamlar yoki harflar bilan ko’rsatilishi mumkin.

- berilgan vaqt ichida yakka tartibdagi ishlar tugagach tarqatma materiallar o’zaro almashinadi;

- tarqatma materiallar almashingach, oqituvchi to’g’ri javoblarni o’qiy boshlaydi, oquvchilar bir-birini ishini tekshira boshlaydi va **“to’g’ri javob”** bo’limiga “1” ball dan, agar noto’g’ri bo’lsa “0” ball qo’yib chiqishadi.

№	Savol	A	B	C	O’quvchi javobi	To’g’ri javob
1	Tezlik formulasi	$V=S/t$	$V=t/S$	$V=S/T$		
2	Tezlik birligi	m/m	m/s	m/t		
3	Xarita o’rtasidagi chiziq nima deyiladi	Ekvator	G’arbiy tekislik	Sharqiy tekislik		
4	Eng kichik sayyora	Neptun	Merkuriy	Yupiter		

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ziyomuhhammadov B., Abdullaeva Sh., Ilg’or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2001.

2. O.U.Avlayev, S.N. Jo’rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o’quv-uslubiy qo’llanma, “Navro’z” nashriyoti, Toshkent – 2017.



## МАКТАБДА BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA SYUJETLI - ROLLI O'YINLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Atamuratova Lola Ataxanovna**

Urganch shaxar 14-son umum ta'lim maktabining  
biologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu metod hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib, tanlash maqsadga muvofiq sanaladigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan.

**Kalit so'z:** interfaol, ta'lim, o'qituvchi, o'quvchi, metod, bilim, rol.

Ta'lim tarbiyaning interfaol metodlari deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Innovatsion texnologiyalarning ta'limdagi juda katta o'rni, ahamiyati tufayli keyingi davrlarda metodist olimlar, novator o'qituvchilar tomonidan uning yangi-yangi tashkiliy shakllari ishlab chiqilmoqda. Quyida hasharotlarning ichki tuzilishi va ularning tabiatda, inson hayotidagi ahamiyati mavzularini innovatsion texnologiyalarning modul tizimi, tayanch belgilar, klaster va sinkveyn kabi tashkiliy shakllaridan foydalanib o'rganishga oid materiallar beriladi.

Syujetli - rolli o'yinlar

Yoshlarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida talabalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil bilim egallash ko'nikmalarini rivojlantirish va o'zlarida mujassamlashgan bilim, ko'nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo'llash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirishda syujetli-rolli o'yinlar muhim rol o'ynaydi.

Mazkur o'quv fanini o'qitishda kundalik hayotda ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisalar va ularning oldini olish yo'llarini o'rganish uchun sun'iy ravishda vujudga keltirilgan muammolarni talabalarning o'zlaridagi bilim zahiralari tayangan holda, hamkorlikda, bosqichma-bosqich hal etish jarayonida yangi bilimlarni egallashga qaratilgan didaktik o'yinlarni syujetli rolli o'yinlar deb atash lozim. Bunda o'yin syujeti kundalik hayot yoki jamiyatdan olinadi. Ba'zan mazkur muammolar uyg'unlashtiriladi.

O'qituvchi syujetli rolli o'yinni o'tkazish uchun quyidagilarni amalga oshirishi zarur:

1. Dars davomida yechimi topilishi kerak bo'lgan muammolarga oid ma'lumotlarni to'plashi;
2. Dars ssenariysini talabalar bilan hamkorlikda tuzishi;
3. Rollar va vazifalarni talabalar o'rtasida taqsimlashi;
4. Muammoni hal etish yo'llarini belgilashi lozim.

Dumalovchi qor uyumi metodi o'quv mashg'uloti o'tkazish metodining ramziy nomi bo'lib, ish qo'yilgan muammo ustida mulohaza yuritib ko'rish uchun talabalarga vaqt, tegishli manbalar, tarqatma materiallar berishdan boshlanadi. Bu metod guruhning har bir a'zosiga butun guruhning bilimlari va tajribalaridan foydalanib, o'zining keng qamrovli nuqtayi nazarini bayon etishni nazarda tutadi. Buning uchun talabalar 4 ta kichik guruhlarga ajratiladi. Muhokama qilib chiqish uchun barcha guruhlarga bitta topshiriq beriladi.

Har bir kichik guruh topshiriq ustida alohida ishlaydi. So'ngra birinchi bilan ikkinchi va uchinchi bilan to'rtinchi guruhlar muammo ustida birgalikda muhokama yuritishadi. Oxir oqibatda barcha kichik guruhlar birlashib, butun yaxlit guruh bo'lib qo'yilgan muammo yechimini hal etishning turli yo'llarini, variantlarini muhokama qilishadi. Bunday muhokama jarayonida talabalarning qo'yilgan muammo yuzasidan bilimlari chuqurlashib, oydinlashib, boyib, keng qamrovli bo'lib boradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyomuhammadov B, Abdullaeva Sh., Ilg'or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2001.
2. Abdullayeva K. va boshqalar. Savod o'rgatish metodikasi. T., «O'qituvchi», 1996-yil. 18-25-betlar.
3. Farberman. B.L. «Ilg'or pedagogik texnologiyalar». T: 2001 y.





## О‘QISH DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Axmedova Dilbar Bahronovna,**  
Navoiy viloyati, Navoiy shahar 17-maktab  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
Telefon: 998 99 160 19 20

**Annotatsiya:** Maqolada ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan ilg‘or pedagogik texnologiyalar va ulardan boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida foydalanilishi misollar asosida yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Kompetensiyani shakllantiradi, didaktik o‘yinlar, usul, metod, kichik vatan, hi-koya, savollar, topshiriq, Qodir, Sobir, og‘zaki, yozma, nutq.

Bugungi kunda umumta’lim fanlarini o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv- ni joriy etish, axborot-kommunikatsiya va ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ta’lim mazmunida o‘ziga xos hamda o‘quvchi shaxsida o‘ziga mos kompetensiyani shakllantiradi.

Bugungi kunda “Aqliy hujum”, “6x6x6”, “Klaster”, “Bumerang”, “Arra”, “O‘z o‘rningni top”, “FSMU”, “Nima uchun?”, “Ikki qismli kundalik”, “Pinbord”, “Qarorlar shajarasi” singari zamonaviy pedagogik texnologiyalar, shuningdek, didaktik o‘yinlardan boshlang‘ich adabiy ta’lim jarayonida foydalanilmoqda. Ushbu qo‘llanilayotgan pedagogik texnologiyalar dars jarayonida zarur bilimlarni o‘quvchiga yetkazish, unda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma, malaka hosil qilish, shu bilan birga bilim, ko‘nikma va malakalarni nazorat qilish hamda baholash uchun o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni talab qiladi.

Ushbu maqolada 4-sinf o‘qish darslarida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni yuzasidan fikr yuritimiz. Ashurali Jo‘rayevning “Kichik Vatan” hikoyasini o‘rganishda “Zanjir” usuli, “Aqliy hujum” va “6X6” metodidan foydalaniladi. Dars “Kichik Vatan” hikoyasi muallifi Ashurali Jo‘rayev haqida o‘qituvchi tomonidan qisqacha ma’lumot berish bilan boshlanadi. Matn mazmuni o‘qituvchi tomonidan tushuntirib, ifodali qilib o‘qib berilgandan keyin hikoyadagi notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi. O‘quvchilar “Zanjir” usuli asosida hikoya matnini navbatma-navbat o‘qiydi. Keyin darslikda hikoya yuzasidan berilgan savollarga o‘quvchilar javob beradi. O‘quvchilar hikoyaning “Kichik Vatan” deb nomlanishi va hikoyada ilgari surilgan g‘oyani anglab olishlari uchun “Aqliy hujum” usulidan foydalaniladi. Quyidagi savollar videoprojektor orqali ekranda ko‘rsatiladi:

1. Hikoya nima haqida?
2. Hikoyaning asosiy qahramoni kim?
3. Uydan ko‘chish boboga qanday ta’sir qildi?
4. Bobo tuni bilan nega uxlamadi?
5. Boboning fотиha va tilovat qilishiga sizning munosabatingiz?
6. Uyidan ko‘chayotgani oiladagilarning hammasiga qanday ta’sir qildi?
7. Mashinaga yuklarni ortib ketishgandan keyin bobo nega xursindi?
8. Erdon tog‘ani duo qilib, bobo qanday tilak bildirdi?
9. Erdon tog‘aga bobo bu uy haqida nimalarni aytib berdi?
10. Bobo bu uyini “kichik Vatan” deb ta’riflashi to‘g‘rimi?

Bu savollarga o‘quvchilar bergan javoblari umumlashtiriladi. Shu tariqa bolalar hikoya mazmunini bilib olganlaridan keyin, o‘quvchilar tushunchasini mustahkamlash maqsadida “6X6” metodi sinf o‘quvchilarini guruhlariga bo‘lib, ularga ikkita topshiriq beriladi. 1-topshiriq hikoya 6 qismga ajratilib, 6 ta guruhga beriladi. Guruhlar har bir qismga hikoya qismga sarlavha qo‘yadilar. Masalan, hikoya qismlari sarlavhasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. Bobom bezovta.
2. Fotihadan so‘ng.
3. Uyning yangi egalari.
4. Ko‘nglim buzildi.
5. Bobomning hikoyasi.
6. Kichik Vatan.

2-topshiriq har bir guruh Ona-vatan 4 tadan maqol va O‘zbekiston haqida bitta she’r aytadi. Bir guruh aytgan maqollar va she’rni boshqa guruhlar takrorlamasligi lozim.



O‘qish darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarni faollashtiradi, nutqini o‘stiradi, bilimlarini mustahkamlaydi. Misol uchun 4-sinfda Hakim Nazirning “Qodir bilan Sobir” hikoyasini o‘rganish darsida ”Javobini top” o‘yini qo‘llash mumkin. O‘quvchilar hikoyani o‘qib, mazmunini o‘zlashtirib olganlaridan keyin darsning mustahkamlash qismida proyektor orqali quyidagi savollar va javoblar aralash holda namoyish etiladi. O‘quvchilar savollarga mos javoblarni topadilar, savollarga javoblar tartib bilan aytadilar.

- “Qodir bilan Sobir” hikoyasini kim yozgan?

-Qodir toldan bitta novdani uzib olib, uning uchiga bitta toshni bog‘lab turib itga uloqtirdi.

- Qodir o‘rtog‘i Sobirga nima deb maqtandi?

- Sobir o‘rtog‘ining qilig‘iga ajablanib, indamay turdi.

-Qodirni o‘rtoqlari nima deb atashadi?

-Hakim Nazir.

Qodirni o‘rtoqlari zo‘ravon, do‘mbirachi deb atashadi.

- Qodir itga nimani uloqtirdi?

-Sobir o‘rtog‘ining qilig‘iga ajablanib, nima qildi?

-Men hech narsadan qo‘rqmayman deb maqtandi.

Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi kabi ta’lim texnologiyalaridan foydalanilsh dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini, bog‘lanishli nutq malakalarini hamda mustaqil fikrlash, hozirjavoblik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari. RTM. 2016-y.
2. O‘qish fanidan o‘quv dasturi. (1-4-sinf) Toshkent-2017.
3. O‘qish kitobi (4-sinf uchun darslik). T. 2017-y.
4. O‘qish.4-sinf o‘qituvchilari uchun ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha metodik qo‘llanma. RTM. 2017.



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI FANIDA SO'Z TARKIBINI YASHASHNI O'RGATISH

**Boymatova Muqaddasxon Muhamadaliyevna**

Namangan viloyati Norin tuman

19-maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

931786555 boymatovamuqaddas@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning ona tilida nutq ma'daniyati va so'z tarkibi qismidan so'zlar yasash va erkin muloqotga kirishishda bu usullardan foydalanish haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** So'zlar yasash, aloqada bo'lish, o'zak, yasovchilar, qo'shimchalar, ma'no shakllantirish, shakl yasovchi qo'shimchalar.

Bugungi ildamlab borayotgan yangi O'zbekiston diyorumizda farzandlarimizni bilimli, va malakali kadrlar qilib yetkazish bilan bir qatorda ularning nutq ma'daniyatini o'stirishda ona tili fanining o'rnini beqiyos hisoblanadi. Bugungi kunda boshlang'ich sinflardan oq bolaning soz bilish qobiliyati va gapirish, o'z fikrini mustaqil bayon etish uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari asosiy o'rinni egallaydilar. Boshlang'ich sinflar ona tili dasturiga muvofiq so'zning morfemik tarkibi 3-sinfda o'rganiladi. 4-sinfda so'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi haqidagi bilimlarni takomillashtirish ko'zda tutiladi. Til materialini o'rganish tizimi deganda aniq, ilmiy asoslangan izchillikdagi va o'zaro bog'lanishdagi bilimlar yig'indisini o'zlashtirishni ta'minlaydigan maqsadga qaratilgan jarayon, shuningdek, shu asosda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish tushuniladi. So'zning morfemik tarkibiga tatbiq qilganda, tizim so'z yasalishiga oid va grammatik bilimlarni o'zlashtirish. So'z tarkibi bosqichlari quyidagilardir.

**Birinchi bosqich**—so'z yasalishini o'rganishga tayyorgarlik bosqichi. Bu bosqichning vazifasi o'quvchilarni bir xil o'zakli so'zlaning ma'no va tuzilishiga ko'ra bog'lanishini tushunishga tayyorlash. Bunday vazifaning qo'yilishiga sabab, birinchidan, so'zning ma'no va tuzilishi jihatidan bog'lanishini tushunish, o'zining lingvistik mohiyatiga ko'ra, bir xil o'zakli so'zlarni va so'z yasalishini o'zlashtirishga asos hisoblanadi. Haqiqatan ham, yasalgan va yasashga asos bo'lgan so'zlar bir-biri bilan ma'no va tuzilishi jihatidan bog'lanadi: *ish-ishchi*,

*g'alla-g'allakor*. 1-sinfda kuzatish o'rganiladigan materialning mazmuni va ayrim so'zlaning ma'nosini, yozilishini tushuntirish bilan uzviy bog'lanadi. 1-sinfda *kim?*, *nima?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni o'rganish jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning “Nima uchun-u yoki bu narsa shunday nomlangan?” savoliga birgalikda javob topishi ularni bir xil o'zakli so'zlar o'rtasidagi munosabatni tushunishga tayyorlashda anchagina mos va qiziqarli usul hisoblanadi. Bu savolga javob topish bilan o'quvchilar “Nega so'zlar o'zakdosh hisoblanadi?”, “Bir so'zdan boshqa so'z qanday hosil bo'ldi?” savollariga javob berishga tayyorlanadilar. Tilda juda ko'p so'zlar shaxs va narsaning nomi hisoblanadi. Shuning uchun o'quvchilar bilan nega shaxs yoki narsa shunday nomlanganini aniqlashdan asta-sekin tildagi bir so'z bilan ikkinchi so'z o'rtasidagi bog'lanishni aniqlashga o'tish mumkin. O'quvchilar so'zning yangi so'z hosil qilishga yordam beradigan qismini bilib olgan sari ular so'z yasalishi haqidagi tasavur chuqurlasha boradi.

**Ikkinchi bosqich**—bir xil o'zakli so'zlamning xususiyatlari va barcha morfemalarning mohiyati bilan tanishtirish. Bu bosqichning asosiy o'quv vazifasi -so'zlamning ma'noli qismlari sifatida o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar bilan tanishtirish, “o'zakdosh so'zlar” tushunchasini shakllantirish, bir xil o'zakli so'zlarda o'zakning bir xil yozilishini kuzatish hisoblanadi. “o'zakdosh so'zlar” tushunchasini shakllantirish ularning ikki muhim belgisini, ya'ni mazmuniy umumiylikni (ma'nosida qandaydir umumiylik borligini) va tuzilishiga ko'ra umumiylikni (umumiy o'zak mavjudligini) o'zlashtirish bilan bog'lanadi. Shuning uchun bu belgilarni o'quvchilar o'zlashtirishiga ta'lim jarayonida sharoit yaratish lozim. Bir xil o'zakli so'zlaning ma'nolaridagi umumiylik o'zakning umumiyligi tufayli vujudga keladi, ularni bir guruhga birlashtiradi; qo'shimchalar esa so'zning ma'nosiga o'ziga xos ma'no qo'shadi; ularni bir-biridan farqlaydi. Bir xil o'zakli so'zlar ustida bunday ishlash usuli

o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ular diqqatini so'zning umumiylikka asoslangan aniq belgilariga jalb qilish imkonini beradi.

**Uchinchi bosqich**—o'zak, so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalarning xususiyatlari



hamda tildagi ahamiyatini o'rganish metodikasi. Bu bosqichning o'quv vazifasiga „o'zak“, „so'z yasovchi qo'shim cha“, „shakl yasovchi qo'shim cha“ tushunchalarini shakllantirish, so'zning leksik ma'nosi bilan morfemik tarkibi o'rtasidagi bog'lanish haqidagi tasawurlarni o'tirish, o'zakda jufti bor jarangli va jarangsiz undoshli so'zlarni to'g'ri yozish malakasini shakllantirish, nutqda so'z yasovchi qo'shim chasi bor so'zlarni ongli ishlatish ko'nikmasini o'tirish kiradi. Bu bosqichning vazifasi bir-biri bilan ma'lum bog'lanishda hal qilinadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ona tili o'qitish metodikasi. Ra'no Inogomova, Muhabbat Abduraimova . Toshkent 2009
2. Qosimova K., S. Matjonov, X. G'ulomova., Sh. Yo'ldosheva., Sh. Sariyev. "Ona tili o'qitish metodikasi". -T., 2009.
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi



## IMPROVING WRITING SKILLS THROUGH PICTURES

**Davletova Dilafruz Palvannazirovna,  
Palvonova Yoqutjon Maqsudovna,**

Xorazm viloyati Xiva shahar  
12-sonli maktab ingliz tili fani o'qituvchilari.

**Abstract:** The objectives of this study are to describe students' writing skills taught using picture series, to describe the students' writing skills taught using traditional method, to find out significant difference between students' writing skills taught using picture series and traditional method, and to find out a better class in producing writing skills.

**Key words:** writing, writing skills, pictures, effective.

In this global era, communication does not occur only in spoken form, but it also occurs in written form. Many people still use written form for communicating with each other. Writing can be used as a means of communication. Many aspects of life need writing skills as part of the requirements. One of the examples which writing takes an important role is in the educational setting.

It is clear that writing is very important for students, in fact, the teaching and learning processes of writing in the class somehow does not run smoothly. As a result, it does not show a successful achievement at the end of teaching and learning writing. The students still cannot master writing as well as expected. Their writing ability was still low, and they had difficulties in the writing class.

Beside those problems, the teacher tended to use lecturing technique with the whiteboard and text books without any modification. It made the activities monotonous and boring. There were no varied media in teaching. As a result, the students had difficulties in expressing their ideas during the writing process. They also had difficulties in writing good sentences and using appropriate grammar. In addition, they also had difficulties in expressing and arranging their ideas.

There are some types of pictures used in the English teaching and learning. One of them is picture series. Picture series is a kind of medium which belongs to picture category. Picture series consists of a number of pictures which relate each other and they place in sequence. Picture series is usually used to tell a series of events or to tell a story. Picture series is recommended for it has many benefits in the writing learning process. The first benefit using picture series is that it will make the students interested in writing English because picture series is one of the visual teaching media. It means that picture series is interesting medium to catch students' interest in writing. The second benefit is that picture series will stimulate the students to develop and use their imagination so that they will be able to write well. The last benefit is that picture series will improve the students' motivation in writing. Students can construct their knowledge during writing a text easily by using media. Learning to write is new subject for young learners. Because of that, the teachers should have many ways to make students capable to express their ideas. Teaching writing by using picture is more effective. It is hoped that using picture can activate the students' creativity in writing activity. There are some activities using pictures in teaching learning process. The first activity is describing pictures. In this task the students have to describe the pictures. The teacher also gives the limitation to demand the students to finish the task. The teacher could make the activity more engaging by asking students about the pictures. The second activities were suspects and objects. In this task, the teacher gives the students a variety of pictures. The students have to describe only one of them. The students then give their description to another student who has to identify which pictures is being described, and stick the description under the correct picture. The students will be more interested in learning writing if the teacher teaches writing by using pictures.

**Conclusion:** English language is not easy to study by students in every grade. Many students cannot understand their materials because they have perception that studying English is very difficult for them. It is more effective if teachers can use pictures to increase their students' writing skills.

### References

1. Collie, J., & Slater, S. (1991). *Literature in the language classroom. (5th ed.)*. Glasgow: Cambridge University Press.
2. Harmer, Jeremy. (2001). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education.





## МЕТОДИЧЕСКИЕ РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНТЕРАКТИВНОЙ МЕТОДИКИ «БУРАН» ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ШКОЛЕ

Davletova Shaxzoda Saidmurotovna  
Matkarimova Muqaddas Po'latovna

Urganch shahar 19- son IDUM rus tili fani o' qituvchilari.

**Аннотация:** В данной статье освещается информация, связанная с развитием у школьников интереса к русскому языку, умственных, духовных, нравственных качеств и способности мыслить с раннего возраста в школах посредством новой интерактивной методики.

**Ключевые слова:** метод, интерактив, обучение, воспитание, учитель.

Термин «интерактив» в английском языке выражается как «взаимодействовать», а в лексических терминах «интер» означает взаимный, двусторонний, «акт» означает действовать, действовать.

Интерактивное обучение – это обучение, основанное на организации совместного, коллективного движения участников процесса обучения с целью приобретения знаний, навыков, умений и определенных нравственных качеств. Учитель развивает у учащихся навыки через интерактивное обучение, самостоятельность, самоконтроль, самоуправление, эффективное общение, работу со сверстниками, прислушивание к их мнению и развивает способность понимать, мыслить самостоятельно и критически, выдвигать альтернативные предложения, свободно высказывать свое мнение, отстаивать свою точку зрения, искать решения проблем, выходить из сложных ситуаций.

Содержание знаний по родному языку, литературе и другим дисциплинам в старших классах базируется на звуковом составе узбекского языка и способах выражения звуков в письменной речи, словоизменении и словосочетании в речи, морфемном строении слов и т.д. на образование, знание лексико-семантической группы слов, правил правильного правописания узбекского языка и пунктуации. В образовательном процессе используются дидактические игровые технологии в форме дидактических игровых уроков. На этих уроках процесс обучения учащихся сочетается с игровой деятельностью. По этой причине уроки, сочетающие учебную деятельность учащихся с игровой деятельностью, называются дидактическими игровыми уроками.

Метод «Буран», разделенный на две группы, предполагает групповое обсуждение для поиска наиболее правильных ответов на проблему. Каждый правильный ответ фиксируется в виде округлой снежинки на счете данной группы; Группы оцениваются по сумме набранных баллов.

Проблема обсуждается в одной группе или в двух малых группах. При этом задания могут быть разными или одними для всей группы. Группы обсуждают проблему в течение определенного периода времени и сообщают результат другим. Выбирается лучшее решение проблемы.

Например: Этот метод можно использовать для создания понятия «группа слов». Учащимся будет задан следующий вопрос:

- Какие типы слов изучаются по их значениям?

Их ответ будет записан на доске. После этого

- слова, обозначающие человека и вещь;
- характерные словакачественный;
- глаголы, обозначающие действие;
- слова, обозначающие количество, были введены термином число, и указанные выше слова были включены в сеть.

Думаете, существительное, прилагательное, глагол, число можно назвать одним словом?

Использование кластеризации по теме групп слов перед изучением темы побуждает учащихся думать по-новому. По мнению ученых-методистов, создание кластера в процессе начала изучения темы является «знанием дела».

стратегия достижения».

Рекомендации.

1. I.O.U.Avlayev, S.N. Jo'rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o’quv-uslubiy qo’llanma, “Navro’z” nashriyoti, Toshkent – 2017



МАКТАБДА КИМЙО ФАНИНИ О'ҚИТИШДА ЯНГИ ИНТЕРФАОЛ  
ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Eshchanova Marhabo Komilovna.**

Urganch shahar 4-son maktab.

**Karriyeva Gulyor Zarifboy qizi**

Xonqa tuman 6-maktab kimyo fani o'qituvchilari

**Annatsiya:** Bu maqolada o'qituvchining samarali faoliyat ko'rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim texnologiyasi o'quvchilar faoliyatiga nisbatan yo'naltirilgan.

**Kalit so'z:** keys, stadi, ta'lim, interfaol, suhbat, ijtimoiy, pedagogik, texnologiya.

Keys-stadi inglizcha - case - aniq vaziyat, hodisa, - study - o'rganmoq, tahlil qilmoq, ta'lim so'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

Keys – bu yaxlit axborotlar majmui. Qoidaga ko'ra, keys uch qismdan iborat bo'ladi:

- 1) keysni tahlil etish uchun zarur yordamchi axborotlar;
- 2) aniq vaziyat bayoni;
- 3) keys topshirig'i;

•Bosma holatdagi keys (uni yanada ko'rgazmali bo'lishini ta'minlaydigan grafik, jadval, diagramma, illyustratsiyalarni ham o'z ichiga oladi).

•Multimedia-keys (so'nggi vaqtlarda keng qo'llashni talab etayotgan).

•Video keys (film, audio va video materiallardan iborat bo'lishi mumkin).

KEYS-1 - Bugungi kunda shaharlarimiz va ayniqsa kasalxonalar atrofida juda ko'p archalarni uchratamiz. Archa o'rmonlari havosida bir gaz to'planadi. Bu gaz bilan sil kasaliga uchragan bemorlar nafas olsa, ularning sog'ayib ketishi tezlashar ekan.

Bu gazning 4,48 litri kumush sirg'a bilan ta'sirlashib sirg'a qora rangli birikmaga aylanib qoldi?

Keys-1 bo'yicha —aqliy hujum metodidan foydalanamiz. Keys ommaviy tarzda yechiladi.

Topshiriqlar: 1. Qaysi gaz ajralgan?

2. Nima sababdan kasallar bu gaz bilan nafas olganda sog'aygan?

3. Qora rangli birikma nima?

4. Qancha qora rangli birikma hosil bo'lgan?

Keys yechimi: 1) Aniqlanishicha, archa o'simligi havoga ozon (O<sub>3</sub>) gazi chiqarar ekan.

2) Ozon gazi esa beqaror bo'lib molekular va atomar kislorodga parchalanadi. Ozon aralashgan havo bilan nafas olinganda atomar kislorod ta'sirida kasallik tez tuzalar ekan.

3) Ag<sub>2</sub>O.

4) 24,8 g

Bularning hammasi o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi)larga bog'liq. Shu bilan birga o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, eng asosiysi, talaba (yoki o'quvchi)larning imkoniyati va ehtiyojini va hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi ksrak. Shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqacha aytganda, talaba (yoki o'quvchi)ni ta'limning markaziga olib chiqish kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Avliyakov N.X., Musaeva N.N. Modulli o'qitish texnologiyalari. – T.: —Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2007.

2. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami / Met.qo'll. - O'rtamaksus, kasb-hunar ta'limi tizimida innovatsion texnologiyalar seriyasidan.– T.:TDIU, 2013.



## BOSHLAG‘ICH SINFLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**Eshmatova Rahima Keldiyorovna**

Toshkent shahar Uchtepa tumani  
62- maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi  
90-317-20-04

**Annotatsiya:** Ta‘lim-tarbiya inson hayotida muhim ahamiyatga molik. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarga ta‘lim berish pedagogdan mashaqqat va sabr talab etadi. Bola shaxsini rivojlantirishda boshlang‘ich ta‘limning ahamiyati juda katta rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada ta‘lim jarayonida qo‘llagan bir nechta samarali usullar va interfaol metodlar haqida tavsiyalar bermoqchiman.

**Kalit so‘zlar:** Interfaol metodlar, VARK modeli, “G‘ijmlangan qog‘oz”, kreativ, vizual, o‘qish, eshitish, kinestetik .

Boshlang‘ich ta‘lim beruvchi o‘qituvchi haqiqiy fidokor va kreativ bo‘lishi lozim. Chunki bola o‘quvchilik olamiga tashrif buyurar ekan, uning uchun ustozidan boshqa bilimdon shaxs bo‘lmaydi. Bolaning maktabga ilk qadam qo‘yganidan boshlab yangi ijtimoiy muhitga singib ketishi ham birinchi ustozning mehnati va himmatiga bog‘liq bo‘ladiki, pedagog har bir o‘quvchiga psixologik yondoshgan holda o‘qitishi, bolalik o‘yinqaroqligidan mas‘uliyat tomon olib o‘tishi lozim bo‘ladi. Bola jamoat joyida o‘zini tutishni, boshqalar bilan munosabatga kirishishni, inson sifatida ulg‘ayishni boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘rganadi va qabul qiladi.

Pedagog qanchalik ijodkor va tajribali bo‘lsa, shunchalik turli psixikaga ega bolalarga bir maromda bilim va tarbiya bera oladi. To‘g‘ri, o‘quvchilarning bilim olish saviyasi, nutqiy so‘zamolligi, fikrlash doirasi, xotirasi, bilim olish xususiyatlari, qobiliyatlari bir xilda emas, ammo o‘qituvchi dars o‘tish mahorati, o‘zini tutishi, so‘zlashi, fikrlashi orqali bolaga ta‘sir o‘tkaza oladi. E‘tibor bersangiz, boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning katta foizi katta ehtimollik bilan o‘qitgan o‘qituvchisiga o‘xshab ketadi. Ya‘ni madaniyati, tarbiyasi, ijodkorligi, o‘zini tutishi va xakozo. Shunday ekan, zamonaviy ijodkor shaxsni voyaga yetkazishni maqsad qilgan biz-pedagoglar o‘z ustimizda ishlashimiz turli yangiliklar va zamonaviy metodlardan foydalanishimiz zarur deb hisoblayman. Shu o‘rinda, bir nechta yangi usullar haqida sizlar bilan bo‘lishmoqchiman.

**VARK modeli.** Ushbu model dunyoning rivojlangan davlatlarida maktab o‘quvchilari uchun eng samarali deb topilgan. Dunyo tan olgan ushbu modelni siz ham dars mobaynida bimalol qo‘llab ko‘rishingiz mumkin.

Ushbu metodlar, albatta, o‘qituvchining ishini yengillashtirish, o‘quvchilar bilan oson kelisha olish, dars jarayonini tushuntirishda o‘qituvchiga ortiqcha yuklamalarni kamaytirish uchun kerak bo‘ladi. Bugungi modelimiz ham sizga, albatta, katta foydasi tegadi.

### **VARK modeli haqida**

Vanderbilt universiteti ma‘lumotlariga ko‘ra, 70 dan ortiq turli xil uslublar mavjud, ammo hozirgacha eng mashhurlari VARK modelida olingan to‘rtta uslublardir:

Vizual (kosmik) – o‘quvchilar ko‘rish orqali yaxshiroq o‘rganadilar.

Eshitish (eshitish) – o‘quvchilar eshitish orqali yaxshiroq o‘rganadilar.

O‘qish / yozish- o‘quvchilar o‘qish va yozish orqali eng yaxshi narsani o‘rganishadi.

Kinestetik (jismoniy) – o‘quvchilar harakat qilish va bajarish orqali yaxshiroq o‘rganadilar.

Siz darsingizni yuqoridagi uslublardan foydalangan holda tashkillashtirganmisiz? Bu uslublardan dars mobaynida foydalanasiz. Faqatgina ularning yanada chuqurroq mohiyatini bilib olsangiz darsingiz yanada oson tashkil qilinadi. Ushbu to‘rtta uslubni batafsil ko‘rib chiqamiz.

Vizual ta‘lim uslubi. Vizual o‘qitish uslubi video tomosha qilishni yaxshi ko‘radigan va rasmlar, jadvallar va grafikalar singari taqdimotlarni ko‘rishni yaxshi ko‘radigan o‘quvchilarga mos keladi. Inson miyasi vizual ma‘lumotni oddiy matnga qaraganda ancha tezroq qayta ishlaydi. Darsingizda ushbu vositalardan tez tez foydalanib tursangiz, o‘quvchilarda qiziqish yanada ortadi.

Eshitish orqali o‘rganish uslubi. Eshitish orqali o‘rgatish uslubi ma‘ruzalar va audio kitoblarni tinglashni yaxshi ko‘radigan o‘quvchilarga mos keladi. Ushbu o‘quvchilar eshitgan narsalarini o‘rganishi oson bo‘ladi. E‘tibor bergan bo‘lsangiz, o‘quvchilar film tomosha qilsalar, sodir bo‘lgan harakatlarni emas, balki filmda aytilganlarni yaxshi eslab qolishadi. Shuning uchun darsingizda turli podcastlardan foydalanib turing.



O‘qish / yozish orqali o‘rganish uslubi. O‘qish va yozish orqali o‘rganish uslubi, siz kutganingizdek, o‘qish va yozishni yaxshi ko‘radigan odamlarga mos keladi. Buning sababi shundaki, ular o‘qigan va yozgan so‘zlar ongida osonlikcha saqlanib qoladi. Bu usul har bir darsda ishlatiladi. Chunki o‘quvchida o‘qish va yozish orqali ma’lumotlar yaxshi saqlanib qoladi.

Kinestetik ta’lim uslubi. Bu usul sinfda turli harakatlardan iborat o‘yinlar va musobaqalar orqali amalga oshiriladi. O‘quvchilarni turli o‘yinlar orqali o‘rinlaridan turishi va turli harakatlar qilishi darsda tetik va diqqat bilan o‘tirishlariga katta yordam beradi.

“G‘ijimlangan qog‘oz” darsni faollashtiruvchi texnikalardan biri. Dars davomida mavzuni o‘tib, o‘quvchilarga qog‘ozda mavzu bo‘yicha savol yozish so‘raladi. O‘quvchilar savol yozgan qog‘ozlarni g‘ijimlab, savatga solishadi. Savatda to‘plangan qog‘ozlarni boshqa guruh o‘quvchilari olishadi va javob yozishadi va yana boshqa savolni yozib qayta g‘ijimlab, savatga solishadi va qayta egalariга yuborishadi. Bu mashg‘ulot o‘quvchilarga qiziqarli bo‘ladi. Darsni ham oson o‘rganishadi. Qayta aloqa sifatida o‘quvchilar bir-birlarini baholashi hamda nazoratga olishi, murakkabroq savollar tuzishni, yechim topa olishni o‘rganishadi.

Xulosa qilish mumkinki, zamonamiz rivojlanishi natijasida yosh avlod ham qiziquvchan yangilikka o‘ch. Doim an’anaviylikda- bir xillikda o‘quvchi tezda zerikadi. Interfaol metodlar orqali dars o‘tish jarayonida o‘quvchining fanga qiziqishi ortadi, kreativligi namoyon bo‘ladi. Ularning mustaqil ishlashi, fikrlarini jamlash va xulosalar chiqara olish qobiliyatini rivojlantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Xoliqov. Pedagogik Mahorat T-2011
2. Ishmuhammedov M, Yo‘ldashev Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T-1998



---

THE IMPLEMENTATION OF SELF STUDY IN THE CREDIT MODULAR SYSTEM  
ON THE EXAMPLE OF WORLD PRACTICE

**Eshonqulova Charos Zufar qizi**

Master student of SamSIFL

+998 99 540 56 41

charoseshonqulova27@gmail.com

**Buronova Dilnoza Baxodirovna**

Scientific adviser

**Abstract:** This article describes the advent of the credit-module system, its content, forms of training, the expected outcomes of the system, the conditions and directions.

**Keywords:** Credit, module, credit-module training system, ECTS system, independent education, module technology, freedom of educational process, liberalization, curriculum, rating.

### Introduction

The use of modules encourages independent study. One of the benefits of using modules for instruction is the acquisition of better self-study or learning skills among students. Students engage themselves in learning the concepts presented in the module.

The credit-module system is a method of organizing education, which is a model of assessment primarily based on a set of modular technologies of teaching and credit. Carrying it as a complete is a multifaceted and complex systemic process. The credit-module principle focuses on two fundamental issues: making sure the independent work of students; assessment of

Students' understanding on the groundwork of ratings.

Credit is a unit of find out about load (time) spent with the aid of a

Student to study and master a situation in a particular subject of study or program (course). A credit is a minimal quantity of time set by means of a student's normative document, usually one week, for in-class and unbiased study.

Credit is given to a scholar after finishing the assignments in a precise subject and passing the ultimate exam. Credit used to be first introduced in U.S. universities in the 18th and nineteenth centuries to liberalize the learning procedure and determine a student's weekly educational workload. In 1869, Charles William Eliot, president of Harvard University and a outstanding discern in American education, introduced the thinking of the «credit hour.»

Thus, in 1870-1880, a device of credit score hours was introduced. Studying with the deposit system and mastering the curriculum allowed students to independently diagram the getting to know process, manage its quality, enhance educational technology. The introduction of the credit score accumulation scale not only gave the student greater freedom, however also provided an opportunity to independently diagram the academic technique so that he or she should become a aggressive professional in his or her chosen subject in the future. At the equal time, it has led to improvements in the assessment system and instructional technology.

The principal tasks of the credit-module machine

Are:

- Modular company of academic processes;
- Determining the price of one subject, course (credit);
- Assessment of students' information on the basis of rating points;
- Allow students to create their personal curricula individually;
- Increase the share of impartial studying in the educational

Process;

- Convenience of educational programs and

The opportunity of alternate relying on the

Demand for experts in the labor market.

Main Body

In Kazakhstan, the trip of European nations was once studied and the most extensive and tremendous techniques adapted to the Kazakh practice. This was once accompanied with the aid of the energetic participation of Kazakh universities in this manner Then as professionals Secretary General of the Magna Charta Observatory University, representatives of the Working Group of





the Bologna Process, the main European experts in the area of schooling had been invited in Kazakhstan.

As a result, in Kazakhstan between 2007 and 2009 the favorable stipulations for becoming a member of the Bologna manner were created. On eleventh of March 2010 the Committee of Ministers of Education of the Bologna manner made choice on Kazakhstan's becoming a member of the Bologna process. The intention of Kazakhstan's participation in the Bologna method is Improving get admission to to European education, in addition enhancing its quality, as properly as increasing the mobility of students and educating team of workers through the adoption of similar tiers of higher education, the use of a device of credits, Granting Kazakhstani graduates the European Diploma Supplement. The essential objective of the integration into the International academic house is quality assurance of Kazakhstan higher training in accordance with global standards, enhancing its splendor and competitiveness.

Modular learning is the current learning modality of primary education in the Philippines where traditional teacher-student practice has now been shifted to mother-child since mothers are the immediate assistants of their child in modular learning. Therefore, they play essential parts their children's education.

The following are the positive effects of modular learning on students: It helped students economize on daily transportation, fares, gasoline for those who have cars or vehicles. Parents economize on children's weekly monetary allowances. Online classes helped save time and energy on travel to and from school.

#### Conclusion

The credit system of education increases student exchange. Because loans taken at one university are credited to another, and students can transfer from one university to another without losing credit. It is this system that allows Uzbek students to continue their studies at advanced foreign universities and remove complex bureaucratic barriers.

However, it should also be noted that the direct application of any international experience blindly, without taking into account our own values, without a thorough analysis of each of its elements, without scientific it should also be borne in mind that certain adverse events may occur in the future unless they are carried out on a case-by-case basis.

This does not mean that this system is fully consistent with our worldview, conditions, and values aimed at raising a harmoniously developed person. Therefore, we need to change the views of teachers and students, who are active elements of the educational process, to instill in them the requirements of this system, to form a unique culture.

We need to feel that we will inevitably lose our place in the competition if we do not train personnel in accordance with the requirements of the labor market. But there is no better way or choice. After all, higher education institutions in all developed countries are following this path and achieving high results.

#### References

1. Urinov V. ECTS credit-module system in higher education institutions of the Republic of Uzbekistan: Basic concepts and rules. –T.:2020.
2. Jessica Shedd (2003), «The History of the Student Credit Hour». New Directions for Higher Education. 122 (Summer) (122): 5-12.
3. Resolution of The Council and of the Ministers of Education, Meeting within The Council, Official Journal of the European Communities, 1976.
4. Robert Wagenaar, A History of ECTS, 1989-2019. Developing a World Standard for Credit Transfer and Accumulation in Higher Education. International Tuning Academy, 2020. Available at [https://www.ruq.nl/research/portal/files/111591811/A History of ECTS 1989 2019 PDF.p df](https://www.ruq.nl/research/portal/files/111591811/A_History_of_ECTS_1989_2019_PDF.pdf)
5. European Commission ECTS Guide of 2015. Available at [https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/ects-users-guide en.pdf](https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/ects-users-guide_en.pdf)
6. European Cuommission ECTS Guide of 2009. Available at [Httpsi//ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/year-2009/ects-usersguide-2009 en.pdf](https://ec.europa.eu/education/ects/users-guide/docs/year-2009/ects-usersguide-2009_en.pdf)
7. European Commission ECTS Guide of 2004. Available at <https://www.uc.pt/ae3s/pasta docs/ects-users-auidel 70804.pdf>
8. Lutfullayev P. About credit-module training system. –Namangan .: 2019.
9. Internet sources: [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



## МАКТАБДА СINF RAHBARLIK MA’SULYATI

**G’iyosova Gulnoza Nuraliyevna**

Namangan viloyati, Norin tuman

19-maktab boshlang’ich ta’lim fani o’qituvchisi

930552722 . gulnozagiysovagmail@.com

**Annotatsiya:** Ushu maqolada maktab faoliyatida eng sharafli va qadrli bo’lgan ustozlarni sinf rahbarlik faoliyatidagi ma’suliyati va uning natijalari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so’zlar:** ota-ona, sinf rahbar, kasbga yo’naltirish, psixologik jarayonlar, oltin qoidalar, o’quvchi, o’qituvchi va o’qituvchilar, faxr tuyg’usi.

Mustaqil ona diyorumizda bugungi kunda ustoz va murabbiylarga berilayotgan bir paytda qadrli ustozlarimiz oldilarida ma’suliyati yanada kuchayib bormoqda. Chunki farzand- har bir inson uchun bebaho ne’mati. Uning ulg’ayib kamol topishi uchun har bir ota-ona qatori har bir muallimning o’rni beqiyos, ota-ona farzand tarbiyasida qanchalik muhim o’rin egallasa, sinf rahbar ham uning hayotida shunchalik muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-ona farzandini dunyoga keltirib, uning yashashi uchun sharoit yaratsa sinf rahbar esa uni katta hayotga tarbiyalovchi eng muhim shaxslardan biridir. Ayniqsa sinf rahbar boshlang’ich sinfda o’quvchilar uchun bir buyuk siymoday gavdalanadi uning tarbiyasi va ta’lim olishi ma’lum bir qismi shu sinf rahbarga juda ham boq’liq bo’ladi. Misol uchun yetarli tajribaga ega bo’lmagan, beparvo ustozlar sinf rahbar sinflarda ma’lum bir o’quvchilarning tarbiyasida o’zgarishlar vujudga keladi. Ayniqsa uning ta’lim olish jarayonlarida ham fan o’qituvchilari bir oz qiyinchiliklarga duch keladi aksincha talabchan va tajribali sinfrahbarlarning sinfda o’quvchilarning tarbiyasi va fanga bo’lgan qiziqishlari boshqa sinflardan ko’ra kuchliroq va ularning dunyoqarashi ham tez rivojlanadi. shuning uchun ham sinf rahbar bo’lish mashhsaqat, lekin yahshi sinf rahbar bo’lish sharflidir. Biroq bu sharaf uchun sinf rahbardan ma’suliyat va fidoyilik, tashshabbuskorlik, tinimsiz izlanish va kuchli iroda talab qilinadi. Chinki sinfdagi o’rtacha 30 nafar bolani oladigan bo’lsak ular birinchi sinfda hali go’dak yani yosh bir nihol bo’ladi. Har bir bolani ko’ngliga yo’l topa olish oson ish emas. Ba’zan o’z tajribamga suyangan holda ota-onalr majlisida ota yoki onalarning oilaviy masalalarni hal qilishlarida maslahat so’rashlari, farzandlari tarbiyasini uy holatida ham ustozdan ko’mak so’rashlariga duch kelaman va bu ota onalarga yordam uchu o’quvchilarni uy sharoitida ham qanday ishlar bilan shug’illanishi, kattalarga hurmatda bo’lish, kichiklarga izzatda bo’lishlarini ularida ham qo’shimcha nazorat qilaman deya ularga tarbiya beramiz. Aytmoqchimanki ayrim ota-onalr o’z farzandlarini tarbiyalash va gaplarini o’tkazishga kuchlari yetmaysi lekin bir sinf rahbar 30dan ziyod o’quvchini ta’lim tarbiyasi bilan shug’illanadi. Natijada bunday ma’sulyatli ustozlar rahbarlik qilgan sinflarning o’quvchilari O’zbekiston kelajagi uchun buyuk bir sog’lom fikrlaydigan, jismonan va ruhan yetuk kadrlar soni boshqa sinflardan ko’ra ko’proq natijalari yuqoriroq bo’ladi.

Hulosa qilib aytganda sinf rahbar o’z rahbarlik qilayotgan sinf o’quvchilarni tarbiyalash bir qatorda o’quv yili chirak davomida nimalar qilish kerakligi, bolalar hayolini nimalr bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirish kabi murakkab muammolarni yechadi. Boshlang’ich sinf rahbarlarning eng asosiy ma’suliyatidan biri bu bolani ruhan va aqlan o’rganish, uning qiziqish istak va hohishlariga qarab asta sekinlik bilan kasbga yo’naltirish. Chet el tajribasini o’rgangan paytlarimda shunga amin bo’ldimki bolalar maktabgacha tarbiya maskanlarida yetakchi amaliyotchi pisoxologlar va tarbiyachilar bilan birgalikda bolani o’y fikrlari va qiziqishlari o’rganilar ekan. Bizda esa buni aksi bitiruvchi sinflarni kasb hunarga tortish bilan maktabjamoasi qiziqadi. Ota onalar ertaroq bolani psixolog ammaliyotchilar va maktabgacha ta’lim muassasa tarbiyachilari bilan bog’langan holda ularni maxsus maktablarga joylashlarini maslahat bergan bo’lar edim. Chunki eng sinfda qaloq o’quvchilarni ham sport, futbo’l, kurash kabi qiziqishlari ularning dunyoviy ilm olishlaridan ko’ra qobilyatlari yo’naltirgan bo’ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Alimjonova J. I. Mutaxislik o’qitish metodologiyasi (ma’ruzalar matni)
2. TKTI. – T.: 2009
3. Xalilov M.X. Bilish jarayonlari psixologiyasi SamDU 1999y.
4. www.ziyo.com kutubxonasi



## YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA ISLOM MADANIYATINING O'RNI.

**Haydarova Zulfiya Orifjonovna,**

Namangan viloyat XTXQTMOHM katta o'qituvchisi

Tel:+998 99 973 51 07

**Annotatsiya:** Maqolada yosh avlodni kamol toptirishda islom madaniyatining beqiyos o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilib, buyuk allomalar, islomshunos olimlar tomonidan yozib qoldirilgan kitoblardan, tarixiy obidalardan keng foydalanishning samarasi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qur'on, milliy-madaniy an'analar, mehr-oqibat, odob-axloq

Mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday ta'lim-tarbiya olishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'lik faol munosabatda bo'lishiga bog'liq ekanligini hamisha yodda tutmog'imiz kerak.

Yoshlarda sog'lom g'oyaviy qarashlar, intilishlar, ota-ona va har bir keksaga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat-ehtirom va g'amxo'rlik ruhini shakllantirish, har bir voqe-hodisaga to'g'ri baho berish va xulosa chiqarish malakasini shakllantirish hamda ularda milliy mafkuramizni hosil qilishda kitoblar, ayniqsa, sharq allomalarining o'g'itlari, Qur'oni Karim, Hadisi sharifdan samarali ta'limiy va tarbiyaviy manba sifatida foydalanish ahamiyatlidir. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lim-tarbiyadan boshlanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar natijasida xalqimiz uchun ahamiyatli bo'lgan milliy-madaniy an'analar va qadriyatlar, ular bilan bog'liq tushunchalarni tadqiq hamda tahlil qilish, kelajak avlodga yetkazish borasida keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Din ma'naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri bo'lib barcha zamonlarda milliy g'oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg'un tarzda rivojlanib kelgan. Din o'z mohiyatiga ko'ra poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ular orqali milliy mafkuraning g'oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdiradi. Muqaddas islom dinimizga sog'lom va mo'tadil munosabatni shakllantirish bu boradagi eng muhim mafkuraviy vazifadir. Milliy qadriyatlarimizning odamlar ongiga ta'sir etishida, ellararo va mamlakatlararo mashhur bo'lib ketishida asosiy diniy manba hisoblanmish hadislarning xizmati ulkan.

Mustaqillik sharoitida islom dini rivojlanishi uchun yaratilgan huquqiy va moddiy asoslar uni yana ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirdi. Ya'ni, dinimiz ham etnik birligimizga xos xususiyatlarning qaytadan tiklanishida muhim rol o'ynamoqda. Hadisi shirifda: "Ibodatning eng yuqorisi bilim olishdir, ehsonning eng yuqorisi boshqalarga bilim berishdir" deyilgani, odob-axloq, saboq olishga katta e'tibor berilgani "Beshikdan qabrgacha ilm izla"- deb uqtirilgani bejiz emas, albatta.

Ta'lim-tarbiya jarayonida Avesto, Zabur, Tavrot, Injil, Qur'oni karim, hadislardan bugungi kunda o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida foydalanamiz. Chunki, bizning allomalarimiz bu manbalarni insoniyatning ma'naviy asosi deb bilishgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Unsurulmaoliy Kaykovus, Umar Xayyom, Sohibqiron Amir Temur, M.T.Ulug'bek, Azizidin Nasafiy, A. Yassaviy, A.Jomiy, Z. M. Bobur, Ogahiy, Mahtumquli, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy va boshqa allomalarimizning o'g'itlari islom madaniyati namunalarini sifatida nihoyatda qimmatlidir.

Shuningdek, mustaqil yurtimizda pok aqida va musaffo Islomga intilish, Qur'on va sunnatni o'rganib amal qilish, islomiy ma'rifat tarqatish, kengbag'irlik va birodarlik ruhini tarqatish, diniy savodsizlikni tugatish va bu orqali mutaassiblik va bid'at-xurofotni yo'qotish borasida xizmatlari beqiyos bo'lgan Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Ruhiy tarbiya", "Hadis va hayot", "Mo'minning me'roji", "Baxtiyor oila", "Sog'lom bola", "Ijtimoiy odoblar" kabi asarlari ham kishilarda turli yot g'oyalar va mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantiradi. Ayniqsa, "Ijtimoiy odoblar" kitobida bugungi kunda global muammolarni keltirib chiqarayotgan mobil telefonlari, kompyuter o'yinlari va internet saytlari borasida ham uxroviy ham dunyoviy sharhlar berilganki, bu albatta, biz pedagoglarga asosli manba bo'lib xizmat qiladi.

Tinimsiz o'z ilmini oshirib, izlanib borish har bir insondan muntazam mutolaa qilishni talab qiladi. Hozirda ziyo maskanlari-kutubxonalar, kitob savdo maskanlarida kitobxonlar uchun barcha



imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Kishilarni har tomonlama qanoatlantiradigan va qiziqishlarini qondira oladigan ilmiy, diniy, badiiy va ommabop asarlar bisyor. Masalan, B.Ziyomuhamedovning “Komillikka eltuvchi kitob”, M.Quronovning “Bolam baxtli bo’lsin, desangiz”, Abu Homid G’azzoliyning “Ey, farzand”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning “Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar” kabi son-sanoqsiz asarlar borki, har bir kishi o’z didi va qiziqishiga qarab tanlab o’qishi, o’z g’oyaviy qarashlarini kengaytirishi mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayonida har bir pedagog, allomalarimiz o’gitlaridan, islom madaniyati manbalaridan foydalansa, halqimizga xos an’ana va urf-odatlardan keng foydalanib, o’quvchilar ongiga singdira olsa, ularda mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat, o’zgalarga hamdardlik, ilmu-hunar, ota-onaga va keksalarga hurmat, qarindosh-urug’chilik, insonparvarlik, kamtarlik, jamoatchilik fikrini hurmat qilish, ma’rifatga intilish, xalqparvarlik, mustahkam e’tiqodlilik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi fazilatlarini tarkib toptira oladi.

Yoshlarimizni islom madaniyatining nafaqat g’oyaviy-ilmiy asoslari, balki moddiy va ma’naviy meroslari bilan ham yaqindan tanishtirish ularni har tomonlama kamol topishlarida muhim hisoblanadi. Jumladan, aziz va mo’tabar ziyoratgohlar, obidalar, qadamjolarga yoshlar tashriflarini uyushtirish orqali ularni islom ma’naviyati va madaniyati namunalari bilan yaqindan tanishtirish, shuningdek, yoshlarni halqimizning boy madaniy merosi, o’tmish tarixi, islom madaniyati va ma’naviyati hamda o’zbek xalqining turmush tarzini o’rganish, tasavvur etish va anglash, ularni hurmat qilish va asrab-avaylash kabi hislarini tarbiyalashga erishish mumkin bo’ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.–T.“O’zbekiston”, 2020
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch –T.: “Ma’naviyat” 2008.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar.–T. “Hilol-nashr” 2016.





## YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHDA ISLOM MADANIYATINING O'RNI.

Haydarova Zulfiya Orifjonovna,

Namangan viloyat XTXQTMOHM katta o'qituvchisi

Tel:+998 99 973 51 07

**Annotatsiya:** Maqolada yosh avlodni kamol toptirishda islom madaniyatining beqiyos o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritilib, buyuk allomalar, islomshunos olimlar tomonidan yozib qoldirilgan kitoblardan, tarixiy obidalardan keng foydalanishning samarasi ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Qur'on, milliy-madaniy an'analar, mehr-oqibat, odob-axloq

Mamlakatimizning istiqboli yosh avlodimiz qanday ta'lim-tarbiya olishiga, qanday ma'naviy fazilatlar egasi bo'lib voyaga yetishiga, farzandlarimizning hayotga nechog'lik faol munosabatda bo'lishiga bog'liq ekanligini hamisha yodda tutmog'imiz kerak.

Yoshlarda sog'lom g'oyaviy qarashlar, intilishlar, ota-ona va har bir keksaga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat-ehtirom va g'amxo'rlik ruhini shakllantirish, har bir voqei-hodisaga to'g'ri baho berish va xulosa chiqarish malakasini shakllantirish hamda ularda milliy mafkuramizni hosil qilishda kitoblar, ayniqsa, sharq allomalarining o'g'itlari, Qur'oni Karim, Hadisi sharifdan samarali ta'limiy va tarbiyaviy manba sifatida foydalanish ahamiyatlidir. O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek, inson qalbiga yo'l, avvalo, ta'lim-tarbiyadan boshlanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar natijasida xalqimiz uchun ahamiyatli bo'lgan milliy-madaniy an'analar va qadriyatlar, ular bilan bog'liq tushunchalarni tadqiq hamda tahlil qilish, kelajak avlodga yetkazish borasida keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Din ma'naviyat va madaniyatning ustunlaridan biri bo'lib barcha zamonlarda milliy g'oya va mafkura diniy qarashlar bilan uyg'un tarzda rivojlanib kelgan. Din o'z mohiyatiga ko'ra poklik, mehr-oqibat kabi ezgu tuyg'ular orqali milliy mafkuraning g'oyalarini yurtdoshlarimiz qalbi va ongiga singdiradi. Muqaddas islom dinimizga sog'lom va mo'tadil munosabatni shakllantirish bu boradagi eng muhim mafkuraviy vazifadir. Milliy qadriyatlarimizning odamlar ongiga ta'sir etishida, ellararo va mamlakatlararo mashhur bo'lib ketishida asosiy diniy manba hisoblanmish hadislarning xizmati ulkan.

Mustaqillik sharoitida islom dini rivojlanishi uchun yaratilgan huquqiy va moddiy asoslar uni yana ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirdi. Ya'ni, dinimiz ham etnik birligimizga xos xususiyatlarning qaytadan tiklanishida muhim rol o'ynamoqda. Hadisi shirifda: "Ibodatning eng yuqorisi bilim olishdir, ehsonning eng yuqorisi boshqalarga bilim berishdir" deyilgani, odob-axloq, saboq olishga katta e'tibor berilgani "Beshikdan qabrgacha ilm izla"- deb uqtirilgani bejiz emas, albatta.

Ta'lim-tarbiya jarayonida Avesto, Zabur, Tavrot, Injil, Qur'oni karim, hadislardan bugungi kunda o'quvchilar ma'naviyatini yuksaltirish maqsadida foydalanamiz. Chunki, bizning allomalarimiz bu manbalarni insoniyatning ma'naviy asosi deb bilishgan. Xususan, Abu Rayhon Beruniy, Maxmudxo'ja Behbudiy, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Unsurulmaoliy Kaykovus, Umar Xayyom, Sohibqiron Amir Temur, M.T.Ulug'bek, Azizidin Nasafiy, A. Yassaviy, A.Jomiy, Z. M. Bobur, Ogahiy, Mahtumquli, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy va boshqa allomalarimizning o'g'itlari islom madaniyati namunalarini sifatida nihoyatda qimmatlidir.

Shuningdek, mustaqil yurtimizda pok aqida va musaffo Islomga intilish, Qur'on va sunnatni o'rganib amal qilish, islomiy ma'rifat tarqatish, kengbag'irlik va birodarlik ruhini tarqatish, diniy savodsizlikni tugatish va bu orqali mutaassiblik va bid'at-xurofotni yo'qotish borasida xizmatlari beqiyos bo'lgan Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning "Ruhiy tarbiya", "Hadis va hayot", "Mo'minning me'roji", "Baxtiyor oila", "Sog'lom bola", "Ijtimoiy odoblar" kabi asarlari ham kishilarda turli yot g'oyalar va mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantiradi. Ayniqsa, "Ijtimoiy odoblar" kitobida bugungi kunda global muammolarni keltirib chiqarayotgan mobil telefonlari, kompyuter o'yinlari va internet saytlari borasida ham uxroviy ham dunyoviy sharhlar berilganki, bu albatta, biz pedagoglarga asosli manba bo'lib xizmat qiladi.

Tinimsiz o'z ilmini oshirib, izlanib borish har bir insondan muntazam mutolaa qilishni talab qiladi. Hozirda ziyo maskanlari-kutubxonalar, kitob savdo maskanlarida kitobxonlar uchun barcha





imkoniyat va sharoitlar yaratilgan. Kishilarni har tomonlama qanoatlantiradigan va qiziqishlarini qondira oladigan ilmiy, diniy, badiiy va ommabop asarlar bisyor. Masalan, B.Ziyomuhamedovning “Komillikka eltuvchi kitob”, M.Quronovning “Bolam baxtli bo’lsin, desangiz”, Abu Homid G’azzoliyning “Ey, farzand”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning “Ibratli hikoyatlar va xislatli hikmatlar” kabi son-sanoqsiz asarlar borki, har bir kishi o’z didi va qiziqishiga qarab tanlab o’qishi, o’z g’oyaviy qarashlarini kengaytirishi mumkin.

Ta’lim-tarbiya jarayonida har bir pedagog, allomalarimiz o’gitlaridan, islom madaniyati manbalaridan foydalansa, halqimizga xos an’ana va urf-odatlardan keng foydalanib, o’quvchilar ongiga singdira olsa, ularda mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat, o’zgalarga hamdardlik, ilmu-hunar, ota-onaga va keksalarga hurmat, qarindosh-urug’chilik, insonparvarlik, kamtarlik, jamoatchilik fikrini hurmat qilish, ma’rifatga intilish, xalqparvarlik, mustahkam e’tiqodlilik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi fazilatlarini tarkib toptira oladi.

Yoshlarimizni islom madaniyatining nafaqat g’oyaviy-ilmiy asoslari, balki moddiy va ma’naviy meroslari bilan ham yaqindan tanishtirish ularni har tomonlama kamol topishlarida muhim hisoblanadi. Jumladan, aziz va mo’tabar ziyoratgohlar, obidalar, qadamjolarga yoshlar tashriflarini uyushtirish orqali ularni islom ma’naviyati va madaniyati namunalari bilan yaqindan tanishtirish, shuningdek, yoshlarni halqimizning boy madaniy merosi, o’tmish tarixi, islom madaniyati va ma’naviyati hamda o’zbek xalqining turmush tarzini o’rganish, tasavvur etish va anglash, ularni hurmat qilish va asrab-avaylash kabi hislarini tarbiyalashga erishish mumkin bo’ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoev Sh.M. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.–T.“O’zbekiston”, 2020
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch –T.: “Ma’naviyat” 2008.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ijtimoiy odoblar.–T. “Hilol-nashr” 2016.



**МАКТАБДА МАТЕМАТИКА ФАНИНИ О’ҚИТИШДА “REZYUME” INTERFAOL  
TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH.**

**Ibragimova Kuvonch Ikromovna**

Urganch tuman 18- son maktab  
matematika fani o’ qituvchisi

**Xolmurotov Alisher Kadirberganovich**

Urganch tuman 46- son maktabning  
matematika fani o’ qituvchisi

*Annatsiya:* Ushbu maqolada har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo’lgan ta’lim tizimining rivojlanishida muhim rol o’ynaydigan yangi interfaol metod haqida ma’lumotlar berilgan.

*Kalit so’z:* debat, pedagogik, axborot, ta’lim, fikr, jamoa, siyosati, metod.

Har bir pedagog shuni doimo hisobga olishi va esda tutishi lozimki, dars o’quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Dars jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga e’tibor qaratiladi, birinchi navbatda bu amalga oshiriladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislarining fikricha “Pedagogik texnologiya” bu o’quvchilarni o’qishi, o’rganish va ularni har tomonlama rivojlantirish qonun qoidalarini o’z ichiga olgan pedagogik tadbirlar tizimida iboratdir deyiladi.

Bu texnologiya murakkab, ko’p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o’rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yola mavzuning turli tarmoqlari bo’yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

O’quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo’lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o’quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o’z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishga o’rgatish.

Ma’ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo’lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarida yakka (yoki kichik guruhlar ajratilgan tartibda o’tkazish, shuningdek uyga vazifa berishda ham qo’llash mumkin.

Mashg’ulotda foydalanadigan vositalar - A-4 formatdagi qog’ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar.

Mashg’ulotlar o’tkazish tartibi: O’qituvchi o’quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar ajratadi.

O’qituvchi o’quvchilarni mashg’ulotning maqsadi va o’tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi va har bir kichik guruhga qog’ozning yuqori qismida yozuvi bo’lgan, ya’ni asosiy muammo, undan ajratilgan o’quv muammolari va ularni yechish yo’llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi.

Har bir guruh a’zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o’z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar.

- Kichik guruh a’zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o’qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi.
- O’qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so’rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so’ng taqdimot guruhi o’z xulosasi bilan tanishtiradi;
- O’qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so’ngra mashg’ulotni yakunlaydi.



**Нова (misol tariqasida)**

O'quvchilar billimini nazorat qilish							
Algebra fani		Geometriya fani		Arifmetika		Xisoblashlar	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Xulosa:							

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Tolipov O', No'monova N. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. G'G' Xalq ta'limi. - Toshkent, 2002. - N 3.23-29b.
2. R. Ishmuhammedov "O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati", Toshkent, RBIMM-2008 yil.
3. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.: Fan va texnologiya, 2009. - b.348.



## BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'YIN USLUBLARIDAN FOYDALANISH

**Jamolova Madaniyat Tursunovna**

Farg'ona shahar 20-maktab o'qituvchisi

Tel: 91-121-71-31

**To'xtasinova Nilufar Mamaroziqovna**

Farg'ona shahar 20-maktab o'qituvchisi

Tel: 33-611-25-30

**Annotatsiya:** Maqolada darslarda o'yinli texnologiyalardan qanday foydalanish misollar yordamida keltirilgan. Yangi pedagogik texnologiyalarda o'yinli texnologiyalarni qo'llash qanchalik foydali ekanligi tushuntirib berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, yangi pedagogik texnologiya, didaktik topshiriq, “O'yin-loto”, “Ortiqchani toping”, “Info-karusel”.

Maktab dunyo imoratlarining eng muqaddasidir. U bolalikning eng buyuk, eng go'zal orzularga makon bo'lgan dargoh. O'quvchilar hayotida o'yin katta rol o'ynaydi. O'yin bolalarning ongi va qalbiga singib ketgan faoliyatdir. Ularning bu faoliyati o'yin turlariga qarab ob'yektiv voqe'likni, hayotni muayyan darajada o'zida aks ettiradi. O'yin sinfda o'tilgan o'quv faoliyatining ma'lum darajada mustahkamlashidir. Tajribada shu narsa isbotlanganki, o'yin kichik maktab yoshidagi o'quvchi bolalarning zarur ehtiyojidir. O'yin bolalar uchun ovitish, xursandchilik, rohatlanish, hordiq chiqarish kabilarni beradi. O'yin muayyan ta'limiy maqsadlarga erishuvchi, ya'ni o'tilgan o'quv materialini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan boladi.

“O'yin - loto” o'yini

Loto o'yinining maqsadi: yechim tezligi bo'yicha ishlarni hisobga olgan holda hisoblash qobiliyatini sinab ko'rish. O'yin qoidalari: Har bir o'quvchiga bitta lotereya chiptasi, chiptadagi raqamlarni yopish uchun 8 ta chip beriladi. Boshlovchi navbat bilan sumkadan misol chiqaradi. Hammasi bo'lib 30 ta misol mavjud. Boshlovchi misolni 2-3 marta aniq takrorlab, ovoz chiqarib o'qiydi. Javob 1 dan 10 gacha bo'lgan raqam (20), takrorlash yo'q. O'quvchi misolni o'z xayolida hisoblab chiqadi. Agar o'quvchi misol uchun chiptadagi raqam bilan bir xil javob bergan bo'lsa, uni chip bilan yopadi. Kimning chiptasi to'liq va xatosiz to'ldirilsa g'olib bo'ladi.<sup>1</sup>

“Ortiqchani toping” o'yini

O'quvchilarga bir qator so'zlar beriladi:

- Birliklar, o'nliklar, yuzlar, minglar (minglar - bunday birlik toifasi yo'q)
- To'rtburchak, kub, kvadrat, uchburchak (kub - uch o'lchamli shakl)
- Chizgich, kompas, burchak, transportyor (burchak geometrik asbob emas)
- Oltin, span, nikel, chorak (span tanga emas.)
- Chelak, sm, dm, metr (chelak uzunlik emas, hajm o'lchovidir)

Murakkab variant: 1) vaqt chegarasi; 2) qo'shimcha so'z tanlash tamoyiliga izoh berish.

Vazifa: ma'lumotlar orasidan “ortiqcha” so'zni toping va uni olib tashlang. Bu vazifa so'zlarda umumiy xususiyatni ajratib ko'rsatish qobiliyatini shakllantiradi, diqqatni rivojlantiradi.

Mazkur o'yinni deyarli har qanday mavzuda qo'llash mumkin.

“Info-karusel” o'yini

Mustaqil ish materialini o'quvchilarga taqdim etish uchun ushbu o'yindan foydalaniladi.

Turli jadvallarda “Info-karusel” usulida dars mavzusiga oid ma'lumot materiallari joylashtiriladi.<sup>2</sup>

Masalan, “Ko'paytirish komponentlarining munosabati” (1 ko'paytuvchi bir necha marta, ikkinchi ko'paytuvchi bir necha marta, birinchi ko'paytma bir necha marta, ikkinchi ko'paytma bir necha marta kamaytirilganda mahsulotning bog'liqligini aniqlash uchun)<sup>3</sup>

Sinf jadvallari soniga ko'ra kichik guruhlar bo'linadi. Har bir guruh o'z stolidagi ma'lumotlar bilan tanishadi va berilgan topshiriqlarni bajaradi. Belgilangan vaqt tugagandan so'ng, har bir guruh o'z stolida o'z ishini tugatadi va boshqasiga o'tadi. Guruhlar har bir ma'lumot jadvaliga

1 Azixo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — T.: TDPU, «Nizomiy», 2003. B. 101.

2 Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv uslubiy qo'llanma// Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. — T.: 2010. B. 41.

3 <https://multiurok.ru/files/aktivnye-metody-obucheniia-na-urokakh-matematiki-v.html>



tashrif buyurmaguncha ishlaydi. Jadvallarda, ma'lumotlardan tashqari, kichik guruhlar o'z fikrlarini yozadigan bo'sh varaqlar mavjud bo'ladi. Shunday qilib, guruhlar bir-biri bilan aloqada bo'lmasa ham, birgalikda ishlaydi.

Bunday uslublar quyidagilarga yordam beradi:

- o'rganish motivatsiyasini va o'quvchining eng yaxshi tomonlarini rivojlantirishga;
- o'quvchilarni mustaqil bilim olishga o'rgatishga;
- fanga qiziqishni rivojlantirishga,
- o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini, o'quv-axborot va tarbiyaviy-tashkiliy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini faollashtirishga imkon beradi.

Bolalarni yoshligidanoq o'yin orqali bilimlar ummoniga yetaklash zarur. Ayniqsa, maktabga tayyorlov guruhleri va boshlang'ich sinf o'quvchilarining xususiyatini hisobga olib, ularga o'yin orqali bilim berish tez samarasini ko'rsatadi. ta'limiy o'yinlar o'quvchilarning darsda faolligini oshirishi bilan birga bilimlarini o'zlashtirish jarayonini yengillashtirish va mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Azixo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — T.: TDPU, «Nizomiy», 2003
2. Avliyoqulov N. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. — T.: 2001
3. Ziyomhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya — zamonaviy o'zbek milliy modeli. — T.: «Lider Press», 2009.
4. Ziyomhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari. — T.: «Turon-Iqbol», 2006
5. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv uslubiy qo'llanma// Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. — T.: 2010.





**YUQORI SINFLARDA INFORMATIKA VA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA  
SINKVEYN INTERFAOL USULIDAN FOYDALANISH**

**Jumamuratova Umida Iskandar qizi**

Informatika va AT fani

**Seytmatova Matluba Aminboyevna**

matematika fani

Xonqa tuman 32-maktab aniq fanlar

*Annatotsiya:* Bu maqolada Sinkveyn metodi har bir o'qituvchi o'zi dars beradigan o'quvchilarning xarakteri, iqtidori va qiziqishlaridan kelib chiqib o'ziga xos yo'nalishda tashkil etishi, o'zgartirishi, ijodiy rivojlantirishi yoki o'xshash variantlaridan foydalanishlari mumkinligi haqida bayon qilingan.

*Kalit so'zi:* metodi, axborot, zamonaviy, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, fikr.

Bir so'z bilan aytganda, bunday o'yinlar mavzularni o'quvchilatga oson va tushunarli berishning yo'llaridan biri hisoblanib, o'qituvchi yangi-yangi ta'limiy o'yinlarni darslarida qo'llashi, hatto o'zi ham shunday o'yinlarni o'ylab topishi mumkin. Zero, biz yangiliklar, axborotlar asrida yashayapmiz.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Bizning vazifamiz – to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyangan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur” deb ta'kidlaganlari bejiz emas. Negaki, taraqqiyotga erishishda mamlakat jtimoiy tizmining barcha sohaları faol bo'lmoqliklari shart.

Ta'limda o'quvchilarga ma'lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o'zi bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg'otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir. Pedagogik texnologiya ana shunday talabni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim tizimidir.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya qila olishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin.

Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o'zo'zini rivojlantirish yo'llarini tushunishga imkon yaratadi.

“Besh satr “ (Sinkveyn) usuli. Bu usulda axborotlardan xulosalar chiqarish, murakkab his-tuyg'ularni qisqacha bir-ikki og'iz so'z bilan ifodalashga yordam beradi. Sinkveyn besh satrli she'r bo'lib , axborot va ma'lumotlarni qisqa ifodalalar bilan berishni o'rgatadi. Uni yozish qoidasi quyidagicha:

- 1-satrdan mavzu nomi bir so'z (ot) bilan beriladi
- 2-satrdan mavzuni tasvirlash ikki so'z(sifat) bilan beriladi
- 3-satrdan mavzu harakatini tasvirlash uchta so'z (fe'l) bilan beriladi
- 4-satrdan to'rtta so'zdan iborat qisqa jumla
- 5-satrdan yuqoridagilarning hammasini tasvirlaydigan bir so'z(sinonim) bilan beriladi.

Namuna :

- 1.Kampyuter
- 2.Erkin ,faol
- 3.Xarakatlantirmoq,yozmoq,tinglamoq
- 4.Beshikdan qabrgacha ilm izla
- 5.Ta'lim



Bu usul ko'nikma hosil qilishda, tushuncha va axborotlarni umumlashtirish hamda ixchamlashtirish uchun tez va kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2016.
2. Farberman. B.L . “Ilg'or pedagogik texnologiyalar”. T: 2001 y.
3. Internet materiallari : <http://go.mail.ru/searchi?>. “Ta'lim texnologiyalari”.
4. Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. Ucheb.posobie.- Toshkent. TDPU 2003. - 192 s.



## TEACHING ENGLISH WITH JAZZ CHANTS

**Jumaniyazova Klara Jumabaevna**

Qoroqolpog'iston Respublikasi Chimboy tumani

32-son maktabining Ingliz tili fani o'qituvchisi

klara85@gmail.com

**Annotation:** This article discusses the importance of using jazz chants in teaching English.

**Key words:** Jazz chant, Grammar chants, Small Talk Chants, rhythm, stress, intonation.

Using songs in classroom is beneficial for developing students' vocabulary and grammar structures. As well as songs help us to build positive classroom climate. However there is one more alternative of using songs in class. It is jazz chants.

Jazz chants are created by Carolyn Graham; they are poems which use jazz rhythms to illustrate the natural stress and intonation patterns of English. For over 25 years, classes all over the world have enjoyed jazz chanting as a unique way for students to improve their speaking and listening comprehension skills while reinforcing the language structures of everyday situations. There are Grammar chants and Small Talk Chants, Jazz Chants Old and New, Holiday Jazz Chants and many more to cater for the needs of your particular class. Jazz chants are funny, though they deal with a wide range of vocabulary and complicated grammar structures. That's a great way to do revision lessons or present a new topic as well.

Carolyn Graham: "A jazz chant is really just spoken American English with an awareness of the natural rhythms." The benefits of using jazz chants in classroom:

- Chants use natural spoken English
- Chants can be used in classes of any size
- Chants don't require any special materials
- Chants can be used with all age groups
- Chants do not require musical ability

Carolyn Graham advises "A jazz chant has a four-beat rhythm: 1, 2, 3, 4. Each beat will be either a stressed word (or syllable) or clap (or tap or pause). The first beat is the first stressed word, which may not be the first word. Example: Do you like it? (clap) Yes, I do. 1 2 3 4"

How do we teach Jazz chants?

1. Introduce the chant orally first. Discuss the context.
2. Begin with group (choral) practice. Then move to pair and individual practice
3. Focus on stress, thought groups, and intonation.
4. Together, mark it to show major stresses, intonation, reduced sounds
5. Review the chant regularly!

**Grammar chant:** Irregular Verbs from Grammar Chants

by Carolyn Graham

Say, said.

Stop on red.

Eat, ate.

Don't be late.

Break, broke.

Have a coke. Take, took.

Learn to cook. Speak, spoke.

Tell a joke.

Write, wrote.

Get off the boat!

Chants can be used to teach or reinforce grammar points while at the same time providing speaking & pronunciation practice. If your students are shy to speak in class, use jazz chants to help them build confidence.

### References:

1. "Jazz chants- how to use them to help your students speak more clearly, practice vocabulary, and learn and reinforce grammar patterns" by Shirley Thompson ESL Consultant, Teacher Trainer
2. "Jazz Chants in English Language Teaching" by Jin Zhang Chuzhou University, Chuzhou, China



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MATEMATIKA DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK MUAMMOLI O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH.**

**Kadirova Yulduz Mavlonberdiyevna**  
**Maxmudova Farog'at Baxtiyorovna**  
boshlang'ich sinf o'qituvchilari  
Xonqa tuman 6-son maktab.

*Annatotsiya:* O'quvchilarni matematika fanidan olgan bilimlarini mustahkamlash, ularni erkin, mustaqil ishlashga o'rgatish, aqliy faoliyatini kengaytirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va o'stirish.

*Kalit so'zlar:* matematika, masala, yechim, qo'shish, ayirish, yig'indi.

Ta'lim - kelajakdagi muvaffaqiyatlar kaliti ekan, uning mahsuli sifatida bugungi o'quvchi kelajakda huquqiy-demokratik jamiyat a'zosi sifatida bu jamiyat hayotida to'laqonli ishtirok eta olishi, zamonning bozor iqtisodiyoti qo'yayotgan talablariga to'la javob bera olishi kerak. Umumiy o'rta-ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini oshirish uchun, jumladan uzluksiz matematik ta'lim tizimi jarayonida pedagogik tajribani o'rganish va yoyish, zamonaviy muammoli texnologiyalarning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish zarurdir.

Bilish vazifalarining qo'yilishida muammoli savollar asosiy o'rinni egallaydi. Ular muammoli vaziyatlar yaratishning har qanday boshqa usullariga tegishli ravishda qo'shiladi. Bilishga doir savol o'quvchilar uchun muayyan darajada qiyin bo'lishi, ulardagi mavjud bilimlarning cheklanganligini ko'rsatishi va ayni vaqtda, ular bajara oladigan bo'lishi, ya'ni idrokning hayotiy tajribaga va nazariy bilimlarning zapasiga bog'liqligini hisobga olishi zarur.

Tenglamani yechilishi rasmga ko'ra tushuntiriladi. Konfetning massasi  $x$  g ekanligi aytiladi. Eslatmani yodda saqlash uqtiriladi.

***Darslikdagi misol va masalalarni yechish bo'yicha sharhlar:***

2. Doskada o'quvchilar navbat bilan bajaradilar. Qolgan o'quvchilar o'zlari mustaqil o'tirgan joylarida bajaradilar.

$$89 + x - 663 (88 + x) + 93 = 976$$

$$x = 663 - 89 \quad 88 + x = 976 - 93$$

$$x = 574 \quad 88 + x = 883$$

$$x = 883 - 88 \quad x = 795.$$

3. Bir o'quvchi doskada mustaqil ravishda bajaradi. Noma'lum sonni  $x$  deb olish aytiladi.

$$x + (1260 + 396) = 7834$$

$$x + 1656 = 7834$$

$$x = 7834 - 1656$$

$$x = 6178$$

4. Sinf 2 guruhga bo'linadi. Har bir guruh o'ziga berilgan topshiriq asosida masalaga tenglama tuzadilar va tenglamani yechadilar. Bu topshiriqni bajarish orqali o'quvchilar mustaqil tenglama tuza olish ko'nikma va bilimlarini mustahkamlaydilar.

Har bir guruhning bajargan natijalariga qarab g'olib guruh aniqlanadi.

$$a) 50 + 250 = x + 100 \quad b) 100 + 200 = x + 200 \quad x = 300 - 100 \quad x = 300 - 200$$

$$x = 200 \quad x = 100$$

5. O'quvchilarga mustaqil ish qilib beriladi.

6. Doskada bir o'quvchi tomonidan tushuntirib yechiladi.

$$548 - 339 = 209 \quad t \text{ lavlagi olib ketilgan.}$$

Xulosa qilib aytganda, muammoli darslarda mavzuga oid savollar shunday tuzilishi lozimki, o'quvchi savolga javob berishda kamchiliklarni to'ldirsin, nomalarini aniqlasin, o'xshashlik va farqni topsin, fikrini ifodalasin. Muammoli vaziyatni hosil qilish tadqiqot restik suhbatlar, namoyish etish muammoli bayon qilish, reproduktiv metodlardan foydalangan holda tashkil etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Toshmurodov B. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni takomillashtirish T.: O'qituvchi, 2000 yil

2. Jumayev M.E., Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni tashkil etish metodikasi T.: TDPU 2005 yil

3. Ahmedov M., Abdurahmonova N., Jumayev M. Matematika 1-sinf Turon-iqbol T.: 2019 yil.



## ERROR CORRECTION TECHNIQUES

**Karamova Gulnaz Nazarbaevna**

Qoroqolpog'iston Respublikasi Chimboy tumani

32-son maktabining Ingliz tili fani o'qituvchisi

gulnzsarkitbaev@gmail.com

**Annotation:** This article looks through several error correction techniques

**Key words:** Error correction, explicit correction, Recast, Repetition, Clarification request, Elicitation, Metalinguistic clues

Making mistakes by students is essential part of development learning process. Students can learn from their mistakes. As a teacher do you correct errors of your students? How do you correct? What kind of error corrections work in English classroom? This article looks through the types of errors and suggests several error correction strategies.

In his book “Mistakes and corrections” Julian Edge suggests four particular reasons student make errors: First, Students first language may interface with English language and make mistakes. Second, students make mistake because they have learned a rule but used it too widely. Third, students makes mistakes almost deliberately, they want to get their message across correctly or incorrectly. Fourth, they may make mistakes when they are in a hurry.

The author categorizes student mistakes into the following types: slips, errors and attempts.

1. Slips are smaller mistake which a student can correct by himself/herself if someone(the teacher) draws attention to them

2. Errors can happen when a student finds it hard to self-correct, but there may be other students in class who can help with correct version. If no one can correct then the teacher need to teach the language point.

3. Attempts are the result of a student trying to say something beyond their language level. Students have not learned a particular grammar rule but attempts to use it.

Julian Edge reminds about the importance of selective and meaningful response to student errors. Not every error needs to be corrected. The teacher should know and decide whether and when to correct. Sometimes teachers should not correct student errors directly addressing the student. We need to change the term “error correction” to “language feedback” because the aim of language feedback is to improve learner performances. Effective feedback provides constructive advice and guideline to learners to improve their language level.

Diane J. Tedick refers error corrections as “error treatment” and offers several types of corrective feedback to learners. Let's look at them more closely:

1. Explicit correction. Teacher indicates that the student made a mistake and corrects.

2. Recast. The teacher does not say that the student made a mistake, but provides correct answer.

3. Clarification request. The teacher signals that the student made mistake and to encourage self-correction.

4. Metalinguistic clues. The teacher does not provide answer but asks questions to help student to find out where he/she made mistake.

5. Elicitation. The teacher elicits the correct form from the student.

6. Repetition. The teacher repeats student's mistake and changes intonation to signal that something was wrong.

Timely and appropriate corrective feedback can help students to reduce errors and increase their motivation and learning performances.

### References:

1. Julian J. Edge “Mistakes and corrections”. Harlow: Pearson

2. Tedick. D.J “Research on Error correction and implication for classroom teaching”. 1998 In: The Bridge, from research to practice, University of Minnesota.





## ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ДАРSLARIDA O'QUVCHILAR OG'ZAKI NUTQINI O'STIRISHDA FOYDALANILADIGAN METODLAR.

**Kenjayeva Nargiza Elmurodovna**

Navoiy viloyati Karmana tumani  
4-sonli IDUMning ona tili va adabiyoti fani  
o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada nutq o'stirish tushunchasi, o'quvchilar nutqini o'stirishning mavjud ahvoli, ona tili darslarida nutq o'stirishning shakl va vositalari, nutq o'stirishda noan'anaviy usullardan foydalanish haqida so'z yuritiladi. Kalit so'zlar: nutq, nutq o'stirish, erkin fikrlash, so'z, bog'lanishli nutq

**Kalit so'zlar:** intefoal, innovatsion texnologiya, charxpalak, taqdimot usuli, tanlash, ixtiyoriy, bajarish, majburiy, imkoniyat, metod, texnologiya.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq.

Ma'lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning ak-sariyati tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi natija bergan. Keng qo'llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash qismida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” metodlarini, yangi mavzuni tushuntirish qismida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash qismida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik tashkil etuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”, “Klaster”, “BBXB” metodlarini qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimini oshirishga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo'q”, “Ta'rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o'yinlardan, “**Buyuklar tilsimi**”, “Faqat o'zim bilaman” test sinovi, o'quvchilarning savodxonligini oshirishda “**Yo'l yo'lakay**” usullari va “**Mard-u maydon**” metodlardan foydalanib samarali natijaga erishish mumkin.

O'yin vaqtida o'quvchilar o'zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o'quvchida ishonch, qat'iyat paydo bo'ladi. Munozaraga kirishishni o'rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o'quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim.

“**Taqdimot**” darslari orqali o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga erishish mumkin:

- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qilish;
- axborot manbalaridan foydalana olish, zarur ma'lumotlarni izlab topish, tahlil qilish, saralash orqali ma'lumotlar bazasini yarata olish;
- o'qib o'rganish, bilimni mustaqil ravishda oshirib borish, o'qib o'rgananlarini o'rtoqlari bilan muhokama qilish, o'zini nazorat qila bilish kabi sifatlariga ega bo'lish;
- sinfda va jamiyatda o'z o'rnini anglay olish va boshqalar.

“**Tanlash ixtiyoriy, bajarish majburiy**” usuli. Bunda o'quvchilar darslikdagi mashqning shartida keltirilgan topshiriqlarni o'zi ixtiyoriy ravishda badiiy asar, boshqa darsliklardagi matn, materiallar asosida bajarishlari kerak. Natijada o'quvchilarda mustaqil o'qib o'rganish, o'zining qiziqish va qobiliyatlarini namoyon qila olish ko'nikmalari shakllanadi.

“**Imkoniyat**” usulida har chorak yakunida o'zlashtirishi yuqori bo'lgan o'quvchilarga o'rganilgan mavzular bo'yicha javobi tanlanadigan va javobi yoziladigan testlar tuzib kelish topshiriladi. Bu vazifani a'lo darajada bajargan o'quvchilar yakuniy nazorat ishlarini topshirishdan ozod qilinadi. Test tuzgan o'quvchilarda test yechgan o'quvchiga nisbatan quyidagi ko'nikmalar shakllanadi:

- o'z fikrini yozma tarzda izchil, aniq, tushunarli bayon qila olish;



- mavzudan kelib chiqib savollarga javob berish va o'zi ham savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish;

- axborotlarni izlab topish, saralash, tanlash va tahlil qila olish;

- bilimni mustaqil ravishda oshirib boorish va uni amaliyotda qo'llay olish kabilar.

**“5 savolga 5 javob” usuli.** Ushbu usuldan ona tili darslarida “Qo'shma gaplar” mavzusi o'rganilayotganda foydalanish mumkin. Bunda tarqatma material yoki ekranda o'quvchilar e'tiboriga test javoblari shaklidagi gaplar havola etiladi.

Yuqorida keltirilgan interfaol metodlarni ona tili va adabiyot darslarida qo'llash natijasida o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'zlarining fikrini erkin bayon eta olishga, atrofidagilarning fikrlarini hurmat qilishga, o'zining nuqtayi nazarini himoya qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. – T.:O'qituvchi, 1980.66-bet

2. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. – T.:Sharq, 2000. 110-bet

3. Muhiddinov A.G'. O'quv jarayonida nutq faoliyati. – T.: O'qituvchi, 1995. 78- bet

4. Golish L. V. , Fayzullayeva D. M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. T. , “Iqtisodiyot”, 2012.



## BOSHLANG'ICH SINFDAN MURAKKAB MASALALAR BILAN ISHLASH

**Kenjayeva Qunduzxon Urayimjonovna**

Namangan viloyati, Norin tuman

19-maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

+998994688254. kenjayevaqunduzoygmail@.com.

**Annotatsiya:** Masalalar yechish matematika o'qitishning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga murakkab masalalarni yechishni o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan metodlar usullar vositalar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Murakkab masala, masalani yechish, metod, usul, vosita, masala-yechilishi, bajarilishi, tushunilishi, qiyin bo'lgan masala.

Murakkab masala bilan ishlash payitida bolalarni murakkab va sodda masalalarni farq qila bilishlariga erishish kerak. Masalani dastlabki analiz qilish ma'lumni noma'lumdan ajrata olish malakasi. Analiz (lotincha analuzis, ona tilimizda “maydalash”, tahlil qilish degan ma'nolarni anglatadi) o'rganilayotgan yaxlit (bir butun) ob'ektni (narsa, voqea-hodisani) mayda bo'laklarga bo'lish, uning alomat (belgi) va sifatlarini ajratish. Masalan, O'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rayotganida o'z oldiga turli maqsadlarni qo'yadi: o'tilgan materialning o'quvchilar tomonidan qanday o'zlashtirilganligini aniqlash, yangi materialni bayon qilish, tushuntirish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan (shular qatorida ko'rgazmali qurollardan ham) qanday darajada foydalanish, yangi materialni mustahkamlash, uyga aniq maqsad sari yo'naltirilgan vazifalar berish va hokazo. O'qituvchi darsda o'quvchilar xatti-harakatlarini tahlil yo'li bilan baholab, ayrim o'quvchilarning yoki sinfdagi bir guruh o'quvchilarning xatti-harakatlarini ajratib (farqlab) oladi. Birgina ob'ektni har xil qirralari bo'yicha tahlil qilish mumkin. Bunda tekshirilayotgan ob'ekt qanchalik ko'p tomonlama tahlil qilinsa, uning mohiyatini ochib berish shunchalik chuqur bo'ladi. Ikkinchi sinfdan boshlab bolalarni masalalarni mustaqil ravishda qisqa yozishga o'rgatish masalasi qo'yiladi. Masala sharti murakkab bo'lgan holda, berilganlar orasidagi munosabatlarni tushunib olish qiyin bo'lgan hollarda, shuningdek, yangi xil masalalarni yechishda qisqa yozishdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shuni nazarda tutish kerakki, barcha hollarda ham qisqa yozuvni bajarish bilan bir vaqtda masala shartining analizi ham amalga oshiriladi. Aslini aytganda, qisqa yozuvning vazifasi shundan iborat. Sodda masalalarni yechishda amal tanlashni asoslab berish va murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so'ngra yechish planini tuzish malakasi. Oldin soddamasalani yechishda amal tanlash masalasini qarab chiqishga to'xtalamiz. Bu malaka birinchi sinfdan boshlab tarkib topa boshlaydi, ikkinchi va uchinchi o'quv yillarida yanada rivoj toptiriladi, ya'ni ba'zi tanish masalalarga nisbatan amal tanlash ishini bajarish asosi o'zgartiriladi. Masalan, ushbu «Daraxtda 5 ta qush o'tirgan edi, 2 ta qush uchib ketdi. Daraxtda nechta qush qoldi?» -degan masalani yechishda birinchi sinf o'quvchisi masalani yechish uchun 5 dan 2 ni ayirish kerak, chunki qushlar oldingisidan kamaydi deb javob beradi. Ikkinchi sinf o'quvchisi shu masalani yechishda bunday mulohaza yuritishi mumkin: «Bu qoldiqni topishga doir masala. Bunday masalalar ayirish bilan yechiladi. 5 dan 2 ni ayirsak, daraxtda qancha qush qolganini bilamiz». 1-sinfdan berilgan sonni bir necha birlik orttirishga doir masalani yechishda o'quvchi taxminan bunday mulohaza yuritadi: «Masalada birinchi kuni do'konda 12 qop kartoshka sotilgan, ikkinchi kuni esa undan 8 qop ortiq sotilgan haqida gapiriladi. Demak, ikkinchi kuni birinchi kundagidan 8 qop ortiq sotilgani ma'lum, bu birinchi kuni qancha sotilgan bo'lsa, shuncha va yana 8 qop sotilganini bildiradi, shuning uchun 24 ga 8 ni qo'shish kerak, shunda ikkinchi kuni necha qop kartoshka sotilganini bilamiz». II va III sinflarda o'quvchilar bir muncha boshqacha mulohaza yuritishi mumkin: «Masala shartidan, ikkinchi kuni birinchi kundagiga qaraganda ortiq sotilgani ma'lum; necha qop kartoshka sotilganligini bilish kerak. Demak, masalada katta sonni topish talab qilinadi va u qancha kattaligi ko'rsatilgan, masala qo'shish bilan yechiladi». Keltirilgan misollardan sodda masalalarni yechish malakasini egallab olishlariga qarab o'quvchilar umumlashtirishning yuqoriroq darajalariga ko'tariladilar. Ammo bu jihatdan ham o'qitishning har bir bosqichidan umumlashtirishning har xil darajalari, tanish masala yoki yangi xil masala yechilayotganiga qarab, amal tanlashni asoslashga har xil yaqinlashishlar kuzatiladi, albatta. Murakkab masalani yechishda masalani tahlil qilish malakasi asosiy ahamiyatga ega. Masala tahlilining analitik usuli shunday mulohazalar



zanjiridan iboratki, bu zanjir boshida masalada berilgan savol turadi. Masala savoliga javob topish uchun zarur ma'lumotlar tanlanadi, bu ma'lumotlarni boshqa ma'lumotlardan foydalanib topish mumkin.

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlangi'ch sinflarda matematika o'qitish metodikasi.(O O'Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiya” 2005 yil.
2. Jumayev M.E, Boshlangi'ch sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'Y uchun
3. [www.ziyonetuz](http://www.ziyonetuz).



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

**Kirgizova Nargiza Abdurashidovna**  
Samarqand viloyati Samarqand shahri  
55-umumiy o'рта ta'lim maktabi  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqqolada umumiy o'рта ta'limning boshlang'ich sinflarida ona tili darslarini tashkil etishning samaralari usullaridan foydalanish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** ona tili, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunini “Klaster” usuli,

Boshlang'ich ta'lim O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunini hayotga tadbiiq qilishda asosiy o'rinni egallaydi. Binobarin, boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish muhim sanaladi.

Ona tili - nutq: o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'quvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bola o'qish ko'nikmalarini egallash bilan, birinchi navbatda o'z ona tilini o'rganishi zarur. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql -idroknig kalitidir. Ona tili boshqa fanlarni vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi.

Til muhim tarbiya vositasidir. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o'qigan bola o'zida eng yaxshi hislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Aynan shu maqsadlarni amalgam oshirish uchun hamona tili darslarini samarali tashkil etish masalasini ham boshlang'ich sinflatdan boshlab tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun esa ona tili darslarini samarali hamda qiziqarli tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir.

“Klaster”so'zi bog'lam ma'nosini bildiradi. Klasterlardan darsning da'vat, anglash va fikrlar bosqichlarida foydalanish mumkin. Bu metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar tog'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilma. Bu metod mavzuning o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishini ta'minlaydi. “Klaster” metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash va guruh-guruh bo'lib ishlashda foydalanish mumkin. Tarmoqlar metodi (Klaster) texnologiyasi o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan. Biron-bir mavzuni chuqur o'rganishdan oldin o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirishga xizmat qiladi. Dars tahminan quyidagicha tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

1. Katta o'lchamdagi qog'oz yoki doskaning o'rtasiga mavzuga doir so'z yoziladi.

2. O'quvchilar ushbu so'z bilan bog'liq hayolga kelgan so'z va jummalarni uni atrofiga yoza boshlaydilar.

3. Yangi g'oyala paydo bo'lishi bilan hayolga kelgan so'zlar ham darhol yozib qo'yiladi

4. So'zlarni yozish jarayoni o'qituvchi tomonidan belgilangan vaqt tugaguncha yoki barcha so'z va g'oyalar tugaguncha davom etadi.

Dars jarayonida quyidagi tavsiyalarga e'tibor qaratish lozim. Klasterlarga ajratishda bir qator qoidalarga ham rioya qilish zarur.

1. Hayolga kelgan hamma narsani ularning mazmuniga e'tibor bermasdan yozib borish.

2. Orfografiya va boshqa omillarga e'tibor bermaslik.

3. Vaqt tugaguncha, iloji boricha to'xtalmasdan yozish.

4. Iloji boricha ko'proq bog'lanishlar hosil qilishga harakat qilish.

5. G'oyalar va so'zlar sonini cheklab qo'ymaslik.

Mazkur metod o'rganilayotgan til hodisasini umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. “Klaster” da sinf yozuv doskasiga yoki katta varaqqa kalit so'zlar, so'z birikmalari yoki gaplar yoziladi va kalit so'zlar til hodisasining aloqadorligiga qarab bog'lab boriladi. Klaster tuzishda, agar u doska yoki katta varaqda sinf jamoasi bilan bajarilayotgan bo'lsa, barcha o'quvchilarning ishtirok etishi shart.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka





erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish darajasi o’sishiga olib keladi. Albatta, bu o’rinda o’qituvchining pedagogik mahorati ham muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Tolipov U. Pedagogik texnologiyalar T. 2005
2. Eshmuratov M. Innovatsion texnologiyalar. T.2011 16. Abdukurimov
3. H.,O.Suvonov. Umumiy pedagogika: texnologiya va amaliyot. – T.: o`quv metodik qo`llanma.2012
4. Bo’ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish
5. <https://fayllar.org/boshlangich-sinf-oqish-darsini-yangi-pedagogik-texnologiyalar.html>



## МЕHNATNING NONI SHIRIN.

**Komilov Umidjon Shuhratjon o'g'li**  
Namangan viloyati Namangan tumani  
8-sonli maktab 9-A sinf o'quvchisi

**Annotatsiya:** ushbu hikoyamda mehnatning inson hayotidagi o'rni, mehnat tufayli inson hayoti go'zal bo'lishi haqida bayon etganman.

**Kalit so'zlar:** Yaxyo, maqollar, mehnat, ta'til, yalqov.

Yaxyo va Ilhom 1-sinfni tugatib ta'tilga chiqdilar. Yaxyo bosh paytlarida mahalla kutubxonasidan kitob olib o'qiydi. Ayniqsa, unga oxirgi o'qigan kitobi “O'zbek xalq maqollari” juda yoqdi. Ba'zi tushunmaganlarini buvijonisi erinmay hayotiy misollar bilan tushuntirib beradilar. Yaxyo ham xuddi kattalardek gap oradida maqol qo'shib gapirishga odatlanib qoldi.

Bir kuni Ilhom va qo'shni bolalar bilan maydonchada futbol o'ynashayotgan edi, uzoqdan qo'lida xojalik sumkasi ko'targan katta yoshli ayol ko'rindi. Bolalardan hech biri unga peshvoz chiqmadi. Bundan ko'rinib turibdiki, u bu bolalarning “buvijon”i emas. Yaxyo Ilhomni imladi:

-Yur anavi buvijonga yordam beraylik. “Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l” deb bekorga aytishmagan xalqimiz.

- O'zing boraver, men charchab turibman o'zi.

- Mehnatning noni shirin, yalqovning joni. Yaxyo shunday deb yugurganicha yordamga shoshildi.

Ilhom ularning o'z uylariga kirganini payqamadi ham.

Sal o'tgach, Ilhomni opasi chaqirdi. Uyga kirgan Ilhom Yaxyoni ko'rib, boyagi mehmon ularnikiga kelganini angladi. U dadasining olis qishloqdagi ammasi ekan. Mehmon bilan salomlasha turib o'zining dangasaligidan uyalib ketdi. Mehmon esa tinmay Yaxyoni maqtar va duo qilar edi.

Ilhom “Mehnatning shirin noni” haqidagi maqolni tushunib yetdi.



## O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL O‘QISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARNING ROLI

**Kurambayeva Shaxlo Baltabayevna**  
**Abdullayeva Mo‘tabar Habib qizi**  
**Xasanova Gulnoza Jumanazar qizi**  
Xorazm viloyati Xonqa tumani  
33-son umumta’lim maktabning  
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil o‘qish ko‘nikmasini shakllantirishda, ularga sifatli ta’lim berishda pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarning roli haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** mustaqil o‘qish, innovatsion texnologiya, boshlang‘ich sinf, bilim, malaka, ko‘nikma, dars, axborot texnologiyalari, mediatexnologiya, pedagog.

Bugungi davr – pedagogik texnologiyalarining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, asl mohiyatini anglab yetish, afzallik jihatlarini aniqlash va nihoyat, amaliyotga tadbiq etishga kirishilgan davr sifatida baholanmoqda. Uzluksiz ta’lim tizimida pedagog o‘qituvchilarning zamonaviy ta’lim texnologiyalari mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta’lim jarayonida samarali qo‘llay olishlari, shuningdek, ta’lim jarayonini tashkil etishda ijodiy yondoshuvning qaror topishi har tomonlama rivojlangan ma’naviy-barkamol yoshlarni tarbiyalab ularni raqobatbardosh, yetuk mutaxassislar bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asarida komil inson tushunchasiga aniq ta’rif beradilar. Ya’ni, “Komil inson deganda biz, eng avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, o‘z xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘la oladigan, bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz. Ta’lim tizimi va maktab oldiga maqsad qilib, komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish qo‘yildi”.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topish, mustaqil o‘rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi dars jarayonida o‘quvchilarning bir qolipga tushib qolmasligi uchun ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bilan birga, multimedia ishlanmalardan samarali foydalangan holda o‘qitishning o‘yinli shakllari va mediatexnologiyalarini qo‘llash imkonini egallagani bilan o‘zining kompetentligini namoyon qila oladi.

Boshlang‘ich sinflarda mediatexnologiyalarni qo‘llash – fanlararo bog‘liqlikni kengaytiradi, mavzularni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitishni ta’minlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida aqliy qobiliyatlarini jadal rivojlanish jarayoni kechadi, ularning intellektual salohiyatining rivojlanishi uchun asos yaratiladi. O‘quv jarayonida pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalarini samarali yechish uchun imkoniyat yaratadi. Bunda:

- o‘quv jarayonini qiziqarli va natijaviyligini ta’minlash hisobiga ta’lim oluvchida o‘quv materialini anglab olish motivatsiyasi ortadi;
- mustaqil ishlash va o‘zini–o‘zi nazorat qilish ko‘nikmasi rivojlanadi;
- o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini va har bir o‘quvchining o‘zlashtirishini ta’minlaydi;
- ta’lim oluvchining fikrlashini, bilish hissiyatini, maqsad sari intilishlarini, ma’naviy tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy faol rivojlanishga erishiladi;
- sinfdagi barcha bolalarning faol ishlashi ta’minlanadi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarini majburan qo‘llash orqali maqsadga erishib bo‘lmaydi. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo‘llanilayotgan ilg‘or texnologiyalardan foydalanish bilan birga ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.



Innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim oluvchining o’quv jarayonida mustaqil ishlash, o’z-o’zini tarbiyalash, o’qitish, o’z faolligini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini shakllantiradi

Umumiy o’rta ta’lim maktablarining boshlang’ich sinflarida o’quv jarayonini axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalangan holda shakllantirish o’qituvchidan o’quvchiga o’qituvchining ishtirokisiz mustaqil tarzda amalga oshirish uchun zarur bo’lgan elementlarni, didaktik materiallarni berish (o’quv masalalarini qo’yish, amaliy predmetli mazmunini aniqlash, har bitta alohida amallarning bajarilishi bo’yicha namunalarni ko’rsatib berish, har bir harakat va amallarning ajarilishini nazorat qilib borish, masalaning yechilganligini, tugallanganligini baholash) uzluksiz tarzda ketma-ket kechadigan jarayondir.

O’quv jarayonida pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalaridan foydalanish boshlang’ich ta’limning dolzarb masalalarini samarali yechish uchun imkoniyat yaratadi, jumladan:

- o’quv jarayonini qiziqarli va mahsuldor qilish hisobiga o’quvchida materialni anglab olish motivatsiyasi ortadi;

- mustaqil ishlash va o’zini-o’zi nazorat qilish ko’nikmasi rivojlanadi;

- darsning samaradorligini va har bir o’quvchining o’zlashtirishini ta’minlaydi;

- har bir o’quvchining fikrlashini, bilish hissiyatini, maqsad sari intilishlarini, ma’naviy tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy faol rivojlanishga erishiladi;

- sinfdagi barcha bolalarning faol ishlashi ta’minlanadi.

Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq qilishni zamonaviy axborot dunyosi rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin. Shu sababdan biz pedagoglar har bir darsimizda yuqorida aytilgan zamonaviy ta’lim texnologiyalarini darslarimizda qo’llashimiz kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. I.A.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” T. – “Toshkent” 1999.
2. А. И. Попова, И.Г. Литвинская “Развитие самодеятельности младших школьников в условиях коллективных занятий” Нач.шк., №7, 2001.
3. Я.Н. Носикова “Развитие познавательной самостоятельности младшего школьника в условиях ФГОС” /Я. Н. Носикова// Начальная школа. До и после. № 2, 2014.
4. Internet saytlari.



## JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA TA'LIMNING NOAN'ANAVIY SHAKLLARI

**Madaliyev Qudratjon Mo'minjonovich**

Marg'ilon shahar 26-maktab o'qituvchisi

Tel: 93-736-01-58

**Mahmudova Saidaxon Mamadaliyevna**

Marg'ilon shahar 26-maktab o'qituvchisi

Tel: 90-632-99-23

**Annotatsiya:** Maqolada jismoniy tarbiya fanini o'qitishning noan'anaviy shakllari to'g'risida fikr yuritilgan. Yangi pedagogik texnologiyalarda orqali jismoniy tarbiya fanini o'qitishdagi faol uslublar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** interaktiv metod, yangi pedagogik texnologiya, o'yinli texnologiyalar, raqs aerobikasi, estetik sport.

An'anaviy maktab darslari yangi materialni o'rganish, bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, olingan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish va hisobga olish, test ishlarini tahlil qilish, o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish, mavzu va bo'limlarni takrorlash darslarini o'z ichiga oladi. So'nggi paytlarda ushbu ta'lim shakllari bilan bir qatorda noan'anaviy yoki nostandart turlari ham keng qo'llanila boshlandi. Bular, xususan, musobaqalar, sayohatlar, integratsiyalashgan darslar, ertak darslari, turli o'yin darslari, mini turnirlar, flesh-moblar, multimedia, texnik vositalardan foydalangan holda darslar o'tishga qaratilgan. Buning yordamida o'quvchilar o'quv materialini tez va yaxshiroq o'zlashtiradilar.

Mashg'ulotlarni olib borishning noan'anaviy shakllariga darslarda jang san'ati, noan'anaviy gimnastika, yoga, kurash, sheyping, sport aerobikasi, sport raqslari, flesh-mob elementlaridan foydalanish kiradi.

Maktab o'quvchilari uchun raqs aerobikasi shaxsiyatga yo'naltirilgan pedagogika tamoyillarini ko'proq ta'minlashga qodir bo'ladi, chunki ular o'rta maktab o'quvchilarining shaxsini o'z-o'zini takomillashtirish va o'zini o'zi tanishga yordam beradi. Badiiy gimnastika yoki aerobika gimnastikaning bir turi hisoblanadi. Bu murakkab muvofiqlashtirilgan, estetik sport turi bo'lib, u sport va san'atning organik birikmasini, ijodiy komponent va yangilik omilini, harakatlar va musiqa birligini o'z ichiga oladi.

Aerobika - bu qulay, yuqori samarali hissiy sport turi bo'lib, jismoniy madaniyatning dam olish shaklini bildiradi. Bundan tashqari, u jismoniy ish faoliyatini oshirishga yordam beradi, jismoniy va ruhiy yengillik hissini yaratadi, ritm va sur'at, nafislik tuyg'usini rivojlantiradi va ishtirokchilarga o'zini ishonchliroq, kuchliroq his qilish imkoniyatini beradi, qoniqish hissi esa qiziqishni oshiradi. Sinflarda, ixtiyoriy harakatlar zaiflashmaydi, balki mustahkamlanadi.

Bugungi kunda bunday turdagi tizimlar juda urfga kirgan va mashhur hisoblanadi: fank aerobika va hip-hop (afro va braziliyalik raqslar uslubidagi raqs aerobikasi); slayd (surma qadamiga asoslangan aerobika); step aerobika (maxsus platformada aerobika); tay-bo va ki-bo (jang san'ati elementlari bilan aerobika); akva aerobikasi (suvdagi aerobika); futbol aerobikasi (katta maxsus to'plarda aerobika), velosipedda yurish (velosipedda aerobika); Pilates (harakatni anglash postulatiga asoslangan balet gimnastikasi yo'nalishi); kapoeyra (raqs, akrobatika, o'yinlar elementlarini o'zida mujassam etgan va hokazo).

Bunday darslar nafaqat o'quvchilarga o'quv materialini tezroq va yaxshiroq o'zlashtirishga imkon beradi, balki har tomonlama - jismoniy, intellektual, ma'naviy, axloqiy va estetik rivojlanishga qaratilgan birlikda olib boriladigan psixofizik qobiliyatlar, vosita qobiliyatlari va malakalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bolaning shaxsiyatini shakllantiradi va ularda tizimli jismoniy tarbiya va sportga mehr uyg'otadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ziyomhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya — zamonaviy o'zbek milliy modeli. — T.: «Lider Press», 2009.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv uslubiy qo'llanma// Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. — T.: 2010.
3. <https://nsportal.ru/shkola/fizkultura-i-sport/library/2014/09/05/netraditsionnye-formy-obucheniya-na-urokakh-fizicheskoy>





## BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARINI INTERAKTIV USULLAR YORDAMIDA TASHKIL ETISH

**Mamasobirova Shohista Saminjonovna**

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani

23-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda darslarni samarasini oshirish uchun interaktiv ta'lim usullaridan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi

**Kalit so'zlar:** Pedagogik texnologiya, DTS, interaktiv metodlar, “O'qituvchining o'g'itlari”, PISA, PRLIS

Bugungi kunda ta'lim tizimining eng asosiy talablaridan biri bu darslarni zamonaviy usullarda o'tish va ta'limni takomillashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishdir. O'quvchilarning har bir darsga qiziqishini, faolligini oshirishda, interaktiv o'qitish usullari ijobiy samara bermoqda. Hozirgi kun maktab ta'limiga qo'yilayotgan muhim talab ta'lim mazmuniga zamonaviy axborot texnologiyalarni keng qamrovda joriy etishdir. Mazkur talab dars jarayonida muammoli vaziyatlar yaratib, o'quvchilar faolligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'z nuqtai nazarini asoslay olish, ularni nutqiy faoiyatiga tayyorlash, ta'lim samaradorligini oshirish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ilg'or tajribalarni o'rganish ijobiy samara beradi, o'quvchi faolligi va qiziqishini, o'qituvchi mahoratini oshiradi. Dars jarayonida o'quvchilarga faqatgina DTS talabi bo'yicha bilim va ko'nikmalarini berish bilan cheklanib qolmasdan, ushbu bilim va ko'nikma asosida o'quvchilarni hayotga, tabiatdagi har bir ijtimoiy voqealarga to'g'ri munosabatini rivojlantirishni, ya'ni ta'lim bilan birga tarbiyani ham qo'shib olib borishni asosiy maqsad qilib, uni amalga oshirish muhim vazifalardan biridir.

Ma'lumki, mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, o'quvchilarga chuqur bilim berish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasidir. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga olib kirildi. Yangi pedagogik texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchisining aqlan rivojlanishi va kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik texnologiyalarni bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri bu interaktiv metodlardir.

Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, zarur xulosalarga kelishga, tahlil qilish va olingan bilimlarni amaliyotga qo'llashga o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi esa, o'quvchilarga aniq yo'nalish berish, to'g'ri xulosalarni aytishdan iborat. Interaktiv metodlar yana shunisi bilan ahamiyatliki, o'qituvchi o'quvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina to'g'ri xulosani aytadi, natijada o'quvchi o'z xatosini tushunib, fikrlashdan to'xtamaydi va ular o'rtasidagi doimiy faollik ta'minlanadi. Ma'lumki, kichik yoshdagi bolalar diqqati beqaror bo'lib, 1-sinf o'quvchisi uchun biroz muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Ana shu vaziyatda o'quvchilar diqqatini jamlashda qiziqarli interaktiv metodlarning ahamiyati katta. O'quvchilarga rasmi topshiriqlarni bajartirish, ularni fikrlashga, topqirlikka, ijodkorlikka undaydi hamda yozma va og'zaki nutqini o'stirib, lug'at boyligini oshiradi. Masalan, 3-sinf o'qish kitobi assida tuzilgan rasmi testlardan namunalar keltiradigan bo'lsak, “O'qituvchining o'g'itlari” she'rining muallifi kim?

a) Anvar Obidjon

b) Muhiddin Omon

d) Normurod Norqobilov





Topishmoqning to'g'ri javobini toping “Bo'lar sariq yo qizil, yer tagida yetilar”

a) uzum

b) olma

d) sabzi



Bunday testlar xalqaro o'qitish tizimiga mos testlar hisoblanadi. Dars jarayonida shunday testlardan foydalanish orqali o'quvchilarin bilim darajasini yanada oshirish imkoni paydo bo'ladi. Sababi test aynan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos ravishda tuzilgan va bolani har tomonlama shakllantirishni ko'zlaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tangicha pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishning afzalliklari birinchi o'rinda bola darsga qiziqadi, chunki bu oddiy maruza shaklida tshkil etiladigan darlardan qiziqroq tarzda tashkil etiladi. O'quvchi darsda o'z fikrini erkin bildirish imkoni paydio bo'ladi, bu esa, o'z navbatida endigina shakllanayotgan bolaning nutqini o'sishiga yordam beradi. Eng muhimi esa, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ham eshtib fikrlash, ham ko'rib bildirilayotgan fikrlarni talil qilish imkoni paydo bo'ladi.

Xulosa o'rnida atishimiz mukinki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash natijasida darsning saviyasi yuqori bo'lib, o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatgichi ham ko'tariladi. Bundan tashqari tashkil etiladigan interaktiv darslar Xalqaro ta'lim tizimlari: PISA, PRLIS talablariga javob beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UMAROVA, X. HAMROQULOVA,R. TOJIBOYEVA 3-SINF “O'QISH KITABI”, „O'QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI TOSHKENT – 2016
2. <https://moluch.ru/archive/294/66754/>



МАКТАБДА АДАБИЙОТ ФАНИДАН О‘TKIR HOSHI MOV IJODINI O‘QITISHDA  
“ZIG- ZAG” INTERFAOL METODDAN FOYDALANISHDA METODIK  
TAVSIYALAR BERISH

**Masharipova Nuquljon Ilhomovna,  
Raxmanova Gulshod Yusubboyevna**  
Xonqa tuman 32- maktab  
adabiyot fani o‘qituvchilari

*Annatsiya:* Bu maqolada o‘quvchining ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang‘ich sinflarda o‘qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta‘limning yangi-yangi yo‘l va usullarini izlashi, ilg‘or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

*Kalit so‘zi:* o‘quvchi, zig-zag, pedagogik, jamoa, guruh, bosqich, ta‘lim.

Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a undovchi, bunyodkorlikka rag‘batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi hamda u ta‘lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. SHuning uchun ham maktab o‘qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlash ta‘lim oldiga qo‘yilgan muhim talablardan biridir. CHunki innovatsion ta‘lim texnologiyalari birinchidan, o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarni oson va qiziqib o‘rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o‘qituvchining ham professional o‘shishiga, ham ma‘naviy rivojlantirishiga yordam beradi.

O‘tkir Hoshimov ijodi mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi takrorlash darsida “Zig- zag” metodi ham yaxshi samara berdi. Sinf jamoasini kichik guruhlariga bo‘ldik. Har bir jamoada oltitadan o‘quvchi bo‘ldi, har bir guruhda boshqaruvchi belgilandi. U jamoasi tomonidan aytilgan fikrlarni to‘ldiradi va sistemaga soladi. Guruhlarga ajratishda rangli doirachalardan foydalandik. Bir xildagi doiracha olgan bolalar bir stol atrofida birlashdilar. Bunda kuchlarning teng

bo‘lishiga e‘tibor berdik.

**1- guruh uchun.**

1. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov tug‘ilgan haqida ?
2. O‘tkir Hoshimov ish faoliyati haqida to‘liq ma‘lumotlar bering? Qayerlarda ish olib borganligi va faoliyat.

**2- guruh uchun.**

1. O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov ijodi haqida?
2. O‘tkir Hoshimov ijodi- birinchi asarlari haqida gaprib bering?

**3- guruh uchun.**

1. O‘tkir Hoshimov kimlarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan?
2. O‘tkir Hoshimov o‘zbek tiliga tarjima qilgan asarlarni klasterda ifodalang.

**4- guruh uchun.**

1. O‘tkir Hoshimovning so‘nggi yillardagi o‘zbek publitsistikasining yutuqlaridan qaysi hikoyalarni bilasiz?
2. Bu asar va hikoyalarni klasterda ifodalang va ularni misollar bilan tushuntiring.

**5- guruh uchun.**

1. O‘tkir Hoshimovning respublika teatrlari sahnalaridan munosib o‘rin egallagan hikoya va qissalarini bilasizmi ?
2. O‘tkir Hoshimovning respublika teatrlari sahnalaridan munosib o‘rin egallagan hikoya va qissalarini klasterda ifodalang.

O‘quvchilarning jamoasi vazifani bajarib bo‘lishgach, guruhlar almashtirildi, ya‘ni boshqaruvchi guruhidagi o‘quvchilarni ikkita va bitta qilib boshqa guruhlariga tarqatdi.

Yangi tuzilgan jamoada har bir guruh vakili tartib bilan o‘z bilganlarini boshqalarga tushuntirib berdi. Shundan so‘ng o‘rganilganlar yuzasidan taqdimot bo‘ldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Safo O. Mustaqillik ma‘naviyati va tarbiya asoslari. T.: O‘qituvchi. 1997.
2. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. T.:Fan va texnologiya, 2009.-b.348.
3. R. Ishmuhammedov “O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati”, Toshkent, RBIMM-2008 yil.



## THE ROLE OF GRAMMAR PRACTICE IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

**Masharipova Bağdagul Rashidovna**

Qoroqolpog'iston Respublikasi Kegeyli tumani  
14-son maktabining Ingliz tili fani o'qituvchisi  
Quwat.xojanov@gmail.com

**Annotation:** This article focuses on several grammar practice activities and their role in language learning.

**Key words:** repetition, drills, dictogloss, story chain, information gap

Practice makes perfect. This saying can be appealed to many kind of learning. However, not all practice leads to success. Only right practice at the right time improves learning and leads to perfection. This article examines different types of grammar practice activities and their roles in language learning.

How does grammar practice help students? According to Scott Thornbury (1999) grammar practice help students:

1. Improve their accuracy (use correct grammar)
2. Improve their fluency (speak and write without pauses and get their message across)
3. Restructuring- recognizes their knowledge, integrate new knowledge into old.

There are various grammar practice activities:

**Repetition-** this controlled activity. Students are asked to repeat after teacher what they have heard.

**Drills** are also controlled activity in which students are asked to repeat structural patterns through oral practice. Drills can be useful teaching and learning material because they provide practice of small, manageable chunks of language. This helps to build confidence.

**Dictogloss.** The teacher reads a short text to illustrate a particular language item one or twice at a normal speed. Students listen carefully and try to understand what they hear. While listening, they can take notes. After listening, they work individually, in pairs or maybe in groups and try to reconstruct the text as accurately as possible. Finally, students compare their text with original. They see the differences and similarities. Dictogloss promotes learner autonomy by using critical thinking.

**Story chains.** Students sit in a circle. The first student says: My name is Sevara and in my free time I read books. The second student has to say: Her name is Sevara, in her free time she reads books. My name is Botir and in my free time I play guitar. The next student has to remember and say previous students' sentences and so on. This activity makes students fun and confident in speaking. Story chains also promote grammar accuracy.

**Information gap** is created when two (or more) students have different bits of information. They have to share these pieces, if they want to understand the whole thing. They have to talk to each other to close the information gap. This free practice activity, students have complete freedom in language they produce. Students have great opportunity to personalize the language, experiment and incorporate previously learned grammar.

Teachers need to keep in mind that practice activities should be meaningful and engaging. Teachers should provide students with frequent practice in both understanding and producing newly learned material. Practice activities should help to overcome learning difficulties.

### References:

1. Scott Thornbury "How to teach grammar" 1999
2. Brown, H, Douglas, 1999. Principles of Language Learning and Teaching. America: Prentice-Hill Inc
3. Nurcahyo, Heriyanto. 2013. Lets Play Chain Story. Accesed on 2016-02-19.
4. Widdowson, H.G. 1985. Teaching Language as a Communication. Oxford: Oxford University Press.





**МАКТАБДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИҲА ФАНИДАН О’ҚИТИШДА “МУСТАҚИЛ ИШ”  
INTERFAOL METODIDA FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH**

**Matkarimov Obodjon Baxramovich  
Ro’zmetov Hasanboy Sabirovich**  
urganch tuman 18- son maktab  
jismoniy tarbiya fani o’ qituvchilari

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada “Mustaqil ish” interfaol metodining o’quvchilarning turli xil nazariy va amaliy muammolarni tahlil etilganda o’quvchilarning bilim, ko’nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladigan ma’lumotlar bayon qilingan.

*Kalit so’z:* o’quvchi, bilim, kadr, dars, fikr, pedagog, texnologiya, ta’lim.

O’zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablaridan biri ta’lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo’llash, dars o’tishning yangi zamonaviy metodikasini yaratish, o’quvchining ma’lum bir faoliyatga bo’lgan qiziqishini orttirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish, o’quvchining bilish faoliyatini faollashtirishning yangi usullarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosan shu tizimni turli yo’nalishlarda takomillashtirish maqsadlarida yaratilib, hozirda turli yo’nalishlarda rivojlanmoqda. Ular pedagogik jarayonni takomillashtirish, uni o’quvchi shaxsiga yo’naltirishga asoslangan pedagogik texnologiyalar; o’quvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga yo’naltirilgan pedagogik texnologiyalar; o’quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqish asosidagi pedagogik texnologiyalar; o’quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar; tabiatga muvofiqlashtirilgan pedagogik texnologiyalar; rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalari va boshqalar.

Interfaol ta’lim metodlarini ko’pincha turli shakllardagi o’quv mashg’ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo’llanilmoqda. Bu metodlarni qo’llash mashg’ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

O’quvchilarning nazariy bilimlarini amalga tadbiq etish ko’nikmalarini aniqlash uchun mashqlar bajariladi. Bunda ham mustaqil ish metodidan foydalanib, har bir guruh uchun alohida topshiriqlar beriladi.

**1-guruh uchun topshiriq.** Jismoniy tarbiya fanidan kim?, nima? so’rog’iga javob berib, aniqlab jadvalga joylang. Ularning imlosini esingizda tuting. Namuna:

Berilgan ma’lumot nomi	Kim	Nima?			
	Yozuvchi	Kasb nomi	Fan	Sport turi	Kitob
1. Jismoniy tarbiya			Jismoniy tarbiya fan bo’lib, inson organizmi sog’lom bo’lishida katta ahamiyatga ega		

**2- guruh uchun topshiriq.** “Jismoniy tarbiya” fanining vazifalari va maqsadlarini tartib bilan yozing.

Boshqa guruhlar uchun ham shu xildagi topshiriqlar beriladi. Bu metod o’quvchilarni jamoa bo’lib ishlash ko’nikmasining shakllanishiga, vaqtning tejalishiga yordam berdi.

Shunga ko’ra fanlarni o’qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o’ziga xos xususiyatga ega. Ta’lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o’rganish va amalda qo’llash o’quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to’g’ri echimini topishlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. O’quvchilarning ijodkorligini va faolligini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O.U.Avlayev, S.N. Jo’rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o’quv-uslubiy qo’llanma, “Navro’z” nashriyoti, Toshkent – 2017.

2. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o’qitishning pedagogik texnologiyalari to’plami / Met.qo’ll. O’rtamaxsus, kasb-hunar ta’limi tizimida innovatsion texnologiyalar seriyasidan.–T.:TDIU, 2013





**МАКТАБДА GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK  
TEXNLOGIYALARDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH**

**Matniyazova Aminajon Matnazarova**

Yangiariq tumani 4-son umumiy o'rta ta'lim

**Jumaboyeva Zuxra Komiljonovna**

Urganch tumani 19-son umumiy o'rta ta'lim maktabining  
geografiya fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bugungi kunda bir qator rivojlangan mamalakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim — tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba qo'llangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Bu metodlarni interaktiv metodlar deb ham atashadi.

**Kalit so'zlar:** interfaol metod, geografiya, o'quv jarayoni, innovatsiya.

Interfaollik ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklaridir.

Evristik suhbat metodida o'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammoli masalani qo'yadi. So'ngra o'qituvchi yordamchi savollar va ayrim ma'lumotlarni eslatish yo'li bilan o'quvchilarni ilgari olgan bilimlariga tayanib muammoni mustaqil xal etishga undaydi. Bu yerda o'qituvchi o'quvchilarni bilish faoligi ustidan nazorat qiladi, savollar shunday qo'yilishi kerakki, berilgan javob asosiy fikrni isbotlashi va shu fikrni davom ettirishi zarur. Masalan, Markaziy va Sharqiy Osiyoda havo haroratining yillik farqi qanday?, Markaziy va Sharqiy Osiyo yillik harorati favrqining sababi nima?, Iqlim diagrammasiga qarab Sharqiy Osiyoda yil davomida yog'inning taqsimlanishini aniqlang?, Yog'in nima uchun ko'p yog'adi? Mazkur savollarga o'quvchilar javob berganlaridan so'ng Markaziy va Sharqiy Osiyo iqlimlarining turi aniqlanadi. Markaziy Osiyo iqlimi quruq va o'zgaruvchan, Sharqiy Osiyoniki esa nam.

Tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursida Evristik suhbat barcha mavzularni o'rganishda qo'llanishi mumkin. Materiklar va okeanlar geografiyasida va jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasida Evristik suhbat quyidagi mavzularni o'rganishda qo'llanishi mumkin: materikni yoki mamlakatni geografik joylashishini aniqlashda; turli o'lkalar va mamlakatlar tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlarini o'rganishda; Har qanday suhbatning samarasi o'qituvchining savoliga bog'liq. Birinchi navbatda bir-biri bilan mantiqan bog'langan va bir-birini to'ldiradigan, o'quvchilar bilimiga tayanadigan va o'quvchilarni xulosalar chiqarishga undaydigan savollar tuzish lozim. Didaktik maqsadlarga ko'ra suhbat 3 turga bo'linadi: Kirish, yangi bilimlarni o'rganish; umumlashtiruvchi yoki yakuniy suhbat.

- kirish suhbat: maqsadi yangi bilimni puxtaroq o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan (ilgari o'zlashtirilgan) bilim va ko'nikmalarni o'quvchilar xotirasida qayta tiklashdan iborat. O'quvchilar geografik borliq va xodisalar o'rtasidagi aloqalarni mustaqil aniqlashdan iborat bo'lgan vazifalarni bajaradi. O'quvchilar karta va boshqa qo'llanmalar vositasida yangi bilimlar eski bilimlar bilan bog'lanadi. Masalan, Afrika iqlimini o'tishda V-sinfda va yil boshida o'zlashtirishgan iqlim tushunchasi esga solinib, iqlimga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi - yangi o'quv materiallarini o'rganish suhbat. Bunda yangi mavzu o'quvchilarni ilgari olgan bilimlariga tayangan holda o'rganiladi. Mazkur suhbatning eng asosiy qismlari o'quvchilar tomonidan qaytarilishi lozim. Masalan, O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganayotganda tabiiy geografik rayonlarni ajratish tamoillariga e'tibor beriladi. Bayon qilingan metodlar o'qituvchi tomonidan xulosalanishi va mazkur materialni o'zlashtirilganligi tekshirib ko'rish lozim. Shundan so'ng o'quvchilarni mustaqil ishlarini tashkil qilish lozim; -yakunlovchi suhbat. Ma'zkur takrorlash va bilimlarni muayyan bir tartibga solish, shuningdek o'rganilgan bilimlarni umumlashtirish va chuqurlashtirish hamda kengaytirishda tatbiq etiladi. Bunda o'quvchilar xulosalar chiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Farberman. B.L. "Ilg'or pedagogik texnologiyalar". T: 2001 y.
2. Azizzodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii i pedagogicheskoe masterstvo. Ucheb.posobie.- Toshkent. TDPU 2003. - 192 s.



## RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI MATEMATIKA DARSLARIDA QO`LLASH

**Matyoqubova Rohila Shavkatovna**

Qo'shko'pir tumani 4-son maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (97) 221 25 24

rohila.shavkatovna\_2524@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola raqamli texnologiyalarni matematika darslarida qo'llash dars samaradorligini oshirishning muhim omili haqida.

**Kalit so'zlar:** Raqamli texnologiya, axborotlashtirish, matematika o'qitish metodikasi, reproduktiv metod.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng 1993-yilda ilk bor "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va shu asosida barcha sohalarida, shu jumladan umumiy o'rta ta'limda ham kompyuterlashtirish jarayonlariga keng yo'l ochildi va imkoniyatlar yaratildi. Umumiy o'rta ta'limning maqsadi hozirgi zamon talablariga javob beradigan, ilmiy, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ta'minlaydigan va yuksak ma'naviy, axloqiy sifatlarga ega bo'lgan yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar bilan ta'minlashdan iboratdir. Bugungi kunda jamiyatda raqamli texnologiyalarning ahamiyati tobora ortmoqda. ularning keng joriy qilinishi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari hozirgi zamonda har bir Davlat uchun jiddiy hayotiy masalaga aylangan. ekspertlar fikricha, kelgusi 3 yilda iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali dunyodagi 22 foiz ish o'rni axborot texnologiyalari yordamida yaratiladi.

Prezidentimizning oliy Majlisga Murojaatnomasida raqamli iqtisodiyotga faol o'tish kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. shuningdek, joriy yilning ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili deb e'lon qilangani bejiz emas.

Davlat dasturida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi oldida o'ta muhim va dolzarb vazifalar qo'yilgan.

Hozirgi zamon didaktikasida, jumladan, matematika o'qitish metodikasi fanida ta'lim metodining muammolari umumiy holda hal qilingan bo'lib, u o'zining quyidagi ikki tomoni bilan xarakterlanadi:

1) O'qitish (o'qituvchi faoliyati)

2) O'rganish (o'quvchilarning ongli bilish faoliyati) o'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil qilar ekan, uning samarali bo'lishi, o'quvchilarning mavzuni to'liq o'zlashtirishini o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. shu sababli matematika fanini o'qitishda zamonaviy darslarni tashkil qilishning turli xil noan'anaviy usullaridan foydalaniladi. Matematika fanini o'qitishda kompyuter va axborot texnologiyalarga asoslangan darslar ma'lum bir tizim asosida tashkil qilinadi. darslarni tizimli tashkil qilishda texnologik xaritada foydalanish muhim o'rin egallaydi. Texnologik xarita dars mashg'ulotini bir tizimga solib, uni amalga oshirish bosqichlarini aniqlab beradi. Texnologik xarita 4 bosqichdan iborat bo'lib, unga tayyorlov, kirish, asosiy hamda yakuniy bosqichlar kiradi. o'qituvchi mashg'ulotning tayyorlov bosqichida darsga tayyorgarlik ko'radi, ya'ni dars maqsadi, natijalarini belgilaydi, texnologik xarita tuzadi, ta'lim metodlarini, dars shaklini, baholash mezonlari va usullarini aniqlaydi. Matematika fanini o'qitishda

zamonaviy darsning texnologik xaritasini quyidagicha tuzish mumkin:

Tayyorgarlik bosqichi:

Mavzu bo'yicha o'quv materiallarini ya'ni taqdimot materiallarini tayyorlash; O'quvchilarni faollashtirish uchun mavzuga oid savollarni tuzish, slaydlar yaratish; O'quvchilarni o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish;

Mavzuga kirish: Mavzuning nomi ekranga chiqariladi va mazkur mavzuni yoritilishidan kutilayotgan asosiy natijalar to'g'risida axborot beriladi;

Mavzuni yoritish bo'yicha tuzilgan reja savollari ekran orqali namoyish qilinadi;

Reproduktiv metod orqali o'quvchilar faollashtiriladi;

Asosiy bosqich:

Mavzu mazmuni slaydlar orqali batafsil tushuntirilib, dars davomida o'quvchilarning yozib borishlari ta'kidlab o'tiladi;

Mavzuning mazmuni, undan ko'zlangan maqsad slaydlar orqali tushuntiriladi; Mavzuning amaliy ahamiyati slaydlar orqali izohlab beriladi;



Yakuniy bosqich:

Mavzu umumlashtiriladi, mavzuga oid umumiy xulosalar chiqariladi; o'quvchilar diqqati mavzuning asosiy tomonlariga qaratiladi;

o'quvchilar mavzu yuzasidan kompyuter vositasida test topshiradilar va har bir o'quvchining olgan bali o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollariga javoblar tayyorlab kelish o'quvchilarga mustaqil ish sifatida beriladi;

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T. : TDPU, 2003.
2. Ziyomuhamedov B., Abdullaeva Sh. "Matematika o'qitish metodikasi" -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000. -127b.



## BOSHLANG‘ICH TA‘LIM DARSLARINING SIFAT- SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

**Maxsudova Muqaddamxon Abduraximjonovna**

Andijon viloyati Asaka tumani

46-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim darslarida o‘quvchilar faolligini oshirish, dars samaradorligini oshirishda ko‘rgazma va tarqatmalarning o‘rni, pedagogik va innovatsion texnologiyalar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** dars, sifat, boshlang‘ich ta‘lim, ko‘rgazma, tarqatma, innovatsiya, bilim, ko‘nikma, malaka, faollik.

Boshlang‘ich ta‘lim jarayoni davlatimizning ta‘limtarbiya tizimida umumiy o‘rta ta‘limning dastlabki bosqichidir. Uning asosiy maqsadi bolalarda elementar tarzda o‘qish, yozish, hisoblash ko‘nikmalarini hosil qilishdan, obyektiv olam haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish hamda boshlang‘ich ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun uni takomillashtirish va yangi yondashuvlar bilan boyitishdan iborat. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish, o‘rganish, o‘zlashtirgan bilimlarni qo‘llash istagi va ko‘nikmalarini shakllantirishda dars jarayonida o‘qitishning samarali usullaridan, pedagogikadagi yangi o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarida bilish faoliyatiga intilishni kuchaytirish kabi masalalar hech qachon o‘z dolzabligini yo‘qotmaydi.

Bilish faoliyatiga bo‘lgan ongli intilish shakllangandagina ta‘lim jarayoni sifati va samaradorligi ortadi. Agar boshlang‘ich ta‘lim jarayoni o‘quvchida bilishga bo‘lgan ishtiyoqni shakllantira olmasa, yuqori sinflarga borgani sari o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan intilishi susayadi. Bu esa, o‘z navbatida, boshlang‘ich sinf bitiruvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanish darajasiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.


Barchamizga ma‘lumki, pedagog kasbi eng murakkab va mas‘uliyatli kasblardan biri sanaladi. Hozirgi davrda ilm-fan jadallik bilan rivojlanayotgan, texnika va texnologiyalar asrida pedagoglarimizga qo‘yilayotgan talablar yanada kuchaymoqda. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o‘z yo‘li, tamoyillari ta‘lim-tarbiya jarayonida avvalgi keksa avlod oldida turgan yangi masala va muammolarni yechish uchun zarur bo‘ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etmoqda.

Umumta‘lim maktablarida xususan, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirishda ta‘limning faol, interfaol metodlari, ta‘limiy, didaktik, rolli o‘yinlaridan foydalanish dars jarayonining samarali bo‘lishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi bilimlarni og‘zaki bayon etsa, bolalar uni tinglaydi. O‘qituvchi mustaqil ish topshirsa, o‘quvchilar bajarishadi. Bilimlarni og‘zaki bayon etish mustaqil ishlash kabilar o‘qitish metodlari bo‘lib, ular vositasida didaktik vazifalar hal qilinadi. Boshlang‘ich sinflarda ayniqsa, o‘qish, ona tili darslarida og‘zaki bayon metodlari hikoya, tasvir, suhbat, ma‘ruza metodlari eng ko‘p qo‘llaniladi. Bu metodlar evristik suhbatni hisoblamaganda, asosan, o‘quvchilarning xotirasiga mo‘ljallab tashkil etiladi. Qurilish jihatidan ularning tarkibi bir xil: o‘qituvchi tushuntiradi, bolalar tinglaydi.


Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi asosan ko‘z oldida yaqqol namoyon bo‘lib turgan narsalar to‘g‘risida fikr yuritadi. Shuning uchun sinf xonasida, maktab atrofidagi ekin maydonlarida boalarni fikrlashga, o‘ylashga, izlanib topishga undaydigan didaktik materiallar bo‘lishi, turli o‘yin mashg‘ulotlari shunga mos ravishda olib borilishi kerak.

Turli xil ko‘rgazma va tarqatmalar ham o‘quvchilar bilish faoliyatini yaxshilashga olib keladi. Darslarda turli xil ko‘rgazma va tarqatmalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish bilan birga Xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlikka ham yo‘naltiradi, mantiqiy fikrlashga, mustaqil ishlay olishga o‘rgatadi. Darslar davomida turli xil ko‘rinishdagi, o‘quvchilar bilimini oshiruvchi materiallardan foydalanish mumkin. Masalan:

1. Sayohatchi uch kunda qancha vaqt yo‘l bosib o‘tgan?



Yoki, 1 dan 9 gacha qolgan 6 ta sonni bo`sh doirachalarga shunday joylashtiringki, har bir qator doirachalari ichidagi 4 ta son yig`indisi 20 ga teng bo`lsin.



Bu berilayotgan mashqlar o`quvchilarni yanada ruhlantirib ularni fanga bo`lgan qiziqishlarining oshib borishiga sabab bo`ladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, boshlangi`ch sinflarda o`quvchilarning darsdagi faolligini oshirish maqsadida mashg`ulotlarning turli va rang-barang shakl hamda usullarda tashkil etilishi erishilgan natijalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, o`quvchilarning tashabbusi va mustaqilligini rag`batlantirish, individual qiziqishlari, ichki iqtidorini yuzaga chiqaradi. Shuning uchun ham aynan har bir darsimizda yuqorida aytilgan o`qitish metodikalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O`., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari. T.: 2005.2.
- Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. “Ta`limda innovatsion texnologiyalar.
3. N. U. Bikbayeva, E. Yangabayeva. Matematika. 4-sinflar uchundarslik. T. 2017 y.
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)





## BOSHLANG'ICH SINFLARDA МАТЕМАТИКА ДАРSLARIDAGI NOAN'ANAVIY METODLAR VA O'QITISH USULLARI

**Mo'minova Nodiraxon Xabibulloyevna**

Marg'ilon shahar 1-IDUM o'qituvchisi

Tel: 91-669-52-51

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishning noan'anaviy metod va usullari to'g'risida fikr yuritilgan. Yangi pedagogik texnologiyalarda orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'qitishdagi faol uslublar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** interaktiv metod, yangi pedagogik texnologiya, o'yinli texnologiyalar, O'quvchi Portfoliosi, didaktik o'yin, mini musobaqalar.

Darsda o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirishga, qiziqishni oshirishga va o'quv jarayonini yaxshilashga yordam beradigan noan'anaviy metodlar va o'ziga xos usullarni qo'llash kerak. Bunday metod va usullardan foydalanilganda o'quvchilar hayratga tushadi va ularning samaradorligi oshadi, ya'ni dars foydaliligaga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Noan'anaviy darslar muhim o'quv vositasidir, chunki ular o'quv faoliyatida ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi va bolalarga hissiy ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ular chuqurroq va kuchli bilimlarni rivojlantiradi. Tilga olinga metod va usullar barcha turdagi darslarga tegishli.

**Matematik diktant**

Matematik diktant o'quvchilarning darsda mustaqil faoliyatini tashkil etish usullaridan biridir. Matematik diktantlar tizimi, bir tomondan, zarur bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni, ikkinchi tomondan, ularni tekshirishni ta'minlashi kerak. Shuningdek, siz takrorlash diktantini o'tkazishingiz mumkin, bu o'quvchilarga materialni takrorlash, bilimlarni tizimlashtirish va o'rganilgan masalalar o'rtasida aloqa o'rnatish imkonini beradi. Buning uchun mavzuni o'rganishda o'quvchi qanday asosiy tushunchalarni o'zlashtirishi, qanday ko'nikma va malakalarni egallashi, qanday vazifalarni bajara olishi va bu topshiriqlarning murakkablik darajasi qanday ekanligini aniqlash kerak. Vazifalar aniq, tiniq, tushunarli bo'lishi kerak, bunga o'rganilgan ta'riflarni, teoremlarni, qoidalarni tekshirish bo'yicha savollar, oddiy masalalar va mashqlarni hal qilish uchun topshiriqlar kiradi. Bunday diktant o'qituvchiga o'rganilayotgan mavzuning asosiy masalalari o'zlashtirilganligini tekshirish imkonini beradi.

**Didaktik o'yin**

Didaktik o'yin noyob shakllardan hisoblanib, bu bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan shartli ko'ngilochar faoliyatdir. Didaktik o'yinlar - o'quv o'yinlari shaklida tashkil etilgan, o'yin va faol o'rganishning bir qator tamoyillarini amalga oshiradigan o'quv mashg'ulotlarining bir turi bo'lib, ular o'yin faoliyati qoidalari, qat'iy tuzilma va baholash tizimlari mavjudligi bilan ajralib turadi.

Ushbu o'yinlarning o'ziga xos xususiyati odatda usulning asosi sifatida ishlatiladigan o'yin holatining mavjudligi bilan o'lchandi. O'yinda ishtirokchilarning faoliyati rasmiylashtiriladi: qoidalar mavjud, qat'iy baholash tizimi bor, shuningdek, tartib-qoidalar tushuntiriladi. Didaktik o'yin shunday jamoaviy va maqsadli o'quv faoliyati bo'lib, unda har bir ishtirokchi va umuman jamoa asosiy vazifani hal qilishda birlashadi va ularning xatti-harakati g'alaba qozonishga qaratilgan bo'ladi.

**Mini-musobaqalar**

Mini-musobaqalarni faollashtirish uchun o'tkazish yaxshidir. Ularning asosiy maqsadi o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilimini tekshirishdan iborat. Raqobat ruhi har bir o'quvchini ishga jalb qiladi, chunki bu kimning jamoasi g'alaba qozonishiga bog'liq.

Har bir jamoaning o'quvchilari nafaqat vazifalarni hal qilishlari, balki hamma narsa to'g'ri bajarilganligini tekshirishlari kerak va qiynalgan o'quvchilarga kuchliroq o'quvchilar yordam berishadi. Barcha muammolarni tezroq hal qiladigan jamoa g'alaba qozonadi.

Kodlash topshiriqlari ham o'quvchilarning qiziqishini uyg'otadi: doskada misollar yonida javoblar taklif qilinadi, harflar bilan kodlanadi. O'quvchilar topshiriqlarni bajaradilar, to'g'ri javobni tanlaydilar va to'g'ri javobga mos keladigan harf kodini ochadilar. Natijada o'quvchilar shifrlangan so'zni oladilar.

**O'quvchi portfeli”**



“O’quvchi portfeli” texnologiyasi zarur fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga, ya’ni aks ettirish va o’z-o’zini kuzatishni shakllantirishga yordam beradi. O’quvchi portfeli o’quvchining o’z ijodiy, kognitiv ishini o’z-o’zini baholash, o’z faoliyatini aks ettirish vositasi bo’lib, u o’qituvchi tomonidan ishlab chiqilgan va o’quvchi uchun topshiriqlarni o’z ichiga olgan hujjatlar to’plami, o’quvchining mustaqil ishidir.

O’quvchi o’qituvchining topshirig’iga binoan yoki o’z xohishiga ko’ra darsda bajargan ishni mustaqil ravishda (testlar, matematik diktantlar, so’rovnoma, hisobotlar, xabarlar va boshqalar) yoki uyda (uy vazifasi) tanlaydi. “Portfolio” yoki ba’zi topshiriqlar o’quvchilar tomonidan tushuntiriladi: nima uchun u ushbu aniq ishlarni tanlashni zarur deb biladi. Har bir ish, shuningdek, o’quvchining qisqacha sharhi bilan birga keladi: u bu ishda (aniq topshiriqlar uchun) nimaga erishdi va nimaga erishmadi, u o’qituvchining bahosiga rozimi, ish natijalaridan qanday xulosalar chiqarishi mumkin? Bu ishda asosiy narsa o’quvchining o’zini-o’zi baholashi, asoslash, izohlash, argumentlash shaklida amalga oshiriladi. Materialni tanlash uchun ajratilgan vaqtdan so’ng yoki o’rganilgan bo’lim bo’yicha ma’lum miqdordagi ishni tugatgandan so’ng, o’quvchi sinf yoki guruhda taqdimot uchun o’zining “Portfolio”sini taqdim etadi.

Oldingi barcha mulohazalar quyidagi xulosaga olib keladi: o’quvchilarni o’qitish bilan bog’liq bo’lgan barcha narsalar, ularning bilim faolligini faollashtirish, ma’lumotlar bilan ishlash, sinfda nostandart usullar va ish shakllarini amalga oshirishda qabul qilinishi kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Ziyomhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya — zamonaviy o‘zbek milliy modeli. — T.: «Lider Press», 2009.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O‘quv uslubiy qo‘llanma// Ta’limda innovatsion texnologiya seriyasi. — T.: 2010.
3. <https://docplayer.com/43975714-Nestandardtnye-formy-i-metody-obucheniya-na-urokah-matematiki.html>



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA DARSDA FAOL O'QITISH USULLARIDAN FOYDALANISH

**Mo'minova Madinaxon Karimovna**  
Marg'ilon shahar 13-maktab o'qituvchisi  
Tel: 91-664-16-04

**Yuldasheva Mohidil Xabibullayevna**  
Marg'ilon shahar 13-maktab o'qituvchisi  
Tel: 90-040-92-02

**Annotatsiya:** Maqolada darslarda faol o'qitish usullaridan foydalanish to'g'risida fikr yuritilgan. Yangi pedagogik texnologiyalarda faol o'qitish usullaridan foydalanish qanchalik unumli ekanligi tushuntirib berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, yangi pedagogik texnologiya, o'yinli texnologiyalar, “loyiha usuli”, “aqliy hujum”, “bahs”, “turli personajlar bilan suhbat”.

Dunyoda ro'y berayotgan o'zgarishlar ta'lim va tarbiya tizimida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish, davlat standartlarini joriy etishni taqozo etmoqda. O'qituvchining oldiga yangi maqsadlar qo'yildi: universal ta'lim faoliyatini shakllantirish va o'rganish uchun motivatsiya uyg'otish. Ta'lim mazmuni unchalik o'zgarmadi, faqat o'qituvchining roli sezilarli darajada o'zgardi, u o'quv jarayonini nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish tizimi sifatida, balki shaxsiy rivojlanish jarayoni sifatida ham qurishi kerak bo'ldi. O'qituvchi nafaqat nimani va qanday o'rgatish kerakligini tushuntirishi, balki jarayonni shunday tashkil etishi kerakki, bolalar o'zlariga “Men nimani o'rganishim kerak?”, “Buni qanday o'rganishim mumkin?” degan savollarga javob topa oladi. Ta'lim har bir o'quvchi tomonidan aniq bilimlarni “kashf qilish” jarayoni sifatida qurilishi kerak. O'quvchi passiv tinglovchidan mustaqil, tanqidiy fikrlaydigan shaxsga aylanishi kerak. Bugungi kunda bolaning umumiy madaniy, shaxsiy va kognitiv rivojlanishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfda o'qitishning eng samarali faol usullari quyidagilardir:

1. An'anaviy darsning noan'anaviy boshlanishi – bu dars uchun hissiy kayfiyat (epigraf, kostyumli ko'rinish, videoklip, uvertura, rebus, topishmoq, anagramma), maqsadlarni, umidlarni, qo'rquvlarni aniqlaydi.

2. Muammoli masalalarni bayon qilish va yechish, muammoli vaziyatlarni yaratish. Darslarda qo'llaniladigan muammoli vaziyatlarning turlari: ajablantiradigan vaziyat; mojaro holati; rioya qilmaslik holati; noaniqlik holati; taxminiy holat; tanlov holati.

3. Dam olish va xatti-harakatlar bo'yicha xulosalarni tashkillash.

4. O'quv materiali taqdimoti - axborot texnologiyalari, elektron o'quv qurollari, interfaol doskalar va boshqalardan foydalanish.

5. Induktiv va deduktiv mantiqiy sxemalardan foydalanish.

6. Interaktiv ta'lim deb ataladigan shakllardan yoki ularning elementlaridan foydalanish: “loyiha usuli”, “aqliy hujum”, “bahs”, “turli personajlar bilan suhbat”.

7. Elementlar - “zest” (o'quv anekdoti, intellektual mashq, multfilmlar, epigrammalar).

8. O'quvchilarga shaxsga yo'naltirilgan va individual differentsial yondashuvni amalga oshirish, maktab o'quvchilarining jamoaviy faoliyatini (juftlik, doimiy tarkibdagi guruhlarda, smenali guruhlarda ishlash) va bolalarning mustaqil ishlarini tashkil etish.

9. Mashg'ulotlarning noan'anaviy turlari: ma'ruza, ekskursiya, ertak darslari, konferensiya darslari, tadqiqot darslari, loyiha faoliyati va boshqalar.

10. O'yinlar, o'yin lahzalari (rol o'ynash, taqlid qilish, didaktik).

Shunday qilib, faol o'qitish usullaridan foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etishni ta'minlashga imkon beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ziyomhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya — zamonaviy o'zbek milliy modeli. — T.: «Lider Press», 2009.

2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O'quv uslubiy qo'llanma// Ta'limda innovatsion texnologiya seriyasi. — T.: 2010.

3. <https://solncesvet.ru/opublikovannyie-materialyi/primeneniie-aktivnyh-metodov-obucheni/>



## МАКТАВ PEDAGOGLAR JAMOASIDA STRESSLARNI BARTARAF QILISH OMILLARI

**Nazarova Muhayyo Mahmudovna**

Xorazm viloyati Urganch tumani

15-sonli maktab.

Amaliyotchi psixolog

**Annotatsiya:** Pedagogning mutaxassis sifatida salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yoʻlida olib boradigan amaliy harakati uning oʻz ustida ishlashini ifodalaydi.

**Kalit soʻzlar:** Pedagog, maktab, stress, nizo, chora-tadbir.

Pedagogning mutaxassis sifatida salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, stresslarni bartaraf etish choralarini izlash yoʻlida olib boradigan amaliy harakati uning oʻz ustida ishlashini ifodalaydi.

Oʻqituvchi tarbiyachi yoshlarning yetakchisi sifatida maktablarda tom maʼnoda oʻzining ijodiy vazifalarini toʻliq bajarishni taʼminlashi va pedagogik yoʻnaltirilganligini shakllantirishi kerak.

Pedagogik jarayondagi muhim hodisalardan biri-**nizo** hamda **stress** sanaladi.

**Pedagogik nizo** bu oʻqituvchi bilan oʻquvchi oʻrtasida muammolar tortishuvlar, kelishmovchiliklar boʻlib oʻqituvchi shu muammolarni oldini olishi, unga yoʻl qoʻymasligi va shu muammolarni yechimini topishi kerak.

*Pedagogik nizo bir qator belgilarga ega. Unga xos boʻlgan asosiy belgilar quyidagilardir:*

inqiroz; anglashilmovchilik; kutilmagan hodisa; zoʻriqish; noqulaylik; ichki yoki tashqi xavotir; bartaraf etish qiyin boʻlgan qoʻrquv.

*Pedagogik nizolarni keltirib chiqaruvchi omillar quyidagilar:*

axborot omili; munosabat omili; hulq omili.

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy oʻqituvchilik kasbini yer yuzidagi har qanday kasbdan koʻra yuqoriroq darajada turadigan faxrli kasb hisoblaydi. A.Navoiyning fikricha gohida bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga ojizlik qiladi. Muallim esa, bir guruh bolalarga ilmu adab oʻrgatadi. Bu jarayonda muallim koʻp aziyat chekadi, mashaqqatlarni oʻzboshidan kechiradi. Shu bois shogirdlar ustoz oldida umurbod qarzdor ekanliklarini his etishlari darkor. Shogird podsholik martabasiga erishsa ham, muallimga qulluq qilsa arziydi deydi. Hazrat A.Navoiy bolalarga yaxshilik qilish, oʻqituvchilik shaʼni, qadr qimmatini, oʻqituvchilik maʼsuliyati, oʻqituvchilik vijdoni, talabchan va adolatli boʻlishi oʻqituvchining maʼnaviy qiyofasi halololigi, pokligi, rostgoʻyligi kabilar oʻqituvchi axloqining muhim fazilatlarini hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta oʻzlashtirishi boʻlajak oʻqituvchi uchun kattaamaliyot ahamiyat kasb etadi. Ota- bobolarimiz doimo yaxshi niyat yaxshi orzu istaklar bilan yashaganlar. Oʻzlaridan yaxshi nom qoldirishga intilganlar. Pedagogik nizo psixologik nuqtai-nazardan olib qaraganda pedagogika va psixologiya fanlari bir-biriga uzviy bogʻliqdir. Ularning har ikkisi, bitta umumiy jarayonni-insonni psixik faoliyati hamda uning xulq-atvorini tadqiq etadi. Zamonaviy oʻqituvchi ijtimoiy psixolog boʻlmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham oʻquvchilar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarini yoʻlga solaolishi, bolalar jamoasida ijtimoiy-psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarurdir. Shaxs shakllanishida u yashayotgan muxit kishilar jamiyatning roli juda kattadir. **Birinchiidan aytganda.** Ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar odamning ongiga bevosita taʼsir qilib, unda chuqur qoldiradi. Oʻqituvchi bolalarni psixikasini va xarakterini oʻrganadi.

Psixologiyada 4 ta temperament mavjud. Har bir shaxs shu 4 ta temperamentdan biriga ega boʻladi.

1. Xolerik temperament.

2. Melanxolik temperament.

3. Sangvinik temperament.

4. Flegmatik temperament.

Pedagogik nizolarning asosiy turlari

1. Ichki shaxsiy nizo.

2. Motivatsion nizo. Amalga oshirilmagan faoliyat nizosi.

3. Axloqiy nizo. Shaxslararo va guruhlararo nizolar.



Davomiyligiga ko‘ra pedagogik nizolar bir necha turlarga bo‘ladi. Ularning asosiy turlari quyidagilardir:

Tezda yakun topadigan nizolar; kuchsiz, sust kechadigan nizolar; uzoq muddat davom etadigan nizolar; kuchli, tezkechadigannizolar.

Nizoni hal qilishning pedagogik va ma‘muriy usullari

*Nizoni hal qilishning pedagogik usullari:*

- 1) suhbat;
- 2) iltimos;
- 3) ishontirish;
- 4) nizoga kirishuvchilarga qo‘yilgan talablar yoki ishtirokchilarning xatti-harakatlari noto‘g‘riligini tushuntirish va b.

*Nizoni hal qilishning ma‘muriy usullari:*

- 1) nizoga kirishuvchilar manfaatlarini kuch bilan bostirish;
- 2) ularni boshqarishga o‘tkazish;
- 3) nizo qatnashchilarini turli ko‘rinishlarda o‘zaro ajratish;
- 4) axloq komissiyasining qarori;
- 5) rahbar buyrug‘i;
- 6) sud qarori.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. A.I.SHerbakova. Praktikum po vozrastnoy i pedagogicheskoy psixologi. Pod. red. M.2016y.
2. Gaziev E.G. “Upravlenie uchebnoy deyatelnostyu shkolnikov”. T.2016 y.
3. Gonobolin F.N. Knigaob uchitele. M.2015 y.
4. Krutetskiy V.A. Psixologiyaobucheniya i vospitaniya shkolnikov. M.2016y.
5. Petrovskiy A.V. Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya. M.2019.
6. Xrestomatiya po vozrastnoy i pedagogicheskoy psixologii. M.2019 y.





**ONA TILI DARSLARINI TO‘G‘RI TASHKIL QILISH: SIFAT VA SAMARADORLIK.**

**Nazarova Maloxat Isomiddinovna**

**Boboyorova Husniya Abdullayevna**

O‘qituvchi. Navoiy viloyati Zarafshon shahar 12- maktab

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ona tili darslarini to‘g‘ri tashkil etish, sifat va samaradorlikka ta‘sir, darslarda qo‘llaniladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalar va ularni mavzuga mos qo‘llash usullari, darslarning sifat va samaradorligini oshirish yo‘llari haqida.

**Kalit so‘zlar:** dars, sifat va samaradorlik, usul, uslub, tezkorlik, fikrlash qobiliyati.

Bilamizki, ona tili darslari o‘quvchilar savodxonligini oshirishda asosiy o‘rinni egallaydi. O‘quvchilarning nafaqat tog‘ri yozish qoidalariga amal qilishi, balki savodxonligi, so‘zamolligi, fikrlash qobiliyatining oshishi ham ko‘p jihatdan ona tili darslarining to‘g‘ri tashkil qilinishiga bog‘liq. Ajdodlarimiz ham asrlar davomida ona tilimizning to‘g‘ri talaffuz qilinishi, to‘g‘ri yozilishi ustida ish olib borganlar. O‘quvchilarni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, savodxon qilib kamol toptirishda ham ona tilimizning o‘rni beqiyos. O‘quvchilarni fanga qiziqishlarini oshirishda interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Hozirgi globallashuv jarayonida o‘quvchilarga mavzu yuzasidan berilayotgan ma‘lumotlarni oddiy usullarda yetkazish kamlik qiladi. Darslarni tashkil qilishda noan‘anaviy usullardan foydalanish darsning sifat va samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Hamda o‘rganilgan bilimlar o‘quvchilar ongida saqlanadi. Har bir mavzudan kelib chiqqan holda interfaol usullar tanlanishi kerak. Ona tili darslarida juda ko‘p didaktik o‘yinlardan ham foydalansa bo‘ladi. Bulardan ayrimlarini ko‘rib o‘taylik.

”Qaysi biri ortiqcha” muhokama testi. Bunda o‘quvchiga quyidagi usulda test beriladi: Quyidagilardan qaysi biri ortiqcha? A) Baland tog‘ B) Oppoq qor C) ko‘p kitob D) Mevali daraxt

Xuddi shu savolni mantiqiy usulda rasmlar orqali berish ham o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari ushbu usulda o‘quvchilar fikrlash qobiliyatlarini oshirish maqsadida yana qo‘shimcha topshiriq berish mumkin. Shu 4la so‘zdan 3tasini birlashtiruvchi gap tuzish, shu so‘zlarga bir nechta ta‘rif berish. Masalan: 1- so‘zga Tog‘: Bland, viqorli, qorli, ko‘k, chiroyli, alp va hokazo. Bunda o‘quvchilarning topqirlik va zukkolik qobiliyatlari ham oshadi. Hamda o‘z tengdoshlaridan orqada qolmaslik uchun ham harakat qiladilar.

”Qoidali diktant” usuli. Bu usulda o‘quvchilarga darsning “O‘tilgan mavzuni takrorlash” qismida egallagan bilimlarini, ya‘ni o‘tilgan mavzu bo‘yicha berilgan qoidalarni qay darajada bilishlarini sinash mumkin, hamda diktant yozish orqali savodxonliklari ham tekshiriladi, ham oshiriladi. ”Qoidali diktant” usuli quyidagicha bo‘ladi: O‘quvchilarga o‘tilgan mavzudagi qoidalar asosiy bitta so‘zi tushirib qildirilib yoziladi. O‘quvchilar ana shu so‘zni topishlari kerak bo‘ladi. Masalan: 1. Zidlov bog‘lovchilari bog‘langan qo‘shma gap qismlarni bog‘lash bilan birga ular o‘rtasida ... munosabatlari mavjudligini ifodalaydi. 2. Zidlov bog‘lovchilari qo‘shma gapning .... qismida qo‘llaniladi va qo‘shma gap qismlari ... bilan ajratiladi, vahokazo.

Muhokama usuli: Suhbatlashish, savolarga javob topish va oydinlik kiritish, savollar berish, ma‘lumotni o‘zaro muhokama qilish yo‘li bilan tahlil qilinadi. Ona tili darslarining to‘g‘ri tashkil qilinishi darsning sifat va samaradorligiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Pedagogik mahorat. (O‘quv qo‘llanma) U. Mahkamov, N. Tilaboyeva
2. Tolipov. Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari ( Toshkent 2005)
3. “Innovatsion texnologiyalar : nazariya va amaliyot” (Toshkent 2011)



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA ONA TILI FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH**

**Nigora Normetova Abdullayevna**  
Urganch tuman 19- son maktab  
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalanilish haqida ma'lumotlar berilgan.

*Kalit so'z:* botanika, o't, archa, guruh, daraxt, buta, o't, topshiriq, o'simlik.

Fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosini hal etish uchun fanlarning paydo bo'lishi tarixi va ularning taraqqiy etishini anglab yetmoq zarur. Buning uchun fanlarning rivojlanish tarixini bilish lozim. Ana shunda fanlarni integratsiyalab o'qitish muammosining hozirgi holatini, fanlarning paydo bo'lish tarixi va taraqqiyoti qanday bo'lganligini, kelgusida qanday fanlar bo'lishi lozimligi haqida fikr yuritish mumkin.

O'quv jarayonini tashkil etishdagi asosiy vazifa pedagogik texnologiyadan samarali foydalanish ekanligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ammo shu kunga qadar pedagogik texnologiyaning aksariyati nazariy muammolarga bog'ishlangan bo'lib, uning amaliyotga ta'siri kamroq sezilmoqda. Buning uchun zamonaviy texnologiyalarni tezroq amaliyotga joriy etish usullarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ona tilini biologiya fani bilan bog'lab o'rganish. Masalan: Dars jarayonida o'quvchilarni 2 guruhga bo'lish mumkin.

1-guruh ona vatanimizda o'sadigan adirlardagi o'simliklarni yozadilar andiz, shirach, kakra, qo'ziquloq va hakazo.

2-guruhdagilar tog' o'simliklarini: archa, terak, qayin, na'matak, bodomcha va hakazo. So'ngra topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. O'simliklar nomi bilan so'z birikmalari hosil qilish: yashil archa, qari terak, shifobaxsh shirach.

2. Hokim va tobe so'z tarkibi kengaytiriladi. Baland yashil archa. Shifobaxsh shirachlarni yig'ib oldilar.

3. Gaplarni kengaytirib matn tuzish mumkin. "Qo'shma so'zlar" mavzusini bolalarga har tomonlama puxta tushuntirishda botanika fani materiallaridan keng miqyosda foydalanish darsni yanada qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Masalan: "Botanika" kitobida o'simliklarning ro'yxati berilgan. Unda keltirilgan so'zlarning 47 tasi o'simliklarning nomi qo'shma so'zlardir. Anjirpiyoz, atirgul, boychechak, kampirkanop, ituzum, oqjo'ra, sallagul, dalachoy, qirqbo'g'im, chinnigul singarilar shular jumlasidandir

Ot+otdan	sifat+ot	son+otdan
Boychechak	shirimiya	qirqbo'g'im
Dalachoy	oqjo'xori	Uchqat

Qiyoslash	rang-tus	Miqdor
Kartoshkagul	qora-qat	
Anjirgul		

maza-ta'm	o'rin-joy	iste'mol qilish mumkin
sassiq kovak	yeryong'oq	Ituzum
Shirinmiya	suvqalampir	kiyiko't
Achchiqmiya		



Shunday qilib til materiallarini berishda botanikadan olingan bilimlarga tayanib ish ko‘rish bu fanning o‘rganish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Jo‘rayev R.H. va bosh. Yangi pedagogik texnologiyalar. –Toshkent, 2005. -49 b.
2. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o‘qitishning pedagogik texnologiyalari to‘plami / Met.qo‘ll. - O‘rtamaxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimida innovatsion texnologiyalar seriyasidan.– T.:TDIU, 2013



## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARINI INTERFAOL USULLAR YORDAMIDA TASHKIL QILISH

**Norboyeva Sohiba Xalilovna**

Samarqand viloyati Nurobod tumani

9-umumiy o' rta maktab

boshlang'ich sinf o' qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda interfaol usulda matematika darslarini o'quvchilarga yetqazish hamda matematik masalalarni innovatsion usulda o'qitish haqida fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** Matnli masalar, matematik tushunchalar, arifmetik amallar, sodda masalalar, o'quvchilarning fikrlash qobiliyati.

Matnli masalalar yechish bolalarda avvalo, mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish ularning programmada belgilab berilgan nazariy bilimlarini o'zlashtirish bilan birga o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Masalan: Agar biz o'quvchilarda qo'shish haqida to'g'ri tushuncha shakllantirishni istasak, buning uchun bolalar yig'indisini topishga doir etarli miqdorda sodda masalalarni deyarli har gal to'plamlarni birlashtirish amalini bajarib echishlari zarur. Masalan: quyidagi masala berilgan. Ahmadda 6 ta rangli va uchta oddiy qalam bor. Ahmadda hammasi bo'lib nechta qalam bor?

Buni yechish uchun oldin 6 ta cho'p oladilar va buning yoniga yana 3 ta cho'pni surib qo'yadilar, va hammasi bo'lib nechta cho'p bo'lganini sanaydilar. So'ngra masalani yechish uchun 6 ga 3 ni qo'shish kerkligi va hosil bo'lgan 9 son bu ikki sonning yig'indini bo'lishni tushuntiradi.

Shunga o'xshash masalalarni ko'plab yechib bolalar qo'shish amali haqidagi tushunchalarni asta sekin egallab boradilar va uni umumlashtirish asosida qo'shish uchun ularni birga sanash kerakligini tushunadilar. Masalan: amalning noma'lum kamponentini topishga doir masalani yechayotib o'quvchilar arifmetik amallar kamponentlari va natijalar orasidagi bog'lanishni ajratish va uni masalalar echishga qo'llashga harakat qiladilar.

Masalalarda aniq material bo'lib ular yordamida o'quvchilarda yangi bilimlar vujudga keladi hamda uni echish jarayonida fikrlash amallarini bajarishga o'rganadilar. Bunga 1-sinf matematika kursidagi sodda masalalardan keltiramiz 1. Bir likopchada 8 ta, ikkinchi likopchada birinchidagidan 2 ta ortiq anor bor. Ikkinchi likopchada nechta anor bor?

1- likopchada 8 ta anor, 2-chisida 2 ta ortiq.

Yechish:  $8+2=10$  ta.

Javob: Ikkinchi likopchada 10 ta anor bor.

2. Bir idishda 10 l, ikkinchisida 3 l kam paxta yog'i bor. Ikkinchi idishda necha litr paxta yog'i bor?

1-idishda— 10 l

2-idishda - ? -3 l kam.

Yechish:  $10-3=7$ l

Javob; Ikkinchi idishda 7 litr paxta yog'i bor.

Mavjud bilimlar va fikrlash qobiliyatlar tadbiiq qilinishi jarayonida mustahkamlanib boradi. Masalalarni shakllantirishda aniq material bo'lgan holda nazariyani amaliyot bilan o'qitishni turmush bilan bog'lab olib borish imkonini beradi. O'quvchi masalalarni yechayotganda ko'p matematik tushunchalar aniq hayotda odamlarning tajribasida o'z ildizi ekanligiga ishonch hosil qiladi.

Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat – dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ – ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi .

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media – ta'lim metodlaridan iborat.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar



keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz:

Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellekual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi

Mashg'ulot oxirida bolalarga topishmoq, hikoya va masalani qaytadan tuzish uchun nima qilish kerakligini o'ylash taklif etiladi. O'rgatishning bu bosqichida birinchi mashg'ulotda bolalar qo'shish hamda ayirishga oid masalalarni echadilar, qo'shish va ayirishga oid masalalar ketma-ket tuziladi. Javobni sonlar o'rtasidagi bog'lanishdan va munosabatlarni tushunchaga asoslanib topadilar.

Xulosa o'rnida aytish lozimki, boshlang'ich sinflarda o'tiladigan matematika darslarida turli xil masalarga keng joy ajratilgan. Sababi, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyati uning tushunchalarni tezda anglab olish ko'nikmasini sahkllantirishda masalalarning o'rni beqiyos sanaladi. O'qituvchi esa dars jarayonida o'tiladigan masalarni o'quvchiga to'g'ri va aniq yetkazib berishda yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lmog'i hamda darslarni qiziqarli o'yinli texnologiyalar orqali tashkil etib o'quvchilarni darsga qiziqitira olishi muhim omil sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
2. Tolipov O'.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: “Fan”. 2005.





ТА’ЛИМДА INNOVATSIYALAR. DIDAKTIK O’YIN TEXNOLOGIYASI.

**Nurmatova Zrofatxon Ergashboyevna**  
Farg’ona viloyati Farg’ona tumani 62-maktab  
kimyo fani o’qituvchisi  
**Asqarova Mahmuda Nomozovna**  
matematika fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta’limdagi innovatsiyalar va didaktik o’yinlarning muhim jihatlari haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so’zlar:** innovatsiya, interfaol metodlar, didaktik o’yinlar

**Innovatsiya (inglizcha innovation)** - yangilik kiritish, yangilikdir. A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg’un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o’zgarishlarni tushunadi. Bu innovator faoliyatidir.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritish bo’lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to’liq foydalaniladi.

**Interfaol metodlar** - bu jamoa bo’lib fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo’lib ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o’ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog talabalarning birgalikda faoliyat ko’rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqotchilar (AL. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G.Kruglikov, A.S.Axiezer, N.P.Stepanov va boshqalar) innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o’rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o’zaro ta’siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g’oya yoritiladi. Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangilarning o’zaro ta’siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o’rnini ikkinchisi egallashidir. Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o’lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

V.A.Slastyonin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo’naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi esa insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi.

Yangilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I.Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga yangilik kiritish oddiy ishlab chiqish sifatida kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o’zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko’lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o’zaro ta’sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada «yangi» tushunchasi markaziy o’rin tutadi. Shuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub’ektiv yangilikka qiziqish uyg’otadi.

Yangilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

Ta’lim jarayonida didaktik o’yinli texnologiyalar didaktik o’yinli dars shaklida qo’llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o’yin faoliyati orqali uyg’unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta’lim olish faoliyati o’yin faoliyati bilan uyg’unlashgan darslar didaktik o’yinli darslar deb ataladi.

Didaktik o’yinli mashg’ulotlarni talabalarning bilim olish va o’yin faoliyatining uyg’unligiga qarab: syujetli-rolli o’yinlar, ijodiy o’yinlar, ishbilarmonlar o’yini, konferentsiyalar, o’yin-mashg’ularga ajratish mumkin.

O’qituvchi-pedagog avval talabalarni individual (yakka tartibdagi), so’ngra guruhli o’yinlarga tayyorlashi va uni o’tkazishi, o’yin muvaffaqiyatli chiqqandan so’ng esa, ularni ommaviy o’yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki talabalar didaktik o’yinli mashg’ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishlari, bundan tashqari, guruh jamoasi o’rtasida hamkorlik, o’zaro yordam vujudga kelishi lozim.

O’yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.



O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi.

O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

D.N. Uznadzening ta'rificha, o'yin shaxsga xos bo'lgan ichki immanent psixik (ruhiy) xulq shaklidir.

L.S. Vigodskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi.

A.N. Leontev o'yinga shaxsning xayoltdagi amalga oshirib bo'lmaydigan qiziqishlari (manfaatlari)ni xayolan amalga oshirishdagi erkinligi sifatida qaraydi.

Psixologlar ta'kidlaydilar ki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: TDPU. 2006 y.
2. Madyarova S. A. va boshq. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.- T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009, 240 b.
3. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: “Moliya ” nashriyoti, 2003 y. – 171 b.



ТА’ЛИМ МУАССАСАЛАРИДА АХЛОҚИЙ ТАРБИЯНИ АМАЛГА ОШИРИШ  
УСУЛЛАРИ

**Nurmetova Shahnoza Quvondiq qizi**

Xorazm viloyati Xonqa tumani 33-son maktabning  
Tasviriy san’at va chizmachilik fani o’qituvchisi

**Jumabayeva Umidaxan Otabayevna**

Xorazm viloyati Xonqa tumani  
33-son maktabning Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Jumaniyazova Kumush Sotimovna**

Xorazm viloyati Xonqa tumani  
33- maktabning Boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktab o’quvchilari o’rtasida odob-axloq qoidalarini targ’ib qilish, ularga qat’iy rioya etish talablari haqida, o’qituvchi va o’quvchilar orasida bo’ladigan tarbiyaviy jihatlar haqida so’z boradi.

**Kalit so’zlar:** maktab, tarbiya, ta’lim, o’quvchi, o’qituvchi, odob - axloq, faoliyat, axloqiy tarbiya, pedagogika, bahs-munozara.

Tarbiya – yosh avlodni muayyan maqsad yo’lida har tomonlama o’stirish, uning ongi va xulq-atvorini tarkib toptirish jarayonidir.

Tarbiya jarayoni o’zaro bog’liq bo’lgan ikki faoliyatni-o’qituvchi va o’quvchi faoliyatini o’z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o’quvchining ongi shakllana boradi, his va tuyg’ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo’lgan va ijtimoiy aloqalarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo’ladi.

Tarbiya jarayonida bolalarning hayoti va faoliyatini pedagogik jihatdan to’g’ri uyushtirish g’oyat muhimdir. Tarbiya jarayonida o’quvchining onginigina emas balki his-tuyg’ularini ham o’stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo’yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim.

O’quvchilarda axloqiy tushuncha va e’tiqodlarni tarkib toptirmay turib, axloqiy odatlarni hosil qilib bo’lmaydi.

Axloqiy tarbiya murakkab jarayondir. Bunda dastlab bolalarga axloq, odob me’yor qoidalari mazmuniga oid bilim berishga e’tibor beriladi. Avvalo o’quvchini yaxshi bilan yomonni farq qilishga o’rgatish uchun unga odob va odobsizlik haqida tushuncha beriladi, kichik hikoya qahramonlarining odobli va odobsizlik hatti-harakatlariga oid na’munalar keltiriladi va so’ngra yaxshi odatlarni hosil qilishga qaratilgan faoliyat uyushtiriladi. O’quvchi axloqiy tushunchalarni badiiy adabiyotdan, hayotdan, kinofilm va teatr mazmunidan va turli- tuman suhbatlardan bilib boradi. Shular asosida unda axloqiy mulohaza tarkib topib boradi, kishilarning xulqini, voqealarni to’g’ri baholashga o’rganadi. O’z xulqini muhokama qilish va baholashdan ko’ra boshqalarning xulqini muhokama qilish ancha oson. Ammo bolani o’z-o’zini kuzatishga o’rgatish nihoyatda muhim. Shuning uchun bolalarni 1- sinfdan boshlab o’z xulqini axloqiy jihatdan baholashga o’rgatib borish kerak. Nima uchun mehnatni sevish va maktab mulkini ehtiyot qilish kerakligini, mehnatkash kishilarga hurmat bilan qarash, rostgo’y, sofdil, vijdonli, kamtar bo’lishning ma’nosini o’quvchi tushunib, anglab olishi lozim. Buning uchun darslarimizda: “Mardlik va qo’rqoqlik”, “Yolgonchilik va rostgo’ylik”, “Mehnatsevarlik va oliftalik” kabi xislatlar ilgari surilgan mavzular asosida bolalar bilan bahs-munozaralar uyushtirish mumkin. O’qituvchi o’quvchilar o’rtasida bahs-munozaraning qizg’in davom etishi uchun rivojlantiruvchi savollar orqali boshqarib boradi. Bu xil munozaralarda ularga faktlar keltirish va isbotlash, xatolarni to’g’irlashga yordam berish g’oyat muhimdir.

O’quvchiga ta’sir etish va shunga muvofiq uning xulqidagi o’zgarishni o’rganish bilan uning onglilik darajasining o’sishini ham aniqlash mumkin. Masalan: O’quvchi vazifalarini bajarib bo’lgach, uni o’zi baholasin va nima uchun shu xil ball bilan baholanganligini tushuntirib bersin. Shu tarzda o’quvchini o’z xulqini baholashga o’qishda, mehnatda, hayotda muvaffaqiyatga erishish o’zining shaxsiy fazilatiga bog’liq ekanligini anglashga o’rgatish mumkin bo’ladi. Buning uchun masalan, bolalarga o’z ishlarining natijasini alohida kundalikka yozib borishni tavsiya qilish mumkin. Kundalikda “Bugun qanday yaxshi ish qildim?”, “Bugun qanday yomon ish qildim?”,



“Ozimdagi qaysi fazilatni tuzatishim kerak?” degan uch bo’lim bo’lishi mumkin. Kundalikda haftaning oxirida “O’tgan haftadan qanoatlanamanmi?”, “O’zimni jazolashim kerakmi yoki mukofotlashim?” degan savolga javob yozishni tavsiya qilish mumkin. Sinf rahbari soatida yoki individual suhbatlarda bu yozuvlar tahlil qilinadi.

O’quvchining o’qishga munosabati uning o’z-o’ziga munosabati bilan uzviy bog’liq. Kundalik yuritish bolani ana shu aloqani anglashga va o’z-o’zini nazorat qilishga o’rgatadi.

O’quvchilarni axloqiy ruhda tarbiyalash ularning xarakter xislatlarini tarkib toptirish bilan chambarchas bog’liqdir. Bu xislatlar maqsadga intiluvchanlik, o’qish va ishda matonatlik, qat’iyat, tashabbuskorlik, uyushqoqlik, qiyinchiliklardan qo’rqmaslikni tarbiyalaydi. O’quvchilarda bu sifatlar turli xil faoliyat jarayonida - o’qishda jamoat ishlarida ishtirok etish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanish, sinfdan tashqari ishlarda tashabbus ko’rsatib qatnashish orqali shakllanadi. Axloqiy tarbiyada uning natijasini hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega.

Axloqiy tarbiyaning natijasini belgilashda va baholashda ayrim maktablarda o’tkazilgan tadbirlar soni (nechta suhbat, ekskursiya, bahs-munozara va hakazo)ga qaraladi. Bu bolalarda qanday fazilatlar hosil qilgani yoki mustahkamlanishiga sabab bo’lganligi hamisha ham inobatga olinavermaydi. Ko’p joylarda tarbiyaning natijasini aniqlashda o’quvchilar xulqiga qo’yilgan baho asos qilib olinadi. Bizningcha, o’quvchining axloqiy tarbiyalanganligi natijasini hisobga olishda va baholashda uning ijtimoiy faolligi, muomala va aloqalari, ma’naviy yo’nalishi va xulqida barqaror, mustahkam axloqiy sifatlari mavjudligi va ifodasi asosiy ko’rsatkichdir. O’quvchining axloqiy tarbiyalanganlik darajasini faqat shaxsni har tomonlama o’rganish asosidagina eng to’g’ri va mukammal baholash mumkin...

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Maktablarning odob – axloq qoidalari.
2. Umumta’lim fanlari DTS.
3. Maktablarning tarbiya fani darsliklari.
4. Internet materiallari.



## “EKOLOGIYA VA SALOMATLIK” MAVZUSINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARDA GIGIYENIK TUSHUNCHALARINI SHAKILLANTIRISH

**Olimov Xurshid Avazbekovich**

TFI akademik litseyning biologiya fani o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Hozirgi vaqtda akademik litseylarda “Ekologiya va salomatlik” mavzusini o‘qitishda gigiyenik tushunchalarni shakillantirish uchun innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida o‘qitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Akademik litseylarda “Ekologiya” fanidan nazariy, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida interfaol metodlardan, grafik organayzerlardan foydalanib o‘qitishdagi taqdimot, glossariy, nazorat topshiriqlariga alohida e‘tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

**Kalit so‘z:** Ekologiya, salomatlik, modernizatsiya, meliorativ holat

“Ekologiya va salomatlik” mavzusini o‘qitishda o‘quvchilarda gigiyenik tushunchalarini va malakalarini shakillantirish, ekologik muommalar va ularning yechimlari, atmosfera va suvning ifloslanishi, kimyoviy o‘g‘itlar natijasida o‘simliklar tarkibining o‘zgarishi, o‘quvchilarni atrofda ekologik muhit bilan tanishtirish, yuqumli kasalliklarning oldini olish, avtotransport vositalari va korxonalaridan chiqadigan gazlarning inson organizmiga salbiy ta’siri, shahar havosini toza holda saqlash, sanitariya va gigiyena normalari haqidagi bilimlarni o‘quvchilarga tushuntirish va malakalarini shakillantirishga asos bo‘ladi. Ekologiyani o‘qitish hozirgi paytda insoniyat oldida turgan muhim muammolardan biri tabiatdagi biologik xilma-xillikni asrash, ekologik barqarorlikni ta’minlash, global iqlim o‘zgarishlarining salbiy ta’sirini yumshatish sanaladi. Inson salomatligiga tahdid solayotgan allergik, yuqumli va epidemiologik kasalliklarning oldini olish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash, suv va boshqa resurslarni tejaydigan zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish usullari bilan tanishtirish imkonini beradi. Kasallik va zararkunandalarga chidamli qishloq xo‘jaligi ekinlarining yangi navlarini hamda yuqori mahsuldorlikka ega hayvon zotlarini yaratish lozim. Ushbu vazifalarni bajarish bugungi kunda o‘rta maktabda tahsil olayotgan, kelgusida yetuk mutaxassis bo‘lishga bel bog‘lagan yoshlar zimmasiga yuklanadi. Mazkur muammolarni muvaffaqiyatli hal etishda tibbiyot, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy boyliklardan oqilona foydalanishning nazariy asoslari bo‘lgan biologiya fanining qonuniyatlari, fan yangiliklari va qo‘lga kiritilgan yutuqlarni o‘rganish va amaliyotda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ekologiya” fanini o‘qitishda o‘quvchilarga gigiyena tushunchasi shakillantirish uchun interfaol mashg‘ulotlar o‘ziga xos tashkiliy tuzilishga ega bo‘lib, uni tashkil qilish va olib borish bo‘yicha faoliyat turlari alohida ajratilgan va har biri bo‘yicha alohida vazifalar shaklida nomlar berilgan. Bunda bir mashg‘ulot jarayonida shu mashg‘ulotni olib boruvchi bir vaqtda ushbu turli vazifalarni bajarishi ko‘zda tutiladi. Interfaol metodlarning o‘qitishning mohiyati-o‘rgatuvchi ham, o‘rganuvchi ham ma’lumotlar bilan faol ishlashi – o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi va o‘rgatuvchi-o‘qituvchiga “o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish ushun” xizmat qilsa, o‘quvchilarga esa, “fikrlashni o‘rganish ushun” xizmat qilishi interfaol usullarining mazmun va mohiyati hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishankulov, M.Umaralieva. “Biologiya” darslik. Toshkent 2018 yil
2. K.H.Roziqov, S.S.Negmatov “Atrof-muhit ekokimyosi” T. Universitet.2012- yil
3. Tursunov Hasan “Ekologiya” Toshkent 2009 yil
4. X.Abdukarimov. “Dars tahlili va uning metodikasi” Toshkent-2010yil





## BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHNING FAOL USLUBLARI

**Omonova Matlubaxon Sobirjonovna**

Marg'ilon shahar 26-maktab o'qituvchisi

Tel: 99-603-33-29

**Axmadaliyeva Xabibaxon To'xtasinovna**

Marg'ilon shahar 26-maktab o'qituvchisi

Tel: 99-769-67-78

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishning faol uslublari to'g'risida fikr yuritilgan. Yangi pedagogik texnologiyalarda orqali boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika fanini o'qitishdagi faol uslublar ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** interaktiv metod, yangi pedagogik texnologiya, o'yinli texnologiyalar, Kulgili masxarabozlar, Kirpi uslubi, Ertaklar bo'ylab sayohat o'yini.

Maktab o'quvchilariga matematikani o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan o'quv jarayonini tashkil etish shakllarini tanlashga bog'liq. Faol ta'lim usullari - bu quyidagi asosiy xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarning o'quv va kognitiv faoliyatini tashkil etish va boshqarish usullari majmui hisoblanadi:

majburiy ta'lim faoliyati;

o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda yechimlar ishlab chiqish;

o'quvchilarni o'quv jarayoniga yuqori darajada jalb qilish;

o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqot orqali doimiy ishlash va mustaqil ta'lim ishlarini nazorat qilish.

“Kulgili masxarabozlar” interaktiv metodi

O'yindan mavzular bo'yicha bilimlarni o'rganish, mustahkamlash va yangilashda butun sinf bilan frontal ish uchun og'zaki hisob sifatida foydalanish mumkin: “10 ichida qo'shish va ayirish”, “10 ichida sonlar tarkibi”, individual ish uchun.

Slayd menyusi o'yin qahramonlari uchun sozlangan bloklarga bo'linadi:

- masxaraboz Funtik

- masxaraboz Senya

- masxaraboz Ginger

- masxaraboz Juja

- masxaraboz Dunya

Bitta guruhning barcha vazifalarini oxirigacha hal qilish shart emas. Boshqa vazifalarni bajarish uchun istalgan slayddan menyuga o'tishingiz mumkin.

Masxaraboz Senya - miqdor va raqamni moslashtirish uchun vazifalar.

- Rasmda nechta doira ko'rsatilgan?

- Bu raqamni ko'rsating.

Agar javob noto'g'ri bo'lsa, raqam bilan doira yo'qoladi. Agar to'g'ri bo'lsa, u rasm ostida harakatlanadi.

Masxaraboz Funtik - 10 ichidagi raqamlar tarkibini bilish. Agar javob to'g'ri bo'lsa, raqam yozilgan to'p savol belgisi joyiga o'tadi. Noto'g'ri javob - to'p pastga tushadi.

Masxaraboz Ginger - 10 ichida misollar yechimi. Masxaraboz Ginger masxarabozga gul bermoqchi bo'ladi. Agar javob to'g'ri bo'lsa, gul masxarabozning qo'lida bo'ladi. Javob noto'g'ri bo'lsa – gul yo'qoladi.

“Ertaklar bo'ylab sayohat” o'yini - ovozli hamrohlik bilan, mantiqni rivojlantirish uchun vazifalar beriladi Bu yerda qo'shimcha qahramon tanlanadi.

O'yin - rang berish “Kirpi” - og'zaki sanash mahorati 10 ichida mashq qilinadi.

Matematik mashq bajariladi, kerakli to'p tanlanadi va rasmga asta-sekin rang beriladi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa, rasm rangga bo'yalmaydi.

Matematika juda qiyin fan va boshqa fanlarning asosidir. Agar o'quvchining matematik tafakkuri buzilgan bo'lsa va shu bilan birga fikrlarning mantiqiy tuzilishi buzilgan bo'lsa, u holda uning ta'lim jarayoniga aralashishi oson bo'lmaydi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ziyomhammadov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya — zamonaviy o‘zbek milliy modeli. — T.: «Lider Press», 2009.
2. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. O‘quv uslubiy qo‘llanma// Ta’limda innovatsion texnologiya seriyasi. — T.: 2010.
3. <https://www.maam.ru/detskijsad/tehnologicheskie-priemy-na-urokah-matematiki-v-1-klase.html>



## EDUCATIONAL GAMES FOR YOUNG LEARNERS

**Orazbayeva Naubahar Sultanbekovna**

Qoroqolpog'iston Respublikasi Kegeyli tumani  
38-son maktabining Ingliz tili fani o'qituvchisi  
nawbaharsarsen@gmail.com

**Annotation:** This article focuses on the importance of educational games for young learners of English and their benefits and drawbacks of using games in class.

**Key words:** educational games, games with purpose, benefits and drawbacks of using games in class.

Games are crucial for the development of young learners. Playing games is creative process which allows children to express themselves. Children devote their energy and affection to games. Playing games gives children freedom to imagine, explore and create. Through playing games, they learn cooperation, sharing and collaboration. This article focuses on the importance of educational games for young learners of English and looks through the advantages and disadvantages of using games in class.

People have learnt through games for centuries. They are easy, simple and fun. Games are activities with rules, a clear aim and element of fun. They can involve cooperation, too. Here are the benefits of using games in class:

- They are easy to teach people of all ages.
- They enable students to learn effortlessly.
- They can help students to stay focused on task.
- They boost excitement and enthusiasm.
- They foster social interaction in a natural way.
- They can be suitable for different learning styles. Even weak students can succeed.
- They can be modified to suit students' needs.
- They can be played individually, in small or large groups or with a whole class.
- They are enjoyable for teacher and students alike.

Although all advantages, there are some drawbacks as well. Keep in mind that playing games in class might have some risks. Games should not be just for fun. Games should have educational purpose, if they are not they turn to profitless time fillers. There are some practical considerations that teachers need to keep in mind while playing games in class

- Some activities require special setting arrangements such as layout of the table for small groups. If it is not possible to move desks teachers should work out a way to adopt the activity.
- Sometimes giving clear instructions for games can be challenging for teacher because of the level of the learners. Demonstrating the games is usually clearer than explain it.
- Demonstrating and learning the games take time. Students need to play them several times in order to learn how to play. Student will enjoy them more and more as they get better at them.
- Teacher should avoid error correction during the games. The focus should be on communication and fluency. Teachers' task is monitoring and scaffolding.

As it previously said games involve every area of learners development and therefore it is all the teachers' responsibility to select appropriate activity taking into account learner differences

### References:

1. "10 benefits of classroom games for kids" by Jeanne Sager
2. The importance of using games in EFL classrooms by Cagada C.G, September 2016
3. Kids are here to play- the importance of games by Maija Kozlova 2021. Cambridge, English Language assessment



**МАКТАБДА БОШLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA INSERT VA FSMU INTERFAOL TEXNLOGIYASIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH**

**Palvanova Zamira Sharipovna  
Madrimova Bonuxon Begnazar qizi**  
Urganch tuman 19- son maktabning  
boshlang'ich sinf o' qituvchilari.

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada “Insert” va FSMU usulidan ona tili, o'qish fanlarini o'qitishda o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishi, bilim, malaka va ko'nikmalarini oshirishda bo'lgan axamiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan va metodik tavsiyalar berilgan.

*Kalit so'zi:* integratsiya, insert, ta'lim, matn, o'quvchi, o'qituvchi.

Bugungi kunda Onatili, o'qish fanlarini o'qitishda integratsiyaga asoslangan darslarni tashkil etishda bir qator ta'lim metodlaridan unumli foydalanilmoqda. Shulardan biri “Insert” usulidir. Buni quyidagi usulda tashkil etish mumkin:

Ma'ruza matnini o'qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo'yib chiqing:

V – bilaman

+ - men uchun yangi ma'lumot

- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi ?

– noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.

Onatili, o'qish				
Tushunchalar	V – bilaman	+ - men uchun yangi ma'lumot	- - men bilgan ma'lumotni inkor qiladi ?	– noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo'shimcha ma'lumot.
Onatili so'zining ma'nosi		+		
Nimani o'rganishi	V			
Yo'nalishlari			+	
Sifat				-
O'qish				
O'qish so'zining ma'nosi			-	
Nimani o'rganishi		+		
Yo'nalishlari				-
Sher	V			

An'anaviy darslarni ko'z oldimizga keltirsak, o'qituvchi mavzuni chiroyli tushuntiradi, savol javob mavzu doirasida uyushtiriladi. Keyingi darsda o'quvchilar o'qituvchi kabi gapirishga harakat qiladi, kitobdan mavzuni qayta qayta o'qiydi biyron aytib beradi. Berilgan savollar ham asosan shu o'tilgan mavzu doirasida bo'ladi. Jurnallar “besh” bilan to'lib boradi. Oradan bir oz vaqt o'tib mavzu so'ralganda o'quvchi aytishga qiynalib qoladi. Yuzaki yodlashning natijasi shunday mavhum holatlarga olib keladi. Masalan, 45 minutlik darsning yarmidan ko'p vaqtini darslikdagi matnlarni ko'chirtirish bilan o'tkazgan o'qituvchilar ham yo'q emas. Bugungi darslar o'quvchini mustaqil fikrlashga bahs munozaraga, o'zini–o'zi tahlil eta olishga, egallagan bilimlarini amalyotga qo'llay olish. Bola tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Integratsiyalashgan darslarni tashkil etishda yana FSMU texnologiyasidan foydalanish ham yaxshi samara beradi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.



F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Bugungi kunda ona tili fani o‘qituvchilari mazkur imkoniyatlarning baridan unumli foydalanmoqdalar va dars jarayonida barchasini qo‘llashga harakat qilmoqdalar.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Ziyomhammadov B, Abdullaeva Sh., Ilg‘or pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2001.
2. A. G‘ulomov, M. Qodirov “Ona tili o‘qitish metodikasi”, Toshkent., 2001 yil.





**DARSLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISH USULLARI**

**Parpiyeva Umida Tursunboyevna**

Namangan viloyati Chortoq tumani

3-umumiy o'рта ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Qozaqova Rohathon Tursunpo'latovna**

Namangan viloyati Chortoq tumani

3-umumiy o'рта ta'lim maktabi

musiqa fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Bugungi kunda o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Ushbu maqolamizda ham ana shu zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash masalalari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** dars, interfaol metod, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik texnologiya, ta'lim, o'qitish texnologiyasi, bilim, ko'nikma, malaka.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va



tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Bugungi kunda ta’limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o‘yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so‘zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Bu metodlarni darsda qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilim saviyasini yana ham oshirish mumkin bo‘ladi.

Dars mashg‘ulotlarida o‘yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O‘yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o‘quvchilarining o‘yin-topshiriqlarni bajarishga o‘rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o‘rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog‘liq bo‘lishi kerak.

Ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

Tajribalarimiz asosida dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ta’lim-tarbiya berish yo‘llari eng samarali usul ekanligi aniqlandi. Bunday interfaol metodlardan har bir dars mashg‘uloti davomida qo‘llashni tavsiya qilamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. J. Yo‘ldoshev, F. Yo‘ldosheva, G‘. Yo‘ldoshev “Interfaol ta’lim sifat kafolati” T. 2008.
2. J.G‘.Yo‘ldosheva, F. Yo‘ldosheva “Interfaol ta’lim – sifat kafolati” T. “O‘qituvchi” 2008.
3. G‘oziev E. Pedagogik texnologiyaning psixologik asoslari. – «Xalq ta’limi», 1999- yil 6-son.
4. [www.uzedu.uz](http://www.uzedu.uz)
5. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
6. OAV materiallari.



## INSON O‘Z JONIGA NEGA QASD QILADI YOKI SUITSID NIMA?

**Qurbonboyeva Mohira Fayzullayevna**

Xorazm viloyati Xiva tumani

39-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabda psixologning olib borayotgan ishi, boshqa fanlar bilan bog‘liqligi va ta’lim taraqqiyoti uchun islohotlarning o‘rni. Ta’lim-tarbiya berishda shaxs shakllanishida yoshlarimizning qalbida ona yurtga sadoqat va fidoiylik tuyg‘ularini shakllantirish xususida mulohazalar yuritimiz.

**Kalit so‘zlar:** o‘quvchilar orasida suitsit, maktab o‘quv dasturi, amaliy bilimlar, har bir hodisani ko‘rib chiqish, sodir bo‘ladigan hodisa.

Aholi orasida suitsidning ko‘payib borayotganligi har birimizni xavotirga soladi. Ushbu dolzarb ijtimoiy-psixologik muammoni faqat suitsidologlarga yuklab qo‘yish bilan uning yechimini topish ancha mushkul. Hammamiz birgalikda harakat qilishimiz kerak. Sotsiologlar, umumiy psixologlar, tibbiy psixologlar va psixoterapevtlar bir yoqadan bosh chiqarib suitsidga olib keluvchi sabablarni bartaraf etishlari lozim. Biroq suitsid ildizlari qayoqqa borib taqalishini bir tahlilqilib chiqish lozim. O‘z joniga qasd qilish “sog‘lom” odamlarda ham, ruhiy bemorlarda ham ro‘y berib turadi. Biroq “sog‘lom” odamlarda kuzatiladigan suitsidga ham nimadir sababchi bo‘ladi, masalan, qattiq ruhiy zarba. Ko‘p hollarda o‘z joniga qasd qiluvchi shaxs uzoq vaqt, ba’zan yillab bu ishni amalga oshirish uchun reja tuzib yuradi. U o‘z joniga qasd qilish uchun bir necha bor uyidan chiqib, turli joylarga boradi yoki oila a’zolari ishga ketgach, uyda yolg‘iz qolib, o‘sha yomon niyatni amalga oshirmoqchi bo‘ladi. Bunday paytlarda hattoki uyda telefon jiringlab qolishi, eshik taqillashi yoki qo‘shnining devor orqalab: “He qo‘shni, kim bor uyda, sigirim bo‘shalib ketib ekinlarni payhon qilayapti! Iltimos, arqon bo‘lsa olib keling! Uni bog‘lashib yuboring!” deb baqirishi hozirgina o‘z joniga qasd qilish uchun arqonni o‘z bo‘yniga osishga tayyorgarlik ko‘rayotgan odam arqonni olib, qo‘shnining sigirini bog‘lash uchun devordan oshib o‘tishi mumkin.

Biroq bu vaqtincha bo‘lib, u yana suiqaqd rejasini tuzib yuraveradi. Bu fikr uning miyasiga shu qadar joylashib oladiki, u oxir-oqibat o‘z joniga qasd qiladi. Odatda, irodasiz, kuchsiz va ta’sirchan odam o‘z joniga qasd qiladi. “Hayotdan yutqazgan odam o‘z joniga qasd qiladi” deyishadi. Bu noto‘g‘ri fikr! Chunki hayot bu lotereya emas, u yutish uchun chiqarilmagan. Hayot Olloh tomondan berilgan ne‘mat! Umuman olganda, o‘z joniga qasd qilishni din ham qoralaydi. Ularga janoza o‘qilmaydi! Ular do‘zaxga tushishadi.

Axir baxtsiz voqealar faqat u bilan ro‘y bermayotgandir! Undan boshqa hamma baxtiyor-u, faqat uning ishi yurishmayaptimi? Hech qachon bunday bo‘lmaydi! Hayot uchun kurashish kerak! Hech bo‘lmaganda voqea va hodisalar qanday ro‘y berayotgan bo‘lsa, uni shundayligicha qabul qilish yoki biroz kutish va kuzatish kerak. Vaqti kelib hammasi joy-joyiga tushib ketadi. Chunki hamma vaqt ham qor yog‘ib turmaydi yoki har doim quyosh charaqlab turmaydi. Bu dunyoda hamma narsa vaqtincha va o‘zgaruvchidir.

Biroq boshqa birov 2 qavatli dang‘illama imoratda yashab, eng qimmat mashinalar minib, hayotdan qoniqmay yashashi mumkin. Sizni farzandingizning maktabdan 5 baho olib quvonib kelgani xursand qilsa, boshqa birov dunyoni kemirsa ham qoniqmaydi. Demak, hamma narsa shaxsning o‘ziga va uni o‘rab turgan muhitga bog‘liq. Qanday yashash Sizning o‘zingizga bog‘liq! Birov bilan ishingiz bo‘lmasin, ularning xatosini qaytarmaslikka harakat qiling.

XX asr boshida buyuk psixoanalitik Zigmund Freyd “Hayot qoniqishdan iborat” degan edi. Hurmatli o‘quvchilarlar! Sizning muvaffaqiyatlaridan quvonib yashaylik! Ulardan xafa bo‘lmang. Siz farzandlaringizni qanday yaxshi ko‘rsangiz, bilingki, ular ham Sizni shunday hurmat qilishadi, e‘zozlashadi, ularning Sizlarga bo‘lgan hurmati qalbining to‘rida joylashgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Amaliy psixologiya” N.Boymurodov.
2. “Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi” Z.Nishanova G. Alimova
3. “Muloqot psixologiyasi” M.Maxsudova.



## SHAXSNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Rajabova Mehrinisa Ruzimovna**

Xiva tumani 3-son maktab amaliyotchi psixologi

Telefon: +998 (99) 338 24 05

mehrinisa.ruzimovna\_xv3@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxsning individual psixologik xususiyatlari ya'ni sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, hissiyot, temperament va ularning turlari haqida ilmiy ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Psixika, sezgi, idrok, tafakkur, hissiyot, iroda, xotira, diqqat, nutq, faoliyat, emotsiya, iroda, temperament, sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik.

Psixologiya-lotinchа «psyuxe» - ruh, jon, «logos» - fan, ta'limot degan so'zlardan olingan bo'lib, ruh, jon haqidagi fan degan ma'noni anglatadi. Psixologiya faniga beriladigan ta'riflar ham juda xilma-xil bo'lib, shulardan ayrimlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak faktlar, ularning qonuniyatlari va psixika mexanizmlari haqidagi fandır. Ko'rinib turiptiki, barcha ta'riflarda ham psixika haqida so'z bormoqda. Xo'sh, psixika nima?

Psixika lotinchа psyuxe so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ruh, jon degan ma'noni bildiradi. Psixika sezgi, idrok, tafakkur, hissiyot, iroda, xotira va boshqa shu kabi tushunchalar bilan guruhlarga ajratilib, hammasi birgalikda kishining psixikasi, kishining ichki dunyosi, uning ruhiy hayoti va hokazolar deb ham ataladigan tushunchalarni hosil qiladi. Bundan tashqari biz amaliyotda psixik hodisalar, ruhiy hodisalar degan iboralarga ham juda ko'p duch kelamiz.

Shaxs psixik jarayonlari: Bilish sohasi: diqqat, nutq, faoliyat;

Bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur;

Emotsional-irodaviy sohasi: emotsiya, iroda;

Individual-psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat.

Bilish sohasi

Diqqat - idrokning u yoki bu ob'ektga ixtiyoriy yo'naltirilishi.

Nutq - bu muayan qoidalar asosida yaratilgan til organi orqali insoniy muloqotni tarixiy shakllangan formasi. Nutq jarayoni bir tomondan fikrlarni lingvistik vositalar bilan shakllantirilishi, ikkinchi tomondan esa tilshunoslik konstruksiyalari va ularning tushunchalarini idrok etishni nazarda tutadi.

Faoliyat - bu sub'ektning (tirik mavjudotning) ob'ekt bilan (atrofdagi borliq) faol hamkorlik jarayonidir. Voqelikka nisbatan faol munosabat bildirishning shunday bir shaqlidirki, u orqali kishi bilan uni qurshab turgan olam o'rtasida real bog'lanish hosil qilinadi. Bilish jarayonlari:

Sezgi - odamning real yoki abstrakt ob'ektlarga sub'ektiv munosabatini ifodalovchi hissiy jarayoni. Sezgi deb sezgi a'zolarimizga bevosita ta'sir etib turgan narsa yoki hodisalarning ayrim sifat va xossalarning ongimizda aks ettirilishiga aytamiz.

Idrok - Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning kishi ongida butunligicha aks ettirilishi idrok deyiladi. Idrokning sezgidan farqi, narsalarni umumlashgan holda, uning hamma xususiyatlari bilan birgalikda aks ettirilishidir.

Xotira - Individning o'z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi.

Tasavvur (grek. φαντασία - «tasavvur») - individ yoki guruh jamoasi tomonidan realikka to'g'ri kelmaydigan, lekin ularning orzu istaklarini bildiradigan jarayon.

Tafakkur - Tafakkur voqelikni umumlashirilgan holda, qonuniy bog'lanishlarni so'z va tajriba vositasida aks ettirishdir. Narsa va hodisalar rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash bilan odam, tabiat va kishilik jamiyati taraqqiyotini boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shaxsning hissiy irodaviy sohasi:

Hissiyot (lot. emoveo - hayajonlantiraman) - ob'ektiv dunyodagi mavjud yoki noma'lum bo'lgan vaziyatlarga sub'ektiv baholovchi munosabatni ifoda etadi. Iroda -insonning fikrlash jarayonlari orqali qaror qabul qilishi, hamda qabul qilingan qaror asosida o'z xarakterlarini yo'naltirish. Shaxsning individual xususiyatlari deganda shaxsning bir biridan farq qilishiga imkon beradigan quyidagi xususiyatlari tushuniladi: temperament, xarakter, qobiliyat.

Temperament lotinchа temperamentum - narsalarning tegishli nisbati degan so'zdan olingan.



Temperament haqida dastlab eramizdan oldingi V asrda yashagan vrach Gippokrat, eramizdan oldingi II asrda yashagan Galen, X asrda yashagan Ibn Sino va boshqalar o'z qarashlarini bildirganlar. Galen birinchi bo'lib temperamentning kengaytirilgan tasnifini berib, uning 13 turini sanab o'tgan. Keyinroq vatandoshimiz Ibn Sino temperamentni mizoj deb atab, uning issiq va sovuq turini, bu odamning rangi, qonining miqdori, quyuq yoki suyuqligiga bog'liqligini aytgan. Hozirgi kunda temperament oliy nerv tizimi va uning xillari bilan bog'liqligi asos qilib olinib, 4 tipi borligi qabul qilingan. Bu holda temperamentning antik davr klassifikatsiyasiga nomi bilan o'xshash bo'lishi qabul qilingan.

Sangvinik - qon so'zi bilan bog'liq bo'lib, serharakat, kuchli ta'sirlanish, muvozanatsiz bo'lish nazarda tutiladi. harakatchan, muvozanatli tip. Yangi shart sharoitga tez moslashadi, tez ishga kirishib tez soviydi, o'z o'rnini, rolini tez almashtiradi, beg'araz, kek saqlamaydigan tip. («Bir qop yong'oq»).

Xolerik - sariq o't organizmda ustun miqdorda bo'lishi asos qilib olinib, ta'surotni tez qabul qilib olish, kuchli qo'zg'olish, terisiga sig'maydigan shoshkaloq odam xususiyati hisoblanadi. «Jangovar, jo'shqin, oson va tez ta'sirlanadigan tip». (I. P. Pavlov). Chaqqon, tez harakat qiladi, qattiq va tez gapiradi, o'zini tutib turishi qiyin, bazan xato javob qaytaradi.

Flegmatik - organizmda shilimshiq modda flegma miqdori ko'pligi bilan ifodalanadi. Bu tipdagi odam ta'surotni bir muncha sekin qabul qiladi, ishga shoshilmay kirishadi, lekin ishni puxta, oxiriga yetkazib bajarishga layoqatli tip. Hissiyotlari sekin paydo bo'ladi, ammo barqaror va davomli bo'ladi. U vazmin va yuvosh, uning jahlini chiqarish qiyin, lekin jahli chiqsa to'xtatish ham qiyin, qasoskor, ginachi.

Melanxolik - qora o't miqdori bilan bog'liq deb hisoblanadi. Bu tipdagi odam «og'ir karvon», «tepsa tebranmas», atrofida sodir bo'layotgan hodisalarga va odamlarga loqayd, «dunyoni suv bossa, tupig'iga chiqmaydigan» tip. Antik davr psixologiyasidagi bu turlar keyin yana ko'p marta tadbiiq qilinib, yana shu to'rt tip nomi saqlanib qolgan. Reaksiyalari ko'pincha qo'zg'ovchining kuchiga to'g'ri kelmaydi, loqayd, lanj, o'zini tez yo'qotib qo'yadi, biror ishda tashabbuskorlik ko'rsatmaydi. Hissiyotlari juda sekin paydo bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi T.: TDPU 2017 – 264 b.
2. G'oziyev E. Ontogenez psixologiyasi Nazariy- eksperimental tahlil T.: Noshir 2010. – 356 b.
3. Do'stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar 2013 – 343 b.





**МАКТАБДА BOSHLANG' ICH SINIF O'QUVCHILARINI O'QITISHDA «SWOT-TAHLIL» INTERFAOL O'QITISH METODIDAN FOYDALANISH**

**Raximova Yulduz Maksudovna**  
**Masharipova Muqaddas Samandarovna**  
Urganch tuman 18- son maktabning  
boshlang' ich sinf o' qituvchilari.

**Annatotsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda maktabda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasidagi ma'lumotlarni qamrab oladi.

**Kalit so'zi:** metodi, tajriba, fikr, o'quvchi, ta'lim, bilim, ijod, aqil, faoliyat.

Interfaol o'qitish bu bilish faoliyatini rivojlantirishning maxsus tashqiliy shakli bo'lib, interfaol o'qitish jarayonida ta'lim oluvchi o'qitishning ob'ektidan o'zaro hamkorlikning sub'ektiga aylanishi, o'quv jarayonida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

Zamonaviy pedagogik-psixologik tadqiqotlarning amaliy yo'nalishi sifatida bugungi kunda pedagogikada o'qitishning bir necha metodlari farqlanadi:

1. Passiv - ta'lim oluvchi o'qitishning «ob'ekta» sifatida namoyon bo'ladi (tinglaydi va kuradi);

2. Aktiv - ta'lim oluvchi o'qitish jarayonining «sub'ekti» sifatida namoyon bo'ladi (mustaqil ish, ijodiy topshiriqlar);

3. Interfaol - pedagog va ta'lim oluvchilarning o'zaro hamkorligi.

Interfaol so'zi inglizcha so'z bo'lib, «inter» - o'zaro va «act» - harakat qilmok ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol - ya'ni o'zaro harakat qilmok; ma'nosini anglatadi. Bunday o'zaro harakat turlariga «talaba - o'qituvchi» va «talaba- talaba»ning maqsadli harakatlarini kiritish mumkin. Interfaol o'qitishda o'qituvchi o'kuv faoliyatning faol tashkilotchisi bo'lib, o'quvchi bu faoliyatning sub'ekta sifatida namoyon bo'ladi.

O'qitishning interfaol metodlari hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, rolli o'yinlardan foydalanish, muammolarni hamkorlikda yechishda ko'rib chiqiladi.

“So'z turkumlari” mavzusini o'qitishda juda ko'plab pedagogik texnologiyalar qo'llanildi va shular orasidan mavzuga mos bo'ladigan blis-so'rov, FSMU, SWOT tahlil va keys-stadi texnologiyalari tanlab olinadi.

Ona tili fanidan “So'z turkumlari” mavzusini o'qitishda Swot- tahlil metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni xal etish yullarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S - (strength) - kuchli tomonlari

W - (weakness) - zaif, kuchsiz tomonlari

O - (opportunity) - imkoniyatlari

T - (threat) – to'siqlar.

Namuna: Ona tili fanidan “So'z turkumlari” mavzusini o'qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning kuchli va kuchsiz tomonlari, ichki imkoniyatlari hamda o'qitishda multimediya vositalaridan foydalanishga to'sqinlik.

S - O'qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning kuchli tomonlari Axborotlarni samarali o'zlashtirish

W - O'qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning kuchsiz tomonlari Axborotlarni qabul qilishni faqat bir tomonlama bo'lishi, sinfda pedagogik muloqotning sustlashuvi

O - O'qitishda multimediya vositalaridan foydalanishning imkoniyatlari (ichki) Sinfni jalb etish, vaqtdan yutish, samarali o'zlashtirish, tezkor qabul qilish, ijodiy tasavvurni shakllantirish

T - To'siqlar (tashqi) Texnika va shaxs omilining qarama-qarshiligi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Yo'ldoshev J.F., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. — T.: RTM, 2004. - 104 b.

2. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami / Met.qo'll. O'rtamoxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida innovatsion texnologiyalar seriyasidan.— T.:TDIU, 2013





## USING CHILDREN SHORT STORIES TO ENHANCE STUDENTS' READING COMPREHENSION

**Raximova Zuhra Maksudovna,  
Sharipova Shahodat Ravshanbekovna**  
Xorazm viloyati Urganch tumani,  
16-son maktabning ingliz tili fani o'qituvchilari.

**Abstract:** This article describes the use of short stories to increase students' reading skill in the classes. Reading skill may be improved via a lot of methods. Because short stories are not long and boring they are interesting and effective every time.

**Key words:** reading skill, improving, cognitive activity, method.

Basically, reading is an advantageous activity, although the motivation of people to read is varied. People read to get information, to learn something, or just for fun. We often hear an opinion which says that the more we read, the more knowledge we learn. Reading can be entertaining as well as informative. It is not an exaggerated statement, for we really take a lot of advantages through reading, no matter what we read. By reading people will know and get something to enrich and enlarge their knowledge. People who like reading have the biggest opportunity to improve their career. In today's school, the importance of reading has been emphasized to the students.

Most of us think of reading as a simple, passive process that involves reading words in a linear fashion and internalizing their meaning one at a time. But reading is actually a very complex process that requires a great deal of active participation on the part of the reader.

Using short stories in the classroom is a very useful way to improve students' reading comprehension skills. They increase students' awareness and motivation, enable them to know the sounds of the words and how to pronounce them correctly.

Most of reading process can be seen mostly as a cognitive activity. Besides, it gives greater prominence to the students' affective in engaging themselves into the text. Regarding the cognitive process and students' engagement to the text, the terms of reading comprehension become a vital component in reading process which needs reader's active thinking in constructing meaning to get deep understanding to the concepts and information displayed from the text. To be able to comprehend, the reader initially relates the prior knowledge that they have with the text which is referred as schema. Besides using prior knowledge, they should have good word recognition skills and implement some reading strategies such as identifying main ideas, making connections, questioning, inferring, and predicting.

It can be concluded that to comprehend a text successfully, there are various factors that contribute into the process which are L2 language knowledge and reading strategies that the readers applied through reading the text.

The use of literature in language classes is not a new phenomenon since it was used in 19th century when Grammar Translation Method was still mostly used. Literature was one of material that students have to translate into their native language. However, since Structuralism approach began to dominate during the 1960s to the end of 1970s, literature was no longer used. Even when Direct Method, the Audiolingual Method, Community Language Learning, Suggestopedia, the Silent Way, Total Physical Response, the Natural Approach, and Communicative Approach magnificently dominated ESL/EFL teaching, literature was still ignored. Finally, since 1980s literature regained its way back to EFL teaching. It is used as authentic material in language class, not as a source for translation.

**In conclusion,** the use of children short stories displays some advantages: it facilitates the students to enrich their vocabulary; it encourages the students to have critical thinking; it increases students' motivation; and it accommodates the students to practice their language skill.

### References

1. Littlewood, William (2000) "Literature in the School Foreign-Language Course" In Brumfit, C.J. & Carter, R.A.. (2001). *Literature and Language Teaching*. Oxford: OUP.
2. Moreillon, Judi. (2007). *Collaborative Strategies for Teaching Reading Comprehension: Maximizing Your Impact*. Chicago: American Library Association.



## INNOVATSION METODIKALARNING BOSHLANG'ICH SINIF FANLARINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI

**Rozikova Sojida Mardonovna**

Buxoro viloyati Qorako'l tumani

10- maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda innovatsion metodikalarning ahamiyati, dars jarayonida, o'quvchilar jamoasi bilan ishlashda innovatsion metodlardan samarali foydalanish va uning ahamiyati xususida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich sinf, o'quvchi, innovatsiya, metodika, fan, dars, ona tili, faoliyat, innovatsion texnologiya.

O'zbekiston Respublikasi “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’lim-tarbiya jarayonini yangi pedagogik taxnologiyalar bilan ta’minlash eng muhim vazifa qilib belgilangan. Yana bir dolzarb masalalardan biri yuqori malakali raqobatdagi o’qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy omilkorliklarini oshirish, metodik mahoratlarini ko’tarish, o’qituvchilarni fanlarni o’qitishda innovatsion texnologiyalar bilan qurollantirish demakdir.

Keng ko’lamli islohotlarning muhim bo’g’ini – innovatsiyalar bugun har bir sohada bo’lgani kabi ta’lim tizimida ham o’zining yangiliklarini namoyish etmoqda. Hozirgi vaqtda innovatsiya tushunchasi juda keng qo’llanilmoqda. “Innovatsiya” inglizcha so’z bo’lib, “yangilik kiritish” degan ma’noni bildiradi. Ya’ni tizim ichki tuzilishini o’zgartirish deb ta’riflanadi. Innovatsiya dolzarb muhim ahamiyatga ega bo’lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashishlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug’ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo’ladi. Shuningdek, umuman ta’lim tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Yangi innovatsion metodikalarning xislati shundaki, unda qo’yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o’quv jarayoni rivojlantiriladi va amalga oshiriladi. Darhaqiqat, darslarning muvaffaqiyatli tashkillanishining 80 % i ta’lim jarayoning to’g’ri loyihalashtirilishi, tashkil etish va uni amalga oshirishga bog’liqdir.

Innovatsion metodikalar orqali o’quvchilar egallashi lozim bo’lgan bilimlarni o’zlari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o’zlari keltirib chiqarishlariga o’rgatadi. O’qituvchi bu jarayonga o’quvchining rivojlanishi, shakllanishi va bilim olishi, tarbiyalanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo’naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta’lim olishda o’quvchi asosiy bo’g’inga aylanadi. Natijada biz tarbiyalagan va ta’lim bergan o’quvchilar har tomonlama rivojlangan, o’z mustaqil fikri va maqsadiga erishgan, tarbiyalangan, ta’lim olgan, ko’rganlarini tasavvur eta oladigan, o’rganganlarini, oldin o’zlashtirganlari asosida yangi bilimlarni taqqoslay oladigan, o’z oldida turgan har qanday muammolarni tahlil qila oladigan va yechim topa oladigan komil inson bo’lib yetishadi. Bu borada boshlang’ich sinf o’qituvchilari ham muhim o’rinni egallaydilar. Shu o’rinda bir narsani aytib o’tish joiz. Har bir dars jarayonida innovatsion texnologiyalarning, metodikalarning qay darajada amalga oshirilishi darslarning sifatini va natijasini belgilaydi.

Innovatsion metodikalarning amalga oshirilishida quyidagilarga ahamiyat qaratishni tavsiya qilamiz:

1. Har doim ta’lim – tarbiya jarayonini tashkil etishning muhim maqsadini ifodalash;
2. O’quvchilar jamoasini to’g’ri shakllantirish;
3. O’z diqqatini doimo o’quvchilarga qaratish;
4. Bir-birini takrorlamas usullar, metodlar o’ylab topish va muntazam darslarda qo’llash;
5. Har doim o’rganilganlarni tahlil qilib borish;
6. O’zaro munosabatlarni yaratish;
7. Har doim bo’layotgan jarayonlarni kuzatib, o’rganib borish;
8. Har qanday muammolarni oldindan ko’ra bilish va o’quvchilarni ham bunga tayyorlash;
9. Doimo o’zgarishlarning kuzatuvchisi emas, yetakchisi bo’lishga intilish;
10. Tashabbuskor bo’lish.

Bugungi jadal rivojlanib borayotgan davrda o’quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga o’rgatish, o’z ustida ishlash ko’nikmasini hosil qilishda o’qituvchining roli katta. Bunda har bir o’qituvchining oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri yangi pedagogik texnologiyaning



innovatsion usullaridan dars jarayonida o`rinli foydalanish va o`quvchilarning yakka tartibda ishlashiga erishishdir. Masalan, ona tili darsini ko`rib o`taylik. Har bir so`zning ma`nosi va tarkibini o`rganishga qiziqish, til hodisalarini bilishga intilish, bilimga tashnalikni tarkib topdirish uchun ushbu tavsiyadagi turli xil boshqotirmalar, rebuslar, grammatik topishmoqlar darslarda qo`llanib borilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

Boshlang`ich sinf ta`limida o`quv jarayonini tashkil etish holati jiddiy bo`lib, o`quv faoliyatini bosqichma – bosqich amalga oshirish lozim. Darslarning tushunarli va sifatli amalga oshirilishida innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, hamkorlikka asoslangan o`quvchilarning faolligini oshirishga mo`ljallangan o`quvchilarni boshqarish, fikrini eshitish, tushunish, hurmat qilish, o`zgalar manfaati bilan hisoblashish, ularga o`rgatish, ta`sir qila olish, o`zining va boshqalarning “men”ini sezish, his qilish, o`zini boshqarish, fikrini aniq, lo`nda bayon eta olishga o`rgatishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, dars davomida o`quvchining ta`lim faoliyati innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshirilsa, uning axborotni qabul qilishi oson kechadi va ta`lim samaradorligi ortadi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib o`tilgan darsda o`quvchilar o`z qobilyati va imkoniyatlarini namoyish qilishga erishadilar, jamoa bilan ishlash malakasiga ega bo`ladilar, o`zgalar fikrini hurmat qilishni o`rganadilar. Bu esa darsning samaradorligini oshirib, ta`lim sifatini kafolatlashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Tal`at G`afforova. “Boshlang`ich ta`limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” Toshkent – 2011
2. A. Abduqodirov , R. Ishmuhammedov . ”Ta`limda innovatsiya” Toshkent -2010.
3. Internet saytlari.



МАКТАБДА ТАРИХ ФАНИ ДАРSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO'LLARI

Ruzmatov Jaxongir Boyjon o'g'li

Urganch tuman 18- son maktabning  
tarix fani o' qituvchisi

Qurbonboyev Buxtishod Buxtiyorovich

Yangiariq tuman 26- maktab.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanini o'qitishda hozirgi zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari hamda tarix fanini o'qitishda interfaol metodlar va ulardan samarali foydalanish usullari haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** “Fikriy hujum”, metod, ta'lim, tarbiya, “6x6x6” metodi.

Bugungi kunda mamlakatimizda bo'layotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta'lim-tarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar “Milliy dastur”imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun o'qituvchisini yanada ko'proq mehnat qilishga, izlanishga da'vat etmoqda. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

Hozirgi kunda tarix darslarida foydalaniladigan inrefaol metodlardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

“Fikriy hujum” metodi. Mazkur metod o'quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

“6x6x6” metodi. yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi.

“Klaster” metodi. Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, tarix darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarasi juda katta. Bugungi kunda imnterfaol metodlar o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Eshkaraev, K., Norimbetova, Z. (2020). Methodological recommendations for organizing and holding mathematical circles. European Scientific Conference, 248-250.
2. Abdullayeva K. va boshqalar. Savod o'rgatish metodikasi. T., «O'qituvchi», 1996-yil. 18-25-betlar.
3. Ganieva M.A., Fayzullaeva D.M. Keys-stadi o'qitishning pedagogik texnologiyalari to'plami / Met.qo'll. O'rtamaksus, kasb-hunar ta'limi tizimida innovatsion texnologiyalar seriyasidan.– T.:TDIU, 2013



## МАКТАБДА ФИЗИКА ФАНИНИ О’ҚИТИШДА ИНТЕРФАОЛ УСУЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШДА МЕТОДИК ТАВСИЯЛАР БЕРИШ

**Sabirova Barno Baxodirovna**  
Urganch shahar 14- son maktabi  
fizika fani o’ qituvchisi

*Annatotsiya:* Ushbu maqolada fizika fanini o’ qitish usullariga doir barcha masalalarni birgina ishda qamrab olish qiyin bo’lgani uchun o’ qituvchilar maktabda fizika fanini o’ qitishga ijodiy yondashib, sinfdagi mavjud sharoit va holatni hisobga olgan holda darsni tashkil qilishi bayon etilgan.

*Kalit so’z:* fikr, interfaol, ro’l, og’zaki, yozma, didaktik, ta’lim, interaktiv.

Interfaol darslarda o’ qituvchining o’ rni qisman o’ quvchilarning faoliyatini dars maqsadiga erishishiga yo’ naltirishiga olib keladi. O’ quv jarayonida fizika talimini zamonaviy ta’ lim texnologiyalari asosida olib borishda interaktiv usullardan foydalanish muhim ro’ l o’ ynaydi. O’ qitishning interaktiv usuli yordamida o’ quv jarayoni to’ g’ ri tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi talim oluvchilarning o’ qish, bilim olish jarayoniga to’ la jalb etiladi. Ular o’ zlarini oylagan va bilgan barcha narsalar to’ g’ risida erkin fikr yuritish imkoniyatiga ega bo’ ladilar. Interaktiv usul g’ oyalarning ustunligi, yagonaligini vaqtincha inkor etadi. Talim jarayonida o’ quvchilar tanqidiy fikrlashni o’ rganadilar. Bundan tashqari, o’ quvchilar tomonidan aytilgan al’ ternativ fikrlarni taroziga solib ko’ rish oylab xulosa chiqarish, bahs-munozarasida ishtirok etish, o’ z fikrini bayon qilib berishni o’ rganadilar. Bu usulni amalga oshirishda o’ qituvchi, o’ quvchilar darsni tashkil etishda yakka, juft, holatda amalga oshiriladi. O’ qituvchi interaktiv usulni amalga oshirish uchun puxta tayyorgarlik ko’ rish kerak:

1. Sinfxonasi dars jarayoni uchun tayyor bo’ lish kerak. Kerakli materiallar oldindan tayyorlanishi lozim.

2. Bu jarayonni amalga oshirishda vaqtni o’ quvchilar bilan kelishilgan holda to’ g’ ri taqsimlash lozim.

3. O’ quvchilar guruhlariga bo’ lishda birinchi ixtiyoriy holat, keyin esa tasodifiy holatga bo’ lish kerak. Chunki yaxshi, aktiv o’ quvchilar bir guruhga to’ planib qolishi mumkin. Buni oldini olish lozim.

4. Darsda o’ quvchilarni guruhlarda bo’ lishda, o’ quvchilarning psixologik holatini hisobga olish kerak. Bu jarayonni tashkil etish juda nozik bo’ lib, darsni qanday o’ tishni belgilab beradi. Dastlab o’ quvchilar birdaniga darsga kirib ketishga tayyor bo’ lmaydilar.

5. Fan o’ qituvchisining mahorati o’ quvchilarni o’ ziga jalb eta olish, so’ zlashuv odobi, nutqining qandaydir o’ ziga hosligi keyingi darslarda ham shu usullardan foydalanish kerakligini o’ quvchilarda shakllantirish lozim.

Rolli o’ yinlar. O’ qitishning bu usulida o’ quvchilar «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar. Bu ularga o’ z amaliy ish faoliyatlarida qo’ llash mumkin bo’ lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko’ rish va tekshirish imkonini beradi. Qo’ llanilishi:

- Yangi turdagi faoliyatni sinash imkonini ko’ rsatishda;
- O’ quvchilarni nazariyani amaliyotda qo’ llab ko’ rishga o’ rgatishda;
- O’ quvchilar faolligini yanada oshirishda.

Afzalligi:

- “real hayot” ning qayta tiklanishi;
- o’ quvchilarning mavzuga chuqurroq jalb qilinishi;
- O’ quvchilarning muammoga boshqacha yondashuvini ko’ rish imkonini berish.

O’ quvchilar fikr va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo’ ladilar. Turli xil fizik o’ yin bolalarning bilimga qiziqishlarini faollashtirish yo’ lidagi eng qulay vositadir. Bulardan eng qizig’ i rolli o’ yinlar, bunda tashabbus bilan bolalar o’ z oldiga qo’ ygan topshiriqlarni hal qilishi, qiyinchiliklarni yengish, mehnatga muhabbat harakteriga ta’ sir qilishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Safin D.V., Musina R.G. Ta’ lim berish va o’ qitishning interfaol usullari. O’ quv qo’ llanma.-1- modul. Interfaol o’ qitishning nazariy asoslari. - Toshkent, 2007.

2. P.Q.Habibullayev va bosh. Fizika Umumiy o’ rta ta’ lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan va to’ ldirilgan to’ rtinchi nashri «O’zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent–2017.





## O‘QUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH UCHUN TEKNOLOGIYA VA TASVIRIY SAN’AT DARSLARIDA INTERFAOL O‘QITISH USULLARIDAN FOYDALANISH

**Sadikova Gulnara Shakanovna**  
**Duisova Tojigul Djanisovna**  
Urganch tuman 18- son maktab  
Texnologiya, chizmachilik va  
tasviriy san’at o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Maqola texnologiya, chizmachilik va tasviriy san’at darslarida ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradigan o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanish haqida metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ta’sviriy san’at, ijodiy qobiliyatlar, o‘qitishning interfaol usullari.

Ijodkorlik yangi tadqiqot predmeti emas. Inson qobiliyatlari muammosi har doim odamlarda katta qiziqish uyg‘otgan. Bizning zamonamizda, fan-texnika taraqqiyoti davrida hayot tobora rang-barang va murakkablashib bormoqda. Bu esa odamdan qolip bo‘lmagan, odatiy harakatlarni, balki harakatchanlikni, fikrlashning moslashuvchanligini, tez yo‘naltirilganligini va yangi sharoitlarga moslashishini, katta va kichik muammolarni hal qilishda ijodiy yondashuvni talab qiladi. Intellektning eng muhim qismi va ularni rivojlantirish vazifasi zamonaviy inson tarbiyasidagi eng muhim vazifalardan biridir. Axir, barcha madaniy qadriyatlar, insoniyat tomonidan to‘plangan - bu odamlarning ijodiy faoliyati natijasidir. Kelajakda insoniyat jamiyatining qay darajada ilgarilab borishini esa yosh avlodning ijodiy salohiyati belgilab beradi.

Texnologiya va ta’sviriy san’at yordamida bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish - bu turli xil faoliyat sohalarini birlashtiradigan va o‘zaro bog‘liq elementlarda namoyon bo‘ladigan jarayon, masalan:

- dunyoni ijodiy idrok etish;
- dunyoni individual idrok etishni san’at vositalari orqali ifodalash;
- turli vizual texnika va texnologiyalarda ishlash ko‘nikmalari;
- tasavvur, ijodiy fikrlash

Ijodiy qobiliyatlarning tarkibiy qismlari masalasi bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni tahlil qilgandan so‘ng, majburiy komponentlar aniqlandi - bu ijodiy tasavvur va ijodiy fikrlash sifati.

Rasm chizishning noan’anaviy usullaridan foydalanish o‘quvchilarning rasm chizishga qiziqishini oshiradi, kuzatish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, ularni to‘g‘ri ko‘rishga o‘rgatadi, bolaning tafakkuri, tasavvuri, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Hozirgi kunda ko‘plab uslubiy yangiliklar o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanish bilan bog‘liq. Interaktivlik (ingliz tilidan. Interact - o‘zaro) muloqot qilish yoki dialog rejimida bo‘lish qobiliyatini anglatadi. Demak, interfaol ta’lim, eng avvalo, interfaol ta’limdir. An’anaviy o‘qitish usullari bilan ham dialog mumkin, lekin faqat “o‘qituvchi-shogird” yoki “o‘qituvchi-talabalar guruhi (tinglovchilar)” o‘zaro ta’siri sifatida. Interfaol ta’limda bundan tashqari, dialog “talaba - talaba” (juftlikda ishlash), “talaba - talabalar guruhi” (guruhlarda ishlash), “talaba - auditoriya” yoki “talabalar guruhi” o‘zaro ta’siri sifatida quriladi. - auditoriya” (guruhlarda ishlashni taqdim etish), “talaba – kompyuter”, “talaba – badiiy asar” va boshqalar.

Texnologiya, chizmachilik va ta’sviriy san’at darslarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanildi:

Taqqoslash usuli 5-sinfda “Tabiatning orazli manzarasini ishlash” mavzusini o‘rganishda darsda qo‘llanildi. Darsda tabiatning turli xil variantlar ko‘rinishida bir xil muammoni hal qilishning ko‘p qirrali imkoniyatlarini ko‘rsatdi. O‘quvchilarga Tabiatning orazli manzarasini tasvirini yaratish vazifasi berildi. Bu usul o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini faollashtirish imkonini beradi.

Dars uchun nostandart yechim ishlatildi: dars o‘yin. Dars 7-sinf texnologiyaga darslarida o‘tkazildi. O‘yin “100 ga 1” deb nomlangan. Kollektiv faoliyat usuli qo‘llanildi. Darsning bu metodi bolaning ijodiy salohiyatini ochib berishga o‘rgatadi, rivojlantiradi, tarbiyalaydi, ijtimoiylashtiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiraslov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir. – T.: “O‘zbekiston”, 2006.
2. Abdiraslov S. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. –T.: “Ilm-Ziyo” nashriyoti. 2011.
3. Nurtayev O‘.N. Rangshunoslik asoslari. –T.: “Ilm-Ziyo” nashriyoti, 2008.



## МАКТАБДА ТАРИХ ФАНИДАН О’QUVCHILAR BILIMINI OSHIRISH UCHUN INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

Sapayeva Shohista Maxmudovna  
Qutlimurotova Zamira Xudayberganovna  
Urganch shahar 4- son maktabning tarix fani o’ qituvchilari

*Annatsiya:* Ushbu maqolada maktabda o’ quvchilarning onatili va adabiyot faniga bo’lgan qiziqishini oshirishda interfaol metodlardan foydalanishda o’ qituvchilar uchun amaliy va metodik tavsiyalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

*Kalit so’z:* Binar ma’ruza, Davra suhbat, Trening, pedagogik, ta’lim, ijtimoiy.

**BINAR MA’RUZA.** “Binar”so’zi lotinchadan olingan bo’lib, “qo’sh”, “ikki” degan ma’noda qo’llaniladi. Bunday mashg’ulotning olib borilishi ikki vakil: o’qituvchi va metodist; o’qituvchi va o’quvchi; taklif etilgan mutaxassis va o’qituvchi; o’qituvchi va tyutor (maslahatchi) o’rtasidagi interfaol suhbat, bahs-munozara va axborotlar almashinuvini namoyon qiladi. Jarayonni bunday tashkillashtirishdan ko’zlangan asosiy maqsad yangi o’quv ma’lumotlari va axborotlarini ikki mutaxassis yoki ishtirokchi nuqtai-nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berishdan iborat.


**TRENING.** Trening zamonaviy ta’lim shakllaridan biri hisoblanib, u interfaol mashg’ulotlarni amalga oshirishning o’ziga xos ko’rinishidir.

Treninglar o’rganilishi lozim bo’lgan nazariy g’oya va fikrlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o’zlashtirish imkoniyatini beradi va ta’lim oluvchilarda shaxslararo o’zaro hamkorlikning samarali ko’nikmasini shakllantirishga, shuningdek, mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiy darajasini oshirishga yo’naltiriladi. Har qanday pedagogik treningni tashkil etish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Tashkiliy bosqich: guruhni yig’ish yoki shakllantirish.
2. Boshlang’ich bosqich: guruh me’yorlarini ishlab chiqish, tanishuv va mashg’ulotdan kutuvlarni aniqlash.
3. Faoliyatli bosqich: trening turi va o’tkazish metodikasini belgilash.
4. Yakuniy bosqich (refleksiya).

Trening mobaynida talabalar nazariy ma’lumotlarni o’zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emmotsional va xulq-atvor ko’nikmalari ham rivojlanib boradi.

“DAVRA SUHBATI” METODI – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o’z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o’qitish metodidir. “Davra suhbat” metodi qo’llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko’z aloqasi”ni o’rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og’zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og’zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo’yicha o’z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so’raydi va aylana bo’ylab har bir ta’lim oluvchi o’z fikr-mulohazalarini og’zaki bayon etadilar. So’zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo’lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo’lingandan so’ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbat” metodining tuzilmasi keltirilgan.





**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. R.Ishmuhammedov “O’quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo’llash uslubiyati”, Toshkent, RBIMM-2008 yil.
2. Hasanboyev J., To’raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug’at. T.:Fan va texnologiya, 2009.-b.348.
3. Sharipov Sh. Kasb-hunar ta’limi tizimida o’quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi. // Monografiya. – T.: Fan, 2005. – 136 b.



## IQTISODIY-MATEMATIK MODELLAR VA ULARNING TURLARI HAQIDA TUSHUNCHALAR

**Shodurdiyev Usmonbek Umarbek o'g'ili**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

1- kurs iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) yo'nalishi talabasi

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada Matematik modelda mavjud sistema (original) tuzilishi hamda elementlarining bog'liqligi matematik va mantiqiy munosabatlar sistemasi orqali ifodalanishi bayon qilingan.

*Kalit so'z:* matematika, model, zamonaviy, sistema, detal, o'quv, iqtisodiy.

Matematik model o'zining tabiati bilan originaldan farq qiladi. Originalning xususiyatlarini matematik model orqali tekshirish juda qulay va arzon bo'ladi. Bundan tashqari ko'p matematik modellar universal bo'lib, ular yordamida turli sistemalarni tekshirish mumkin.

Matematik modellashtirish rivojlanishida har xil murakkablikdagi hisoblashlarni va mantiqiy amallarni katta tezlik bilan bajaradigan zamonaviy komp'yuterlarning ahamiyati kattadir. Iqtisodiy hodisa va jarayonlarning matematik modellari qisqacha iqtisodiy matematik model (IMM)lar deb ataladi. Iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish tabiiy fanlardagiga nisbatan ancha murakkabroq kechadi, bu birinchi navbatda iqtisod, ishlab chiqarish jarayonlaridan tashqari, ishlab chiqarish munosabatlarini ham qamrab olishidadir. Ishlab chiqarish munosabatlarida esa odamlarning xulq-odat, hatti-harakatlari, qiziqishi va shaxsan yechim qabul qilishlarini hisobga olmasdan modelni yasab bo'lmaydi. Bu fikrning to'g'riligini quyidagi oddiy misoldan ham payqash mumkin.

Usta (master) boshchiligida bir necha kishi ishlaydigan jamoa kam seriyali mahsulot ishlab chiqarishini olaylik. Usta har kuni ishchilar o'rtasida har xil detallarni yasashni taqsimlaydi. Ishchilar bir-biridan umumiy malakasi bilan ham ishlab chiqarish amallarini bajarishi bilan ham farq qiladi. Har bir ishchining, har bir amalni bajarishini ish unumdorligiga qarab detallarni eng kam vaqt sarf qilgan holda topshirilgan vazifani bajarishning matematik modelini yasab uni chiziqli dasturlash masalasiga keltirib yechish mumkin. Lekin yechilgan masala boshliqni (ustani) qanoatlantirmasligi mumkin. Gap shundaki amallar (detailarni) bajarish ish haqiga nisbatan qulay, noqulay bo'lishi va bu amallarni bajarayotgan ishchilar uchun ish haqi ular hohlagan hamda usta hohlaganday muayyan normada bo'lishini modellashtirish qiyin. Bunda ustani, ishchini nima qiziqtiradi buni oddiy holda ham matematik ifodalash ancha murakkab. Bu sohada ham e'tiborga molik ishlar qilinmoqda.

Iqtisodiy-matematik modellashtirish amaliyotida shunday aniq qonun-qoidalar ishlab chiqilganki, ularni keyingi kurslarda o'rganiladigan matematik (matematik dasturlash, iqtisodiy matematik modellar va usullar va boshqalar) kurslarda qaraladi. “Matematika” fani kursida sistemalarning matematik modellarini tuzishda qo'llaniladigan asosiy matematik apparatni (amaldagi dastur asosida) o'rganishni maqsad qilib qo'yish mumkin.

Iqtisodchilar turli iqtisodiy hodisalarni o'rganish uchun ularning iqtisodiy model deb atalgan formal tasvirlanishlaridan foydalanishadi. Iqtisodiy modellarga iste'molchilarni tanlash modeli, firmalar modeli, iqtisodiy o'sish modeli, tovarli, faktorli, moliyaviy bozorlarda muvozanat modellari va boshqalarni misol qilib olish mumkin.

Iqtisodiy jarayon yoki hodisalarning matematik modelini tuzishda va uni tekshirishda koordinatlar usulidan keng foydalaniladi.

### **Iqtisodiy modellarni tuzish quyidagi bosqichlardan iborat**

- Tadqiqot maqsadi va predmeti aniq ifodalanadi.
- Qaralayotgan iqtisodiy tizimda qo'yilgan maqsadga mos keluvchi tuzilishli va funksional elementlarning ichidan eng muhim, sifatli ajratib olinadi.
- Model elementlari orasidagi bog'lanishlar ifodalanadi.
- Matematik model tuziladi.
- Matematik model bo'yicha hisob-kitoblar olib boriladi va yechim iqtisodiy tahlil qilinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Krinskiy X.Ye. Matematika dlya ekonomistov. – M.: Statistika. 1971.
2. M.S. Krass “Matematika dlya ekonomicheskix spetsialnostey”. – M.: 1998.
3. B.Begmatov “OLiy matematika” o'quv qo'llanma. Samarqand.-2012.



**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM FANLARINI YANGI PEDAGOGIK VA INNOVATSION  
TEKNOLOGIYALAR ASOSIDA O‘QITISH ASOSLARI**

**Shukurlayeva Nodira**

Xorazm viloyati Gurlan tumani  
9-son umumta‘lim maktabining  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Shukurlayeva Maryamjon**

Xorazm viloyati Gurlan tumani  
22-son umumta‘lim maktabining  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ta‘lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni faol qo‘llash, ta‘lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada ham boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitishda pedagogik va innovatsion texnologiyalarning ahamiyati haqida mulohaza qilingan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, interfaol uslublar, pedagog, fan, texnologiya, o‘qitish texnologiyasi, dars, ko‘nikma, ta‘lim-tarbiya, innovatsiya.

Boshlang‘ich ta‘lim umumta‘lim maktablarining bosh bo‘g‘ini bo‘lgani sababli ana shu jarayonda o‘quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko‘proq e‘tibor berish lozim. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mas‘uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo‘ygan o‘quvchilarni maktab hayotiga ko‘niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo‘l ochib beradilar. Bolalarning o‘qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining vazifasi mas‘uliyatli ekanligini ko‘rsatadi.

Respublikamizda kadrlar tayyorlash milliy dasturi va “Ta‘lim to‘g‘risidagi qonunga asosan ta‘lim berishning umumiy o‘rta ta‘lim predmeti sifatida o‘qitiladigan boshlang‘ich ta‘lim fanlarining maqsadi umumiy o‘rta ta‘lim negizida ushbu fanlardan fundamental bilim berishdan iboratdir. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida boshlang‘ich sinflarning fanlarini innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish va bunda pedagogik texnologiyaning o‘rnini aniqlash, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni loyihalash va zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o‘zlashtirib borishni ko‘zda tutadi.

Hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalar)dan foydalanib, ta‘limning samaradorligini ko‘tarishga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar, o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchanlik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bu o‘quv jarayonida o‘quvchi asosiy figuraga aylanadi. Bu esa, olim va amaliyotchilar tamonidan ishlab chiqilgan, o‘quv jarayonini texnologiyalashtirish, ya‘ni o‘qitishni ishlab chiqarishga oid aniq kafolatlangan natija beradigan texnologik jarayonga aylantirishga har bir o‘qituvchi urinib ko‘rish mumkin, degan fikrga olib keldi. Bunday fikrning tug‘ilishi pedagogika fanida yangi pedagogik texnologiya yo‘nalishini yuzaga keltiradi.

O‘quv- tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishga olib keladi. Bu esa o‘quvchidan ko‘proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Har qanday pedagogik texnologiyaning o‘quv tarbiya jarayonida qo‘llanilishi shaxsiy xarakterdan kelib chiqqan holda, o‘quvchini kim o‘qitayotganini va o‘qituvchi kimni o‘qitayotganligiga bog‘liq. P e d a g o g i k texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarini asoslashga imkoniyat yaratadi.

Boshlang‘ich sinfda ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning o‘qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o‘quvchilarni ta‘lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o‘qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.





Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innovatsion jarayonlarda ta‘lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o‘zlashtirish va o‘zlashtirgan bilimlarni o‘zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham, ta‘lim muassasalarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonoviy o‘qitish uslublari –interfaol uslublari, innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ularning ta‘limda qo‘llanilishiga oid bilimlar, o‘quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishini ta‘minlaydi.

XXI asrning fan va texnika tez sur‘atlarda rivojlanib borayotgan bir davrda innovatsion texnologiyalar ta‘limning barcha sohalariga jadallik bilan kirib bormoqda. Shu sababli, o‘rta umum ta‘lim maktablarida boshlang‘ich ta‘lim fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan. Bunday innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish o‘quv jarayonini jadallashtirish, o‘quvchida ilmga qiziqishini oshirish, ular ijodiy faoliyatini o‘stirish, bilim berishga differensial yondashish, olingan bilimlarni takrorlash, mustahkamlash va nazorat qilishni yengillashtirish kabi masalalarni hal etishga qaratilgan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent 1981 yil
3. Yuldashev J.G’.. “Pedagogik texnologiya asoslari”. 2007 yil
4. Tolipov O‘.Q. “Pedagogik texnologiyaning tatbiqiy asoslari”. FAN” nashriyoti 2006.
5. Mavlonov H., Uluqov N., Boynazarov F., “Pedagogik texnologiya asoslari”. Falsafa va huquq instituti nashriyoti. Toshkent-2007.



## QO‘SHMA GAPLARDA POLIFUNKSIONALLIK

Sulaymonova Zebiniso G‘ayrat qizi  
FarDU II bosqich magistranti

Qo‘shma gaplarning struktural-semantik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligida G‘.Abdurahmonov, M.Asqarovalarning, stilistik xususiyatlari esa A.Mamajonovning tadqiqot ishlarida o‘z aksini topgan. Tadqiqotlarda qo‘shma gaplarga xos xususiyatlar tilshunoslar olimlar tomonidan yoritib berilgan. Qo‘shma gaplarga oid xususiyatlar haqida quyidagicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Bog‘lovchi va bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordami bilan tuzilib, bir butunlikni tashkil etgan, mazmunan ma‘lum bir murakkab fikrni ifodalovchi gaplar birikmasiga qo‘shma gap deyiladi<sup>1</sup>.

Qo‘shma gapdagi bir butunlik, grammatik yaxlitlik uning sostavidagi qismlarning har jihatdan birikkan bo‘lishi orqaligina tug‘iladi: u qismlarning o‘zida bunday butunlik yo‘q – ular to‘la ma‘noda mustaqil emas..., birining mazmuni boshqasi bilan birga olingandagina to‘liq va aniq anglashiladi<sup>2</sup>. Qo‘shma gaplarning alohida olingan sodda gaplarga qaraganda ma‘no ifodalash imkoniyati kengligi tilshunos olim tomonidan e‘tirof etilgan. Bitta qo‘shma gap orqali berilgan fikrni alohida olingan ikkita sodda gaplar bilan ifodalash imkoniyati kamligi tadqiq qilingan. Masalan:

***Shu kasbni orttirdi-yu, ishqibozlari ko‘payib qoldi.*** (O‘. Umarbekov)

Tilshunos olim A.Mamajonov sintaksis sohasida katta ilmiy izlanishlar olib borgan olim hisoblanadi. Olim qo‘shma gaplarning sodda gaplardan farqi, afzalliklari borasida shunday fikrlar bildirgan. Qo‘shma gaplar, ayniqsa, yozma nutq uchun juda zaruriy va eng qulay ifoda vositasidir. Qo‘shma gaplar barcha tillarga xos sintaktik konstruksiya hisoblanadi. Bunday konstruksiyalar til hodisalarining rivojlanishi, mukammallashuvi natijasida yuzaga kelgan sintaktik konstruksiyalardir. Qo‘shma gap o‘zida tilning aloqa vositasi sifatidagi mohiyatini to‘la ifoda eta oladigan muhim stilistik imkoniyatdir<sup>3</sup>.

Ergash gapli qo‘shma gaplar bilan bog‘liq polifunksionallik hodisasi haqida tilshunos olim A.Berdialiyev shunday mulohazalar bildiradi:

Har xil ergash ergash gapli qo‘shma gaplar signifikativ ma‘nolarning bir konstruksiyada qorishiq ifodalanishi bir qator o‘ziga xos sabablar bilan xarakterlanadi. Qo‘shma gap predikatik qismlari tartibining bir xil bo‘lishi, bog‘lovchi va bog‘lovchi vosita hamda intonatsion qurilishning qurilishining bir xilligi, ularning universal va polifunksional xarakteri bir konstruksiyada har xil signifikativ birliklarning qorishuvi sabab bo‘ladi<sup>4</sup>.

Tahlillardan ko‘rish mumkinki ko‘p hollarda ravish, payt va sabab ergash gapli qo‘shma gaplarining signifikativ ma‘nolari bir konstruksiyada qorishiq ifodalanadi. Chunki ravish, payt va sabab ergash gapli qo‘shma gaplarga xos struktur sxema – modellarda mushtarak xususiyatlar mavjud bo‘ladi. Ular tarkibida bir xil polifunksional “turg‘un elementlar” ish ko‘radi.

Ergash gapli qo‘shma gaplarning polifunksional xarakterda bo‘lishi turli ergash gapli qo‘shma gaplar doirasida kuzatiladi. Bu xil gaplarda ergash gaplarning sintaktik vazifasi birdan ortiq bo‘ladi. So‘zlovchi nutq talabidan kelib chiqib ulardan foydalanish imkoniyatiga ega. Polifunksional xususiyatga ega ergash gapli qo‘shma gaplar:

**Shart va payt holi ergash gapli qo‘shma gaplar doirasida:**

*Shamol bo‘lmasa, daraxtning uchi qimirlamaydi.*

*Olim bo‘lsang, olam seniki.*

*Bahor kelsa, tog‘ga chiqamiz.*

**Payt va natija holi ergash gapli qo‘shma gaplar doirasida quyidagi misollarda kuzatish mumkin:**

*“Qalinroq kiyintirsam, isib ketmaysanmi?” – so‘radilar onam.*

*Agar birovni aldamoqchi bo‘lsa, har tusli bo‘lganda o‘zining jo‘ralari ham tanimas edi.*

1 Abdurahmonov G‘. Qo‘shma gap sintaksisi asoslari. Toshkent. 1958. – B.11.

2 Asqarova M. Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar. Toshkent. 1960. – B. 5 –6-.

3 Mamajonov A. Qo‘shma gap stilistikasi. Toshkent: Fan, 1990. – B. 15 – 16

4 Бердиалиев А. Эргаш гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика. – Тошкент: Фан, 1989. – Б 82.



(“Ravshan” dostonidan)

**Ega va o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplar doirasida:**

*Qayering og‘risa, o‘sha yer – joning.*

**Kesim va o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplar doirasida:**

*Qayer obod bo‘lsa, mening vatanim – o‘sha yer.*

**To‘ldiruvchi va shart ergash gapli qo‘shma gaplar doirasida:**

*Kimki hayotdan olmasa ta‘lim, unga o‘rgatolmas hech bir muallim (Rudakiy)*

**Aniqlovchi va shart ergash gapli qo‘shma gaplar doirasida:**

*Kimki tez-tez dalalarga chiqib tursa, bahri-dili ochiladi.*

**To‘siqsizlik va payt ergash gapli qo‘shma gaplar doirasida:**

*Nimadan gap ochilmasin, ikki og‘iz savol-javobdan nariga o‘tmas edi (A.Qahhor)*

**Shart va o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplar doirasida:**

*Qayerda ahillik bo‘lsa, o‘sha yerda qut-baraka bo‘ladi.*

Ba‘zi ergash gapli qo‘shma gaplar faqat bitta ma‘no va funksiya ifodalamasdan ikki va undan ortiq ergash gapli qo‘shma gaplarning ma‘no va vazifasini bajara oladi. Bu esa o‘z navbatida polifunksionallik hodisasining ergash gapli qo‘shma gaplarda ifodalanishiga zamin yaratadi.



**МАКТАБДА ТАРИХ ФАНИНИ О’ҚИТИШДА “REZYUME” INTERFAOL  
TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH.**

**Sultanova Shahnoza Palvannazir qizi**

Xiva tuman 6- son maktab

Tarix fani o’qituvchisi

*Annatsiya:* Ushbu maqolada har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo’lgan ta’lim tizimining rivojlanishida muhim rol o’ynaydigan yangi interfaol metod haqida ma’lumotlar berilgan.

*Kalit so’z:* debat, pedagogik, axborot, ta’lim, fikr, jamoa, siyosati, metod.

Har bir pedagog shuni doimo hisobga olishi va esda tutishi lozimki, dars o’quv-tarbiya jarayonining asosiy shaklidir. Dars jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga e’tibor qaratiladi, birinchi navbatda bu amalga oshiriladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan soha mutaxassislarining fikricha “Pedagogik texnologiya” bu o’quvchilarni o’qishi, o’rganish va ularni har tomonlama rivojlantirish qonun qoidalarini o’z ichiga olgan pedagogik tadbirlar tizimida iboratdir deyiladi.

Bu texnologiya murakkab, ko’p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o’rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yola mavzuning turli tarmoqlari bo’yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

O’quvchilarni erkin, mustaqi, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo’lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o’quv muammosini yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o’z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishga o’rgatish.

Ma’ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo’lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarida yakka (yoki kichik guruhlar ajratilgan tartibda o’tkazish, shuningdek uyga vazifa berishda ham qo’llash mumkin.

Mashg’ulotda foydalanadigan vositalar - A-4formatdagi qog’ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar, flomaster yoki rangli qalamlar.

Mashg’ulotlar o’tkazish tartibi: O’qituvchi o’quvchilarning soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi.

O’qituvchi o’quvchilarni mashg’ulotning maqsadi va o’tkazilish tartibi bilan tanishtiriladi va har bir kichik guruhga qog’ozning yuqori qismida yozuvi bo’lgan, ya’ni asosiy muammo, undan ajratilgan o’quv muammolari va ularni yechish yo’llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi.

Har bir guruh a’zolari ularga tushgan varaqlardagi muammolarning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o’z fikrlarini flomaster yordamida yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoni yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar.

- Kichik guruh a’zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o’qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi.
- O’qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so’rab, ular fikrini aniqlaydi, guruhlar fikridan so’ng taqdimot guruhi o’z xulosasi bilan tanishtiradi;
- O’qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so’ngra mashg’ulotni yakunlaydi.

**Ilava (misol tariqasida)**

O’quvchilar bilimini nazorat qilish					
Eski obidalarni		O’zbekiston tarixi fani		Amir Temur maqbarasi	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Xulosa:					

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Tolipov O’., No’monova N. Ta’lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. G’G’ Xalq ta’limi. - Toshkent, 2002. - N 3.23-29b.
2. R. Ishmuhammedov “O’quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo’llash uslubiyati”, Toshkent, RBIMM-2008 yil.
3. Hasanboyev J., To’raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug’at. T.: Fan va texnologiya, 2009. - b.348.



## МАКТАБДА БОШLANG'ICH SINFLARNI O'QITISHDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

**Tazabekova Roza Kurbanbayevna**  
**Axmedova Raya Nazarovna**  
Urganch tuman 46- son  
boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari

*Annatsiya:* Bu maqolada matematika bolalarni tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tasavvur etish, kuzatuvchanlikni rivojlantirishga imkon beradi shuningdek, matematika o'quvchilarning mantiqiy fikrlash malakalarini oshirishi ularning o'z fikrlarini aniq, to'g'ri va tushunarli bayon etish uchun zamin hozirlashi haqidagi fikrlar bayon qilingan.

*Kalit so'zi:* diqqat, xotira, son, soat, mil, minut, soniya, o'lchov, bilim.

Respublikamizda ta'lim tarbiyaning mazmun va mohiyatining o'zgarishi o'qituvchi va o'quvchi oldiga yangidan – yangi muammolarni ko'ndalang qilib qo'ydi. Ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan ta'lim yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonlarda ta'lim texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Ta'lim tarbiya jarayonida, jumladan, boshlang'ich sinf matematika darslarida vaqt o'lchov birligini o'rganish barobarida o'quvchilarning bilim va tahsil olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiriladi, bilish faoliyati faollashtiriladi, ta'lim tarbiya jarayonini yuqori darajada bo'lishiga imkon yaratadi. Biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari ma'suliyatini chuqur his qilgan holda ona tili darslarida matematika darslarida vaqt o'lchov birligini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgansak ko'zlangan maqsadga to'la erishamiz.

Katta mil sanoq bo'yicha nechanchi marta aylanayotganini bilish uchun, ya'ni soat nechalgini bilish uchun u bilan kichik mil bog'langan va u soat mili deb ataladi. Sonlar yozilgan doira siferblat deb ataladi. Butun doira 12 ta teng bo'lakka bo'lingan va har bir bo'lak yoniga tartib bilan sonlar yozilgan. Har bir soatning boshlanishini katta mil 12 sonida turganida ko'rsatadi, sanoq bo'yicha soat nechalgini qisqa soat mili ko'rsatadi. Soatlar modeli bo'yicha vaqtни ayramiz.

O'qituvchi vaqtни aytishni o'rgatadi;

Bir soat — bu ko'pmi yoki kammi? Bizning darsimiz tanaffus bilan birga deyarli 1 soat davom etadi. Agar darsda topshiriqlarni bajarish vaqtiga qat'iy rioya qilinsa, juda ko'p bilim olish mumkin. Shu sababli soatni kichikroq o'lchovlarga bo'lish kerak. Buning uchun doirani 60 ta teng bo'limga bo'lishgan. Katta mil bu bitta bo'limni bosib o'tishi uchun ketgan vaqt minut deb ataladi. Bir aylanishda minut mili 60 bo'limni bosib o'tadi. Demak, 1 soat—60 minut.

Soat nima? (Vaqtни o'lchash uchun asbob.)

Soat qanday qismlardan tashkil topgan? (Kichik mil soat mili, katta mil — minut mili, millarni xarakatlantiradigan mexanizm siferblat).

Soat qanday o'lchovlarni sanaydi? (Soatlar va minutlarni.)

1 sutka=24 soat, 1 soat=60 minut «Minut» tushunchasini bolalar amaliy mashg'ulotlarda anglab yetadilar. «Bolalar, 1 minut — bu ko'pmi yoki kammi? Siz to'g'ri o'tiring, qimirlamang, men vaqtни belgilayman va siz shunday 1 minut o'tirasiz. (O'quvchilar 1 minut tugagandan yengil tortadilar, tinch o'tirish juda qiyinda.) Demak, 1 minut — bu juda uzoq vaqt. Endi siz doskada misollarni ko'rib turibsiz, ular oson, qani kim 1 minutda ko'p misol yecharkin?

$7+5, 8+7, 9+5, 3+8, 7+3, 6+4.$

Demak, 1 minut kichik vaqtmi? Minutlar qanchalik tez o'tayotganiga qarang. Ularni behuda sarf etmang, ularni bilimlar va xayrli ishlar bilan boyiting. O'quvchilarni vaqt o'lchovlari bilan tanishtirilganidan so'ng o'lchovlar tizimiga solinadi, vaqt o'lchovlari jadvali tuziladi. Vaqt o'lchovlarini o'rganish jarayonida o'qituvchi tarbiyaviy suhbatlar o'tkazish imkoniyatiga ega. Bu odam o'tmishda vaqtни qanday o'lchaganligi haqida, dastlabki taqvimlar haqida yoki soatlar haqida va hokazolar bo'lishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ta'lim taraqqiyoti. Boshlang'ich ta'lim, «Sharq» 1999-yil, 7-maxsus son.
2. Abdullayeva K. va boshqalar. Savod o'rgatish metodikasi. T., «O'qituvchi», 1996-yil. 18-25-betlar.
3. Jumayev M.E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari T.: Yangi asr avlodi 2006.





## HUSNIXAT DARSLARINI TASHKIL ETISHA SINIF DOSKASINING AHAMIYATI

**Tojiboyeva Nilufar Djumaboyevna**  
Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani  
23-umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda husnixat darlarini samarali tashkil etish metodikasini shakllantirishda sinf doskasidan foydalanish hamda doskadan foydalanish texnologiyasi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** doska, Genetik metod.

Boshlang'ich sinflarda darsning samarasini asosini asosan sinf doskasi tashkil etadi. Sababi, doskaga qo'yiladigan talablardan biri bu – o'quvchilarni yozishlari Maktablar uchun chiqarilgan sinf doskasi qora yoki to'q yashil randa bo'lishi lozim. Sinf doskasining yuzi tekis bo'lib, juda silliq ham bo'lmasligi lozim, aks holda bo'r doskada sirpanib yozuvning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Sinf doskasini ikki turga bo'lish mumkin: biri domiy devorga osig'liq turadigan doska, ikkinchisi tik o'q atrofida aylanadigan ko'chma doska. Bunday doskaning qulay tomoni shundaki, uni derazadan tushayotgan yorug'ga qarab burish mumkin.

Bunday doskachalarni mehnat darslarida yuqori sinf o'quvchilari ham yasab berishlari mumkin. Sinf doskasi linoleumdan yoki taxtadan yasalishi mumkin. Linoleumdan yasalgan sinf doskasi sifatli hisoblanadi, chunki taxtadan yasalgan doskalar xar yili bo'yalib turiladi. Natijada bo'yoqlar qatlami hosil bo'lib, doskaga yozish vaqtida bo'r sirg'anib ketaveradi. Sinf doskasi qoida bo'yicha eniga 1,200 mm, uzunligi 3000 mm bo'lishi lozim. Sinf doskasining chetiga raqamlar qo'yilgan bo'lib, pastki qismida esa bo'r va latta uchun joy bo'lishi shart.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun doska poldan 85 sm yuqoriga o'rnatilgan bo'lishi lozim. O'quvchilarga yozuvlarni yanada yaqqolroq ko'rsatish uchun sinf doskasini balandroq qo'yish ham mumkin. Ammo bunda doskaning tagiga balandligi 16 sm, eni 1 metr, uzunligi esadoskaning uzunligi bilan ting bo'lgan taxta qo'yilishi lozim. Doskaning tagiga bo'r maydalarining to'kilmasligi uchun pastki ramkaning ustiga eni 5-6 sm li taxtacha o'rnatilishi, chap tomonida esa bo'r turishi uchun quticha maxkamlanishi maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda ko'pchilik maktablarimizda uch tabaqali harakatlanuvchi ochilib yopiladigan doskalar ham keng o'rin olmoqda. U doska maktablarimiz uchun juda qulay bo'lib, uni yuqoriga ko'tarish, pastga tushirish mumkin. Bunday doskalar har bir sinf o'quvchilarining bo'yiga moslashtirish uchun juda qulaydir. Undan tashqari, bir tabaqasini yozuv daftariga, ikkinchi tabaqasini matematikaga moslab chizib qo'yish mumkin. Sinf dokasi devorning o'rtasiga o'rnatilgan bo'lib, yorug' chap tomondan tushib turishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qiydigan sinflardagi doskalar yozuv darslari uchun moslashtirilib, kataklarga ajratilgan bo'lishi, yozayotganda qimirlamasligi lozim. Agar sinf doskasi qora rangda bo'lsa, oq rangli bo'yoq bilan, agar doska to'q yashil rangda bo'lsa, qora bo'yoq bilan kataklar chiziladi. Sinf doskasiga kataklar chizish vaqtida, albatta, moyli bo'yoqdan foydalanish kerak.

Yozuv mashg'ulotlarida doska bilan bir qatorda bo'r muhim rol o'ynaydi.

3. Bo'r yumshoq nam bo'lmasligi kerak. Bo'r 15x15 mm li kvadrat shaklida bo'lib, uzunligi 50 mm dan oshmasligi yoki 30 mm dan kam

Uchinchi gruppasi: o, a, br, yu, ya, d, f.

4. To'rtinchi gruppasi: ye, e, ch, o'r, v, ' , .

5. Beshinchi gruppasi: e, h, j, q, g'r, q. Bosh xarflar gruppasi:

1. Birinchi gruppasi: I, SHr, CH, S.

2. Ikkinchi gruppasi: L, A, M, YA.

3. Uchinchi gruppasi: O, S, E, H, X, J.

4. To'rtinchi gruppasi: Z, YE, E.

5. Beshinchi gruppasi: U, O', N, Q, S.

6. Oltinchi gruppasi: G, G', P, T, B.

7. Yettinchigruppasi: Rr, V, YU, F, D.



Harflarga o'xshash raqamlar shakl jihatdan kattaligini ham hisobga olib quyidagi gruppalariga ajratiladi:

1. Birinchi gruppа: 1, 4, 7
2. Ikkinchi gruppа: 6, 9, 0.
3. Uchinchi gruppа: 2, 3, 5, 8.

Genetik metod bilan to'g'ri ish olib borish uchun har bir o'qituvchi kichik va bosh harflarni gruppalariga ajratish bilan birga, uning qanday elementlardan tuzilganligini va ularning nomlarini yaxshi bilishi amalda qo'llay olishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'ulomov M. “Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish” T.1970
2. G'ulomov M. “Chiroyli yozuvni shakllantirish” T. 1992



## O'SMIRLARNING INTELLEKTUAL RIVOJLANISHI

**Taxirova Sabohat Rustamovna**

Xorazm viloyati Shovot tumani

49-IDUM amaliyotchi psixologi.

Email:sabohat49maktab@umail.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'smirlik yoshidagi o'quvchilarning intellektual rivojlanishi va fanlarni o'qitilishida o'quvchi yoshlar bilim olishi uchun qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zi:** Tabiat, shaxs, psixologiya

Endi o'smirlar o'yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan holda ko'proq jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. Maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. O'qish o'smirlar hayotida katta o'rinni egallaydi. Ular uchun mashg'ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, qiziqishlarining ortishi, o'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog'liq. O'qish faoliyati asosida o'smirning o'z-o'zini anglash darajasi kengayadi, boshqa odamlar, atrof olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. Bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yuzaga keladi. Bu motivlar o'smirning, hayotiy rejalari, kelajak kasbi va ideali bilan bog'liq bo'lgan holda bilish jarayonlari rivojlanish xarakteriga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy, ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi.

Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq og'zaki va yozma mavjud bo'lishi bilan kuchli vosita hisoblanadi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga qulay sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O'smirlik davrida nutqning rivojlanishi bir tomondan so'z boyligining oshishi hisobiga bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea va hodisalarning mazmun-mohiyatini anglashlari hisobiga bo'ladi. Bu davrda o'smir til yordamida atrof-borliqni aks ettirish bilan bir qatorda inson dunyoqarashini ham belgilab berish mumkinligini his qila boshlaydi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, inson nutq bilish jarayonlarining rivojlanishini belgilab berishini tushuna boshlaydi. O'smirni ko'pincha muomalada so'zlarni ishlatish qoidalari – “*«Qanday kilib to'g'ri yozish kerak?» «Qanday kilib yaxshiroq aytish mumkin?»* , *«Nima deyish kerak?»*», kabi savollar juda qiziqtiradi. O'smirlar maktabdagi o'qituvchilar, kattalar, ota-onalar nutqidagi kamchiliklariga, kitob, gazeta, radio va televidenie diktorlari xatolariga tez e'tibor beradilar. Bu holat o'smirning bir tomondan o'z nutqini nazorat etishga o'rgatsa, ikkinchi tomondan kattalar ham nutq qoidalarini buzishlari mumkinligini bilishlariga va o'zida mavjud xatoliklarni birmuncha barham toptirishlariga olib keladi.

O'smir so'zlarning kelib chiqish tarixiga, ularning aniq mazmuni va mohiyatiga juda qiziqadi. U endi o'z nutqida Yosh bola singari emas, balki katta odamlardek so'zlarni tanlab ishlatishga harakat qiladi. Nutq madaniyatini egallash borasida o'smir uchun o'qituvchi, albatta, namuna bo'lishi shartdir. Aynan maktab ta'limi o'smir bilish jarayonlarini rivojlanish yo'nalishini sifat jihatidan o'zgarishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Maktabdagi o'quv jarayonlarining to'g'ri tashkil etilishi va amalga oshirilishi bilan o'smir nutqining to'g'ri rivojlanishiga sharoit yaratiladi. Nutqni o'zlashtirishga harakat bu o'smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishishiga ehtiyoj va intilish hisoblanadi.

O'smirlik davrida o'qish malakalari, yozma va monologik nutq jadal rivojlanadi. 5-sinfdan boshlab to 9-sinfgacha o'qish to'g'ri, tez va ifodali bo'lish darajasidan, yoddan ifodali, ta'sirli aytib bera olish darajasigacha ko'tariladi. Monologik nutq esa asardagi kichik bir parchani qayta so'zlab berishdan, mustaqil ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, og'zaki - mulohaza yuritish,



fikr bildirish va ularni asoslab berishgacha o‘zgaradi. YOzma nutq ham rivojlangan holda o‘smirlar endi ularga berilgan erkin mavzu bo‘yicha mustaqil holda insho yoza oladilar.

O‘smirlarning nutqi to‘la tafakkur bilan bog‘liq holatida amalga oshiriladi. 5-6 sinflardagi o‘quvchilar og‘zaki va yozma matn uchun reja tuzib, unga amal qila oladilar. O‘zi yozgan fikrni qayta-qayta o‘qib, o‘z nutqini analiz qilib ko‘rishga majbur qiladi. O‘quvchi yozib bayon qilayotganida, ko‘pincha, bu ishini bir necha marta qayta ko‘rib chiqishga, o‘zgartirishga, to‘ldirishga, qaytadan ishlab chiqishga majbur bo‘ladi.

**Diqqat.** Agar kichik maktab davrida ixtiyorsiz diqqat ustunlik qilsa, o‘smirlik davrida bola o‘z diqqatini o‘zi boshqara oladi. Dars davomida intizomning buzilishi aksariyat hollarda o‘quvchilar diqqatsizligidan emas, balki ijtimoiy sabablar bilan belgilanadi. O‘smir o‘z diqqatini to‘la ravishda o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan va yuqori natijalarga erishishi mumkin bo‘lgan faoliyatlarga qarata oladi. O‘smirning diqqati yaxshi boshqariladigan va nazorat etiladigan darajada rivojlangan bo‘lishi mumkin. Bolaning rivojlanayotgan ixtiyoriy diqqati o‘qituvchi tomonidan doimo qo‘llab-quvvatlanishi juda zarurdir. Pedagogik jarayonda ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko‘tarish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan. Shuningdek, o‘smirning dars jarayonida o‘z tengdoshlari orasida o‘zini ko‘rsatishi uchun sharoitni yaratilishi ham o‘smirdagi diqqatni ixtiyorsizdan ixtiyoriyga aylanishida zamin bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Kaykovus. Qobusnoma. -T.:O‘qituvchi, 1986 y.
2. Zunnunov A. O‘zbek pedagogikasi tarixi. -T.: O‘qituvchi, 1997 y. -272 b.
- 3.Sh.A.Do‘stmammedov,Z.T.Nishonova Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Toshkent-2013 b-133
- 4.S.N.Alimxo‘jayeva,F.I.Haydarov Psixologik treninglar Toshkent-2008



## BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIDA MATN TUZISHDA REJA TUZA OLIISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

**Ubaydullayeva Dilfuza**

Toshkent shahri Olmazor tumani  
243-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi  
Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada matn tuzish ko'nikmasini shakllantirish hamda o'quvchilarga matn tuzishda reja tuzishni o'rgatish haqida fikr bildiriladi.

**Kalit so'zlar:** «oddiydan murakkabga», o'quvchilar ertak, hikoya, masal, she'r, maqol.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ertak, hikoya, masal, she'r, maqol, topishmoq, ilmiy-ommabop asarlar va dostonlardan parchalar o'qish orqali ularda ifodalangan voqea-hodisalar, obrazlar va ularning xulq-atvori bilan tanishadilar, o'qigan asarlariga baho berishni o'rganadilar; ularda asarning tili, uslubi, yozuvchi qo'llagan tasvir va ifoda vositalari haqida dastlabki adabiy tushunchalar shakllana boshlaydi.

O'quvchilar asar mazmunini o'zlashtirish bilan birga unda bayon etilgan asosiy fikrni aniqlab olishga, fikrlar o'rtasidagi bog'lanishni belgilashga o'rganadilar. Badiiy asar matnini o'qish bilan bolalarda o'zlarini o'rab turgan muhit, Vatan va uning tabiati, kishilar mehnati haqida ham tasavvur hosil bo'ladi. O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqyealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasini hosil qiladi.

O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab ola boshlaydilar. O'quvchilar asar voqyealari rivojini seriyali rasmlar asosida muayyan izchillikda tasvirlashlari ham, har bir rasm seriyasi ostida shu qismda ifoda etilgan muhim fikrlarni yozib qo'yishlari ham mumkin. Bular asar matnini to'liq, qayta hikoyalash, shuningdek, o'qilgan hikoya, maqolaning rejasini tuzish, matn mazmunini, uning tasviriy vositalarini bilib olishga yordam beradi.

Asar rejasini tuzish. Reja matn mazmunini ongli va chuqur tushunishda, asosiy fikrni ajratishda, voqyealarning izchilligini belgilashda, matn qismlarining o'zaro bog'lanishini tushunishda o'quvchilarga yordam beradi. Reja ustida ishlash o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stiradi. Ular matnni mazmunan tugallangan qismlarga bo'lishga va har bir qismning asosini topishga ularga qisqa va aniq sarlavha topishga, uni reja qismi sifatida shakllantirishga o'rganadilar.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishlari savod o'rgatish davridayoq boshlanadi. Tayyorgarlik mashqining eng oddiy turi berilgan sarlavhalardan kichik matn mazmuniga mosini topib qo'yish hisoblanadi. Bunday mashqqa o'rgatishda o'qituvchi sarlavha asosiy fikrni ifodalashini ta'kidlaydi, bolalar topgan sarlavhani tahlil qilib, u yoki bu sarlavha nima uchun mos yoki mos emasligini tushuntiradi.

Reja tuzishga tayyorgarlik ishining 2-turi o'qituvchi rahbarligida tanlab o'qish hisoblanadi, bolalar matndan o'qituvchi bergan savolga javob bo'ladigan o'rinni topib o'qiydilar. Reja tuzish «oddiydan murakkabga» tamoyili asosida asta-sekin murakkablashtirilib, muayyan izchillikda o'tkazib boriladi. O'quvchilar 1-sinfda o'qilgan kichik matnga o'qituvchi rahbarligida so'roq gap tarzida sarlavha tanlashlari, 2-sinfda kichik maqolaning rejasini o'qituvchi rahbarligida so'roq yoki darak gap tarzida tuzishlari, 3-sinfda o'qilgan matn rejasini jamoa bo'lib tuzishlari, 4-sinfda mustaqil reja tuza olishlari kerak.

Rejaning eng oddiy shakli rasmi reja hisoblanadi. Buning uchun avval bolalar kitobda berilgan rasmlardan matn qismiga mosini tanlashga va uni nomlashga o'rgatiladi, keyin matn qismiga tayyor rasm berilmaydi, uni bolalarning o'zlari so'z bilan tasvirlaydilar. Hikoya o'qiladi va qismlari bo'yicha tahlil qilinadi, so'ng o'quvchilar matnning 1-qismini o'qiydilar, o'qituvchi ulardan qanday rasm chizish mumkinligini so'raydi. Qolgan qismlari ustida ham ishlar shu tarzda ishlanadi. O'quvchilar chizgan rasmlariga nom (sarlavha) qo'yadilar. Ular qo'ygan nom sarlavha doskaga reja qismi tarzida yozib beriladi. O'quvchilar rasmi reja tuzishdan logik reja tuzishga o'tadilar, logik reja tuzish quyidagi izchillikda o'rgatiladi:

1. O'qituvchi qismlarga bo'lingan matnga tanlab reja tuzadi va matn rejasining o'rnini almashtirib, sarlavha tarzida xattaxtaning chap tomoniga yozib qo'yadi. O'quvchilar matnning





1-qismini o'qiydilar, shu qism mazmuniga mos sarlavhani topadilar, uni o'qituvchi xattaxtaning o'ng tomoniga yozadi. Ana shu tarzda xattaxtada o'qilgan matnning rejasi hosil bo'ladi.

2. Matn qismlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida har bir qismdagi asosiy g'oyani aniqlaydilar va unga sarlavha topadilar, o'qituvchi sarlavhalarni reja tarzida xattaxtaga yozib boradi.

3. Qismlarga bo'linmagan matn tanlanadi, sarlavhalar matn rejasi tartibida doskaga yoziladi. O'quvchilarga berilgan sarlavhalardan foydalanib, matnni qismlarga bo'lish topshiriladi. Ular matnni o'qishadi va sarlavhalarga tegishli qismni ajratadilar.

O'quvchilarda reja tuzish ko'nikmasi hosil bo'lgach, ular matnni mustaqil ravishda qismlarga bo'ladilar. (3-4- sinf) Har bir qismga reja tuzadilar. Rejani 3-4- sinflarda darak va atov gap tarzida shakllantiriladilar. Rejada har bir qismi bir turdagi gaplar shaklida bo'lishi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Oripov K., Obidova M. Ifodali o'qish. T., «O'qituvchi», 1982- yil.
2. To'rt yillik boshlang'ich sinflar dasturi. T., «O'qituvchi», 1999- yil.
3. Umarova M, Xudoyberganov M. Bayonlar to'plami. T. "O'qituvchi", 1992-yil.
4. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodiikasi. T., O'qituvchi, 1985- yil.



«SUV O`TLARI TURLARI VA ULARNING TABIATDAGI AHAMIYATI MAVZUSINI  
MAKTAB O`QUVCHILARIGA O`RGATISH AHAMIYATI»

**Urazbaeva Nag'ima Rimbay qizi**  
Qoraqalpog'iston respublikasi  
Taxtako'pir tumani 13-sonli maktabi,  
biologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** bugungi kunda O'zbekiston respublikasi umum ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejaridagi darslarda o'quvchilarning bilish xususiyatlarini aktivlashtirish eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** suvo'tlari qadimgi o'simliklar, Sinkveyn, Elpig'ich, Muammoli aziyat.

Suvo'tlar o'simliklarning eng qadimiy vakillaridan biridir. Bugungi kunda uchraydigan suvo'tlarining tuzilishi qadimgi turlarning tuzilishidan ortiqcha farq qilmaydi, bu esa ularning suv muhitida vujudga kelganligini tasdiqlaydi.

**Qo'ng'ir, qizil va yashil suvo'tlari tuzilishi**

**. Laminariya (Laminaria digitata):**

1 – o'simlik bargining almashish payti, 2 – zoosporangiyali bargining kesimi, 3 – anteridiyali erkak o'simtasi (a), 4 – ooganiyali o'rg'ochi o'simtasi.

Suvo'tlar tabiatda juda keng tarqalgan bo'lib, er sharining turli ekologik sharoitlarida suv, tuproq, taqir erlar va qoyalarda, qor hamda muz tag'larida, daraxt po'stloqlarida o'sadi. Suv o'tlaridan nihoyatda ko'p biomassa hosil bo'ladi. Ana shu biomassaning kimyoviy tarkibi har xil bo'lganligidan kishilar va hayvonlar hayotida katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, baliqlar hayoti suv o'tlari bilan chambarchas bog'liqdir.

«Suv o'tlari turlari va ularning tabiatdagi ahamiyati mavzusini maktab o'quvchilariga o'rgatish ahamiyati» mavzusini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish

**1-ilova**


“Suv o'tlari turlari va ularning tabiatdagi ahamiyati” mavzusini

“Elpig'ich” metodida o'qitish:

Suv o'tlari haqida ma'lumot			
Suv o'tlari turlari		Ontogenezi	
Turlari	O'ziga xos xususiyatlari	Bosqichlari	Shakillanishi
Xulosa:			

**2-ilova**

“Suv o'tlari turlari va ularning tabiatdagi ahamiyati” mavzusini o'qitishda “Suv o'tlari” so'ziga «Sinkveyn» metodini qo'llash usulidan foydalanish.





**+3-ilova**

**“Suv oʻtlari turlari va ularning tabiatdagi ahamiyati” mavzusini oʻqitishda Muammoli vaziyat texnologiyasidan foydalanish namunasi.**

Muammo: “Bugungi kunda suv oʻtlari turlarining kamayib ketish sabablari va ularni bartaraf etish”

**“Muammoli vaziyat” jadvalini toʻldiring**

<i>Vaziyatdagi muammolar turi</i>	<i>Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari</i>	<i>Vaziyatning salbiy va ijobiy ahamiyati</i>
<b>1-muammo</b> Suv oʻtlaridan sanoatda foydalanish va suv muhitiga taʼsiri		
<b>2-muammo:</b> Suv oʻtlarini evolyutsion nuqtai nazardan oʻrganish		

□ Respublikada amalga oshirilayotgan taʼlim sohasidagi bir qator ijobiy ishlar, fan-texnikaning jadal surʼatlar bilan oʻsishi, bugungi kunda raqobatbardosh yuqori malakali kadrlar tayyorlash, shaxsni rivojlantirish, uning maʼlumot olish darajasini yuqori tarzda taʼminlashga nisbatan jamiyat ehtiyojlari bilan oʻqitish uslublari oʻrtasida ziddiyatlar tugʻilishiga olib keladi. Shuning uchun taʼlim jarayonida boshqa yondashuvlarni qoʻllash muhim ahamiyat kasb etadi.

Suv oʻtlar tabiatda juda keng tarqalgan boʻlib, er sharining turli ekologik sharoitlarida suv, tuproq, taqir erlar va qoyalarda, qor hamda muz tagʻlarida, daraxt poʻstloqlarida oʻsadi.

□ Suv oʻtlaridan nihoyatda koʻp biomassa hosil boʻladi. Ana shu biomassaning kimyoviy tarkibi har xil boʻlganligidan kishilar va hayvonlar hayotida katta rol oʻynaydi. Ayniqsa, baliqlar hayoti suv oʻtlari bilan chambarchas bogʻliqdir.

□ Suvda hech narsaga birikmasdan muallaq holda oʻsadigan plankton suv oʻtlar hayvonlarning oziqlanishida katta ahamiyatga ega. Suv oʻtlarning bir necha turlari indikatorlik vazifasini bajaradi.

□ Mavzuni oʻqitishning yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan shart-sharoitlari ilmiy-metodik jihatdan asoslab berildi, guruh kichik guruhlarga ishlaganda Suv oʻtlari tuzilishi haqida tushunchaga ega boʻldi, matnni taxlil qilishga oʻrganishdi, matn mazmunini ifoda etayotgan asosiy tushunchalar aniqlandi, savol va topshiriqlar bilan ishlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

- Mustafoev. Botanika. T. 2003 y.
- S.S.Saxobiddinov “Oʻsimliklar sistematikasi” I-II bob. “Oʻqituvchi” T. 1966, 1976.
- Oʻ.Pratov, Q.Jumaev. “Yuksak oʻsimliklar sistematikasi” (oʻquv qoʻllanma), T. 2003.
- Prатов Oʻ.P., Odilov T.O. - Oʻzbekiston yuksak oʻsimliklari oilalarining zamonaviy tizimi va oʻzbekcha nomlari. Toshkent. 1995. 39 b.
- I.X.Hamdamiyov, P.Shukurullaev, e.Tarasova, Yu.Qurbanov, A.Umurzoqov «Botanika asoslari» T, 1990 yil.
- I.Xamdamiyov, S.Mustanov, E.Xamdamiyova, G.Suvonova «Botanika», T. 2013,
- Preyvn P., Everst P., Aykxorn S. - Sovremennaya botanika izd. «Mir». Moskva 1990. 347 s.
- M.Baltabaev «Usimliklar anatomiyasi va morfologiyasi», N.Bilim, 2013,
- P.Xalmuratov «Yuksak usimliklar sistematikasi», Nukus, 2004,
- <http://ziyonet.uz>



## FARZAND TARBIYASIDA OILA MUHITINING O'RNI

**Mamatqosimova Gulnora**

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani

10-maktabning ona tili va adabiyot o'qituvchisi

**Usmonov Nosir**

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada farzand tarbiyasida oila muhitining o'rni, barkamol avlodni tarbiyalash bugungi zamonning talabiga aylanib borayotgani' glaballashuv jarayonida yuksak salohiyatli yoshlarni tarbiyalash talablari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Berdaq, A.S.Makarenko, Mirzo Ulug'bek, glaballashuv jarayoni.

Farzand – inson hayotining mazmuni, nasl-nasabini davomchisi, oilaning mustahkam zanjiri hamdir. Aqlli, bilimdon, mehnatsevar, imon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligi hisoblanadi. Odatda, farzand oilada ham jismonan ham ma'nau ulg'ayib, shakllanadi. Ularning voyaga yetishi davomida oiladagi ahillik muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa ularning ma'naviy tarbiyasi bilan jamiyatga xizmatini ifodalaydi. Demak, oila barkamol avlodni tarbiyalovchi maskan hisoblanadi. Berdaq oilaning bola tarbiyasida, muxim o'rin tutishni aloxida ta'kidlaydi, oila muxitida ota – onalar bilan bolalar o'rtasida o'zaro hurmat bo'lgandagina tarbiya yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini aytadi. Berdaqning uqtirishicha, inson tug'ilgan kundanoq tarbiyaga muxtojdir, uning ilk tarbiyachilari, albatta ota – onalardir. Berdaqning fikricha barcha odamlar insonparvar va adolatli bo'lsa jamiyat gullab yashnaydi. Buning uchun esa, xalqqa ta'lim berish, unda ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash lozim.

Farzand tarbiyasi jamiyatning kelajagi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlari barkamol yaxshi tarbiya olgan yurtida albatta rivojlanish bo'ladi. Darhaqiqat bugungi kunda davlatimizda yoshlarga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani, yoshlarning bilim olishlari yoki o'zlari istagan kasb hunarlari bilan shug'ullanishlari uchun barcha shart sharoitlar yaratib berilgan. Shu o'rinda esimizdan chiqarmasligimiz kerakki, davlat tomonidan shunchalik sharoit yaratib berilayotgan bo'lsa ham, farzand tarbiyaning asosiy qismini oilada oladi. Psixologlarning takidlashlaricha inson umri davomdagi 70% informatsiyani 7 yoshigacha o'zlashtirar ekan, tabiiyki, bu davr oilada kechadigan hayotga bo'liq. Aynan shuning uchun ham yetuk shaxslarni tarbiyalash uchun unga birinchi navbatda oilada yaxshi tarbiya berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, oiladagi tarbiya bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o'tgan. Bu haqda u shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Ayni shu davrda ota-onaning tarbiyadagi e'tibori, oilaviy muhitning sog'lomligi farzand kamolida katta ahamiyat kasb etadi.

Mirzo Ulug'bekning oila muhiti sog'lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, xavasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muxit muxim o'rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa o'qimishli ota – onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga aloxida e'tibor berishlari lozim.

Bugungi glaballashuv jarayonida bola tarbiyasi o'ta murakkab va mas'uliyatli jarayon hisoblanadi. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan boxabar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma yoki bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalarga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir. Bugungi kunda oilaviy tarbiya bir muncha qiyinlashdi. Sababi shundaki, jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada ota-onaning mas'uliyatini yanada oshirib bolaga estetik, diniy-axloqiy, jinsiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, butun dunyoda shiddat bilan rivojlanayotgan glaballashuv jarayonida inson qalbi va ongini egallash, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy



olamini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar, din niqobi ostidagi ekstremizm, yurtimizga qarshi qaratilgan g‘oyaviy va informatsion xurujlar kuchayib borayotgan bir paytda mustahkam ma‘naviy immunitetli, fikri tiniq, intiluvchan, o‘zining kimligini, buyuk ajdodlarning vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e‘tiqodi mustahkam yosh avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan bu yo‘lda har bir ota ona masuliyat bilan harakat qilmog‘i lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Anastazi A. Psixologicheskoe testirovanie: V 2 kn. Per. s ang. (Pod red. K.M.Gurevicha, V.I.Lubovskogo M. Pedagogika, 1982g.).
2. Bleyxer V.M. Burlachuk L.F. Psixologicheskaya diagnostika intellekta i lichnosti. K. Visha shk, 1978 g. 142 st.





**МАКТАБДА ОНА ТИЛИ ВА АДАБИЙОТ ФАНИ О’ҚИТИШДА “ҚОР БО’РОН”  
INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH  
USULLARI**

**Xayitbayeva Gulasal Raximbayevna  
Yuldasheva Ilmira Olimbayevna**  
Urganch tuman 18- son maktab  
ona tili va adabiyot fani o’ qituvchilari.

*Annotatsiya:* Ushbu maqolada “Qor bo’ron” metodi orqali maktablarda o’quvchilarini ona tili va adabiyot fanlarga qiziqitirish, aqliy, ruhiy, axloqiy sifatleri va yoshlikdan fkirlash qobilyatini oshirishga bog’liq bo’lgan ma’lumotlarni qamrab olgan.

*Kalit so’z:* metod, interfaol, ta’lim, tarbiya, o’qituvchi, o’quvchi, pedagog.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact” (rus tilida “interaktiv”) ifodalanib, lug’aviy nuqtai nazardan “inter” - o’zaro, ikki taraflama, “act” - harakat qilmoq, ish ko’rmoq kabi ma’nolarni anglatadi.

Interfaol ta’lim — ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko’nikma, malaka hamda muayyan ahloqiy sifatleri o’zlashtirish yo’lida birgalikda, o’zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta’lim.

O’qituvchi ta’lim jarayonida interfaol ta’lim yordamida o’quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o’z - o’zini nazorat, o’z - o’zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr - mulohazalarini erkin bayon qilish, o’z nuqtai nazarlarini ximoya qilish, muammoning echimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqish kabi sifatleri shakllantirishga muvaffaq bo’ladi.

Yuqori sinflarda ona tili, adabiyot va boshqa fanlardan beriladigan bilimlar mazmunini o’zbek tilining tovush tuzilishi va yozma nutqda tovushlarni ifodalash usullari haqidagi, so’zlarning o’zgarishi va gapda so’zlarning bog’lanishi haqidagi, so’zlarning morfemik tarkibi va so’z yasalishi, so’zlarning leksik – semantik guruhi haqidagi, o’zbek tilining to’g’ri yozuv qoidalari va tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi bilimlar tashkil etadi.

Ta’lim jarayonida didaktik o’yinli texnologiyalar didaktik o’yinli dars shaklida qo’llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayonini o’yin faoliyati bilan uyg’unlashtiriladi. Shu sababli, talabalarning bilim olish faoliyati, o’yin faoliyati bilan uyg’unlashgan darslar didaktik o’yinli darslar deb ataladi.

“Qor bo’ron” metodi ikkiga ajratilgan guruh o’quvchilari bir muammo yuzasidan eng ko’p to’g’ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to’g’ri javob yumaloqlangan qor ko’rinishida o’sha guruh hisobiga yozib qo’yiladi; to’plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo’lishi mumkin. Guruhlar qo’yilgan muammoni ma’lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma’lum qilishadi. Muammo yechimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

Masalan: Bu metoddan “So’z turkumi” tushunchasini hosil qilishda foydalanish mumkin. Bunda o’quvchilarga quyidagi savolni beriladi:

- So’zlarni ma’nolariga ko’ra qanday turlarga bo’lib o’rganiladi?

Ularning javobini doskaga yozib boriladi. Shundan so’ng

- shaxs va narsa bildirgan so’zlar ot;
- belgi bildirgan so’zlar sifat;
- harakat bildirgan so’zlar fe’l;
- miqdor bildirgan so’zlar son degan atama bilan tanishtirildi va yuqoridagi so’zlar tarmoqqa

kiritildi.

O’ylang ot, sifat, fe’l, sonni bitta so’z bilan nima deb nomlash mumkin?

So’z turkumlari mavzusi bo’yicha klaster tuzishdan mavzuni o’rganmasdan oldin foydalanish o’quvchilarni yangicha fikr yuritishga undaydi. Metodist olimlar aytganidek, klasterni mavzuni o’rganishni boshlash jarayonida tuzish “ bilimlarga yetib borish strategiyasi” ekanini isbotlaydi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar.**

I.O.U.Avlayev, S.N. Jo’rayeva, S.P.Mirzayeva “Ta’lim metodlari” o’quv-uslubiy qo’llanma, “Navro’z” nashriyoti, Toshkent – 2017



## О‘QISH DARSLARINING MAQSAD VA VAZIFALARI, TA’LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI.

**Xoshimova E’zozaxon Xudoberdi qizi**  
Farg’ona viloyati Farg’ona tumani  
62-maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi

**Annotatsiya.** Boshlang’ich sinflarning o’qish darslari o’z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko’ra ta’lim tizimida alohida o’rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta’limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta’limini o’qish ta’limisiz tasavvur qilib bo’lmaydi.

**Kalit so’zlar.** adabiy-estelik tarbiya, E.Vohidov, o’qish texnikasi, Davlat ta’lim standarti (DTS), matn, axloqiy-ta’limiy tarbiya, savodxonlik.

O’quvchi matnni to’g’ri, tez, tushunib o’qish, mazmunini o’zlashtirish bilan ilk bor o’qish darslarida yuzlashadi. O’qish darslari orqali o’quvchilarning Davlat ta’lim standarti (DTS) talablari bo’yicha o’zlashtirishlari ko’zda tutilgan o’quv-biluv ko’nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo’l ochiladi. Aynan o’qish ta’limida insonning, avvalo, o’zligini, qolaversa olamni anglashga bo’lgan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda „O’qish kitobi“ darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o’rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma’naviy qadriyatlar, xalqlar do’stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo’yicha atroficha tushunchalar berishga mo’ljallangan badiiy, axloqiy-ta’limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi. O’qish darslari savod o’rgatish davrida o’quvchilarni bo’g’in, so’z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o’qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o’qish texnikasi egallangandan so’ng o’qish muayyan mavzular bo’yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi. Boshlang’ich sinf „O’qish kitobi“ darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o’quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to’g’ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko’ra, o’qish darslarining yetakchi xususiyati o’quvchilarning savodxonligini ta’minlash bilan birga, o’quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi. Boshlang’ich sinflarning o’qish darslarida o’rganiladigan asarlarning mavzu doirasi ancha keng bo’lib, ular ona tabiat, yil fasllari, xalq og’zaki ijodi, mehnatga muhabbat, asosiy bayram sanalari, milliy istiqloq va ma’naviyat kabi umumiy mavzular doirasida birlashtirilgan. O’qish darslari uchun tanlangan mavzular o’quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo’yicha ham bilim va tarbiya berishni ko’zda tutadi. Bular ichida istiqloq, vatan, ma’naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko’zlangan maqsad o’zlikni anglash, istiqloq, vatan va tabiat bilan bog’liq tuyg’ularni uyg’otishdir. Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzular o’qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo’lib, 2-sinf „O’qish kitobi“dagi „Ona yurtim-oltin beshigim“ bo’limiga kiritilgan „O’zbekistonim“ (H. Imonberdiyev), „Istiqloq“ (J. Jabborov), „O’lkam“ (E. Vohidov), „Yur tog’larga“ (U. Nosir), 3-sinfda „Ona bitta, Vatan yagona“ bo’limidagi „Vatan haqida she’r“ (A. Avloniy), „O’zbekim“ (E. Vohidov), „Vatan mo’tabardir“ (X. Davron), „Bilib qo’yki, seni Vatan kutadi“ (T. Malik), 4-sinfda „O’zbekiston — Vatanim manim“ bo’limidagi „Serquyosh o’lkam“ (Z. Diyor), „Iqbol buyuksan“ (A. Oripov), „Toshkentnoma“ (M. Shayxzoda), „Xarira“ (N. N. orqobil) kabi asarlar misolida atroficha tahlilga tortiladi. Ijtimoiy-tarixiy mazmundagi mavzular Vatanimiz o’tmishi, xalqimiz hayoti, mardonavor kurashi, ulug’ siymolar tomonidan amalga oshirilgan ishlar, tarixiy sanalar to’g’risida muayyan tasavvur beradi. Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa ajdodlarimiz haqidagi matnlar shular jumlasidandir. Bu xildagi asarlar o’quvchilarni faqat o’tmishim iz bilan tanishtirib qolmasdan, Vatan oldidagi farzandlik burchi va mas’uliyatini teran anglashga ham yordam beradi. Ularda Vatanga muhabbat tuyg’usi shu tariqa shakllanadi. Vatanimiz o’tmishi haqida hikoya qilingan asarlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish jarayonida o’quvchilar o’tmish bilan bugungi kuni taqqoslash imkoniga ega bo’ladilar, jamiyat taraqqiyoti xususida qisqacha bo’lsa-da, tushuncha hosil qiladilar. Bu borada ayniqsa milliy istiqloq bilan bog’liq H. Imonberdiyevning „O’zbekistonim“, J. Jabborovning „Istiqloq (2-sinf), A. Rustamovning „Bayroq nima?“, A. Obidjonning „O’ktam avlod“ (3-sinf), S. Barnoyevning „Mangulikka tatigulik kun“, E. Malikovning „Assalom, Neksiya!“ (4-sinf) mavzusidagi asarlari yaqindan yordam beradi. Tabiatga



oid mavzular yordamida o'quvchilar tabiatdagi o'zgarishlar, yil fasllarining almashinuvi, hayvonot olamiga doir bilimlarni egallaydilar. Bunday mavzudagi asarlar o'quvchilarni kuzatuvchanlikka, tabiatni sevishga, unga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Tabiat tasviriga oid matnlar ustida ishlashda tabiat bag'riga sayohat uyushtirilib, bolalar kuzatuvchanlikka o'rgatilsa, vatanparvarlikka oid asarlar tahlili vatanning dongdor kishilari bilan uchrashuvlar yoki mavzuga daxldor kinofilmlar namoyishi vositasida amalga oshirilsa, dars samaradorligi yanada ortadi. U m um an, „O 'qish kitobi” darsliklaridagi barcha m avzular o'quvchilarga ta 'lim -tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini boyitishga, og'zaki va yozma nutqini to 'g 'ri shakllantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham qaratiladi. Amaldagi „O'qish kitobi” darsliklarida materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan. Masalan, 1-sinfda o'rgatiladigan „Ajdodlarimiz — faxrimiz”, „Zumrad bahor“, „Kumush qish “ kabi mavzular 2—4-sinflarda ham davom ettirilgan. Bu esa o'quvchilam ing oldingi bilimlarini to'ldiradi va boyitadi. Uzluksiz ta 'limning boshqa bosqichlaridan farqli o'laroq, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida o'quvchilam ing o'qish malakalarini shakllantirish, asar m atni ustida ishlash ta 'limning didaktik maqsadi hisoblanadi. U turli mavzudagi matnlar ustida ishlash orqali ma'naviy-ahloqiy, adabiy-estelik tarbiya bilan chambarchas bog'lab olib boriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.**

1. O'. Tolipov, M. Usmonbekova. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. — T.: „Fan”, 2006.
2. Q. Abdullayeva va boshq. Savod o 'rgatish metodikasi. - T.: „O'qituvchi11, 1996.
3. www.ziyouz.com



**МАКТАBLARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH TA‘LIM SAMARADORLIGINING ASOSI**

**Yakubova Gulnoza  
Banajanova Shirinjan**

Xorazm viloyati Gurlan tumani  
9-son umumta‘lim maktabning  
boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchilari

**Annotatsiya:** Bu maqolada ta‘limda innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishi, innovatsion jarayonlarning mohiyati – ilg‘or pedagogik mahoratni o‘rganish, fanlarining ilg‘or natijalarini amaliyotga tatbiq qilish muammolari ularni bartaraf qilish yo‘llari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** maktab, ta‘lim, innovatsiya, jarayon, o‘qituvchi, pedagog, pedagogik mahorat, innovatsion muhit, jamiyat, faoliyat, innovatsion texnologiyalar.

Globalashib borayotgan hozirgi dunyoda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi –ta‘lim tizimining holati bilan aniqlanadigan, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi bilan bog‘liq. Davlatning bugungi va istiqboldagi barqaror iqtisodiy o‘shini ta‘minlovchi omillar ham aynan ta‘lim sohasini rivojlantirishga bevosita bog‘liqdir. Shuni unutmasligimiz kerakki kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta‘lim va tarbiya olishga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-ona ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi lozim. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish –ta‘lim tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim.

Yosh avlodni tarbiyalashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash an‘anaviy darslarga qaraganda yuqori darajadagi natijani kafolatlashi bugungi kunda hech kimga sir emas. Bu hayotiy haqiqat, chunki umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining boshlang‘ich ta‘limida ham bunga ehtiyoj sezilmoqda. Chunki innovatsion texnologiyalar asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o‘z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Ayniqsa hozirgi kunda ta‘lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va texnologiyalar) dan keng foydalanib, ta‘limning samaradorligini oshirishga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan -kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo‘llanilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni mustaqil o‘rganib, tahlil qilishiga va shu yuzasidan xulosalar chiqarishiga qaratilgan. O‘qituvchi bu jarayonda o‘quvchi va guruhning shakllanishi, bilim olishi, tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi vazifasini bajaradi.

Ta‘lim –tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri qo‘llanilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa o‘quvchilardan ko‘proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi. Pedagogik texnologiya asosida o‘tkazilgan mashg‘ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolarga o‘z munosabatlarini bildirishlari o‘z fikrlarini erkin bayon etishlari va o‘z nuqtai nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritish bo‘lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi.

Darslarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda: ta‘lim jarayonini demokratlashtirish-o‘quvchilarga o‘z fikrini erkin bayon etish huquqini o‘quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirish, o‘zaro hamjihatlikka asoslangan do‘stona va qulay ijtimoiy psixologik muhit yaratish; ma‘ruza, seminar, an‘anaviy va sinov darslarida turli metod va vositalardan foydalanishni lozim deb hisoblaymiz. Ta‘lim jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanish ta‘limning mazmuni, shakllari va usullari o‘zgarishiga kuchli ta‘sir ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlarning natijalarini quyidagicha ta‘riflash mumkin: ma‘lum fanlar to‘plami bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar olishni nazarda tutuvchi an‘anaviy yondashuv o‘rnini, ta‘limga integratsion yondashuv egallamoqda. Dunyoni bilish an‘anaviy o‘rganish yo‘li bilan emas, balki uning modelini tuzish orqali amalga oshiriladi. Shunchaki bilim va ko‘nikma olish emas, balki bilim va ko‘nikma olish jarayonida o‘quvchining shaxsini shakllantirish ta‘limning maqsadiga aylanadi. O‘rtacha shaxsga



yo‘naltirilgan yondashuv o‘rnini o‘quvchiga nisbatan induvidual psixologik yondashuv egallaydi.

Ta’limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatida pedagogikaning ikki muhim –ilg‘or pedagogik mahoratni o‘rganish umumlashtirish va yoyish muammosi hamda pedagogika va psixologiya fanlarining ilg‘or natijalarini amaliyotga tatbiq etish muammosi yotadi. Bugungi amaliyotda esa bu ikki muammo tarqoq holda o‘rganilmoqda. Shuning uchun innovatsiyaning predmeti, innovatsion jarayonlarning mazmun va mexanizmlari bir tekislikda yotishi, o‘zaro bog‘liq jarayonlarni ifodalashi zarur. Boshqacha qilib aytganda innovatsion jarayonlarning nazariy va amaliy jihatlari dealektik birlikda o‘rganilishi va qurilishi lozim. Bu o‘z o‘rnida, pedagogik yangiliklarni yaratish, idrok qilish hamda ulardan foydalanish jarayonlarini boshqarish qay darajada muhimligini ko‘rsatadi. Bunda gap o‘qituvchining yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi sifatida qatnashishini ifodalashi to‘g‘risida ketmoqda. Bu jarayonlarni boshqarish –maqsadga muvofiq tanlash, uni baholash va o‘z faoliyatida hamkasblari yoki ilm-fan taklif qilayotgan yangi g‘oya, metodikalarni qo‘llash imkonini beradi. Zamonaviy jamiyat, madaniyat hamda ta’limning rivojlanishida innovatsion yo‘nalishlarning pedagogik faoliyatda qo‘llanilish zaruriyati qator holatlar bilan belgilanadi. Innovatsion texnologiyalar, ta’limning faol va interaktiv shakllarining barchasi ta’lim jarayoniga kirishni nazarda tutadi. Innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni innovatsiya mexanizmlarini o‘zlashtirish, hayotiy muammolarni hal qilish usullarini topish, ijodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam bermoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, pedagogik texnologiyalarining rivojlanishi va ularning o‘quv –tarbiya jarayoniga kirib kelishi oqibatida, shuningdek, axborot texnologiyalarning tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonda har bir inson uchun o‘z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish davr talabi ekanligi namoyon bo‘lmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T.2003.
2. Ishmuhammedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari .-T 2005 y.
3. Omonov H.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. 2009 y.





## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI RIVOJLANTIRISH.

**Yaqubova Haytgul Davronovna**  
Xorazm viloyati Shovot tumani  
15-son davlat maktabgacha  
ta'lim tashkiloti direktori

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning nutq madaniyatini o'zlashtirish uchun amalga oshirish mumkin bo'lgan metodlar haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** nutq, o'yinlar, topishmoq, maqollar, didaktik o'yinlar.

To'liq aqliy rivojlanishning eng muhim sharti - bu bolaning nutqini o'z vaqtida to'g'ri bajarishdir.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalar nutqini rivojlantirish o'qituvchilar tomonidan turli xil faoliyat turlari bo'yicha amalga oshiriladi: to'g'ridan-to'g'ri o'quv mashg'ulotlarida, shuningdek mashqlar o'tkaziladi, ularning maqsadi nutqning sog'lom tomonini rivojlantirish va bolalar lug'atini boyitish; Nutqning grammatik tuzilishini va bog'liq nutqni rivojlantirish bo'yicha o'yinlar va mashqlar o'tkaziladi.

O'qituvchilar o'zlarining mavzularini, qismlarini to'g'ri va aniq nomlash, uning xususiyatlarini, xususiyatlarini turli xil faoliyat turlarida (yurish uchun, guruhda, turli xil rejim jarayonida, o'yinda) tavsiflash imkoniyatidan foydalanadilar. Shu bilan birga, o'qituvchilar vazifani aniq ifodalaydilar, savollarni aniq ko'taradilar. Bu so'zlarni tushunish va ishlatish o'rtasidagi munosabatni saqlab turishga imkon beradi, bu o'z navbatida bolalarning o'z fikrlarini aniq va to'liq ifoda etish qobiliyatini yaxshilaydi, og'zaki muloqotning samaradorligini oshiradi.

